O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

NUKUS “TEMURBEKLAR MAKTABI”
HARBIY-AKADEMIK LITSEYI

“UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA HARBIY-AKADEMIK LITSEYLARDA FANLARNI O‘QITISHNING MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI



NUKUS-2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

NUKUS “TEMURBEKLAR MAKTABI” HARBIY AKADEMIK LITSEYI

“**UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA HARBIY-AKADEMIK LITSEYLARDA FANLARNI O‘QITISHNING MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI**”

Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2024-Yil 31-May

Nukus-2024

“**Uchinchi Renessans davrida harbiy-akademik litseylarda fanlarni o‘qitishning muammolari va ularning yechimlari**” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 2024-yil. 461 b

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zahirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4375-sonli qarorida qo‘yilgan vazifalaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyida **“Uchinchi Renessans davrida harbiy-akademik litseylarda fanlarni o‘qitishning muammolari va ularning yechimlari”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plamida magistrantlar, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan izlanuvchi, tadqiqotchi soha mutaxassislari va professor- oqituvchilarning ilmiy ishlari kiritilgan.

Tashkiliy qo‘mita tarkibi:

Utepbergenov M.S.	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi direktori, yuridika fanlari nomzodi, rais
Ibragimov Sh.R	Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi direktorining ma’naviy ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, rais muovini
Djumaniyazov K.A	O'quv bo'limi boshlig'i o'rinbosari

Ishchi guruh a‘zolari:

Kalimbetov J.K	Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), mas’ul muharrir
Mamutov A	Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi matematika fani oliy toifali o‘qituvchisi
Rametullayeva V	Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi biyologiya fani birinchi toifali o‘qituvchisi
Qurbanova A	Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi fizika fani oliy toifali o‘qituvchisi

Mualliflarning nuqtayi nazarlariga putur yetkazmaslik maqsadida, to‘plamga kiritilgan materiallar faqatgina texnik jihatdan tahrir qilindi. Shuning uchun tahrir hay’ati matnlarda uchraydigan ba’zi bir noaniqliklar uchun javobgarlikni o‘zidan soqit qiladi.

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi ilmiy-pedagogik kengashining 2024-yil 29-fevraldagi navbatdagi 8-sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

© Nukus “**Temurbeklar maktabi**” harbiy-akademik litseyi

Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak.

Sh.Mirziyoyev

1-sho’ba:

Жәдидлер үшинши ренесанстың тырнағын салыўшылар

С.А.Сулайманов, К.М.Нажимов
Қарақалпақ мәмлекетлик университети

XIX әсирдиң ақыры XX әсирдиң басларында Түркистанда пайда болған жәдид ҳәрекетиниң тийкарғы мақсети жәмийет раўажланыўы ушын зәрүр болған барлық тараўларда жаңа идеяларды енгизиў еди. Бүгүнги күнде Өзбекстанда еркин пуқаралық жәмийет, ҳуқықый демократиялық мәмлекетти беккемлеўде жадидлердиң гуманистлик ағартыўшылық идеялары- пикирлери, руўхый күш-қуўат дәреги ретинде айрықша итибар қаратылып атыр.

Өз заманының алдыңғы ғайраткерлери болған жадидлер оғада қурамалы ҳәм қыйын шараятта билим ҳәм ағартыўшылықты тарқатыў, тәлим-тәрбия тараўын түпкиликли реформалаў арқалы миллий раўажланыўға ерисиў идеясы менен ортаға шықты. Ҳүрметли Президентимиз айрықша атап өткениндей тарийхта еки уллы Ренессансқа тийкар болған регионымызда үшинши Ренессансты жадид бабаларымыз әмелге асырыўы мүмкин еди. Тилекке қарсы, езиўши дүзим олардың ийгиликли идеялары менен әмелий ҳәрекетлерин толық жүзеге шығарыўға имканият бермеди.

XVII-XIX әсирлерде улыўма миллий мәплер орнында тар ҳәм шекленген, жеке мәплердиң үстем қойылыўы жәмийет турмысында руўхый әдеп-икрамлық қәдириятларды беккемлеўге жеткиликли дәрежеде итибар берилмегенлиги Өзбек мәмлекетиниң кризиске ушыраўына ғәрезсизлигимиздиң қолдан берилиўине, Туркстанда тоталитар дүзиминиң орнатылыўына алып келди. Соған қарамастан терең тарийхый тамырларға ийе болған миллий идеялар жоқ болып кетпеди. Керисинше тоталитар дәўирде миллий мәлекетшиликти тиклеў миллет раўажланыўы ҳәм келешеги ушын гүрес байрағы сыпатында жәнеде алға сүрилди.

Бул умытылыўлар XIX әсирде ағартыўшылық идеялары менен шыққан Ахмед Даныштың көз қарасларында XX әсир басында жүзеге келген жәдидшилик ҳәрекетиниң ўәкиллери Беҳбудий, Фитрат, Чулпан, Мунаввар

Қари, Абдулла Авлонийлер мийнетлери ҳәм хызметлеринде жәнеде күшейди. Жадидлер Түркистандағы халықларды бирлестириў ҳәм пүткил үлкениң миллий ғәрезсизлиги ушын гүрес идеясын алға сүрди. XIX әсирдиң 60-80 жылларына келгенде Орайлық Азия ямаса Түркстан халықлары Россия империясы тәрепинен жаўлап алынды. Өзбекстан халқы өзиниң соңғы 130 жылдан аслам өмирин Россия империясының қол астында өткерди. Усы дәўирде Өзбекстан халықларының ҳуқуқлары, миллий үрип әдети дәстүрлери аяқ асты қылынды. Өзбекстан халықының миллий идеясы XIX әсирдиң ақыры XX әсирдиң басына пайда болды. Түркистан аймағында көплеген зиялылар өсип жетилисти. Бул ағартыўшы зиялылар тарийхқа жадидлер аты менен кирди.

Жадидлер ҳәрекетиниң тийкарғы принциплери бул «Азатлық», «Теңлик», «Әдалат» болған. Жадидлердиң тийкарғы идеялары бул Түркстанды ғәрезсиз жағдайда көриў ямаса Түркистан автономиясын дүзиў болған ҳәм бул бойынша көплеген илажларды иске асырыўға ҳәрекет еткениниң тарийхый мағлыўматлардан билиўге болады.

Жәдид ҳәрекетиниң раўжланыўы олардың реформалар өткериў арқалы билимлендириўди ҳәм басқада тараўларды жақсылаўға болған урыныўлары бизге тарийхый мағлыўматлардан мәлим. Жадидлер ҳәрекетиниң барлық дәўирлери советлер ҳукимети тәрепинен үлкен қарсылыққа ушырап отырғаны.Түркистандағы жәдидлер ҳәрекетиниң сегиз басқышқа бөлиниўи тарийхый мағлыўматларда берилип өтилген. Жәдидлер тәрепинен Түркстан үлкесинде сиясий партиялардың дүзилиўи ҳәм бул сиясий партиялардың тийкарғы ўазыйпалары Түркистан ғәрезсизлигине ерисиў болған.

Түркстан үлкесин ғәрезсиз Мухтарият етиўге ҳәрекет еткен ағартыўшы мәмлекетлик искерлер Махмудхожа Беҳбудий, Мунаввар Қари, Абдулла Авлоний, Абдулла Қадирий, Абдулҳамид Чулпан, Убайдулла Хожаев, Файзулла Хожаев, Абдурауф Фитрат ҳызметлери халықлар ядында мәңги сақланып калды.

«Бәршемизге белгили «тилде, пикирде, жумыста бирлик“ деген ийгиликли идея менен майданға шыққан жәдид ата бабаларымыз халықларымызды наданлық ҳәм қалақлықтан алып шығыў, оларды ғәплет уйығынан қутқарыўдың тийкарғы жолы — илим ҳәм билимде, дүньялық раўажланыўды ийелеўде, деп билди», — бул ҳаққында Президентимиз Республика Руўхыйлық ҳәм ағартыўшылық Кеңеси жыйналысында айрықша тоқталып өтти.

Жәдидлер ким болғанлығын түсинип алыў ушын сол дәўир тарийхын жүдә жақсы билиў зәрүр. Жәдидшилик XIX әсир ақыры – XX әсир басында пайда болды. Егер биз жәдидшилик ҳәрекети пайда болыўының тарийхый

себеплерин түсиниўди қәлесек, тарийхқа бираз тереңирек кирип барыўымыз тийис, XIX әсирдеги ағартыўшылықтың күшейиўи, қаншелли ғайры тәбиййий көринбесин, Орта Азия ханлықларының XVI әсирде Уллы Жипек жолының бираз ҳәлсиреўи менен байланыслы тәризде жүзеге келген қалақлығының объектив себеплерин аңлап алыўымыз керек болады. Сол ўақытта теңиз жоллары ашылып, Батыста, Европада технологиялар жедел раўажлана баслады. Субъектив себеплер болса халық хожалығы ҳәм улыўмалық раўажланыўға үлкен зыян жеткизген ишки урыслар болып табылады.

Түркистанды Россия империясы басып алғаннан кейин үлке метрополияны тәбийғый байлықлары, соның ишинде пахта ҳәм жипек пенен бийғәрез тәмийнлеп турған шийкизат базасына айланды. Кейинала басқа тәбийғый ресурсларды да қазып алыў ҳәм орайға жибериў бағдарламасы ислеп шығылды, тек ғана усы мақсетлерге ерисиўде хызмет етиўши тараўлар ғана раўажландырылды. Ағартыўшлық тараўында мәдений дағдарыс жүз берди, билимлендириўге кеўил бөлинбеди. Сонлықтанда жәдидлер – жаслар, бул тийкарынан жаслар ҳәрекети еди. Тарийхтан мәлим белгили жадид ҳәм жаслардың сүйикли жазыўшысы Чулпан 1910 жылда 13 жаста, Беҳбудийдиң жасы болса 30 асқан еди. Бул жаслар интеллектуал жақтан раўажланған ҳәм Түркистанның жәҳән раўажланыўынан арқада қалып атырғанлығының себеплерин түсинетуғын еди.

Бул ҳәрекетлер нәтийжесинде Түркстанда жаңа ояныў дәўири басланды. Жадидлердиң социаллық, экономикалық ҳәм мәдений турмысын жаңалаў, жәмийетте реформалар өткизиўге қаратылған бағдарламасы тийкарынан төмендеги бағдарлардан ибарат еди:

– жаңа дүньялық халық ағартыўшылық тармағы ҳәм жоқары билимди қәлиплестириў;

– миллий баспа сөзди жаратыў – газета ҳәм журналларды басып шығарыў;

– түрли ағартыўшылық ҳәм қайырқомлық жәмийетлерин дүзиў;

– миллий театр өнерин раўажландырыў;

– талантлы жасларды шет мәмлекетлерге оқыўға жибериў.

Ағартыўшылардың миллет келешеги жолындағы бул ҳәрекетлери патша Россиясы ҳүкимети тәрепинен қатты қысымға алынды.

Хорезм территориясында жәдид идеялары XIX әсирдиң екинши ярымынан баслап кең тарқала баслады. Хийўа ханы Муҳаммед Раҳим - Феруз лақабы менен қосықлар жазған - билимли инсан болған. Оның шарапаты менен дәслепки баспахана Россиядан сатып алынып, Хийўаға

алып келинген, биринши жәдидлар мектеп, ҳәтте қыз балалар ушын жәдидлер мектеби ашылған. Хийўа ханлығы бас ўәзири Исламхожаның бул ҳәрекетте қәўендер сыпатында әмелге асырған жумысларын айрықша айтып өтиў керек, себеби ол “усыл ул-жадид” мектеплерин раўажландырыўға ҳәр тәреплеме жәрдем берген ҳәм бундай мектеплер әҳмийетин түсинген.

Сол себепли Орта Азияның мусылман мәдений дәстүрин модернизациялаўды жақлап шыға баслады. Олар реформаны ислам тәлийматын аңлап жетиўден баслады. Сол себеп Қуран ҳәм ҳәдислерден ҳәмме зат билимге таяныўын тастыйықлайтуғын орынларды излеўге түсти. Бизге мәлим болғанындай, Қураннның ¼ бөлеги тарийхқа арналған, пүткил тарийх болса өткен заманның интеллектуаллық тәжирийбесин түсинбей турып, жәҳән интеллектуаллық тәжирийбесин аңлап алмай турып, гейпара затқа ерисип болмаўынан дәрек береди.

Бул орында сабақлықлар жариялаўда Маҳмудхожа Беҳбудий ҳәм Мунавварқарының хызметлерин айрықша тән алыў керек. Дәслеп сабақлықлар болмаған. Олар Россиядан алып келинген ҳәм татар мектеплерине мөлшерленген. Исмайыл Гаспринский бул мәселеде үлкен жәрдем көрсеткен. Жадидлар кейининен өзлери сабақлықларды жазып баспадан шығарыўға өткен. Мунаввақары ҳәм Беҳбудий жүдә көп сабақлықлар жазған. Мысалы, “Китабы аввал” ямаса математика, әдебият, география бойынша сабақлықларды алайық, әлбетте, олар қайсы дәрежеде Россия сабақлықларынан өзлестирилген болыўы мүмкин, лекин соған қарамастан, бул күтә үлкен алға илгерилеў еди. Жәдид мектеплери классларында глобус турған. Бул ески мектеплер менен салыстырғанда, пүткиллей жаңа зат еди ҳәм әлбетте, әжайып нәтийжелер берген.

Жадидлердиң көпшилиги орыс тилин жақсы билген. Тил концепциясы Беҳбудийдиң “Бир тил емес, төрт тил керек” деп аталған мақаласында ашып берилген, яғный оған қарағанда, Россия империясында жасап атырғанымыз себепли, әсиресе, орыс тилин билиўимиз зәрүр. Биз ис ҳәрекетимиз тактикасын ислеп шығыў ушын қандай басқарылып атырғанымызды түсинип алыўымыз шәрт. Жадид мектеплеринде орыс тили де оқытылған. Олар Европа әдебиятын да үйренген.

Ҳәтте буған Фитраттың “Шаңарақ ҳәм шаңарақты басқарыў тәртиби” қолланбасын да мысал келтириўимиз мүмкин. Әлбетте, қолланба мусылманлар турмысы ҳәм мусылман шаңарағы нормаларын билиўге тийкарланған.

Қарақалпақстан аймағында да жәдид идеялары кирип келди, үлкемиздиң зыялы адамлары бул ҳәрекетти қоллап қуўатлады. Ағартыўшылар еңалды менен билимлендириў системасын реформа етиў идеясы менен шығып,

жаңа усыл мектеплерин шөлкемлестирди. Жаңа усыл мектеплеринде дүньялық илимлер менен бирге илимий билимлерде оқытылған..

Шымбай мектебиниң белгили шайыры ҳәм қосықшы-қысаханы Қазы Мәўлик Бекмухаммед улы болып есапланады. Ол 1885-жылы Шымбай қаласында Бекмухаммед ахун шаңарағында дүньяға келген. Ол биринши рет Шымбай қаласындағы Әлий ахун мешит-медресесинде оқып, кейиншели Қарақум медресесинде ҳәм Бухара медреселеринде оқыўын даўам еттиреди. Қазы Мәўлик араб, парсы, тиллерин билетуғын саўатлы адам болған. 1918-1924 жыллары қарақалпақ халқының көрнекли ўәкиллери болған Қ.Әўезов ҳәм С.Мәжитовлар менен биргеликте араб графикасындағы жаңа алипбени дүзиўге қатнасқан. Соның менен бирге китап алып келиў ушын Ташкенттеги Көкалдаш медресесине қатнаған. Алып келген китапларды қайта көшириўшилерди шөлкемлестирип, аўдарма ислеп ҳәм халық арасына тарқатып отырған.

Жәдид бабаларымыздың илимий мийрасын үйрениў ҳәм оны кең үгит нәсиятлаў бүгинги күнимиз ушын жүдә әҳмийетли, сонлықтан да Ағартыўшы жәдид бабаларымыздың идеяларын үйрениў ҳәм раўажландырыў бойынша Президент қарары қабыл етилиўи белгиленди.

Әлбетте жәдидлердиң идеялары бүгинги күни мәмлекетимизде еркин пуқаралық жәмийети, ҳуқықый демократиялық мәмлекет қурыўда айрықша әҳмийетке ийе болып, жадид бабаларымыздың гуманистлик көзқарасларына сүйенемиз, олардың мийрасынан руўхый күш-қуўат аламыз.

UCHINCHI RENESSANSNI BARPO QILISHDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNING O'RNI

Karimov Azizbek Avazboy o‘g‘li
IIV Namangan akademik litseyi Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ilmiy maqolada xalqimizning qadimiy qadriyatlaridan bo'lgan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash uchun so'nggi yillarda berilayotgan e'tibor, amalga oshirilayotgan ishlar hamda xalqaro darajada yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbus haqida.

Tayanch so'zlar: Shavkat Mirziyoyev, millatlararo totuvlik, konfessiya, diniy bag'rikenglik, Do'stlik bog'i, "Harakatlar strategiyasi", Xalqlar do'stligi kuni, BMT

Abstract: The scientific article is about the attention given in recent years to the strengthening of inter-ethnic harmony and religious tolerance, which are the

ancient values of our people, the work being done and the initiative put forward by our country's president at the international level.

Key words: Shavkat Mirziyoyev, inter-ethnic harmony, confession, religious tolerance, Friendship Park, "Strategy of Actions", People's Friendship Day, UN

Абстрактный:В научной статье речь идет о внимании, уделяемом в последние годы укреплению межнационального согласия и религиозной толерантности, которые являются древними ценностями нашего народа, проводимой работе и инициативе, выдвинутой Президентом нашей страны на международном форуме.

Ключевые слова:Шавкат Мирзиёев, межнациональное согласие, конфессия, религиозная толерантность, Парк Дружбы, Стратегия действий, День дружбы народов, ООН

Bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan.

Sh. Mirziyoyev

Yurtimizda so’nggi yillarda juda ko’plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar mamlakatimizning har tomonlama yuksalishi va rivojlanishi uchun juda ham ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy, diniy va boshqa ko’plab yo’nalishlarda islohot loyihalari yurtimiz hayotiga tatbiq etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tantanali tabrik nutqida taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo‘lishi lozimligini ta’kidladilar. Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini qo’yish hamda barpo etishda yurtimiz hayotining barcha sohalarida o’zgarishlar qilinmoqda. O’z navbatida yuksak qadriyatlarimizdan bo’lgan millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni mustahkamlash uchun o’ziga xos alohida e’tibor qaratilmoqda. Millatlararo totuvlik – muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishi hisoblanadi. O’zbek xalqi qadimiy boy tarixga ega ekanligi barchamizga ma’lum. Uzoq yillik tariximiz davomida mamlakatimiz hududida turli xil millat va elat vakillari yashagan hamda bugungi kunda ham o’zaro hamjihatlikda istiqomat qilib kelmoqda. Diniy bag'rikenglik deb xilma-xil din va mazhab egalarining bir-birining e'tiqodini o'zaro hurmat qilib, tushunib, yagona zamin, yagona vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashiga aytiladi. Vatanimiz hududida ko’p asrlardan buyon ko’plab din vakillari birgalikda yashab kelmoqda. Tariximizning eng murakkab, og’ir davrlarida ham ular o`rtasida diniy asosda mojarolar bo`lmagani xalqimizning dinlararo bag’rikenglik g’oyasiga amal qilib yashab kelganidan

dalolat beradi. Diniy bag‘rikenglik azal-azaldan o‘zbek xalqi mentalitetining ajralmas qismi bo‘lib keladi. Tarixning murakkab davrlarida yurtimiz musulmonlari provaslav xristianlari hamda boshqa din va mazhab vakillariga mehr-shafqat va xayr-saxovat ko‘rsatib, beg‘araz yordam va ko‘mak berganlar[1]. O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e’tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining ahamiyati katta[2].

Bugungi kunda dunyoda 200 dan ortiq davlatlar mavjud. Bu davlatlarda ikki mingdan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Dunyo davlatlari orasida monoetnik va polietnik, ya’ni bir millatli hamda ko’p millatli davlatlar mavjud bo’lib, yurtimiz O’zbekiston polietnik davlatlar qatoriga kiradi. Statistikaga e’tibor qaratadigan bo’lsak mamlakatimizda 1897-yilda 70 ta millat vakili, 1927-yilda 90 ta millat vakili, 1959-yilda 113 ta millat vakili yashagan bo’lsa, hozirgi kunda 136 ta millat vakili istiqomat qilmoqda. Bundan tashqari bugungi kunda yurtimizda 140 dan ortiq milliy madaniy markaz, 16 ta diniy konfessiyaga tegishli 2300 ga yaqin diniy tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo‘lmaydi[3]. Mamlakatimiz rahbari Agar O’zbekistonda faoliyat ko’rsatayotgan har bir milliy madaniy markaz faollari o’zlarining tarixiy vatanlari bilan madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlarni yanada faol rivojlantiradigan bo’lsa, o’ylaymanki, maqsadga muvofiq bo’ladi deb ta’kidlagan edilar[4]. Ona yurtimizda har bir din vakillarini hurmat qilib ularga yetarli darajada shart-sharoitlar yaratilmoqda va erkinlik berilmoqda. Mamlakatimizdagi turli xil millat va elatlarning do’stligini yanada mustahkamlash uchun alohida e’tibor berilyapti. Yurtboshimizning taklif hamda tashabbuslari bilan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi o’zining ko’plab tadbirlarini o’tkazib kelayotgan bog’ni “Do’stlik bog’i” deb nomlandi. Yurtimizdagi turli millat va elat hamda din vakillarining tinch-totuv va inoqlikda hayot kechirishi yurtboshimiz hamda hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi desak mubolag’a bo’lmaydi. Hattoki

[1] Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – T.: O’zbekiston, 2021. – B.284.
[2] Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – T.: O’zbekiston, 2021. – B.249.
[3] Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – T.: O’zbekiston, 2021. – B.263.
[4] Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz.- T.,2017.- B. 300.

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga dunyodagi yetakchi davlat hamda tashkilot vakillari ham yuksak baho berishmoqda. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolari hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan[5]. Ma’naviy tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ularning natijalari amaliyotga samarali tatbiq qilinishini ta'minlash, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirishni yangi bosqichga ko‘tarish[6].

Yurtimizdagi barcha fuqarolarning tinch-totuv va farovon hayot kechirishlari uchun ularning ijtimoiy-iqtisodiy,siyosiy,diniy va boshqa sohalardagi huquq hamda majburiyatlari O’zbekiston Respublikasining bosh qomusi bo’lmish Konstitutsiyamizda ham belgilab qo’yilgan. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida “ Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo’l qo’yilmaydi” deb ta’kidlab o’tilgan. Bundan tashqari bosh qomusimizning 18-moddasida “O’zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo’lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar qonun oldida tengdirlar” deb yozib qo’yilgan.Yuqoridagi moddalardan ko’rinib turibdiki mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikka mustaqillikning dastlabki yillaridan alohida e’tibor qaratilgan.

O’zbekiston Respublikasida Shavkat Mirziyoyev prezidentlikka saylanganidan so’ng esa millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikka e’tibor yanada kuchaydi. Yurtboshimiz o’z ma’ruzalarida “ Aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularning qonuniy talablari, so’rov va takliflarini amalga oshirish aniq choralar ko’rishni men o’zim uchun eng muhim va ustuvor vazifa deb bilaman”[7] deb ta’kidlagan edilar. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha “Harakatlar strategiyasi” loyihasi qabul qilingan edi. Mazkur “Harakatlar strategiyasi” islohotlar loyihasining 5-bandi “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o’ylangan, o’zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” deb nomlangan edi.“Harakatlar strategiyasi”dan ko’rinib turibdiki, respublikamizni rivojlantirishning 5ta ustuvor yo’nalishlaridan birida millatlararo totuvlik va diniy

[5] Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – T.: O’zbekiston, 2021. – B.279.

[6]Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – T.: O’zbekiston, 2021. – B.259.

[7] Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., 2016.-B. 17.

bag’rikenglikka urg’u berilmoqda.Bu ham albatta, xalqimizning qadriyatlarini mustahkamlash, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolarimiz murojaatlariga munosib tarzda e’tibor qaratishdir. Bundan tashqari muhtaram yurtboshimiz tomonidan 2019-yil 15-noyabr kuni “Millatlararo munosabatlar sohasida O’zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” nomli 5876-sonli Prezident Farmonining qabul qilinishi ham ushbu sohaga berilayotgan e’tiborning yana bir namunasi hisoblanadi.Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 30-iyul mamlakatimizda “Xalqlar do’stligi kuni” sifatida nishonlana boshlandi. Bu ham albatta vatanimiz hududida istiqomat qilayotgan ko’plab millat va elatlarni yanada yaqinlashtirish hamda ular o’rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash maqsad qilindi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur[8].

Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning bugungi zamonga mosligini xalqaro davlatlar va tashkilotlar ham tan olmoqda. Masalan, 2016-yil 29-oktyabr kuni respublikamizda faoliyat olib borayotgan diniy konfessiyalar rahbarlari bilan uchrashuvda AQSh davlat kotibi Tomas Shennon hukumatimizning diniy sohada olib borayotgan siyosatiga yuqori baho bergan. Bundan tashqari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo’yicha Bosh komissari Zayd al-Husaynning 2017-yil 11-may kuni yurtimizga tashrif buyurgan vaqtida “ Bugungi dinlararo va millatlararo notinchlik bo’lib turgan tahlikali kunlarda O’zbekistondagi mavjud dinlararo va millatlararo totuvlikni turli davlatlarga o’rnak bo’lishga loyiq” degan so’zlari ham alohida e’tiborga loyiqdir. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Milliy ozchilik bo’yicha Oliy komissari Lamberto Zanier yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo’yicha kengashining Din va e’tiqod bo’yicha maxsus ma’ruzachisi Ahmad Shahid so’nggi yillardagi yurtimizdagi amalga oshirilgan ishlarga yuksak baho bergan.

Muhtaram yurtboshimiz nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikdagi o’zgarishlarga o’zlarining munosib hissalarini qo’shmoqdalar. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag’rikenglik va o’zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqlarini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo’l qo’ymaslikka ko’maklashishga qaratilgan “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” debnomlangan maxsus rezolyutsiyani[9] taklif

[8] Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – T.: O’zbekiston, 2021. – B.263.
[9] rezolyutsiya (lot. resolutio — qaror) — 1) yig‘ilish, konferensiya va b. da qabul qilinadigan qaror

etishi hamda ushbu muhim rezolyutsiyaning 2018-yil 12-dekabrdagi 73-sessiyada qabul qilinishi nafaqat bizning xalqimiz, balki butun dunyo xalqlari uchun o'ziga xos yangilik bo'ldi. 2020-yil 13-oktyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bo'lib o'tgan saylovlarida O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMT ning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoligiga uch yil muddatga 2021-2023-yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun BMT ga a'zo 193 ta davlatdan 169 ta davlat ovoz berdi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat'i nazar inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, shu jumladan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e'tirofi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu sohalardagi amalga oshirilgan o'ziga xos tashabbuslar mustaqil davlatimizni naqadar millatparvar va tinchliksevar xalq ekanini isbotlamoqda hamda dunyo hamjamiyatida o'zimizning munosib o'rnimiz borligini bildirib qo'ymoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak so'nggi yillar yurtimiz hayotidagi barcha sohalarda o'zgarishlar bo'lmoqda. Uchinchi Renessansni barpo qilish qilish uchun jamiyatimiz hayotining barcha yo'nalishlarida islohotlar amalga oshirilmoqda hamda bunda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda so'nggi 4 yilda millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Bu qabul qilingan qonun hujjatlari va qarorlar mamlakatimiz fuqarolarining xohish-iroda hamda manfaatlarini o'zida mujassam etgan muhim o'zgarishlar bo'ldi. Muhtaram urtboshimizning so'zlari bilan aytadigan bo'lsak:"O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir". Bir so'z bilan aytganda mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T .: "O'zbekiston", 2023.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T .: "O'zbekiston", 2016. – 59 b.
3. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T .: "O'zbekiston", 2017.-107 b.

4. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T .: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.

Internet saytlari:

1. https://lex.uz
2. https://ziyonet.uz
3. https://old.muslim.uz
4. https://religions.uz

QAYTA TUG'ILGAN "ALISHER NAVOIY" ROMANI

Kenjayev Ziyadulla Ortiqovich

Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ortiqov Shodiyor Akmal o'g'li

Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi o'quvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanining kompozitsiyasi, ba'zi tarixiy voqealarning tarixiy manbalarga mos kelishi va ayrim badiiy to'qimalarning asardagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Isajon Sulton, Alisher Navoiy, tarixiy voqea, tarixiy obraz, badiiy to'qima, Husayn Boyqaro

Аннотация: в данной статье анализируется композиция романа Исаджона Султана «Алишер Навои», сочетаемость некоторых исторических событий с историческими источниками, роль некоторых художественных фактур в произведении.

Ключевые слова: Исаджон Султан, Алишер Навои, историческое событие, исторический образ, художественная фактура, Хусейн Бойгаро.

Annotation: this article analyzes the composition of Isajon Sultan's novel "Alisher Navoi", the compatibility of some historical events with historical sources, and the role of some artistic textures in the work.

Key words: Isajon Sultan, Alisher Navoi, historical event, historical image, artistic fabric, Husayn Boygaro

Ani nazm etki tarhi toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay.
Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendan ne loyiq?

("Farhod va Shirin" muqaddimasidan)

O'zbek adabiyoti tarixida Mirkarim Osimning "Astrobod", "Zulmat ichra nur" qissalari, Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" dramasi, Oybekning "Navoiy" hamda Omon Muxtorning "Ishq ahli" kabi kamsonli romanlarda Alisher Navoiy obrazi ma'lum darajada jonlantirilgan. Ushbu asarlarning

aksariyati yaratilgan davr siyosati, tuzum, adabiyotga – so‘z san’atiga bo‘lgan adabiy qarashlarni e’tiborga olsak, “shams ul millat” Navoiyning tom ma’nodagi qiyofasini ko‘ra olish mushkul deyish xato bo‘lmasa kerak, nazarimda. Shunday ekan, XXI asrda estetik hodisa sifatida paydo bo‘lgan Yangi o‘zbek adabiyotida shoirlarning sultoni Navoiy obrazini yangidan yaratishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Shunday mas’uliyatli vazifa bugun kitobxonlar orasida “Oydinbuloq” va “Suvdagi kosa” hikoyalari, “Munojot” qissasi, “Boqiy darbadar”, “Ozod” romanlari bilan tanilgan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton tomonidan bajarildi.

Yozuvchi ushbu asarga qo‘l urishdan oldin Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida keltirilgan quyidagi baytlardan ilhom olgan bo‘lsa ajab emas.

Ani nazm etki tarhi toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.
Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendan ne loyiq?

Yozuvchining “Alisher Navoiy” romani tuzilishi, uslubi, obraz yaratishga yondashuvi, ularga yuklatilgan vazifalari o‘zgachaligi bilan ajralib turadi.

Dastlab romanning tuzilishi – kompozitsiyasi o‘quvchining e’tiborini tortadi. Asarning kompozitsiyasi Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” lirik to‘plamining ichki tuzilishiga mos ravishda to‘rt qismdan iborat bo‘lib, har bir qism o‘ziga xos muqaddimalar (1-qism “Muqadima”, 2-qism “Hamd”, 3-qism “Hamd”, 4-qism “Hayrat”) bilan boshlanadi.

Romanning “G‘aroyib us-sig‘ar” deb nomlangan birinchi qismi Alisher Navoiyning 4-5 yoshligidagi voqealar bilan boshlanadi. Ushbu qismda Shohruh Mirzo davridagi obod Hiriydagi go‘zal tantanalar, sayllar, “Mantiq ut tayr” bilan tanishuv, maktabdagi dastlabki saboqlar, Iroq safari, Sharafiddin Ali Yazdiy, mavlono Lutfiy, Pahlavon Muhammad, Kamol Turbatiy kabi o‘z davrining komillari bilan uchrashuvlar, Mashhad ta’limi va Samarqandga yo‘l olish voqealari turli tarixiy manbalardagi faktlar asosida, ba’zan go‘zal to‘qimalar asosida badiiy tasvirlangan.

“Navodir ush-shabob” – romanning ikkinchi qismi. Yigitlik yillari, og‘ir va mashaqqat bilan boshlangan Samarqanddagi hayot, ta’limni tugatib siyosatga qadam qo‘yish voqealari, ota-onasining vafoti haqidagi xabar va ruhiy iztiroblar juda ham ta’sirli aks ettirilgan.

Alisher Navoiyning o‘rta yoshda ko‘rgan-kechirganlari, Navoiyni kuchli davlat arbobi, siyosatchi sifatida gavdalantiruvchi boblar, saltanat obodligi yo‘lida olib borgan ishlari, saroydagi fitna-fasod, xalq hayotini yaxshilash borasidagi sa’y-harakatlari romanning uchinchi qismi – “Badoye’ ul-vasat”da tasvirlanadi.

“Favoid ul-kibar”. To‘rtinchi qism nisbatan katta o‘rinni egallaydi. Bu tabiiy hamdir. Zero, Navoiyning ijodi har jihatdan pishib yetilgani, aynan, bashariyatning adabiy zavqi, o‘zbek adabiyoti va, umuman, dunyo adabiyoti ma’nolar xazinasiga taqdim etgan durdona asarlari umrining aynan o‘sha yillarida yozilgani tarixiy haqiqatdir. [1.]

“Xamsa” quvonchi, Navoiy merosining gultoji – “Xazoyin ul-maoniy”, “Lison ut-tayr” hayratlari, “Mahbub ul-qulub” hikmatlari, Astrobodga hokimlik, barcha o‘quvchini larzaga soluvchi Mo‘min Mirzoning qatl etilishi, Sulton Husayn va farzandlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni murosaga keltirish voqealari orqali yozuvchi Alisher Navoiyning tengi yo‘q ijodkor, vatanparvar, xalqparvar siyosatchi, sadoqatli do‘st siymosini yaratadi.

Tarixiy asar yaratish jarayonida har bir ijodkor tarixiy manbalarni chuqur o‘rganishi tabiiy holdir. Isajon Sulton Navoiyning “Vaqfiya”, “Munshaot”, “Majolis un-nafois”, “Xamsa”, “Munojot”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” kabi asarlarida aks etgan o‘zining shaxsiy hayoti, ijtimoiy faoliyati va ba’zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlardan ijodiy foydalanganini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, Mirxondning “Ravzat us-safo” (“Soflik bog‘i”), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirlar tazkirasi”), Husayn Boyqaroning “Risola”, G‘iyosiddin “Makorim ul-axloq”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’” (“Go‘zal voqealar”), Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlaridagi tarixiy ma’lumotlarga murojaat etgan.

Ayniqsa, Alisher Navoiy hayot yo‘li haqidagi ishonchli tarixiy manba hisoblanmish G‘iyosiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida berilgan tarixiy faktlarga salmoqli o‘rin ajratib, badiiy qayta ishlaganiga, voqealarni qayta jonlantirganiga guvoh bo‘lish mumkin. Xususan, Husayn Boyqaro va Mirzo Yodgor o‘rtasidagi ziddiyatli voqealar romandagi “Havzi Mohiyonda iftor”, “Urush mashvarati”, Qo‘shin”, Hiriy isyoni, “Sabzavor maslahati” deb nomlangan boblarida batafsil tasvirlangan. Jangga tayyorgarlik, qo‘shin ahvoli, harbiy asbob anjomlar, qo‘shin tarkibi va boshqa masalalarga ijodiy yondashadi, dialoglarda esa aynan tarixiy manbada keltirilgan so‘zlarni o‘zgartirishdan qochadi.

“…Shunda “Hazrati Sultonning yaqin kishisi” degan maqom va darajaga ega bo‘lgan ul oliy Hazrat darhol shunday arz qildi: “Hozir munajjim chaqirishdan hamda [hozirgi] vaqtning [dushmanga qarshi hujum boshlayotgan qo‘shinlarimiz uchun] omadli yoki omadsiz ekanligini tekshirib o‘tirishdan hech qanday foyda yo‘q. Chunki [hozirgi] vaqt [qo‘shinlarimizning dushmanga qarshi hujum boshlashlari uchun] munosib bo‘ladimi yoki munosib bo‘lmaydimi, [bundan qat’i

nazar,] ushbu ishdagi har qanday imillash yoki to‘xtalish [qo‘shinlarimizning g‘alabaga erishishlariga] to‘sqinlik qiladi. Shu sababli ham [dushmanga qarshi harakat qilishda] shoshilish oldimizda turgan zarur masalalardan hisoblanadi…” [5.25-26]

“… Ya’ni munajjim chaqirishdan va vaqtning dushmanga qarshi hujum uchun omadli yoki omadsiz ekanligini tekshirib o‘tirishdan hech qanday naf yo‘q, - dedi Alisher Navoiy. – Chunki hozirgi vaqt qo‘shinlarimizning dushmanha qarshi hujum boshlashi uchun munosib bo‘ladimi – yo‘qmi, bundan qat’i nazar, ushbu ishdagi har qanday imillash yoki to‘xtalish qo‘shimizning g‘alabaga erishishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli ham dushmanga qarshi harakat qilishda shoshilish lozim”. [3. 185]

Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida tarixiy manbalardan tashqari, xalq og‘zaki ijodida Alisher Navoiy haqida uchraydigan rivoyatlardan va badiiy to‘qima syujetlardan unumli foydalanganini ko‘ramiz. Xususan romandagi yulduz uchishi (“Dumli yulduz “bobi), tush tasviri (“Qazo-yu qadar” bobi), tog‘ni teshib suv chiqarmoqchi bo‘layotgan Xisrav bilan bog‘liq voqealarni (“Kelajak bilan uchrashuv” bobi) misol qilib olishimiz mumkin.

Romanning syujet chizig‘ida ramziy ma’no tashuvchi samoviy dumli yulduz tafsili, uning harakatiga Hazrat hayoti davomida bir necha bor guvoh bo‘lishidan adib hikmat izlaydi. [1.] Darhaqiqat, romanda dumli yulduz ramziy obrazi bilan bog‘liq voqea uch marta berilgan. Har uch holatda ham Alisher Navoiy hayotida ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi. Bu orqali yozuvchi o‘quvchini go‘yo keyingi voqealarga tayyorlaydi.

Lutfiyning e’tirofi, Abulqosim Bobur saroyida xizmat qilishi, Kamol Turbatiy, Pahlavon Muhammad, Samarqand hokimi Ahmad Hojibek bilan uchrashuv, Husayn Boyqaroning Hirot taxtiga kelishi, ona vatanga qaytish, saroyda turli lavozim va unvonlarga sazovor bo‘lishi, ijodda kamolotga yetishi: “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Lison ut-tayr” singari asarlarining paydo bo‘lishi aynan samoda dumli yulduz ko‘rinishi voqealaridan keyin Navoiy hayotida yuz bergan ijobiy o‘zgarishlar hisoblanadi.

Bu to‘qima syujet orqali muallif hattoki koinotdagi yulduzlar ham Alisher Navoiyning kelajakda buyuk shaxs bo‘lishini istayotgandek, taqdiri azal ham shuni xohlayotganiga ishontiradi.

Dumli yulduz voqeasi, mo‘tadil ob-havo tasviri bilan Navoiy hayotida ijobiy o‘zgarishlar yuz berishiga ishontirsa, tush tasviri, sovuq, rutubatli ob-havo vositasida Navoiy hayotidagi noaniq, mavhum noxush voqealarga ishora qiladi.

“Shu holida u g‘alati bir tush ko‘rdi. Bir chamanzor emish. U chamanzorda ikki kabutar “g‘u-g‘u”lashib, qanotlarini tapirlatib, goh ko‘kka parvoz qilar, goh qo‘nar emishlar. Shu mahal ko‘kda ikki burgut paydo bo‘lib, har ikkisiga ham

changal solib, chinqirtirib ko‘kka ko‘tarib ketdi. Yerda u sho‘rliklarning to‘zg‘igan patlari qoldi, xolos” [3. 126]

Ushbu tasvirni o‘qigan zukko o‘quvchi ikki kabutar vositasida Alisher Navoiyning ota-onasi vafotiga ishora borligini qalban his qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani kompozitsiyasi, uslubi, obrazlar tizimi jihatidan o‘zidan oldin yaratilgan asarlarning hech birini takrorlamaydi. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid yangi-yangi kashfiyotlar, go‘zal tasvirlar, Qur’on nuri, hadis ziyosi bilan tarbiyalangan va buni o‘z hayot yo‘lida nuqsonsiz qo‘llay olgan Navoiy obrazi, shubhasiz, asarning eng katta yangiligi va yutuqlari deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Bahodir Karim. “Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom yoxud insoniyat quyoshi ta’rifida bitilgan roman to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z”. Maqola. https://yuz.uz 2021-yil 10-avgust

2.Sa’dullo Quronov. “Alisher Navoiy” romanida tarixiy shaxs konsepsiyasi. “Ilmiy xabarnoma. Gumanitar tadqiqotlar” – № 5. 2021 y.

3. Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 512 b.

4. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom // Yangi O‘zbekiston, 2021-yil 10-avgust.

5.G‘iyosiddin Xondamir “Makorim ul-axloq”, Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent – 2018.

YOSH AVLODNI MA’NAVIY-AXLOQIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA ABU RAYHON BERUNIY IJTIMOIY-SIYOSIY QARASHLARINING AHAMIYATI

Abdullayev Madamin Soatboyevich

IIV Xorazm akademik litseyi “Ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar” kafedrasi boshlig‘i, Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Har bir davlatning istiqboli uning o‘tmishi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. O‘tmish madaniy va tarixiy merosini asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi jamiyatning muhim vazifalardan sanaladi. Bu o‘rinda xalqimiz faxrlanadigan buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganish va amaliyotda keng foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. “Shu ma’noda, necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o‘zligigmizning ajralmas qismiga aylanib ketga muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimiuzning bebaho ma’naviy-ma’rifiy merosini o‘rganish va targ‘ib etish biz uchun doimiy kun tartibida turadigan muhim masala bo‘lib qolmoqda”[1.266.]. Ayniqsa qomusiy olim, buyuk mutafakkir Abu Rayxon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida va ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati namunalari milliy ma’naviy merosimiz durdonasi, ilm-fan rivojiga qo‘shilgan ulkan ulush hisoblanadi. Beruniy shubhasiz o‘z zamonasidan ancha ilgarilab ketgan buyuk shaxs sifatida qadrlanadi. «Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo‘lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan izohlanadi» [2.42.]. Beruniy 150 dan ortiq kitob yozgan bo‘lib, bizgacha uning faqat 28 tasi yetib kelgan. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi», «Hindiston», «Geodeziya», «Minerologiya», «Saydana» singari kitoblarida bir qator ijtimoiy-siyosiy nazariyalar ilgari surilgan.

Abu Rayhon Beruniy Xorazmda tashkil topgan Ma’mun Akademiyasiga rahbarlik qilgan. Bu davrda Xorazmda feodal davlat markazlashdi, Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi moddiy, madaniy va savdo markaziga asos solindi. O‘sha davrda ijtimoiy-siyosiy ta’limotlari bir-biridan minglagan chaqirim uzoqdagi turli dindagi, tildagi, urf-odatdagi davlatlarni hamkorlik munosabatlarini bir-birlariga yaqinlashtirish imkonini berdi. U yaratgan ta’limotlar umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, uning asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarning ahamiyati bugungi kunda yoshlarning ma’naviy barkamolligini tarbiyalashdagi alohida o‘rin tutadi.

Beruniy ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etgan asarlari orasida “Al osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya” (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) va “Mineralogiya” asarlari ayniqsa mashhurdir. Ushbu asarda Beruniy eng og‘ir mehnat turlari bilan shug‘ullanuvchi kishilarga jamiyat tomonidan beriladigan huquqiy imtiyozlar, mehnatiga yarasha haq to‘lanishi va ular mehnatining rag‘batlantirilib turilishi ularning og‘ir mehnatiga yarasha bo‘lishi lozimliligini ta'kidlaydi. Allomaning fikricha, “inson mehnatini qadrlash va moddiy rag‘batlantirib turish natijasida davlat mustahkam va barqaror, o‘lka ma’mur, xalqning turmushi esa farovon bo‘ladi”. Beruniyning yuqoridagi fikrlari bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy tamoyillari bilan hamohangdir. Chunki “iqtisodning siyosatdan ustuvorligi”, “kuchli ijtimoiy siyosat yuritish” kabi tamoyillarning mohiyati ham yuqoridagi fikrlarni o‘zida ifodalaydi. Shu bilan birga Beruniy o‘zining qarashlarida demokratiyaning asosiy sharti bo‘lgan aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalashuviga yo‘l qo‘ymaslik lozimligini ham ta’kidlab o‘tadi. Buning uchun - deb yozadi Beruniy, - “Zakovatli hukmdorlarning vazifasi, yuqori tabaqalar o‘rtasida adolatli, kuchlilar bilan zaiflar o‘rtasida ijtimoiy tinchlik va insonparvarlik printsiplariga asoslangan qonunni o‘rnatishdan iboratdir”. Hokim qat’iyatli va fuqarolar haqida ko‘proq qayg‘urishi lozim – deb hisoblaydi olim.[3.42.] Bugungi kunda yoshlarning

mehnat tarbiyasida, iqtisodiy bilimlarini shakllantirishda yuqoridagi g‘oyalarning o‘rni katta.

Beruniy o‘z davrining etnosotsiologi ham edi. Jumladan, “Mineralogiya” asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy muhitidagi adolat to‘g‘risidagi qimmatli fikrlari bayon etilgan. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian molikiylar va xristian nasturiylar, majusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan. Abu Rayxon Beruniy dunyoning sotsiologik manzarasi evolyutsion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi.

Ayni chog‘da Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyat va qarama-qarshiliklar emas balki, turli ijtimoiy darajalardagi murosa va kontsensus ekanligini uqtiradi. Beruniy sotsiologiyadagi muhim soha ijtimoiy tabaqalashuv haqida fikr yuritib shunday deydi: tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning bir-birida turli xohishlarni ifodalash uchun (zarur) bo‘lgan so‘zlarga ehtiyojlar tug‘ilishidir. Uzoq zamonlar o‘tishi bilan haligi iboralar kuchayib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib tartibga tushgan.

Mutafakkir davlat va huquqning paydo bulishi, ularning vazifalari masalalarini Forobiy kabi ehtiyojga bog‘lab, ma'rifatli shoh boshqaruvi g‘oyasini ilgari suradi, ijtimoiy hayotni o‘ziga xos «shartnoma»ning natijasi deb biladi. «Inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir», deb hisoblaydi alloma.[4.73.]

Beruniy fikricha, idora qilish va boshqarishning mohiyati boshliqning zolimlardan aziyat chekkanlar huquqlarini himoya qilishi, birovlarning tinchligi yo‘lida o‘z tinchligini yo‘qotishidir. Qolaversa, jamiyatni boshqaruvchi shaxs qatiyatli, ma’rifatparvar, yangilikka intiluvchi bo‘lmogi, oliy va quyi tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o‘rnata olishi lozim. Har qanday nizo-janjallar, toj-taxt talashish, zo‘ravonlik, bosqinchilik harakatlariga qarshi turgan Beruniy, davlatlar va xalqlar o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini olib borish g‘oyasini ilgari surgan. Ayni fikrlarni bugungi kunda jamiyatdagi ijtimoiy adolat g‘oyalarini mustahkamlashdagi o‘rnini alohida ta’kidlash joiz.

Beruniyning ilm-ma’rifatga intilish insonning eng mo‘tabar fazilatlaridan ekanligini ifodalovchi fikrlari diqqatga sazovordir. Alloma ilmlar ko‘pligi va ular zamon iqboli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payishini ta’kidlab, odamlarni ilmlarga rag‘bat qilish, ilm va ilm ahlini hurmatlashi o‘sha iqbolning belgisi ekanligini, ayniqsa hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘lishini qayta-qayta ta’kidlaydi. Bugungi kunda jamiyatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlodning ilm-fanga qiziqishini oshirish, ilm-fanga rag‘bat ko‘rsatish va ilm ahlini e’zozlashdek ezgu ishga kirishgan davlat rahbariyatining maqsadi ham, aslida shu hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, “Dunyoga Buxoriylar, Beruniylar, Termiziylar, Moturidiylar, Xorazmiylardek buyuk alloma va aziz-avliyolarni yetkazib bergan jonajon Vatanimiz yoshlari ulug‘ ajdodlariga munosib bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur”[1.264.]. Bu borada, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ilm-fan, madaniyat, ma’naviyat haqidagi ta’limoti, birodarlik, tenglik, adolat, to‘g‘rilik, insonparvarlik kabi umuminsoniy g‘oyalari milliy tafakkur tarbiyasi shakllanishida ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 B.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008, -Б.42.
3. Беруний - буюк қомусий олим. -Т.: 2003. –Б.46.
4. Одилқориев Х.Т. Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: 2009, 71-бет.

TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Djumaniyazov Quralbay Atajanovich

IIV Nukus «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litsey o‘quv bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari

АННОТАЦИЯ. *Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq yoshlar tarbiyasi jamiyatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanib kelishi, bunda mamlakatimizda voyaga etayotgan barkamol avlodning demokratik jamiyat tayanchi, porloq kelajak asosi va Vatanimizning kelajagi bugungi yoshlar zimmasidaligini inobatga olib, bugungi axborot asrining o‘ziga xos xususiyatlari, mafkuraviy va ma’naviy tajovuzlarning kuchayayotganligi ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan «Tarbiya» va «Ma’naviyat asoslari» fanlari o‘qituvchilarining*

mas'uliyatini yanada oshirilishi, bunda asosiy maqsad-shaxsni, eng avvalo mustaqil fikrlaydigan, o'z kuch va imkoniyatlariga qat'iy ishonadigan, islohotlar mohiyatini chuqur tushungan va mustaqillikni oliy qadriyat darajasida anglaydigan, vatanparvar, mehnatga ishtiyoqmand, tirishqoq va serg'ayrat, bilimga chanqoq yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi haqida.

Таянч иборалар: *Mustaqillik, Ma'naviyat asoslari vatanpavarlik, Konsepsiya, yoshlar, xarbiy-vatanparvarlik, Yangi O'zbekiston, ilm-fan, Uchinchi Renesans.*

Ruwxıylıqtıń rawajlanıwında mámleket tárepinen alıp barılatuǵın siyasattıń roli oǵada úlken. Qaysı mámlekette ruwxıylıq hám aǵartıwshılıqtı kóteriw, ol haqqında ǵamqorlıq etiw mámleket siyasatı dárejesine kóterilgen bolsa, sol mámlekette tınıshlıq, birlik júzege keledi, ilim, pán, aǵartıwshılıq hám mádeniyat rawajlanadı. Bul óz náwbetinde mámleket aldında turǵan eń qıyın mashqalalardı sheshiw imkaniyatın beredi.

Ruwxıylıqtı qáliplestiriwge tikkeley tásir etetuǵın jáne bir áhmiyetli turmıslıq faktor – bul tálim-tárbiya sisteması menen tıǵız baylanıslı. Hámmemizge málim, ata-babalarımız ázelden biybaha baylıq bolǵan ilim hám bilimdi, tálim hám tárbiyanı insan kámalatı hám millettiń rawajlanıwınıń eń tiykarǵı shárti hám girewi dep bilgen. Álbette, tálim-tárbiya sananıń miywesi, (hasılı) lekin, sonıń menen qatar sananıń dárejesi hám onıń rawajlanıwın da belgileytuǵın, yaǵnıy, xalıq mánawiyatın qáliplestiretuǵın hám bayıtatuǵın eń áhmiyetli faktor bolıp tabıladı. Solay eken, tálim-tárbiya sistemasın hám usı tiykarda sananı ózgertpey turıp mánawiyattı rawajlandırıp bolmaydı. Keleshegimizdiń tırnaǵı bilim dárgaylarında jaratıladı, basqasha aytqanda xalqımızdıń yerteńgi kúni qanday bolıwı perzentlerimizdiń búgin qanday tálim hám tárbiya alıwına baylanıslı ekenligin umıtpawımız kerek. Bunıń ushın hár bir ata-ana, ustaz hám oqıtıwshı hár bir bala tımsalında eń dáslep shaxstı kóriwi zárúr. Áne usı ápiwayı talaptan kelip shıǵa otırıp, perzentlerimizdi erkin hám keń pikirlew uqıbına iye bolǵan, sanalı jasaytuǵın kámil insanlar etip kámalǵa jetkeriw – tálim-tárbiya tarawınıń tiykarǵı maqseti hám wazıypası bolıwı lazım dep qabıl etiwimiz kerek. Bul bolsa, tálim hám tárbiya jumısın bir-birinen ajıratpaǵan halda tıǵız baylanıslta alıp barıwdı talap etedi.

Ruwxıy tárbiyada adamlardıń sanası, ruwxıy dúnyaǵa tásir etiwde teatr kórkemónerdiń de roli, ornı hám áhmiyeti, tásir etiw sheńberi, imkaniyatları sheksiz. Ol bir qırı menen adamlar qálbine jarıqlıq alıp kirse, ekinshi qırı menen insan qálbindegi nadanlıq, ruwxıysızlıqqa qarsı gúresedi. Teatr kórkemóneri basqa iskusstvo túrleri sıyaqlı obrazlı-kórkem tábiyatı menen insan qálbine emocional tásir kórsetiw, onıń ruwxıy dúńyasına tereń kirip barıw, sol arqalı ruwxıy dúńyanı bayıtıw qásiyetine iye. Ǵárezsizlikti bekkemlew, adamlardı joqarı ruwxıylıqqa tárbiyalawda teatr kórkemóneriniń áne usı qásiyetlerinen ónimli paydalanıw zaman talabı esaplanadı. Tilekke qarsı geypara adamlardıń, solardıń ishinde jaslarımızdıń teatr, kino kórkemóneri, yaki iskusstvonıń basqa túrlerine qızıǵıwshılıǵı onsha jeterli dárejede emesligi insannıń kewlin óksindiredi. Teatr waqıyalardı, adamlardıń turmısın, alǵa umtılıwı, qızıǵıwı, is háreketlerin sáwlelendiretuǵın maydan. Ol bir waqıttıń ózinde hám sóz, hám muzıka, hám is-háreket arqalı insan qálbine tásir etiw múmkinshiligi menen ajıralıp turadı. Sonıń ushın teatr hám kino kórkemóneriniń bul qásiyetlerinen ruwxıy tárbiyada paydalanıw úlken nátiyje beretuǵınına gúman joq. Bunday shıǵarmalardıń adamlar qálbine kirip barıwında televidenie imkaniyatlarınan paydalanıwǵa ayrıqsha itibar beriw talap yetiledi. Adamlar «Atalar sózi-aqıldıń kózi» kibi kórsetiwlerdi sabırsızlıq penen kútkenindey, ruwxıy kóterińkilikke sharlaytuǵın, mártlik hám adamgershilikti, ruwxıy gózzallıq hám ádep-ikramlıq, páklikti, ullılıq, gózzallıq hám ruwxıy qádiriyatlarımızdı násiyatlawshı kórkemligi joqarı ádebiyat hám iskusstvo shıǵarmalarına mútáj. Sebebi olar ruwxıylıǵımızdı jetilistirip ǵana qoymastan, sonıń menen birge bárshe jaslarımızǵa ilim iyelewde, millet hám Watandı rawajlandırıwda pidayılıq kórsetiwde, zawıq hám ilham baǵıshlaytuǵın qurallar bolıp esaplanadı.

Ruwxıy mádeniyat – insannıń ruwxıy ózgeshelik hám qásiyetleri, jámiyettiń mádeniy dárejesin sáwlelendiriwshi túsinik. Jámiyet hám ózin-ózi tárbiyalaw processi, shaxstıń is-háreketleri hám kelbetinde ruwxıylıq principleri qánshelli tereń sińip ketkenligin kórsetiwshi atama. Ruwxıy mádeniyat «Materiallıq mádeniyat» túsiniginen parıqlanadı, biraq onıń menen baylanıslı hám óz-ara qatnasta alıp qaraladı. Eger ruwxıylıq tusinigi barlıq ruwxıy nárseler hám ózgesheliklerdi – insaniyattıń dóretiwshilik, ilimiy, filosofiyalıq, huqıqıy, kórkem, diniy, morallıq ham t.b. kóz-qarasları, túsinikleri jıyındısın ańlatsa, ruwxıy mádeniyat áne usı túsinik, bilim hám tájiriybelerdiń kúndelikli turmısta qollanılıwın ańlatadı. Hár qıylı faktorlar: turmıslıq tájiriybe, tárbiya, ádep-ikramlılıq aǵartıwshılıq, iskusstvo, ádebiyat hám t.b. tásiri nátiyjesinde shaxs belgili dárejedegi ruwxıy mádeniyattı jámleydi. Solay eken, shaxs is-háreketlerinde kórinis tabatuǵın ruwxıy mádeniyattı kútá quramalı dúzilgen programmaǵa uqsatıw múmkin, yaǵnıy insan hár qıylı jaǵdaylarda ózin ruwxıy

jaqtan qanday tutıwı kerekligi haqqında kómeklesiwshi tájiriybelerdi sińdiredi. Sonday-aq ruwxıy mádeniyat insan sanasınıń tınımsız dóretiwshilik etip turǵan aspektleri – sheshimi quramalı bolǵan qıyın jaǵdaylarda belgili bir qarar qabıl etiwge jardem beretuǵın ruwxıy oylaw, sezim-tuyǵı sıyaqlı faktorlarǵa da súyenedi.

Juwmaqlap aytqanda, ruwxıy mádeniyat adamnıń háreketleri, bolmıstı bahalay alıw potencialı, morallıq bilim hám tájiriybeleri, olardan paydalana biliw qábileti, jaqsı-jaman, unamlı-unamsız jaǵdaylardı parıqlaw hám t.b. faktorlar menen de baylanıslı. Hár qanday sharayatta ruwxıy-morallıq ólshemlerge sadıq qalıw ózgeler táshwishine sherik bolıw, ádep-ikramlılıqqa baylanıslı tájiriybelerdi ámelde qollana biliw, shaxslar ara múnásibetlerde unamlı páziyletlerdi kórsete alıw da ruwxıy mádeniyat dárejesin kórsetiwi múmkin. Óytkeni hár qanday quramalı jaǵdayda insan atına kir juqtırmaytuǵın is-háreketler qılǵan shaxstı ǵana morallıq jaqtan jetik, ruwxıy bay insan dep ayta alamız. Ruwxıy jetiklik, bálki, besikte aytılǵan háyyiwdiń mazmunınan, balanı kiyindiriw, onı hadal as penen baǵıwdan baslansa kerek. Háziret Bahawaddin Naqıshband aytqanday, insandaǵı jaqsı peyil, ámeller hadallıqtıń nátiyjesi esaplanadı. Demek ata-ana perzentin hadal miynetiniń jemisi menen baqsa, ol perzent pák hám hadal bolıp yer jetedi. Biz shoralar dáwirinde bunı umıta jazladıq, buǵan áhmiyet bermedik, sonlıqtan tárbiyanı da sol dúzim óz máplerine sáykeslendirip, pútkilley onı qolına aldı. Demek biz, bala tárbiyasın dana xalqımız aytqanınday, ol ele tuwılmastan, ata-ana, pútkil shańaraq aǵzaları menen birlikte baslawımız lazım.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Бердимуратова А.К., Бердимуратова С. П. Особенности развития духовной культуры молодежи в современном обществе. Вестник КГУ им. Бердаха. №1 (50) 2021. 138 с.
2. Эркаев А. Маънавият – миллат нишони Т., «Маънавият»., 1997, 27-бет
3. M. Qurbonov. Ijtimoiy pedagigika. - Toshkent,2003,41-b.
4. J.Hasanboyev. Pedagogika, -" Noshir" Toshkent,2011, 130-b.
5. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazaryasi va amaliyoti. Toshkent, 2017.

TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVUR VA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Ajiniyazov Baxadir Polatovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi, tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada o‘quvchilarning tarix fanidagi mavzularni tushinib olishiga, voqealarni jonli tarzda ko‘z oldida gavdalantirishda yordam beradigan tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning afzalliklari* ***haqida bayon qilingan.***

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalari uchun kadrlar tayyorlash ishini zamonaviy darajada olib borishni talab qiladi. Shu munosabat bilan mutaxassislar tayyorlash jarayonida ilgor ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.[6.3]

Ta’lim jarayonining bugungi vazifalaridan biri o‘quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat.[6.4] Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish bilan birgalikda avvalo dars haqida tasavvur va tushinchalarni shakllantirish zarur.

Tarixiy tasavvur va tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog‘langan. O‘quvchilarda hodisalar tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to‘liq va aniq tasavvurlar mavjud bo‘lgandagina tushunchalar hosil bo‘la oladi. Tarix o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o‘z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitib, aniqlashib borishiga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari ham ko‘pchilik hollarda bir-biriga o‘xshab ketadi.[5.21-29]

Tasavvurlar hosil qilishning asosiy usul va vositalari. Tarix o‘qitishda o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida o‘tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxlit manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Shunga erishish kerakki, bayon qilingan har bir tarixiy fakt, geografik nom va shaxs faoliyati obrazli bo‘lsin. Obrazlilik – o‘quvchilarning tarixdan oladigan bilimlarini ilmiy va puxta bo‘lishining zarur shartlaridan biri, tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish omili, tarixga qiziqishini uyg‘otish hamda tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir.

Tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini o‘quvchilar aktiv suratda idrok etishiga qaratilgan usullardan foydalanadi. O‘qituvchi hikoyasining mazmunan ko‘rgazmali va obrazli bo‘lishi, darslik matnidagi, tarixiy hujjatlardagi voqealar va tasviriy elementlar, badiiy adabiyot asarlari o‘quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi materialni bayon qilayotganda, tarixiy hujjatlardan, ilmiy ommabop va badiiy adabiyot asarlaridan olingan yorqin tafsilotlarga hamda o‘quvchilardagi tarixga

qiziqishining ortishi, ularning muhim tafsilotlarni ajratib olishi va xotirada saqlab qolishlariga yordam beradi. Biroq, o‘quvchilarda aniq va puxta tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi bayonining jonli va emotsional bo‘lishini o‘zi kifoya qilmaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarning faol fikrlashini tashkil qilishi va unga rahbarlik qilishi lozim. O‘qituvchi ko‘rgazmali qurolni shundaygina ko‘rsatib, uning mazmunini tushuntirib, hujjatlarni o‘qib qo‘ya qolmay, balki hikoyadagi eng muhim joylarni alohida intonatsiya bilan ta’kidlashi, ko‘rsatmali qurollarni, matnlarni o‘quvchilarning faol ishtirokida tahlil qilib, undagi eng muhim elementlarni ajratib chiqishi, o‘rganilgan hujjatlardagi u yoki bu jihatlarga ular diqqatini jalb qilishi lozim.

Tarix bo‘yicha har bir kurs dasturlarining oxirida asosiy tushunchalar mazmuni belgilab berilgan. Bu tushunchalar kursning ilmiy mazmunini, g‘oyaviy-nazariy asoslarini aniqlab olishi, konkret tarixiy materialni tahlil qilish va umumlashtirish bo‘yicha ish usullarini belgilab olishga yordam beradi. Tarixiy tushunchalarni hosil qilish deganda o‘quvchilarning tarixiy faktlarning eng muhim belgilarini ikkinchi darajali belgilaridan ajrata bilish; ularni guruhlarga bo‘la olishni, tarixiy voqea va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish munosabatlarni chuqur anglab tushunib olishi ko‘zda tutiladi. Ana shu tahlitda shakllangan, mukammal tarixiy tushunchalar ilmiy bilimlar sistemasini vujudga kelishida bamisoli zanjir vazifasini o‘taydi.

Tarixiy o‘qitish jarayonida tarixiy tasavvurlar bilan tushunchalarni shakllantirish uzviy bog‘langan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida amalga oshadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, tarixiy tushunchalarni shakllantirishda o‘quvchilarning fikrlash faoliyatlarini rag‘batlantirish va unga rahbarlik qilish muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar hodisani fikran bir necha qismga bo‘lib, uning muhim belgilarini ajratib olib, muhim bo‘lmagan belgilardan ayiradilar hamda bir turdagi hodisalarning eng muhim belgilarini umumlashtiradilar. O‘quvchilarda tarixiy tushunchalar hosil bo‘lishiga olib keladigan bu mantiqiy faoliyat, ko‘pincha tarixni o‘qitish davomida tarixiy tasavvurlar hosil qilish uchun xizmat qiladigan yangi materialni idrok etish bilan qo‘shilib ketadi. O‘qituvchi rasmni yoki darslikdagi suratlarni tahlil etib, ularning mazmunini analiz va sintez qilganda, o‘quvchilarda o‘rganiladigan hodisalarning muhim belgilarini aks ettiruvchi yorqin, aniq tasavvurlar hosil qilishga qaratilgan ish olib borish bilan birga, hodisalarning o‘sha belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalar hosil qilishga qaratilgan ish ham olib boradi.[4.44-56] Lekin tushunchalar hosil qilishga qaratilgan ish o‘quvchilar tomonidan hatto ilgariroq o‘zlashtirib olingan material asosida olib borilayotgan taqdirda ham, bu ish o‘quvchilardagi mavjud tasavvurlarni aktuallashtirib, hodisalar bilan birinchi bor tanishilgan paytda ularning payqalmay qolgan yoki ajratib olinmagan belgilarni

ko‘ra bilishga va ajratib olishga yordam beradi. Hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish va munosabatlar qanchalik ko‘proq va har tomonlama ochib berilib, ularning ma’nosi qanchalik chuqurroq tushunib yetilgan sari, umuman, tarix bilimlari shunchalik yuqoriroq darajada sistemalashib, har bir hodisaning tarixiy jarayondagi o‘rni va roli shunchalik aniqroq aniqlab olina boradi.

Tarix o‘qitishda tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari xilma-xil bo‘lib, avvalo u tushunchalarning mazmuni murakkabligiga bog‘liq. Masalan, moddiy buyumlar (garpun, omoch, kema) to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish uchun bir yoki bir necha soat dars kifoya qilsa, sotsiologik tushunchalar (ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, sinfiy kurash, ideologiya va boshqa) o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda barcha tarix kurslarini o‘rganish davomida o‘zlashtiriladi. O‘quvchilardagi tushunchalarni chuqur va mustahkam bo‘lishi, asosan, o‘qituvchining o‘quvchilar fikrlash faoliyatini qanchalik uyg‘ota olishi va unga qay darajada rahbarlik qila bilishiga bog‘liq. Tarixiy tushunchalar hosil qilishda o‘quvchilarning voqea va hodisalarni analiz, sintez qila olish qobiliyatini o‘z ichiga olgan fikrlash faoliyatini kuchaytirishda ta’limning faol metodlari – muammoli ta’lim, evristik suhbat metodlaridan foydalanish, o‘quvchilarning ko‘rsatmali qurollar, ta’limning texnika vositalari, tarixiy hujjatlar bilan ishlarini uyushtirish, ularga tarixni chuqur o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan turli amaliy xarakterdagi ishlarni topshirish alohida ahamiyatga ega.

Bir turdagi voqea va hodisalar, tarixiy jarayonlar hamda sabab-oqibat bog‘lanishlar mazmunini taqqoslab o‘rganish jamiyat taraqqiyotining ayrim va ba’zi bir umumiy qonuniyatlarini tushunib olish imkonini beradi. O‘qituvchi voqea va hodisalarning sabab va oqibatlari o‘rtasidagi aloqa hamda bog‘lanishlarni, ko‘pincha, dastlab bir mamlakat tarixini o‘rganish paytida ilgari o‘rganilgan hodisalarga o‘xshash hodisalarga duch kelganda o‘qituvchi o‘quvchilarga bir-biri bilan o‘xshash sabab-natijali bog‘lanishlar to‘g‘risidagi bilim malakalarini o‘rganilayotgan hodisalarni izohlab berishga deduktiv suratda taqqoslab borish o‘quvchilarni: hodisalar o‘rtasidagi bu bog‘lanishlar tasodifiy bo‘lmay, balki barqaror va zaruriy qonuniyat ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga olib keladi. 1-kurslarda Qadimgi dunyo va O‘rta asrlar tarixini o‘rganish jarayonida qonuniyat termini qo‘llanilmasada, o‘quvchilarni qonuniyat nimaligini tushunishga olib keladi. Qadimgi dunyo tarixida “Qadimgi Misr” mavzusi materiali asosida o‘quvchilar mehnat qurollarining takomillashishi, mehnat unumdorligini oshirish va ortiqcha mahsulotning ishlab chiqarilishi, kishini kishi tomonidan eksplutatsiya qilish uchun imkoniyat yaratilganligi, sinflarni va davlatni paydo bo‘lishiga sabab bo‘lganligini tushunib oladilar.

Sabab natija aloqalari. Har bir faktning sabablari undan oldingi faktlarda mavjud bo‘ladi va shu faktning o‘zi ham, o‘z navbatida, keyingi faktlarning sababi bo‘lmog‘i mumkin. Har bir yirik tarixiy fakt ijtimoiy hayotning ko‘pincha turli sohalarida mavjud bo‘lgan bir qancha sabablar natijasida vujudga keladi. Tarixiy rivojlanishning qonunlarini chuqur o‘rganishda taqqoslashning ahamiyati kattadir. Masalan, o‘qituvchi Qadimgi dunyo tarixidagi “Qadimgi Hindiston” yoki “Qadimgi Xitoy” mavzularini o‘tayotganda, o‘quvchilarga Qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy davlatining paydo bo‘lishini o‘zlaridagi xuddi shu haqidagi bilimlar bilan taqqoslab o‘rganishni tavsiya qiladi.[1.16-46]

Misr, Ikki daryo oralig‘i, Hindiston va sharqiy Xitoyning geografik o‘rni, iqlimi, tuprog‘i va o‘simliklari, aholining mashg‘ulotlarini taqqoslab o‘rganish, bu mamlakatlarning hammasi iqlimi issiq, hosildor yerlarda, katta daryolarning vodiylarida joylashganligi, ularda dehqonchilik va chorvachilik erta rivojlanishiga sabab bo‘lganligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga, g‘oyat qulay sharoit tufayli, odamlar ibtidoiy mehnat qurollaridan foydalanishiga qaramay, ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilgani, ba’zi odamlarni boshqalar hisobiga yashashi uchun imkoniyat tug‘ilganini aniqlab olishlariga yordam beradi.

Qadimgi Sharq mamlakatlaridagi dehqonchilik sistemasini taqqoslab o‘rganish, ulardagi umumiy xususiyatlarni, ya’ni sun’iy sug‘orish va yerlarning suvini qochirish yo‘li bilan mo‘l hosil olish mumkinligini, mehnat unumdorligining oshishi va ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishining natijasi o‘laroq ekspluatatsiya, sinflar va davlatlar vujudga kelganligini tushunib olish imkoniyatini beradi. Tabiat bilan birga, uni avaylab saqlashi, atrof-muhitni muhofaza qilishi zarurligi haqidagi xulosaga olib kelinadi.

Shunday qilib, ijtimoiy rivojlanish qonunlarini o‘rganish uzoq muddatli jarayon bo‘lib, u o‘quvchilarda umumiy nazariy bilimlar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ishlarining muhim tarkibiy qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘tkaziladigan rituallar tizimi (1-kitob). - Bobobekov X.N., Davletshin M.G., Ishmuxdmedov R.J. va boshq. - T.: «Fan», 1999.
2. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘tkaziladigan udumlar va asosiy tadbirlar tizimi (2-kitob). - Bobobekov X.N., Davletshin M.G., Ishmuhamedov R.J. va boshq.- T.: «Fan», 2005.
3. Akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar fanlar va xorijiy filologiya yo‘nalishidagi tarmoq ta’lim standarti va chuqurlashtirilgan fanlar o‘quv dasturlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. T.: 2005, 464-bet.

4. Аппарович Н. Полторак Д.И. Кабинет истории и обществоведения в школе. М.: 1982.

5. Asqarov A. O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari. – “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” 1992. № 7-8

6. O.U. Avlaev, S.N. Juraeva, S.R. Mirzaeva. “Ta’lim metodlari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: - «Navro‘z» nashriyoti. 2017 y. 208 bet.

BIOLOGIK TA’LIMNING ROLI

Sapayeva Anorgul Raximovna-IIV Xorazm akademik litseyining biologiya fani etakchi o‘qituvchisi.

Urganch sh.

Annotatsiya-Biologiya fanining insoniyat hayotidagi o‘rni, ahamiyati va erishilgan yutuqlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Biologiya fanini boshqa fanlarga bog‘liqligi bionika, kosmik biologiya hamda biologiyaning tibbiyot, agronimiya va politexnikdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:bionika, kosmik biologiya, mikrobiologiya, biokimyo, biofizika, botanika

Biologik ta’limning roli insoniyat hayotida katta ahamiyatga ega. Biologiya o‘qituvchi biologik bilimlarning har bir inson hayoti va mehnatidagi rolini chuqur anglashi, bunga ishonch hosil qilishi lozim, bu shunday ishonchni o‘quvchilarda tarbiyalash uchun zarurdir. Maktabda o‘qituvchining muvaffaqiyatli ish olib borishining birinchi sharti ana shudir, chunki tarbiyalovchi ta’lim jarayoni ishonchga asoslanadi.

Biologiya o‘qituvchisining kasbi, o‘quvchilarga nega har bir odam biologiyani o‘rganish zarurligini singdirishi uchun yuqori saviyadagi bilim va mustahkam irodani talab etadi. Biologiya fanining yutuqlari ishonchli tarzda insoniyat biologiya asriga kirib borayotganligidan dalolat beradi[1].

Biologiya fanining yutuqlari ko‘p jihatidan tabiiy fanlar fizika, kimyo, matematika, astronomiya va boshqa tabiiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlardan foydalanish natijasida yuz bermoqda. Bu fanlarning yutuqlari va metodlari asosida elektron mikroskopiya, spektroskopiya, rentgenostruktura tahlili, hujayraning molekulyar va submolekulyar darajada o‘rganish imkonini berdi. Biokimyo va biofizika metodlari asosida tajribalar o‘tkazish natijasida moddalar almashinuvi ayniqsa oqsil biosintezining mexanizmi, fotosintez sirlari ochildi. Irsiyatning moddiy asosi DNK va RNK strukturasi, funksiyasi ayon bo‘ladi, aminokislotalarning genetik kodi ochib berildi.

Olimlarning diqqat e’tibori hayot hodisalarining mohiyatini aniqlashga, moddalar almashinuvi, irsiyat va o‘zgaruvchanlikni boshqarishning turli usullarini ishlab chiqarishga qaratilgan.

Hujayra va uning organoidlarida boradigan ko‘p jarayonlarining fizik-kimyoviy va biologik mohiyatini ochib bergan fan yutuqlari hayotiy jarayonlari borishiga aktiv aralashishi imkoniyatlarini bermoqda. Biologiya fanining yutuqlari meditsina oldiga rak, virus, yurak, qon-tomir va boshqa kasalliklarni davolash kabi vazifalarini qo‘ymoqda va bu xastaliklar asta-sekinlik bilan o‘z davosini topmoqda.

Hozirgi vaqtda tirik organizmlarni tuzilishi va unda boradigan jarayonlarga asoslangan texnika fani – kibernetika asosida tabiiyot fanlarida yangi yo‘nalish – bionika vujudga keldi, bu biologiyani fizika va texnika bilan bog‘laydigan fandir [2].

Bionika organizmlarning morfologik va funksional moslanishlarini muxandislik masalalarini echish doirasida aniqlaydi va tahlil qildi. Masalan, sezgi organlari juda kichik bo‘lgan hashoratlar, tez va ko‘p harakatlanib energiyani kam sarflashi, tez ta’sirlanishi, tanlovchanligi va o‘z-o‘zini boshqara olishi kabilar olimlar fikrini jalb etadi va texnikaga qo‘llash usullari haqidagi fikrlarni tug‘diradi. Hozirgi vaqtda juda ko‘p qurilmalar hayvonot va o‘simlik olamining tuzilishiga asoslangan holda ishlab chiqilgan.

Hayotiy jarayonlarni boshqarishda fiziologik faol moddalarni roli nihoyatda ortib bormoqda. Shuning uchun biologlar biologik faol moddalar gormonlar, vitaminlar, antibiotiklar, oqsillar hosil qiladigan mikroorganizm shtammlarini yaratib gen va hujayra muxandisligi usullarini qo‘llab insoniyat uchun zarur bo‘lgan moddalarni sintez qilib olmoqda. Bunga misol qilib hozirgi vaqtda ichak tayoqchasi bakteriyasi genotipiga insulin sintezini boshqaruvchi gen kiritish orqali insulinni sintez qilish yo‘lga qo‘yilgan. Bu jarayonlar biotexnologiyada keng qo‘llanilmoqda.

Hozirgi vaqtda insoniyat, zamonaviy genetika va biotexnologiya yutuqlariga tayanib, xossalari oldindan ma’lum bo‘lgan mikroorganizmlarni shtammlarini yarata oladigan bo‘ladi. Mikroorganizmlardan va hayvonlar uchun zarur bo‘lgan vitaminlar, antibiotiklar va boshqa gormonlari ishlab chiqaradilar. Bu biopreparatlarni sanoat usulida ishlab chiqish yo‘lga qo‘yilib, hayvonlar ozuqasiga qo‘shib berilmoqda. Mikroorganizmlar yordamida hayvonlar mahsuldorligini oshirish, o‘simliklarni o‘sish va rivojlanishini tezlashtirish, hosilni hamda o‘simliklarni kasalliklarga chidamligini oshirish usullari yo‘lga qo‘yilgan. Gen injeneriyasi usullari qo‘llanib ko‘sak qurtiga chidamli g‘o‘za va kolarado qo‘ng‘iziga chidamli kartoshka navi etishtirilgan.

Biologiya fanining yangi sohasi-kosmik biologiya hozirgi vaqtda vujudga kelgan. Undan koinotdagi hayotning shakllari, tarqalishi va uning xususiyatlari qanday, o‘zga sayyoralarda hayot nishonalari bor yoki yo‘qligi haqidagi olamshumul savollarga javob kutilmoqda. Biologiya fani erishgan yutuqlarini

ishlab chiqarishga joriy qilingan sari odamlar uchun biologik ta’lim profetsional tayyorgarlik elementi bo‘lib qoladi. Umumiy texnika taraqqiyoti bilan birga ularning ixtisoslariga bo‘lgan talablari ham oshmoqda. Ular agronomiya va zootexnika bilimlarini egallash g‘oyat zarurligini sezmoqdalar va egallamoqdalar[3].

Shundan ko‘rinib turibdiki, o‘rta maktabda biologiya ta’limi politexnik xarakterga ega bo‘lmog‘i va u yosh avlodning ijtimoiy foydali hamda unumli mehnatdagi ishtiroki bilan bog‘lanishi lozim. Bu aloqa fermer xo‘jaliklarida, ko‘q alamzorlashtirishda, yangi foydali qazilmalarni, o‘simliklarni qidirib topishda, dorivor o‘simliklar to‘plashda va boshqa ijtimoiy foydali ishlarda amalga oshiriladi. Bu nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam qiladi va tabiat, qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq maktab o‘quvchilariga kasb tanlashlariga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, biologiya fanini o‘rganish mehnatga muhabbat va hurmatni, mehnatni insoniyatning barcha moddiy va ma’naviy boyliklarining manbai sifatida e’tirof etishni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabda biologiya kursini o‘rganishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganda u maktabni tamomlab chiqqandan keyin ham mustaqil ravishda ma’lumot olish yo‘li bilan bilimlarni tinmay yangilab borish ehtiyojini tug‘diradi va rivojlantiradi. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan biologik ta’lim, ilmiy dunyoqarashni tarbiyalashga imkon beradi. O‘quvchilar, biologik ta’lim olaturib, tabiat faktlari va hodisalarini o‘zaro bog‘lanishda, xarakat, o‘zgarish va rivojlanish holatida tushunishga o‘rganadilar. Biologik ta’lim ko‘p jihatdan yosh avlodni aqliy, axloqiy, estetik tarbiyalashga yordam beradi. Ajoyib manzara yosh ruhning rivojlanishiga shu qadar ulkan darajada tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadiki, pedagogning ta’siri u bilan tenglasha olmaydi. Biologiyani o‘rganishda estetik tarbiyaga barcha o‘quv tarbiya jarayonining uzviy qismi sifatida qaraladi. Ilmiy idrok qilish estetik qabul qilish va xissiyotlarni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.O. Tolipova, A.T G’ofurov “Biologiya o‘qitish metodikasi” o‘quv uslubiy qo‘llanma// Toshkent. 2004.

2. Ibragimova Sanimkul Rizayevna “**Biologik ta’limning roli”**//Выпуск журнала No –11Часть–7_Декабрь–2022

3. Даниева Мақсуда Сафаровна, Панжиева Замира Хушбаковна, Ҳазратқулова Наргиза Ўразалиевна, Бойназарова Мухайёхон Бахтиёровна **Biologik ta’limning roli//** «Евразийский Научный Журнал №9 2018» (сентябрь, 2018)

RAQAMLI ASRDA INSON HUQUQLARINING MUAMMOLARI

Usenova Gulnaz Islamovna-*Tarix-huquq fani o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi IIB Qoraqalpoq akademiya litseyi*

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda raqamli transformatsiya hayotimizning barcha sohalariga kirib borib, o'zaro muloqot qilish va inson huquqlarini amalga oshirish usullarini o'zgartirmoqda. Bu jarayon biz uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda, lekin ayni paytda asosiy huquq va erkinliklarni himoya qilish uchun jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, ushbu maqolada raqamli asrda inson huquqlarining muammolari va istiqbollarini ko'rib chiqiladi, shuningdek, ushbu huquqlarni himoya qilishda davlat va xalqaro hamjamiyatning roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli asr, muammolar, istiqbollar, zamonaviy innovatsiyalar, maxfiylik, so'z erkinligi, xavfsizlik, qonunchilik.

Texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib borib, inson huquqlari yangi qiyinchiliklar va tahdidlarga duch kelmoqda. Eng dolzarb masalalardan biri bu maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilishdir. Har kuni biz haqimizda to'plangan ma'lumotlarning ko'payishi bilan ushbu ma'lumotlardan qanday foydalanish va saqlash borasida xavotir kuchaymoqda [2. 224-225]. Shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi, ma'lumotlarning yetarli darajada himoya qilinmasligi va ommaviy kuzatuv fuqarolarning asosiy huquqlariga tahdid solmoqda. Demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan so'z erkinligi ham raqamli muhitda sinovdan o'tkazilmoqda. Tarkibni algoritmik filtrlash, Internet-resurslarni blokirovka qilish va so'zlarni tsenzura qilish so'z erkinligi va ma'lumotlarga kirishni cheklashga olib kelishi mumkin. Raqamli tengsizlik jamiyatda tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiy yoki boshqa sabablarga ko'ra raqamli texnologiyalardan foydalana olmaydiganlar raqamli dunyoning barcha afzalliklaridan erkin foydalanadiganlarga nisbatan noqulay ahvolga tushib qolishlari mumkin. Bu ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Xususan, kiberxavfsizlik tobora dolzarb mavzuga aylanib bormoqda, chunki raqamli hujumlar va kiberxavfsizlik tahdidlarining ko'payishi fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va shaxsiy hayoti uchun xavf tug'diradi [5. 1-4]. Shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi, kiber josuslik va raqamli hujumlarning boshqa shakllari inson huquqlarini jiddiy ravishda buzishi mumkin. Va nihoyat, texnologiyadan foydalanish axloqi inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt va biometrik tanib olish kabi yangi texnologiyalarni ishlab chiqish fuqarolarning huquqlarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun ulardan foydalanishga qasddan yondashishni talab qiladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat, xalqaro hamjamiyat, texnologik kompaniyalar va umuman jamiyatning birgalikdagi harakati zarur. Raqamli davrda inson

huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish keng muhokamani, tegishli qonun hujjatlarini qabul qilishni va texnologiyadan foydalanish uchun axloqiy standartlarni yaratishni talab qiladi. Faqat shu tarzda teng imkoniyatlarni ta'minlash, maxfiylikni himoya qilish va raqamli dunyoda so'z erkinligini ta'minlash mumkin.

Raqamli asrda inson huquqlarini himoya qilishda davlat va xalqaro hamjamiyatning roli juda muhimdir. Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga kirib borayotgan zamonaviy axborot jamiyatida har bir insonning huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlash zarur. Birinchi va eng muhim jihat Qonunchilik va tartibga solishdir. Davlatlar raqamli makonda inson huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydigan tegishli qonunlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi kerak. Bunga ma'lumotlarni himoya qilish, so'z erkinligi, ma'lumotlarga kirish, maxfiylik va raqamli kamsitishga qarshi qonunlar kiradi. Bunday qonunlar texnologiyaning jadal rivojlanishi va raqamli muhitdagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Shaffoflik va ochiqlik raqamli davrda inson huquqlarini himoya qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Davlatlar o'z harakatlarining shaffofligini ta'minlashi va tsenzuraning oldini olish va ma'lumotlarga kirishni cheklash choralarini ko'rishlari kerak. Bu fuqarolarning hukumatga va umuman jamiyatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Ta'lim va xabardorlik raqamli dunyoda inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar raqamli huquqlar va mas'uliyatli onlayn xatti-harakatlar to'g'risida xabardorlikni oshirishga yordam berishlari kerak. Ta'lim dasturlari va targ'ibot kampaniyalari odamlarga raqamli davrda o'z huquqlari va majburiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va raqamli texnologiyalardan qanday qilib samarali foydalanishni o'rgatadi. Xalqaro hamkorlik raqamli asrda inson huquqlarini himoya qilishning ajralmas qismidir. Davlatlar internetda inson huquqlarini himoya qilishning umumiy standartlari va mexanizmlarini ishlab chiqish uchun birgalikda ishlashlari kerak. Bunga ma'lumot almashish, tajriba almashish va mamlakatlar o'rtasida eng yaxshi amaliyotlarni o'tkazish kiradi.

Xulosa: Raqamli asrda inson huquqlarini himoya qilish davlatlar, xalqaro hamjamiyat va umuman jamiyat tomonidan muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarni talab qiladi. Tegishli qonunchilikni ishlab chiqish, xabardorlikni oshirish, hamkorlik va monitoring har bir insonning raqamli huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Faqatgina kuchlarni birlashtirish orqali biz har kim o'zini erkin rivojlantirishi va ifoda etishi mumkin bo'lgan xavfsiz va hurmatli raqamli makonni yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Firuza Khamdamova. (2020) Influence of Digital Technologies on Human Rights: Positive Influence, Risks, Trends and Development Prospects (Global and National Experience). International Journal of Innovative Technologies in Social Science. 6(27). doi: 10.31435/rsglobal_ijitss/30092020/7195

2. Coccoli J. The Challenges of new technologies in the implementation of human rights: An analysis of some critical issues in the digital era, peace human rights governance // Peace human rights governance (PHRG). – Venice, 2017. – Vol. 1, N 2. – P. 224–225.

3. The International Covenant on Civil and Political Rights. International human rights treaties: a collection. -Tashkent: "Adolat", 2004. -B. 36-54.

4. Rasulov, J. (2022). International Labor Migration: Analysis Of International Universal And Regional Treaties. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 4(08), 84-89.

5. Odiljon R. SULAYMANOV, (2022). THE ROLE OF "SOFT LAW" NORMS IN REGULATING CONTEMPORARY INTERNATIONAL RELATIONS. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 4(12), 1–4. https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume04Issue12-01

"TEMURBEKLAR MAKTABI" BITIRUVCHILARI UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINING QURUVCHILARI

Reymbayeva Nilufar Kadirbayevna-*Nukus 'Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi informatika fani yetakchi o'qituvchisi*

"Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz".

Shavkat MIRZIYOYEV

АННОТАЦИЯ. O'zbekistonda XXI asrda Uchinchi Renessans davri barpo etilishiga ishongan odam qalban yurtimizni avvalgi Renessanslar davrida bo'lgani kabi, eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida ko'radi. Yurtimizning kelajagi nima sababdan buyuk bo'lishi, nega bunchalik ishonch bilan aytilayotgani haqida tushunchasi bor, shuning uchun ham u xulosa chiqara oladi. Ikkinchi Renessans poydevorini yaratishda bosh bo'lgan Amir Temur ishni dastlab farzandlar tarbiyasidan boshladi. U yoshlar tarbiyasi borasida qator muhim ishlarni amalga oshirdi.

Таянч иборалар: *Mustaqillik, Amir Temur va Temuriylar davri, vatanpavarlik, , yoshlar, harbiy-vatanparvarlik, Yangi O'zbekiston, ilm-fan, Uchinchi Renesans.*

O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko‘rish mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimizning shakllanishi, jamiyatda ilmu fan, san’at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o‘z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo‘shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi.

O‘zbekiston tarixining birinchi Renessansi - Somoniylar davriga to‘g‘ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo‘ldi. Ijtimoiy sohaning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi munosabatlarning muayyan tartib-tamoyillar asosida qurilishi, shaharu viloyatlarning iqtisodiy-madaniy rivojlanishi, ilmu ma’rifatning markazlashuvi singari muhim jarayonlar o‘rta asrlarda yurtimizda davlatchilikning o‘ziga xosligini belgilovchi tamoyillardir.

Ikkinchi Renessans – Amir Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o‘lkalari o‘z taraqqiyotining yangi pog‘onasiga ko‘tariladi. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me’morchilik avj oldi, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar jadallashdi. Shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san’at sohalarining rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma’rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg’onish g‘oyasiga bag’ishlab, o’lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog’idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar.

Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar hamda “Ilmdan boshqa najot yo’q va bo’lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bilganlar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo’jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug’ insonlar Milliy uyg’onish va Millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o’zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar.

Jadidlarimiz o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo‘l bermadi. Ular o’sha davrning turli kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo‘ldi. Dastlab Rus podshohligi, keyinchalik sho’rolar hukumati ularni ayovsiz quvg’in va qatag’on qilgan.

Oqibatda milliy uyg‘onish va taraqqiyot harakati Vatanimiz uchun yorqin xotira sifatida qoldi. Yurtimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo’lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi hozirgi davrda ham katta ahamiyatga ega.

Tarixdan ma’lumki, ajdodlarimiz yaratgan har ikki Uyg‘onish davrida dunyo ilmi bizga juda katta turtki bo‘lgan. Jahon taraqqiyotining yuksalish tamoyillarini belgilab bergan birinchi Renessans davrida Xorazmda barpo etilgan Ma’mun akademiyasi o‘z bag‘riga daho mutafakkirlarni to‘plab, dunyoning eng ilg‘or ilmlarini o‘zlashtirgani, shu asnoda, bilimdan ungan bilimlar nafaqat o‘z mintaqasi, balki butun ahli jahon uchun namuna vazifasini o‘tagani ham ayni haqiqatdir.

Temuriylar yaratgan ilm maktablari ham ayni shu yo‘ldan bordi. Bu davrda ham ilm o‘rganishni istovchilar butun dunyodan oqib kela boshladi.

Bugun dunyoga yangi O‘zbekiston nomi bilan balqiyotgan uchinchi Renessans g‘oyasining jozibasi shundaki, u o‘z atrofiga davlatni ham, jamiyatni ham, butun xalqni ham birlashtira oladi. Bu g‘oyaning milliy g‘oya o‘laroq keng quloch yozishi esa, nazarimizda, barchamizning uning mazmunini chuqurroq anglashimizga, teranroq mushohada yuritishimizga bog‘liq.

Shu asnoda davlatimiz rahbarining «Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz.

Bugungi kunda biz uchinchi Uyg‘onish davri ostonasida turibmiz. Agar O‘zbekiston Prezidentining keyingi besh yilda hayotimizning birgina yo‘nalishi, ya’ni ma’rifat, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag‘zini to‘la chaqib ko’rsak ham, navbatdagi Ma’rifat Renessansining markazi Yangi O‘zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Prezidentimizning mamlakatimiz kelajagini ta’lim va ilmu fanda ko‘rayotgani, uchinchi Renessans g‘oyasi milliy g‘oya darajasiga ko‘tarilgani, zamonaviy dunyoga yuzlanish hamda dunyo bilan tenglashmoq istagida ana shu Vatan va millat tuyg‘usining yana bir jilvalanishini ko‘rish mumkin.

Uchinchi Renessans poydevorining mustahkam asosi bo‘lib xizmat qiluvchi bugungi buyuk g‘oyalarda ana shunday ulug‘ maqsadlar mujassamdir.

Bugun Yangi O‘zbekistonda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” bosh g‘oyasiga tayanib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasi qo‘yilgan ekan, uni bajarish uchun birgina rahbar, pedagog yoki tarbiyachi emas, balki shu Vatan barchamizniki, deya ko‘nglida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insoniylik fazilatlari mujassam, iymon-e’tiqodi butun bo‘lgan har qanday shaxs targ‘ibotchi bo‘lishi lozim.

Aqlli integratsiyalashgan axborot

Annakulova Madina-*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali "Axborot xavfsizligi" yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'lumotlarni qayta ishlashga yondashuv bo'lgan "Aqlli integratsiyalashgan axborot" tushunchasi muhokama qilinadi, bu ma'lumotlarning ahamiyati tizimning ma'lumotlarni tahlil qilish, bog'lash va muayyan maqsadlarga erishish uchun foydalanish qobiliyatiga bog'liq degan fikrga asoslanadi. Maqolada ushbu kontseptsiyaning asosiy tamoyillari, shuningdek, uning sun'iy intellekt, bioinformatika, ma'lumotlarni boshqarish va boshqalar kabi turli sohalarda qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Aqlli integratsiyalashgan ma'lumotlarning an'anaviy ma'lumotlarni qayta ishlash usullariga nisbatan afzalliklari va kelajakda ushbu kontseptsiyani rivojlantirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Ma'lumotlar integratsiyasi, axborotni aqlli qayta ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish

Ma'lumotlar integratsiyasi. Ma'lumotlarni integratsiyalash bu ma'lumotlar bazalari, ilovalar, fayllar va tashqi manbalar kabi turli ma'lumotlar manbalarini yagona va izchil tizimga birlashtirish jarayoni. Ma'lumotlar integratsiyasining maqsadi biznes jarayonlari, tahlillar va qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun to'liq va aniq ma'lumot olish imkonini beruvchi yagona haqiqat manbasini yaratishdir.

Ma'lumotlarni integratsiyalash jarayoni turli manbalardan olingan ma'lumotlarni to'plash va uyg'unlashtirish, dublikatlar va xatolarni bartaraf etish, ma'lumotlarni to'g'ri format va tuzilishga aylantirish va butun rasmni yaratish uchun turli ma'lumotlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish kabi qadamlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ma'lumotlar integratsiyasi, ayniqsa, ma'lumotlar turli tizimlar va manbalar bo'ylab taqsimlangan zamonaviy axborot dunyosida muhim ahamiyatga ega. Ma'lumotlarning samarali integratsiyasi ma'lumotlarning mavjudligi, sifati va qiymatini yaxshilaydi, bu esa ongli qarorlar qabul qilish va biznes jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi.

Axborotni aqlli qayta ishlash. Axborotni aqlli qayta ishlash - bu qimmatli ma'lumotlarni olish va asosli qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, tushunish, sharhlash va ulardan foydalanish uchun sun'iy intellekt (AI) usullari va usullarini qo'llash jarayoni.

Axborotni aqlli qayta ishlashning asosiy jihatlariga quyidagilar kiradi:

1. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Ma'lumotlarni o'rganishda algoritmlarni qo'llash, usullar va tendentsiyalarni aniqlash uchun mashinani o'rganish algoritmlari, statistik usullar va boshqa usullarni qo'llash.

2. Ma'lumotlarni talqin qilish: Tabiiy tilni qayta ishlash, ko'rinishin aniqlash va boshqa yondashuvlar yordamida ma'lumotlarning ma'nosini tushunish va undagi muhim ma'lumotlarni aniqlash.

3. Qaror qabul qilish: Olingan ma'lumotlardan asosli qarorlar qabul qilish, strategiyalarni belgilash va harakatlarni rejalashtirish uchun foydalanish.

4. Jarayonlarni avtomatlashtirish: Muntazam vazifalarni avtomatlashtirish, jarayonlarni optimallashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish uchun aqlli algoritmlar va tizimlarni qo'llash.

5. O'qitish va moslashtirish: Algoritmlar va modellarni doimiy ravishda takomillashtirish va ularni o'zgaruvchan sharoit va ehtiyojlarga moslashtirish uchun fikr-mulohaza va foydalanish ma'lumotlaridan foydalanish.

Axborotni aqlli qayta ishlash ma'lumotlar tahlili, tibbiyot, moliya, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va qaror qabul qilish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish zarur bo'lgan boshqa ko'plab sohalarda asosiy rol o'ynaydi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish. Ma'lumotlarni tahlil qilish - bu qarorlar qabul qilish, jarayonlarni optimallashtirish yoki maqsadlarga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan naqshlar, tendentsiyalar, korrelyatsiyalar va boshqa qimmatli ma'lumotlarni aniqlash uchun ma'lumotlarni olish, tozalash, o'zgartirish va sharhlash jarayoni.

Aqlli integratsiyalashgan ma'lumotlar ma'lumotlarni tahlil qilishda asosiy rol o'ynaydi, chunki u ma'lumotlar bilan ishlash uchun asos yaratadi. Integratsiyalashgan va tuzilgan ma'lumotlarsiz ma'lumotlarni tahlil qilish ancha kam samarali va ko'p vaqt talab qiladigan jarayonga aylanadi. Aqlli integratsiyalashgan ma'lumotlar ma'lumotlar tahliliga qanday ta'sir qiladi:


1. Ma'lumotlar sifati: Ma'lumotlar integratsiyasi ma'lumotlarni tozalash, standartlashtirish va uyg'unlashtirish orqali sifatini yaxshilashga yordam beradi. Bu ma'lumotlar tahlilini yanada aniqroq va ishonchli qilish imkonini beradi.

2. Ma'lumotlarga kirish: Integratsiyalashgan ma'lumotlar turli manbalardan olingan ma'lumotlarga markazlashtirilgan kirishni ta'minlaydi, bu tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlarni olish jarayonini soddalashtiradi va tezlashtiradi.

3. Ma'lumotlarni birlashtirish: Integratsiyalashgan ma'lumotlar turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirib, bitta rasm yoki kontekstni yaratishga imkon beradi, bu ma'lumotlarni tushunishni yaxshilaydi va chuqurroq tahlilni ta'minlaydi.

Aqlli integratsiyalashgan axborot

Ichki mavjudlik Tarkibi Ma’lumot



1-rasm Integratsiyalashgan axborot nazariyasi 5 ta aksiomasi

Aqlli integratsiyalashgan axborot bu axborotning ahamiyati nafaqat uning hajmiga, balki tizimning maqsadlarga erishish uchun ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va bog'lash qobiliyatiga ham bog'liq degan g'oyaga asoslangan tushunchadir. Bu nafaqat ma'lumotlarni to'plash va saqlash, balki undan qarorlar qabul qilish, o'rganish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish uchun samarali foydalanishga qodir aqlli tizimlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Axborot integratsiyasiga bunday yondashuv atrof-muhitdagi o'zgarishlarga samarali javob bera oladigan va o'z maqsadlariga erisha oladigan yanada moslashuvchan tizimlarni yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tononi G. An information integration theory of consciousness // BMC Neuroscience. 2004. №5.

2. Masafumi O, Albantakis L., Tononi G. From the Phenomenology to the Mechanisms of Consciousness: Integrated Information Theory 3.0 // PLOS Computational Biology, 10 (5). 2014.

3. Tononi G. Integrated Information Theory // Scholarpedia. 2015. 10 (1).

4. Cerullo M. Integrated information theory: A promising but ultimately incomplete theory of consciousness // Journal of Consciousness Studies. 2011. N 18.

И.ЮСУПОВ ЛИРИКАСЫНДА МЕТАФОРАЛАР

Гуззал ОТЕПБЕРГЕНОВА-*Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер ҳәм мәденият институты Нөкис филиалы оқытыўшысы*

Таянч сўзлар: тема, образ, жанр, шакл, бадиий услуб синтези.

Ключевые слова: тема, образ, жанр, форма, синтез художественных методов.

Key words: theme, character, genre, form, synthesis of artistic methods.

Поэзияда мазмунды образлы сәўлелендириўде көркем тил әҳмийетли поэтикалық қубылыс болып табылады. Көркем образды жаратыў процессинде көркем тил шешиўши әҳмийетке ийе. Көркем тил, көркем сүўретлеў қуралларының ишинде аўыспалы, көркем образлы сүўретлеў қуралларының бири - метафора болып табылады. Әдебий жанрларда, әсиресе поэзиялық шығармаларда метафоралар шығарманың көркемлигин тәмийинлейтуғын поэтикалық қурал. Ол тек ғана көркем шығармада қолланылыўы менен шекленип қалмастан, күнделикли сөйлеў процессинде туўра мәнисинде ямаса аўыспалы мәниде қолланылыўы мүмкин. Поэзияда сөздиң аўысқан мәнилери образлы, эмоционаллық экспрессивлик жақтан пикирди анық, қысқа, ықшам жыйнақлы, толық жеткерип бериўде қолланылады. Бундай көркем поэтикалық қубылыс метофораларда ушырайды.

«Метафора (гр.-metaphora -аўысыў) – көркем шығармада сүўретленип атырған образға сыртқы көриниси яки белгили бир қәсийети жағынан уқсаслығына қарай образларды алмастырып сүўретлейтуғын поэтикалық қурал»[6:152] - деп көрсетеди. Қазақ алымы З. Қабдолов:-«Әдебий тилдеги ең баслы қубылтыўлардың бири – аўыстырыў яки метафора – сөздиң мағанасын түрлендирип, өзгертип айтыў, сүўретленип атырған заттың ямаса қубылыстың мағанасын жоқарылатыў, мазмунын тереңлестирип, тәсирин күшейтиў»[7:368] - деп жазады. Демек, поэзияда мазмунның тереңлесиўине, оқыўшының сезим-туйғыларының артыўына, көркем-эстетикалық тәсир етиўине метафоралардың әҳмийети айрықша болып табылады.

Көркем әдебиятта көркем тил, көркем поэтика ҳәм көркемлеў қуралларының теориялық тийкарлары Г. Абрамович, Б. Томашевский, В.Поляков, И. Султан, Т. Бабаев, Ҳ.Умаров, С.Ахметов, Қ.Камалов, Қ.Жәримбетов, Қ.Оразымбетов, Ж.Есенов, Б. Генжемуратов ҳәм т.б алымлар тәрепинен үйренилди. [2,3,4,5,6,7] Усы алымлардың мийнетлериндеги илимий теориялық принциплерин басшылыққа алып И.Юсупов поэзиясында метофоралардың қолланылыў өзгешелиги, көркем эстетикалық тәсиршеңлиги, көркем образлылықты, пикирдиң ықшам-жыйнақлылығын тәмийинлеўдеги хызметин үйрениў әҳмийетли мәселелердиң бири болып табылады.

И.Юсупов поэзияда инсанның руўхый қубылысларын көркем сүўретлеў барысында көркемлик изленислер алып барды. Шайыр халық турмысын, инсанның ишки сезимлерин, кейпиятларын, қурамаласып баратырған дәўир келбетин поэтикалық қураллар арқалы көркем пикирлеўде образлылыққа ийе болды. И.Юсупов поэзиясында үйрениў барасында метафоризациялық

усыл менен жасалған сөз мәнилерин ямаса метафоралардың бир неше топарларын байқаўға болады.

Шайыр поэзиясындағы метафоралардың басым көпшилиги затлардың, қубылыслардың олардың белгилериниң түр-түси, хызмети т.б. белгилерине қарай пайда болған екинши мәнилери болса да, сол мәнилердиң жийи қолланылыўы арқалы қосымша мәнилери дерлик жойылып, нәтийжеде сөздиң туўра мәнисиндей болып кеткен семантикалық бирликлерден ибарат. Бундай метафоралар образлылық жақтан бийтәртип болғанлықтан көркем шығармаларда әдеттеги сөзлердей қолланыла береди.

И.Юсупов пикирди, туйғы-сезимлерди аўыспалы мәниде қурыўда, лирикалық мазмунды тереңлестириўде аўызеки ҳәм жазба поэзияда дәстүрге айланған метафоралардан шебер пайдаланған. Шайырдың поэтикалық дүньясында «гүл», «бүлбил», «булақ», «таў», «дәрья», «бүркит», «суңқар», «арғымақ» ҳәм т.б. метафоралардың поэтикалық хызмети көркем образлылықты тәмийинлейди.

Шайда **бүлбил** қонып таза **гүллерге**,
Хош қылықлы шийрин зибан тиллерде… [8:80]
Дүньяға даңқ жайған өзбек еллери,
Ғумшалап ашылған ығбал **гүллери**…[8:330]

Бул еки қосық қатарларындағы метафоралар жәмийетлик-публицистикалық мазмун, туўылған жердеги жаңаланыўлар, жаңа қубылыслар гүл образында бериледи. Бунда гүл ҳәм бүлбил метафоралары өмир гөззаллықларын, сулыў жаңа қубылыслардың, дәўир ҳәм заман ағымының жаңаланыўы, жәмийеттеги унамлы қубылыслардың көркем образлылығын атқарып тур.

Қызлардың сулыўлығын, нәзиклигин гүл образы арқалы сәўлелендириў поэзияда жаңалық емес. Шайыр бул қубылысты жаңаша поэтикалық түс берип, лириканың көркем эстетикалық тәсиршеңлигиниң артыўына ериседи.

Аўпәрин! Бул кимниң **гүли**?
Әжинияз, Мақтумқулы,
Күншығыстың көп **бүлбили**
Сайрай-сайрай тәрип еткен,
Енди нәўбет бизге жеткен… [8:106]

Қосық қатарларында гүл метафорасы арқалы гөззал қыздың сулыў келбети көркем образы сәўлеленген. Ал бүлбил метафорасы гөззаллық жыршысы болған ашықлардың көркем образы болып табылады.

И.Юсупов лирикасында метафоралық сүўретлеў барлық қосықларында ушырасады. Шайыр дөретпелеринде муҳаббатты әдиўлеў ҳәм қәстерлеў,

жоқары шайырлық мәденият ҳәм адамгершилик көзқараслар арқалы сәўлелендирилген. Шайырдың поэтикалық изленислери турмысымыздағы бәсекиликтиң күшейгенлиги, қарама-қарсылықлы дүнья, заманның тез пәт пенен раўажланыўы, адамзат жәмийетиниң, барлық инсаниятты руўхый кеширмелерин шайыр сезе билди. Мине, усы ой-толғанысларын символикалық-метофоралық усыллар менен көркем эстетикалық талапларға толық жуўап беретуғын шығармалар дөретти.

Әдебиятлар

1.Абрамович Г.Л. Введение в литературоведение. Москва. Учпидгиз. 1961.

2.Ахметов С., Есенов Ж., Жәримбетов Қ. Әдебияттаныў атамаларының орысша-қарақалпақша түсиндирме сөзлиги. Нөкис. Билим. 1994.

3.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент. Ўзбекистон, 2002.

4.Генжемуратов Б. Әжинияз лирикасының поэтикасы. Нөкис. Билим. 1997.

5.Оразымбетов Қ. Ҳәзирги қарақалпақ лирикасында көркем формалардың эволюциясы ҳәм типологиясы, Нөкис:-«Билим», 2005.

6.Jarimbetov Q., Genjemuratov Б. Ádebiyat teoriyası, Tashkent: -«Sano-standart», 2018. 152-b.

7.Қабдолов З. Сөз өнери, Алматы, «Мектеп», 1982. 368-б.

8.Юсупов И. Таңламалы шығармалары II том. Нөкис:-«Билим», 2018.

XX ASR O‘RTALARIDA QORAQALPOG‘ISTONDA ALOQA SOHASI KADRLARI FAOLIYATI

Dauletmuratov Rashit Begimbaevich-*O‘zbekiston Respublikasi IIV Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi*

Aloqa jamiyat infratuzilmasining ajralmas qismi, elementi sifatida milliy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlariga asoslangan aloqa, pochta, telefon, telegraf, radio va televideniyening ko‘plab liniya va kanallari mamlakatimiz hududini o‘z davlatining o‘ziga xos nerv tizimini ifodalovchi ulkan, ba’zan ko‘rinmas tarmoq kabi qamrab oladi. Ushbu tizimsiz mamlakatni, murakkab iqtisodiyotni boshqarish, odamlar o‘rtasidagi muloqot, davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik, ilmiy va madaniy qadriyatlar almashinuvi uchun zarur bo‘lgan eng xilma-xil ma’lumotlarni uzluksiz uzatish mumkin emas[1.3].

Yon atrofdagi odamlar, xalqlar bilan fikr almashib, ulardan boxabar bo‘lib yashash, qo‘shnilarning hayoti, turmush tarziga qiziqish azal-azaldan insoniyat uchun buyuk ehtiyoj bo‘lib kelgan. Uni qondirish yo‘llarini izlash va topish kishilik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi, dunyo sivilizasiyasining muhim

bir qismini tashkil etadi. Ta’kidlash kerakki, bu ehtiyojni qondirish uchun bugungi kunimizgacha ancha ishlar qilingan[2.138].

1950-yilda Qoraqalpog‘iston aloqa xodimlari respublikamiz aholisiga xizmat ko‘rsatishning sifat ko‘rsatkichlari va madaniyatini yanada yuksaltirish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Aloqa boshqarmasi tomonidan tuman markazlarida telefon va radio o‘rnatish bo‘yicha kapital qurilish rejasi muvaffaqiyatli bajarilib, Nukus shahrida shaharlararo, shahar telefon stansiyasi foydalanishga topshirildi.

Kegeyli va Xalqobod tuman markazlarida telefon stansiyalari rekonstruksiya qilindi, eskirgan kam quvvatli uskunalar yangilariga almashtirildi. Qoraqalpog‘iston aloqa korxonalarini yangi, eng ilg‘or texnologiya bilan jihozlash, o‘rnatilgan uskunalardan yaxshiroq foydalanish, aloqa xizmatlarini kengaytirish imkonini berdi, buning natijasida aloqaning barcha turlariga ayirboshlash o‘tgan yillarga nisbatan oshdi.

Aloqa boshqarmasi faoliyatining ijobiy natijalari bilan bir qatorda ish sifatini tubdan yaxshilash va Aloqa vazirining 101-sonli buyrug‘ida belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshira olmasligi, 1950-yilda, Aloqa bo‘limiga aholi va davlat muassasalaridan ko‘plab murojaatlar kelib tushayotgani shundan dalolat beradi. Eng ko‘p murojaatlar To‘rtko‘l, Mo‘ynoq, Qipchoq Qorauzyak tumanlaridagi pochta aloqasi xizmatlari faoliyati yuzasidan, asosan, qishloq joylarda pochta markalarini yetkazib berishning yomonligi, viloyat bo‘ylab pochta jo‘natmalarining o‘z vaqtida jo‘natilmasligi, telefon aloqasining yomonligi yuzasidan kelib tushmoqda[3.8].

1950-yilda shahar va tumanlararo telefon aloqalarida, shuningdek, viloyatlararo va magistral telefon aloqalarida katta miqdordagi shikastlanishlar sodir bo‘ldi, ularning umumiy soni, ma’lumotlariga ko‘ra, 561 soat aloqa uzilishlari bilan 51 ta holat.

Nukus telegrafi ham qoniqarsiz ishladi, bu esa 1950-yilda telegrammalarni telegraf orqali uzatishning sustlashuvini bartaraf eta olmadi. Aloqa organlari ishidagi qayd etilgan kamchiliklar xodimlarni qoniqarsiz boshqarish natijasida yuzaga kelgan. Kadrlarni tanlash, joylashtirish va tarbiyalashda kamchiliklar ko‘p bo‘ldi.

Aloqa idoralari rahbarlari Aloqa vazirining 1950-yil 16-oktabrdagi 22469-sonli direktiv xatidan kadrlar bilan ishlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar to‘g‘risida to‘g‘ri xulosa chiqarmagan va xodimlarni tanlashda siyosiy beg‘arazlikka yo‘l qo‘yishda davom etavergan, xodimlar bilan ishlashga kirishmaslik va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rmagan, ko‘plab aloqa xodimlari direktiv xatning mazmuni - kadrlarni to‘g'ri tanlash va joylashtirish ekanligi bilan tanishmagan[4.9].

Qoraqalpog‘iston aloqa boshqarmasining asosiy ishlab chiqarish bo‘yicha shtatlari 1950-yilda 494 kishidan, aloqa boshqarmasining 23 nafar xodimidan iborat edi.

Respublikamizning kadrlar tarkibi quyidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi: xodimlarning umumiy sonidan 251 nafari erkaklar, 243 nafari ayollar, ya’ni 49,1 foizini tashkil etadi. 2 nafari oliy ma’lumotli, 9 nafari o‘rta texnik ma’lumotli, 58 nafari umumiy o‘rta ma’lumotli ishchilardir. Aloqa organlarida ish stajiga ko‘ra: bir yilgacha ishlaganlar – 120 nafar, ya’ni 24,3 foiz, 1 yildan 3 yilgacha ishlaganlar – 109 nafar yoki 22,0 foiz, 3 yildan 5 yilgacha ishlaganlar – 112 nafar yoki 18,4 foiz, 10 yildan ortiq - 62 kishi yoki 12,5%.

Qayd etish joizki, 494 nafar fuqarodan 374 nafari aloqa idoralarida 1 yildan ortiq, 285 nafari esa 3 yildan ortiq mehnat qilgan. Bu Respublikada kadrlar bo‘yicha xodimlarning 57,6 foizi mavjudligidan dalolat beradi.

Milliy kadrlar tarkibi 132 nafar yoki 26,7 foizni tashkil etadi. Tuman aloqa bo‘limlari boshliqlarining tarkibi quyidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi: 13 nafar aloqa bo‘limlari boshliqlaridan 1 nafari aloqa idoralarida 3 yilgacha, 3 nafari 3 yildan 5 yilgacha, 1 nafari 5 yildan 10 yilgacha ish stajiga ega. 10 yildan ortiq - 8 kishi. Ishlagan lavozimdagi ish tajribasiga ko‘ra, 1 yilgacha - 3 kishi, 3 yildan 5 yilgacha - 6 kishi, 5 yildan ortiq - 4 kishi. Partiyaviy tarkibiga ko‘ra, 12 nafar partiya a’zosi va nomzodi, 1 nafar partiyasiz shaxs. Milliy tarkibiga ko‘ra ruslar - 5 kishi, ukrainlar - 3 kishi, o‘zbeklar - 2 kishi, qozoqlar - 2 kishi, qoraqalpoqlar - 1 kishi.

Ma’lumoti bo‘yicha: o‘rta texnik ma’lumotli - 1 kishi, o‘rta umumiy ma’lumotli - 1 kishi, to‘liq bo‘lmagan o‘rta ma’lumotli - 7 kishi, quyi ma’lumotli - 4 kishi[5.11].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Очерки истории развития связи в Узбекистане». Тошкент «Фан», 1991 г. стр 3.

2. Юнусов Н. ва б. «Оптик алоқа асослари» / Р.И. Исаев, Г.Х. Миразимова. — Тошкент: Чўлпон, 2014. – 138 б.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (QR MDA). R-551-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 6859-yig‘ma jild, 8-varaq.

4. QR MDA. R-551- jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 6859-yig‘ma jild, 9-varaq.

5. QR MDA. R-551- jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 6859-yig‘ma jild, 11-varaq.

YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASHDA ERKIN VOHIDOV IJODINING O‘ZIGA XOSLIGI

Ishmatova Nargis Murtazokulovna-O‘R MG Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda barkamol shaxsni tarbiyalashda Erkin Vohidov ijodining, xususan, “O‘zbegim” qasidasining tutgan o‘rniga e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: “fozil kishi”, “komil inson”, “barkamol avlod”, Renessans, “Taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbegim” qasidasi, Vatan, vatanparvarlik, “zanjirband sher”

Har bir jamiyat o‘ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga o‘z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e’tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa qator talablar qo‘yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talabiga to‘liq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni “tugal er”, Forobiy “fozil kishi”, tasavvuf namoyandalari “komil inson” deb ataganlar. “Har tomonlama rivojlangan shaxs”, “uyg‘un rivojlangan shaxs” atamalari ham qo‘llanilgan.

Mustaqillikdan keyin biz shaxsga nisbatan “komil inson”, yosh avlodga nisbatan “barkamol avlod” atamalarini qo‘llay boshladik. Gap atamada emas. Qanday sifatni qo‘llamaylik, kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda milliy ma’naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olmog‘imiz lozim. Binobarin, sun’iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan “to‘rtinchi sanoat inqilobi” insonga qo‘yadigan talablarini oldindan modellashtirishimiz va ta’lim-tarbiya tizimini ularga moslashtirishiz kerak.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma’naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag‘rikenglik asosida yuz bergan. Islom halollik va to‘g‘rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo‘ygan. “Ilm izlab Chinga bo‘lsa-da, bor”, “Sendan harakat – mendan barakat”, “Bir soatlik adolat barcha ins-u jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun” va ko‘plab shu kabi hadislar, naqllar ajdodlarimizning ijtimoiy mo‘ljaliga aylangan edi.

Bugungi kunda respublikamizda yoshlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy-siyosiy bilim darajasi, ma’naviy va jismoniy kamoloti, ayniqsa, ma’naviy tarbiyasi masalalari 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi “Taraqqiyot strategiyasi”da ham ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asoslab berilgan. Jumladan, unda jismoniy sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish muhim masala sifatida belgilangan.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim jarayonida yoshlarga iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, g‘oyaviy ta’lim-tarbiya va bilim berish, ularni har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda barcha fanlar qatori adabiyot ham muhim o‘rin tutadi.

Adabiyot deb atalmish ulkan mamlakatga qadam ranjida qiladigan har bir ijodkor o‘ziga xos ovozda kirib keladi. Kimdir xalqchil, kimdir dardchil, kimdir xalqona va kimdir rindona, kimdir hajviy, kimdir jiddiy, kimdir sho‘x va kimdir o‘ychan va sodda.

Sevimli shoirimiz, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov she’rlarini mutolaa qilar ekanmiz, yuqorida qayd etilgan barcha sifatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Erkin Vohidov shoir, dramaturg, publitsist, tarjimon va dostonnavis sifatida ijod qilgan bo‘lsa-da, avvalo, u lirik shoir sifatida xalq ko‘nglidan joy oldi. Dastlab hayot, go‘zallik, yoshlik, muhabbat kuychisi bo‘lib maydonga chiqdi. Taqdir in’om etgan hayot, saodat, yoshlik, muhabbat sururini, hayotdan rizolikni to‘lib-toshib kuyladi. Xalqimiz erishgan yutuqlar, uning shonli tarixi, qo‘lga kiritgan g‘alabalari to‘g‘risida faxr-iftixorga to‘la satrlar bitdi.

Odamlarga faqat she’ring emas, o‘zing kerakligini sezish – bu katta baxt. Shuning uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon o‘zimni olib qochgan emasman. Qaynoq hayot ichida yashab, ishlab o‘rganganman. [11-sinf, Adabiyot, 290-bet] Darhaqiqat, Erkin Vohidov ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan uyg‘unlikda olib borgan jamoat arbobi sifatida ham samarali mehnat qilgan.

Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, istiqlol g‘oyasi, mustaqillik uchun kurash mavzusini XX asrning 60-yillarida o‘zbek she’riyatiga Erkin Vohidov olib kirdi. Sho‘ro davrida o‘sib, tarbiyalanib voyaga yetgan avlod xalq irodasi, o‘ziga xos tarixi, millatning sha’ni, qadr-qimmati, jismoniy va ma’naviy kuch-qudrati ifodalangan, ajdodlarining shon-shavkati ulug‘langan she’rlarni ishtiyoq bilan o‘qishi, o‘qiganda ham to‘g‘ri qabul qilishi (ya’ni uqishi) biroz qiyin edi. Shu bois o‘sha paytda Erkin Vohidov tomonidan yaratilgan “O‘zbegim” qasidasi odamlar ongi-shuuriga chaqmoqdek urildi. Ayrimlarni kuydirdi, ba’zilarni karaxt qilib qo‘ydi. Lekin bu chaqmoq juda ko‘pchilikning qalbidagi zulmatni yoritib yubordi. Buning boisi “O‘zbegim” qasidasi o‘z davrida millatning ma’naviy ehtiyoji tarzida dunyoga kelgan va xalqning ayni paytdagi biroz bo‘lsa-da, yangilanayotgan xohish-istagini ifodalagan edi. Qasida 60-yillar boshlarida esa boshlagan demokratiya shabadasidek millatning biqiq ko‘nglida burqsib turgan milliy or-nomus, milliy iftixor tuyg‘usi darchasini ochib yubordi. Natijada, bu she’r odamlarda o‘ziga ishonch, qat’iyat, milliy g‘urur paydo qildi. [**“Sharq yulduzi” jurnali, 2013-yil, 2-son.** Yo‘ldosh Solijonov. “Ruhiyatni yoritgan she’riyat”]

Qasidada o‘zining vatanga bo‘lgan muhabbati, uning tarixini gavdalantirishga mohirona harakat qilib, ushbu asarida tarixan mashhur bo‘lgan shaxslar: al-Beruniy, al-Xorazmiy, al-Farobiy, Navoiy, Firdavsiy-u Bobur, Nodira-yu Ulug‘beklar va yana bir qator ulug‘ siymolarimizni baralla

yoritib o‘tganligi – adibning tarixiy xotiralar bilan hamnafas qalam tebratganligining yorqin namunasidir.

Menga Pushkin bir jahon-u,
Menga Bayron bir jahon.
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko‘ksi osmon, o‘zbegim.

Yuqoridagi ushbu satrlar “O‘zbegim” qasidasidan keltirilgan bo‘lib, bunda adib jahon adabiyotining ikki azim chinori, zabardast adabiyotchilari – Pushkin va Bayron nomlarini keltira turib, ular bilan qarama-qarshi, bemalol bahslasha oladigan turkiy she’riyatning misoli bir “zanjirband sher”i – Alisher Navoiyni keltirar ekan, Navoiy singari donishmand insonning avlodi ekanligidan ko‘ksi osmonda ekanligini ta’kidlaganligi – adibning o‘z ajdodlariga bo‘lgan yuksak ehtirom tushunchasining amaldagi isbotidir. Adibning ipga tizilgan marjon singari purma’no satrlarida jamlangan g‘oya va fikrlar ijodkorning yuksak she’riy mahorati va “she’riyat” deb atalmish tushunchagi shunchaki emas, balki qalban, butun vujudi, ong-u shuuri bilan yondashganligini ko‘rsata olgan. Haqiqiy ijodkor aslida mana shunday bo‘lmog‘i lozim. O‘quvchi yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda shoirning aynan shu qasidasida keltirilgan har bir satrini misol keltirish mumkin.

Qayga bormay boshda do‘ppim, g‘oz yurarman gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan O‘zbekiston, o‘zbegim.

Bu qasidada, shoirning ilk mashhur she’rlaridan biri milliy turmushidagi choy ichish, choynak va piyola detaliga bog‘liq bo‘lganidek, o‘zbeklar qiyofasini belgilaydigan bosh kiyimga daxldor ekanligini, bu milliy bosh kiyim ma’naviyatimizning bir bo‘lagi sifatida o‘zbek degan millatning dunyoga tanitadigan vositalardan biri ekanligini tushunish qiyin emas.

Rim qaysari va Chingiz-u Botular bosqiniga ko‘ksini qalqon qilgan xalqimizni ulug‘larkan, shoir ishg‘ol ostidagi vatanning fojiali manzarasini shunday chizadi:

Yog‘di to‘rt yondin asrlar boshingga tiyri kamon,
Umri qurbon, mulki toroj, yurti vayron, o‘zbegim.
Davr zulmiga va lekin bir umr bosh egmading,
Sen – Muqanna, sarbador – sen, erksevar qon, o‘zbegim…

Bu qasidada erksevarlik ramzi o‘laroq tilga olingan Muqanna, sarbadorlar haqida keyinchalik Muhammad Alining romani, Azim Suyunning dramasi, Mirzapo‘lat Toshpo‘latovning qissasi, ko‘plab she’rlar yaratilganida ham bu satrlarning ta’siri bor, albatta.

“O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini

tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 43/75-sonli Prezident qarorida o‘quvchilarda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish, shuningdek, xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo, Amir Temurning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo‘lida o‘zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O‘zbekiston xalqiga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalash” da aynan Erkin Vohidovning “O‘zbegim” qasidasining alohida o‘rni bor. O‘zbek tiliga bo‘lgan hurmat; vatanni himoya qilish, uni asrab-avaylash, kerak bo‘lsa, vatan uchun ko‘ksini qalqon qilish “barkamol, vatanparvar avlod”ga xos ekanligini ta’kidlash joiz.

Shularga suyanib, O‘zbekiston va o‘zbeklarning qadim Turkiston va Turonga bog‘liq tarixlarini, milliy qadriyatlarni she’rga solish “O‘zbegim”day obidani yaratish faqat Erkin Vohidovga nasib etdi, deyish mumkin.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov o‘z she’rlarida millat dardini ochiq ayta olgan, yuksak tuyg‘ular haqida kuylagan, ayni vaqtda, faqat o‘zigagina xos hazil-mutoyiba bilan jamiyat hayotidagi muammolarga oyna tutgan. Har bir satrida vatanga bo‘lgan muhabbat, tilga bo‘lgan e’zoz, qadriyat va an’analarimizga bo‘lgan cheksiz hurmat ufurib turadi. Yangi O‘zbekistonda yashayotgan har bir yosh avlod ham shoirning she’rlaridan, ham vatanparvar shoirning o‘zidan faxrlanib yashashi tabiiy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 43/75-sonli PQ.
2. **“Sharq yulduzi” jurnali, 2013-yil, 2-son.** Yo‘ldosh Solijonov. “Ruhiyatni yoritgan she’riyat”.
3. 11-sinf, Adabiyot, darslik, 290-bet

YOSHLARDA VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHDA “TEMUR TUZUKLARI” ASARINING ROLI VA AHAMIYATI

G‘aniyev Akmal Sobirovich, Ozbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya Toshkent - “Temurbeklar maktabi” tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida davlat boshqaruvi, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik masalasi ochib berilgan.

Аннотация. В статье проблема государственного управления, меценатства и гуманизма раскрывается в труде великого полководца и государственного деятеля Амира Темура «Темур тузуклари».

Annotation. In this article, the issue of state management, philanthropy, and humanitarianism is revealed in the work of the great general and statesman Amir Temur’s "Temur Tuzuklari".

Kalit so‘zlar: Amir Temur, “Temur tuzuklari”, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik va davlat boshqaruvi

Mamlakatimiz qadimdan alloma-yu mutafakkirlar, olim-u fozillar diyori hisoblanadi. “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo‘q” [1] – dedi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev. Bu hududdan jahon ilm-fani ravnaqiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan Abu Nasr Forobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari qomusiy allomalar, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi mutafakkirlar, To‘maris, Shiroq, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo kabi mard va jasur sarkardalar yetishib chiqdi. Zero, o’zbek ma’rifatparvar adibi Abdulla Qodiriy ta’kidlaganidek, moziyga qaytib ish ko’rish xayrlidir. Ushbu tamoyilga amal qilgan holda, vatanimiz tarixini qunt bilan o’rganishimiz lozim bo’lgan yorqin sahifalariga nazar tashlalar ekanmiz, ular orasida hech shubhasiz, Amir Temur siymosi alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo‘lgan “Temur tuzuklari” asarida buyuk ajdodlarimizning siyosiy, harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalariga oid qarashlari va pand-nasihatlari (o‘gitlari) har tomonlama aniq, ishonarli va ta’sirchan tarzda yoritilgan.

Dunyo tarixida qudratli saltanat barpo etgan Sohibqiron Amir Temur o‘zining azm-u shijoati, yuksak mahorati, mardlik va jasorati tufayli shonli tariximizda o‘chmas iz qoldirgan. U Kesh viloyatidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida 1336-yil 9-aprel kuni barlos urug‘ining oqsoqollaridan biri bo‘lgan Amir Tarag‘ay xonadonida tavallud topgan. U o‘zining ilk harbiy faoliyatini qo‘l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o‘zaro kurashlarida qatnashib jasorat ko‘rsatgan va janglarda chiniqqan, harbiy mahorat hamda oliyhimmatlilik sohibi bo‘lib borgan Amir Temur umri davomida to‘plagan boy tajribalari va kuzatishlariga tayanib, o‘zining saltanatni tutib turish va uni odilona boshqarish borasidagi qarashlarini “Tuzuk”larida jamlagan.

“Temur tuzuklari” asari Amir Temurning saltanatda olib borilgan adolatli boshqaruv siyosati haqida ma’lumot beradigan qimmatli asardir. Asar 2 qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, shu jumladan, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o‘z tasarrufiga kiritishi, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qism mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o‘ziga xos vasiyat, pand nasihatlari va o‘gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo‘sini va boshqa xususida gap boradi.

Ana shu to‘plam tarixiy asarlarda va turli tildagi tarjimalarga mos holda “Temur tuzuklari”, “Tuzukot Temuriy”, “Temurning aytganlari” va “Voqeoti Temuriy” – “Temurning boshidan kechirganlari”, “Qissai Temur”, “Malfuzoti Temuriy”, “Temur Qissasi”, “Zafar yo‘li”, “Zafarnoma”, “Tarjimai hol”, “Esdaliklar”, “Tanziymot” (yangi qonun-qoidalar, islohot), turkiy chig‘atoy tilidan rus tiliga o‘girilganda Malfuzot va Tuzukot o‘rniga “Dastur ul amal” nomlari bilan mashhurdir [2].

“Temur Tuzuklarida” davlatni boshqaruv va ilm-fanga alohida e’tibor berilgan: O‘z tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, tartibi va qudrati yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xshaydirkim, ko‘rgan har kimsa undan nigohini olib qochadi. Shuning uchun ham men saltanatim binosini islom dini, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do‘stlarim oldimga panoh izlab kelganlarida, ularni o‘zimning baxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ulardan ayamadim. Yana o‘z tajribamdan bildimki, sodiq va haqiqy do‘st uldurkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, do‘stining dushmanini o‘z yovi deb biladi. Agar kerak bo‘lsa, o‘z do‘sti uchun jonini ham ayamaydi. Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘-e’tiborli kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuzalolari va mashoyihlariga ta’zim bajo keltirib, ortiq hurmatladim, ularga suyurg‘ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim, o‘sha viloyatning ulug‘larini og‘a-inimdek, yoshlari va bolalarini bo‘lsa o‘z farzandalrimdek

koʻrdim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvdim. Har elning ulugʻlarini, sharafli kishilarini hurmatlab martabalarini oshirdim [3].

Amir Temur davridagi “devon”, “vazir”, “hokim”, “gʻaznachi” kabi mansab va unvonlar bugun ham davlat boshqaruv tizimida alohida institutlar sifatida shakllantirilgan. Shuningdek, mamlakatning viloyat va tumanlarga boʻlinishi ham tarixiy asoslariga ega. Bugungi qonun chiqaruvchi organ – “Qurultoy” siyosiy institutining taraqqiy etgan va rivojlangan shaklidir.

Mehribonlik, xokisorlik, ochiq yuzlilik, qat’iyat, haqiqatgoʻylik kabi fazilatlar Amir Temur yutuqlarining kalitlaridandir. Ezgulik dushmanni ham doʻstga aylantirishi haqida u bunday oʻgit beradi: “Davlatim va saltanatim quyoshi koʻtarilib kelayotgan vaqtda menga iltijo qilib kelgan yaxshi-yomon odamlar, xoh yaxshilik, xoh yomonlik qilgan boʻlsin, saltanat taxtiga oʻtirganimdan keyin ularni xayr-ehsonlarim bilan xijolatga qoʻydim… Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroq boʻlishga intildim” [4]. Sohibqiron sadoqat, qat’iyat va adolatparvarlik kabi fazilatlarni ulugʻlagan. Ikkiyuzlamachilik, munofiqlik kabi razil odatlarga nafrat koʻzi bilan qaragan. “Tuzuklar”da bunday hikoya qilinadi: “Tajribamda koʻrdimki, aqlli dushman johilu nodon doʻstdan yaxshiroq ekan. Chunonchi, Amir Qazagʻanning nabirasi amir Husayn nodon doʻstlardan edi” [5].

“Raiyatini oʻzimga qaratib oldim. Hammani qoʻrquv va umid orasida saqladim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim”[6], deb yozadi Amir Temur. Ibn Arabshoh “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” asarida bunday ma’lumotni keltiradi: “U hazil-mazax va yolgʻonni yoqtirmas, oʻyingayu koʻngilxushlikka maylsiz, garchi oʻziga ozor yetadigan biron narsa boʻlsa ham, sadoqat unga yoqar edi... Jasoratlilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. U xatosiz fikrlovchi, ajoyib farosatli, mislsiz baxtli, ulugʻvorligi oʻziga muvofiq, qat’iy azm bilan soʻzlovchi, boshiga kulfat tushganida ham haqni soʻzlovchi kishi edi”.

Amir Temur oʻz imperiyasiga qoʻshib olgan mamlakatlarni idora etish uchun tayinlanadigan kishilarga qoʻyiladigan talablar tizimini ham ishlab chiqdi. Bunday rahbarlar Amur Temur talabiga koʻra qoʻyidagi fazilatlarga ega boʻlishi lozim boʻlgan:

1) Oliy janob tabiatli va ruhiy holatining koʻtarinkiligi;

2) Nozik aql va ziyraklik;

3) Yuksak malaka hamda xalq va qoʻshinga murojaat qila bilish;

4) Sabr-toqat va odamlar bilan murosaga kelishmoq. Mana shu yuqoridagi qoida va talablar Amir Temur hokimiyatini idora etishda va uni mustahkamlashda muhim oʻrinni egalladi. Sohibqiron tuzgan imperiyaning ma'muriy-xududiy boʻlinishi asosan tumanlardan iborat boʻlganligi uchun yangi amirlik tizimini

shakllantirish va mustahkamlash zarur edi. Shu bois Amir Temur 313 kishiga amirlik mansabini berishga farmon berib, shulardan bir kishini amir-ul-umaro, 4 kishini beklarbegi, 100 kishini o‘nboshi, 100 kishini yuzboshi va 100 kishini mingboshi etib tayinladi. Bulardan tashqari 8 ta amirlar amir-ul-umaro yordamchilari etib tayinlanganlar. Amir Temur milliy g‘urur, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar bilan qurollangan buyuk davlat arbobi edi. Mojar olimi Xerman Vamberi ta'kidlaganidek, O‘rta Osiyoda asl turklik davri Temurdan boshlangan. U turklarning mug‘ul-xitoy dunyosining ustidan g‘alabasini mujassam etib, milliy davlatga asos solgan, mamlakatning rasmiy tili turk (o‘zbek) tili bo‘lgan. Buyuk Amir Temurning siyosiy faoliyati nafaqat davlatchilik tarixini boyitishda, shu bilan birga hozirgi sharoitda milliy davlatchiligimizni mustahkamlashda ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Temur tuzuklarida Amir Temur o‘zi tuzgan qo‘shinning tuzilishi, qurollanishi hamda buyuk sohibqironning harbiy san'ati haqida ham muhim ma'lumotlar berilgan. Zero Amir Temur tuzgan qo‘shin o‘zining strategik va taktik maxorati bilan o‘sha davrning eng mukammal va kuchli armiyalaridan hisoblangan. Amir Temur esa jahonda mahoratli buyuk sarkarda sifatida shuhrat qozongan. Hozir ham ko‘pgina xorijiy mamlakatlar harbiy o‘quv yurtlarida “Temur taktikasi” mahsus kurs sifatida o‘tiladi. Yurtimiz va xalqimiz mustaqil bo‘lgach, mustaqil davlatchiligimiz asoslarini yaratishda buyuk Amir Temur va uning «tuzuklari»ga murojaat qilmoqdamiz. Uning «Kuch adolatda» tamoyili esa huquqiy davlat barpo etishimizda yo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Buyuk sohibqiron Amir Temurni nafaqat O‘rta Osiyo xalqi, uni butun jahon tan oldi. Chunki u faqat O‘rta Osiyodagina emas, dunyoning boshqa xalqlari uchun ham buyuk xizmatlar qildi.

Amir Temurning mardligi, jasorati ayniqsa, bunyodkorlik salohiyati barcha xalq va millatlar tomonidan tan olingan xislatlaridan biridir. Temur saltaniga elchi sifatida tashrif buyurgan Klavixoning esdaliklari haqida Lyusen Keren shunday yozadi: “Yo‘lyo‘lakay ular Amir Temurning vatani bo‘lmish Kesh shahrini ziyorat qildilar, uning darvozasi peshtoqiga “Qudratimizga shubha qiladigan bo‘lsang, biz qurdirgan binolarga boq” degan mag‘rur shior bitilgan “Oqsaroy”ni tomosha qildilar [7]. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir” [8]. Shunga ko‘ra biz bugungi jamiyatimizning oldida turgan inson omilini qadrlash, uning shakllanishi, kamol topishi va shu bilan birga ilm-fanni yuksaltirishda sohibqiron Amir Temurning bor boy madaniy va ma’naviy merosi “Tuzuklar” juda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Islom sivilizatsiyasi markazining qurilish jarayoni bilan tanishish vaqtidagi nutqi. https://www.gazeta.uz/oz/2018/12/21/islom-sivilizatsiya/

2. M.Sherov, B.Xaitov. Amir Temur tuzuklariga harbiy-siyosiy sharh. (Monografiya), - Chirchiq, 2021. 7-bet.

3. Ahmedov B..Temur Tuzuklari -, forschadan Alixonto‘ra Sog‘uniy tarjimasi. Toshkent, 137-betlar

4. Temur tuzuklari. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. 89-bet

5. Temur tuzuklari. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. 131-bet

6. Temur tuzuklari. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. 157-bet

4. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Fransuz tilidan B.Ermatov tarjimasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2020. 236-bet

8. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2016. 13-bet.

O‘zbek bolalar folklori janridan foydalanishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni

Irisboyeva Xotira Utbosarovna O‘zbekiston Respublikasi-*Milliy gvardiyasi Toshkent “Temirbeklar maktabi” bosh o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek bolalar folklor janridan foydalanishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish, masal, ertak, rivoyat janrlari stilizatsiyasi tufayli masal ertak, she’riy adabiy ertak, naql ertak singari oraliq shakllari haqida tahliliy misollar keltirilgan.

Kalit so’zlar: masal ertak, she’riy adabiy ertak, naql ertak, oraliq shakllar, ballada, she’riy rivoyat, doston, masalnavislik, xalq og’zaki ijodi janrlari.

O‘zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotida xalq og‘zaki ijodining o‘rni benihoya ulkandir. Bunda folklorizmlardan unumli foydalanish, masal, ertak, rivoyat janrlari stilizatsiyasi tufayli masal ertak, she’riy adabiy ertak, naql ertak singari oraliq shakllarning yuzaga kelish holati chuqurlashib bordi. Shu tufayli o‘zbek bolalar adabiyotida liro-epik asarlar yaratish tamoyili kuchayib, ularning g‘oyaviy-mavzuviy miqyosi kengayib bormoqda. Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz merosimiz an’analari va jahon, qardosh xalqlari adabiyotlari ijodiy tajribalarini o‘zlashtirish zaminida o‘zbek bolalar adabiyotida liro-epik tur g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetila bordi. Buning natijasi o‘laroq hozirgi zamon bolalar adabiyotida o‘nlab masallar, balladalar, ertaklar va dostonlar maydonga keldi. Q.Muhammadiyning “Dunyoda eng kuchli nima?”, “Solijon”, Sh.Sa’dullaning “Laqma it”, “Ikki donishmand”, P.Mo‘minning “O‘rinbosarlar”. “Eh, rosa shirin ekan”,”Xolning jiyron velosipedi”, “Oltin nay”, “Jalil eshitgan ertak”,

Q.Hikmatning “Toshbaqalar hujumi”, ”Bobodehqon hangomasi”, “Chovkar”. “Chirchiq farzandi”, R.Bobojonning “Cho‘pon o‘g‘li”, M.A’zamning “Aqlli bolalar”, “Bedananing buvisi”. T.Adashboyevning “Dovonlar”, “Harflarning sarguzashti”, E.Raimovning “Bir dona yaproq”, R.Tolibning “Sehrgar do‘stim bor”, “Maqtanchoq”, S.Barnoyevning “Biz dehqon bolasimiz”, “Oltin shahar haqida afsona”, “Oltin oshiqlar” kabi poema, ertak – dostonlar va she’riy ertaklari yaratildi.

Folklor janri, shakli, obrazlari va badiiy tasvir vositalari bolalarni katta olam muammolari, go‘zalliklari, tashvishlari bilan tanishtirishda, ular dunyoqarashini shakllantirishda yaqindan yordam beradi. Ayniqsa, xalq ijodidagi qahramonona ruh, adolatning nohaqlik, yaxshilikning yomonlik ustidan g‘alaba qilishi yosh bolalarning ruhi va intilishi, orzu-umidlariga mos keladi. Shuning samarasi o‘laroq o‘zbek bolalar she’riyatida xalq ertaklari va dostonlari materiallari, syujeti, shakli zaminida liro-epik asarlar vujudga keldi va rivoj topib bordi.

Bu sohada S.Barnoyevning xizmatlari alohida e’tiborga loyiq. Uning o‘zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotidagi o‘rnini yaratgan asarlari orqali ko‘rsatish mumkin. Ular janriga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

1. Masallar.
2. Balladalar.
3. She’riy ertaklar.
4. She’riy rivoyatlar.
5. Dostonlar.

Xalq ijodidan ilhomlanib yaratilgan asarlar bolalarning ma’naviy-ijtimoiy ongini o‘stirishda, axloqiy-estetik tushunchalarini chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynashini yaxshi tushungan S.Barnoyev ijodida bu janrlar o‘zining tadrijiy takomilini topganligini quyida ko‘rib chiqamiz.

Adabiyotimizda so‘nggi yillarda masal janri rivojlandi. Yunon adabiyotida Ezopdan boshlangan bu hodisa jahon xalqlari adabiyotida mustahkam o‘rin oldi, hatto ayrim adabiyotlarda faqat masalnavislik bilan shug‘ullanib shuhrat topgan ijodkorlar (I.A.Krilov, o‘zbek adabiyotida Yamin Qurbon) ko‘zga tashlana boshladi. Alisher Navoiy, Gulxaniy, Hamza, Elbek kabi ijodkorlar esa bu janr taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdilar. Chunki “masal qisqa hajmli, nasr va nazmda yoziladigan, voqelikni allegorik hamda simvolik obrazlar vositasida ifoda etuvchi mustaqil syujetga hamda asardan asarga o‘tib yuruvchi traditsion obrazlarga ega bo‘lgan satirik, yumoristik, pand nasihat kabi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi asardir”[1.61.] “O‘zbek bolalar poeziyasida masalchilik janri ham g‘oyat sust o‘smoqda, - deb yozadi S.Mamajonov. - Shoirlar goh yo‘l- yo‘lakay bitta-ikkita masal yozib qo‘yishadi. Bolalar Gulxaniyning “Zarbulmasal”ini, Hamza, N.Krilov, S.Mixalkov masallarini nihoyatda sevishadi”. 30-yillarda o‘zbek

poeziyasida masalchilik ancha jonlangan edi[10]. Zero, masal voqeabandligi, qiziqarliligi bilan bolalar o‘qishiga qulayligidan A.Avloniy, S.Aziziylar ilk darsliklarga masal namunalarini kiritib, undan didaktik maqsadlarda foydalanish namunasini ko‘rsatgan edilar. Shu bois Hamza va Elbek kabi shoirlar ham bu janrga ko‘p e’tibor bergandilar. Buning sababi, birinchidan, bolalarning masalning asosi bo‘lgan majoziy voqelik va obrazlarga qiziqishlari bo‘lsa, ikkinchidan, qissadan hissa chiqarish xususiyatining ustuvorligi, uchinchidan, bunday asarlardan tarbiyaviy vosita quroli sifatida foydalanishning qulayligidir.

S.Barnoyev ham shu maqsaddan kelib chiqib, masal janrida o‘z qalamini sinab ko‘rdi va aytish mumkinki, hatto ozmi-ko‘pmi muvaffaqiyatga erishdi. Shoir bu janrga qo‘l urarkan, dastlab o‘zbek klassiklari Navoiy, Gulxaniy, Hamza, Elbek va boshqalarning, rus va jahon masalnavislari tajribalarini ijodiy o‘zlashtirishga harakat qildi. Masalda, Krilov ta’biri bilan aytganda, “haqiqat yarim ochiq tarzda” beriladi. Undan nima uchun, asosan, masal janrida ijod qilishi sababini so‘rashganida: “Bu janr hamma uchun tushunarli: uni dehqonlar ham, bolalar ham o‘qiydi..” deb javob bergan ekan. Xuddi ommapobligi tufayli masalga S.Barnoyev ham rag‘bat bilan qaradi.

Shoirning masallari rang-barang mavzularda yozilgan. Uning “Yulduzxon va Bahorjon” kitobiga kiritilgan “Tez yordam”, “Qushlar ansambli”, “Konsert” kabi asarlari masal janrida yozilgan bo‘lsa, “Olmaxon”ning janrini esa shoirning o‘zi “masalnamo” deb belgilagan.

Masalchilikda qushlar obraziga murojaat qilish an’anasi Elbekning “”Qora qushlar ila Toshbaqalar”, ”Olaqarg‘a bilan Qurbaqa”, A.Rahmatning “Qaldirg‘och”, Sh.Sa’dullaning “Ayyor chumchuq”, Q. Muhammadiyning “Chumchuqcha haqida ertak”, “Zag‘izg‘on” kabi masallarida ko‘zga tashlanadi. Ustozlar an’anasini davom ettirgan S.Barnoyev ijodida ham bu obraz, aniqrog‘i, dangasa chumchuq obrazi yaratilganini ko‘rish mumkin.

Shoir masallari taraqqiyotga g‘ov bo‘layotgan har qanday illatlar bilan bo‘lgan eng muhim, zaruriy muammolarni hal qilishda hajvning o‘ziga xos vositalaridan biriga aylana olgan. “Tez yordam” masalida kichkina chumoli to‘rt tomonga qo‘ng‘iroq qilib, tez yordam chaqiradi, o‘rmon yonyapti deya barcha hayvonlarni uyg‘otishga kirishadi. Kichkina masalda turli hayvonlarning obrazlari yaratilgan. Shoir ularning har biriga xos sifatlarini aniq, lo‘nda tasvirlash orqali yosh kitobxonni qiziqtirish yo‘lidan boradi: “Olashaqshaqning shaqillashi”, arslonning o‘kirishi, yo‘lbarsning bo‘kirishi, “dumi daroz tustovuq” kabilar tabiiy tasvirlanadi. Chumolining qo‘ng‘irog‘idan hamma hayvonlar bezovta bo‘lib qoladi. Shunda tadbirkor tulki “o‘rmonning egasi” filni uyg‘otmaslikni maslahat

berib qoladi. Karkidon, g‘oz, xo‘rozlar chumolini fikridan qaytaradilar. Shunda “xayolga cho‘mgan” chumoli boshqacha yo‘l tutadi: qaytadan qo‘ng‘iroq qilib, hammani to‘yga chaqiradi, bu esa o‘rmonning egasi filga ham yoqib tushadi. Bu masal Alisher Navoiyning “Sher bilan Durroj” hamda Hamzaning “Toshbaqa bilan chayon” masaliga o‘xshab ketsa-da, unda xatosini tushungan va darhol uni tuzatgan chumolining harakati oqlanadi. Shoir unda katta g‘oyani ifodalamoqchi bo‘ladi: yaxshi ish qilsang, hammaning hurmatini qozonasan, yaxshi xabar bilan chumoli hammaning ko‘ziga yaxshi ko‘rinadi va tezda tilga tushadi. Ko‘rinadiki, xalqning o‘z hayotiga oid haqiqatni kulgi, kinoya, masxara yo‘sinida ifodalash tarzida yuzaga kelgan masal – majoziylik orqali shoir ilgari surgan masalani yaqqol ifodalaydi. G‘oyani yorqin ifodalash uchun shoir chiroyli o‘xshatishlar, sifatlashlardan foydalanishga harakat qilgan, shunday bo‘lsa-da, g‘oyaning aniq emasligi, bolaning tasavvuriga sig‘masligi masal mazmuniga biroz soya tashlab turibdi. Masal sodda tilda yozilgan, bola uni qiziqish bilan o‘qiydi, faqat qissadan hissa chiqarishda biroz qiynaladi.

S.Barnoyevning “Konsert”, “Qushlar suhbati”, “Tez yordam “ kabi kichik masallarida folklorning ta’siri kuchli bo‘lganligidan ular xalq og‘zaki ijodidagi kabi tabiiy soddaligi, ohang ravonligi bilan ajralib turadi, ularda bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlari hisobga olingan. Shunga ko‘ra bu masallar bolalarda estetik zavq uyg‘otishga va ularga yangi axloq me’yorlarini o‘rgatishga xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslar keyingi vaqtlarda o‘zbek epik she’riyatimizda qisqa masallarning tez-tez uchrab turishi mazkur janrning taraqqiy etayotganligidan dalolat berishini ta’kidlaydilar[2.149.] Bu fikrni bolalar uchun yaratilayotgan masallar misolida ham aytish mumkin. Jumladan, S.Barnoyevning “Qushlar suhbati”, “Mushukvoyning deganlari”, “Mushuk-sichqon o‘yini”, “Qo‘rqmas-qo‘rqoq” kabi kichik masallarida maqtanchoqlik, qo‘rqoqlik kabi salbiy xususiyatlar qoralansa, “Chumolilar” masalida mehnatsevarlikni ulug‘laydi.

Xullas, shoir mumtoz masalchilikdagi an’analardan ijodiy foydalanib, o‘zbek bolalar epik poeziyasida masal janrini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdi. Eng muhimi, ilg‘or an’analarni davom ettirish bilan birgalikda masallarida hozirgi zamon bolalari hayotidagi muammolarni aks ettirib, bolalar masalchiligi mazmun mundarijasi va obrazlari olamini boyitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Doniyorov X., Mirzayev S. So’z san’ati. Toshkent. 1962 . B. 149.
2. Mamajonov S. Bolalar poeziyasi / Ishonch va burch. Toshkent. 1982. - B. 61.
3. Nusratova, H. (2021, October). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish: doi: 10.53885/edinres. 2021.80. 81.021. In *Научно-практическая конференц* (pp. 51-52).

Shaharlarning vujudga kelishini geografik sharoiti va iqtisodiy omillari masalalari

G'affarov Maqsadbek Qadamboyevich-*Urganch davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi*

E-mail: *maqsadbekgaffarov@gmail.com*

Annatatsiya: Maqolada O'zbekiston hududida shaharlarning vujudga kelishini geografik sharoiti va iqtisodiy omillari masalalari tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar: A.S.Kes, M.R.Qosimov, M.J. Jo'raqulov, A.V.Vinogradov, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Ustyurt, Surxondaryo,Xorazm, Qoraqalpog'iston, O'rta Osiyo,Sariqamishbo'yi, Qizilqum, Ustyurt, Ohangaron vodiysi, Chotqol tog' tizmasi, Ko'lbuloq, Seleng'ur, Haydarkon, Olmabuloq, Qoratepa, Aydabol, Churuk, Oqtoylik manzilgohi.

Аннотатция: В статье освещена история вопросов географических условий и экономических факторов создания городов на территории Узбекистана.

Ключевые слова: А.С. Кес, М.Р. Касимов, М.Ю. Джоракулов, А.В. Виноградов, Ташкент, Фергана, Зарафшан, Устюрт, Сурхандарьинская область, Хорезм, Каракалпакстан, Средняя Азия, Сарыкамышбойи, Кызылкум, Устюрт, долина Охангарон, Чоткальский хребет, Колбулок, Селенгур, Хайдаркон, Алмабулок, Каратепа, Айдабол, Чурук , поселок Актойлик.

Abstract: The article covers the history of the issues of geographical conditions and economic factors of the creation of cities in the territory of Uzbekistan.

Keywords: A.S. Kes, M.R. Kasimov, M.J. Dzhorakulov, A.V. Vinogradov, Tashkent, Fergana, Zarafshan, Ustyurt, Surkhandarya, Khorezm, Karakalpakstan, Central Asia, Sarikamishboyi, Kyzylkum, Ustyurt, Ohangaron Valley, Chotkal mountain range, Kolbulok, Seleng'ur, Haidarkon, Almabulok, Karatepa, Aydabol, Churuk, Aktoylik settlement.

Kirish va dolzarbligi. XX asr nashrlar va milliy mustaqillik yillari adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlar ushbu bandni yoritishda nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Geologik taraqqiyot natijasida vujudga kelgan O'zbekiston hududi yuzasi tuzilishini namoyon qilgan Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Ustyurt, Surxondaryo va Xorazm hududlarini geografik joylashishi, hududiy chegaralari bir-biri bilan kesishmaydi, geografik koordinatlari bir yo'nalishda emasligi tabiati, iqlim sharoiti, flora va faunasi bilan bir-biridan farqlanish holati o'z Vatanimizning tabiiy xaritasida aks etgan manazarada o'z aksini topgan. Yer geologiyasi Qaynazoy erasini to'rtlamchi davrida yuz bergan paleotektonik harakatlar natijasida O'zbekiston hududi tog'lik va tekislikdan iborat bo'lgan.

Vatanimiz yer yuzasini Ustyurt, Toshkent, Farg‘ona, Zarafshon, Jizzax, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston respublikalari hududlari o‘z navbatida geografik sharoiti, tabiiy-iqtisodiy resurslari, iqlim sharoiti, aholining joylashish xususiyatlari bilan farqlanishiga ega. Mazkur tarixiy-geografik hududlarning geografik sharoiti, iqtisodiy omillarga osmono‘par tog‘lar, uni to‘yintirgan tabiat in’omiga bog‘liq bo‘lgan. Tadqiqotchilar qayd qilishicha, bundan 4-3 million yilliklarda O‘rta Osiyo, ya’ni Sariqamishbo’yi-Orol dengizi janubiy hududi, Qizilqum-Orol dengizi oralig‘i tekislik bo‘lgan[11].

O’rganilish darajasi. O‘zbekiston hududi tekisligi 71% ni tashkil qilgan, qolgani esa tog‘lik va dasht bo‘lgan[12]. Albatta mazkur tekislik yuzasi dasht tasvirida bo‘lsa ham, flora va fauna dunyosi ushbu sharoitga moslashgan, tog‘lik qismi o‘ziga xos landshaftga egaligi bilan tabiat manzarasi xilma-hildir. Albatta, tekislikni to‘rtlamchi davrni Pleystotsen muzligi Mindel bosqichida muzlik qoplagan[13]. A.S.Kes ma’lumotiga ko‘ra, O‘rta Osiyo hududi odamzotning joylashib, tabiiy manbalardan foydalanib, xo‘jalik yo’nalishlarini belgilab olishiga tabiat omillari bo‘lishini to‘g‘ri qayd qilgan[14]. Ta’kidlash lozim bo‘ladiki, Vatanimiz hududlari joylashishi bir-biridan farqlanadigan geografik koordinatlarini, geografik muhiti, iqlim sharoiti, iqtisodiy manbalarga zahirasi kabi omillarni inobatga olish mumkin. Shu jihatidan olganda o‘lkamiz tabiiy-iqtisodiy hududlarda odamlarning bir tarixiy davr yoki bir xronologiyasida joylashmagan. Muayyan geografik hududlarda joylashganligi nashrlarda qayd qilingan ma’lumotlardan ma’lum. Albatta odamzotning joylashgan hududlarning geografik sharoiti, iqlim antropogen landshafti kundalik turmush sharoiti, ularni xayot va ijodi natijalari bo‘lgan moddiy va ma’naviy madaniyatiga ta’sir qilgan. Xuddi shu geografik sharoit, iqtisodiy omillar zaxirasi odamzotning hayotiy taqdirini belgilab bergan, shu asosda vujudga kelgan tarix taqozasiga ko‘ra, tabiiy-iqtisodiy omillarga ega bo‘lgan. Qo‘shni hududlarga joylashib, jamiyat iqtisodiy asosini tadrijiy ravishda rivojlantirganlar degan xulosani qayd qilish joiz. Ibtidoiy jamoa tuzumining ilk bosqichida, ilk paleolit davrida O‘zbekiston yer yuzasi tuzilishini namoyon qilgan tog‘, uning tizmalari, tekislik botiqlari qor va yomg‘ir suvlari natijasida suv havzalariga ular etagiga ulangan hududlarda odamzot kelib joylashishiga va iqtisodiy omillar imkon yaratgan[15].

---

[11] Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии //Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в Плейстоцене и Голоцене в Средней Азии-М; Наука. 1974-С.290-291.

[12] Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси-Тошкент, Ўқитувчи, 1996-Б.7.

[13] Кабиров Ж, Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси-Тошкент,:Asian Book House-2020 Б.13.

[14] Кесь А.С. Природные факторы, обусловливающие расселение древнего человека в пустыне Средней Азии /КСИЭ-М.: Наука, 1958.Вып.XXX-С.171-172.

[15] Баратов П. Ўзбекистоннинг табиий географияси.-Тошкент, Ўқитувчи. 1996-246 Б.

Tadqiqot natijalari. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarga ko‘ra, Ustyurt platosi markaziy qismi bo‘lgan Shaxpaxta havzasi geografik sharoitini tasvir qilgan, qurib qolgan quduqlar atroflarida ilk tosh davrida odamzot tomonidan o‘zlashtirilgan etnik makon bo‘lgan[16]. Darhaqiqat Vatanimiz shimoli-g‘arbiy hududida joylashgan Ustyurt 200000 km^2 hududi tomonlar ochiq, daryolardan holi, tekislik manzarasi botiq, jarliklar faqat tabiat tomonidan bo‘ladigan suv ta'minotiga bog‘liq bo‘lsa ham, odamzot joylashib, hududi etnik jarayonlarni olib borishiga bo‘lgan iqlim sharoit hamda iqtisodiy omillar mavjudligi keng imkoniyatni yaratganligi bois, kundalik turmush tarzini bosqichma-bosqich olib borganlar.

Ustyurt platosida ochiq tipdagi manzilgohlarda odamzotning kundalik faoliyatlarini olib borishi yagona emas. Mazkur tarixiy davrda tog‘ va uning tizmalari atroflari geografik sharoiti, iqtisodiy manbalarga serob bo‘lganligi bois, odamotning joylashib, etnik jarayonlarni olib borishini xususiyatlariga ega. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo‘lsak, Toshkent, Farg‘ona va Zarafshon vodiysi shimoli-g‘arbiy hududlarida ko‘kka bo‘y cho‘zgan tog‘ tizmalari hamda tekislikda mavjud bo‘lgan buloqlar atroflariga odamzot joylashib, ilk etnik munosabatlarni olib borishiga iqtisodiy manbalar va ekologiyasi imkon bergan. Masalan, Toshkent viloyati Ohangaron vodiysi Chotqol tog‘ tizmasida Ko'lbuloq chashmasi atrofi tekislik buloq atamasida ochiq manzilgoh, Farg‘ona vodiysi Oloy tog‘ tizmasi So‘x daryosi atrofida Haydarkon qishlog‘i hududida Chashma qishlog‘i hududida yer sathidan 2000 m balandlikda joylashgan. Seleng'ur g‘or-makonida odamzot muqim o‘rnashib, mehnat faoliyatlarini biqiq sharoitda olib borganlar[17].

Selengur g‘or-makoni atroflari tabiiy-iqtisodiy va ekologiyasi jihatida qulay imkoniyatdan foydalanib, Chashma buloqlaridan uddaburon va epchillik bilan qulay iqlim sharoitda etnik munosabatlarni geografik hududda olib borganlar. Albatta tog‘ yuqori qismida ming-minglab yillar mobaynida qoplangan muzliklar hamda yomg‘irlarni bo‘lib turishi iqtisodiy va ekologik vaziyatni hosil qilgan. Shu bilan birga, tog‘larning yana bir xususiyati tekisliklarni ham suv bilan to‘yintirishi iqtisodiy va ekologik manbalarning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. M.R.Qosimov Ohangaron daryosi irmog‘i Jarsoy o‘ng sohili hududida, Ko‘lbuloq chashmasi sohili hududidagi ochiq manzilgohda olib borilgan qazishma ishlari natijasida 1-22 ta quyi qatlami ilk tosh davriga mansub bo‘lgan[18].

---

[16] Бижанов Е.Б. Памятники каменного века впадины Шахпахты Археология Приаралья-Ташкент,:Фан, 1984. Вып-2-С.8-21.

[17] Исламов У.И. Крахмалов К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии-Тошкент, Фан, 1995. С.5-25.

[18] Касымов М.Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулок в Узбекистане //МИА;-М.:Наука, Вып. 185-С.7-25.

Chotqol tog‘laridagi suv ta’minoti doimo mavjudligi Ko’lbuloq chashmasi organik dunyosi, atroflarda geografik muhiti, ekologiyasi Ko’lbuloqliklarga kundalik turmush tarzi uzoq vaqt davom ettirishiga imkon bergan.

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, Zarafshon vodiysi Qoratog‘ tizimida Uchtut, Ijond va Vaxsh manzilgohlari madaniy-qatlamlaridan olingan ashyolar, Seleng’ur va Ko’lbuloqlik ovchilar tomonidan qo‘llanilgan tosh qurollariga o‘xshashligi qayd qilingan[19]. Ilk tosh davridan boshlab, inson o‘rnashishi uchun geografik o‘rin, atrof-muhit, antropogen landshafti, turmush tarzini belgilab bergan mehnat qurollari ta’minoti bo‘lgan hudud tabiiy-geografik muhit, tabiiy resurslarini tanlab olishga e’tiborni qaratgan. Shu sababdan dastlab 1500-2000 m tog‘, g‘or va tizmalari hamda tekisliklarda buloqlar atroflari tanlab olingan.

O‘zbekiston tarixida tosh davrini xususiyati tog‘ g‘or-makonlari, tekislikda buloqlar atrofida ochiq manzilgohlarda istiqomat qilib, kasbi-korlarini olib borishiga tog‘-kon ashyosi mehnat qurollariga ega bo‘lishi, tog‘li hududlar yovvoyi o‘simliklarga hamda hayvonlari iqtisodiy omillarni tashkil qilgan bo‘lsa, tekislikda uning dashtli joylari, suv havzalari tevarak atroflari o‘simlik dunyosiga serobligi hamda tuyoqli hayvonlar izidan yurib, hududlar sari ko‘chib yurishi qadimgi tosh davri xususiyatlaridan biri. Har bir tabiiy-xo‘jalik hududning iqtisodiy omillari tabiiy muhitga bog‘liq bo‘lgan, bu jarayondan ibtidoiy ovchilar chekkada qolgan emas. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, mezolit davrida iliq va nam iqlim sharoiti davri odamzotga keng tekislikda mavjud bo‘lgan iqtisodiy omillar, serobligi, ya’ni ko‘psonli suv havzalari, ko‘llar, cho‘l sharoitida turli o‘simlik, hayvonot dunyosi xilma-xilligidan tabiiy oziq-ovqatlarni kundalik ehtiyojini ta’min qilishga imkon bergan[20].

Mana shu geografik sharoit va tabiiy-iqtisodiy omillar bo‘lishiga imkon bergan iliq va nam iqlim O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida Ustyurtda odamzotning kundalik faoliyatlarini Aydabol, Churuk, Oqtoylik manzilgohlarida mavjud bo‘lgan iqtisodiy omillardan uddaburon va epchillik bilan foydalanib kasbi-korlarini davom ettirganlar. Masalan, Ustyurtda mezolit davri ovchilari kundalik hayotida ishlatilgan mehnat qurollari-ya’ni ov qurollari, nayza, o‘q uchlari, tosh qirg‘ichlar, tosh pichoqlar 36-61 % ni tashkil qilgan. Shu bilan birga,yog‘och, teri, suyak, tosh va chig‘anoqlardan ham mehnat qurollari topilgan[21]. Ustyurtda ozuqa mahsulotlarini izlab yuradigan yovvoyi hayvonlar ochiq dasht holatiga mos bo‘lganlar, ovchilarni kundalik taomnomasida go‘sht mahsulotlari bo‘lishini ta’min qilgan.

---

[19] Кабиров Ж, Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси-Ташкент, Ўқитувчи, 1990-Б.20.

[20] Виноградов А.В, Мамедов Э.Д. Ландшафтно-климатические условия среднеазиатских пустын в голоцене //ИМКУ-Ташкент,: Фан, 1974. Вып II-С.32-44.

[21] Авазова А.К. Трасологический анализ орудий труда стоянин юго-Восточного Устюрта //Археология Приаралья-Нукус, 2003. Вып-VI-С. 17-20.

Ustyurt geografik sharoit va iqtisodiy omillardan tubdan farqlanish xususiyatlari Quyi Amudaryo, Zarafshon vodiysi g‘arbi - Qoraqum, Qizilqum, Toshkent va Farg‘ona vodiylari geografik muhiti, tabiiy sharoiti, ekologiyasi mavjudligi ovchi-termachilar faoliyat olib borganlar. Misol tariqasida, O‘rta Zarafshonda (Sazag‘on-1, Ochilg‘or), Qizilqum (Ichki qismi), (Lavlakon, Daryosoy), Toshkent vodiysida (Bo’zsuv, Qo‘shilish), Farg‘ona vodiysi (Obishir, Toshko‘mir), Surxondaryoda (Machoy) manzilgohlari O‘zbekistonning mezolit davri yodgorliklari, ularni joylashishi tekislik va tog‘li o‘lkalar bo‘lgan. Tevarak atrofdagi tabiiy resurslar, yovvoyi hayvonlar, ko‘psonli suv havzalari ovchi-termachilarni iqtisodiy bilimlarini yanada rivojlanishiga imkon bergan.[22] Ustyurt va Qizilqum iqtisodiy omili mavjudligi bois ovchilik va termachilik ustunlik qilgan.

Darhaqiqat mezolit davrida O‘zbekiston hududida geografik sharoit, iqtisodiy omillar jihatidan ikki hududga ajratish imkoniyati mavjud. Ular

1-hudud. Tekislik, suv havzalari va daryo o‘zanlari-ovchilik, baliqchilik-termachilik;

2-hudud. Tog‘li o‘lkalari ovchilik - termachilik. Mezolit davrida tabiiy harorat ko‘tarilishi munosabati bilan muzlikni shimoliy tomon chekinishi munosabati bilan Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasida keng tekislik yanada sernam va serunum bo‘lib iqtisodiy kenglik qayta vujudga kelgan. Tekislik muzlik qoldirgan nam, hamda Amudaryo, Zarafshon va boshqa daryolarning toshqini natijasida serunumligi ekin-tekinchilik qilishga qulay bo‘lgan, bu holat neolit davrida yanada kengaygan.

O‘zbekiston tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi tarixida Neolit davrida yuz bergan o‘zgarishlari bilan rivojlanish tarixiga ega. O‘zbekistonning tarixiy-xo‘jalik hududlari Uzboy, Quyi Amudaryo Zarafshon vohasi, Qizilqum, Toshkent, Farg‘ona hududlari (Jizzax va Surxondaryo hududlari madaniy-hududlarga aylanmagan) geografik sharoiti, landshaft-iqlimi va iqtisodiy omillari mavjudligi bois, an’anaviy xo‘jalik sohalari aholi tomonidan olib borilgan. Orol dengizi-Qizilqum oralig‘i tekisligini sernam va serunum holatini saqlanib qolishida Amudaryo va Sirdaryolar faoliyatlari muhim o‘rin tutgan, mazkur tarixiy davrda ularni suv oqimi barqaror bo‘lgan. Tog‘li hududlarda istiqomat qilgan ovchi-termachilar tekisliklarda suv havzalari va soy etaklariga joylashib, an’anaviy xo‘jalikni davom ettirganlar. Neolit davrida geografik sharoit, iqtisodiy manbalar insoniyatga doimiy xizmat qilishini boshlagan, turar-joylaridan olingan moddiy manbalar olingan geografik hududlar nomida ya’ni Ustyurt, Kaltaminor,

[22] Окладников А.П. Верхнепалеолитическое и мезолитическое время //Средняя Азия в эпоху камня и бронзы –М-Л.:Наука, 1966-С. 59-68. Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники Северо-Западного Устюрта //Археология Приаралья-Ташкент, 1991, Вып-1- С.14-37. Холматов Н.У. Мезолит Низовьев Зарафшана //ИМКУ-Самарканд. 2001. Вып-31.-С.25-34.

Sazog‘on, Markaziy Farg‘ona atamasida madaniyat tarixi fani sahifasidan o‘rin olgan.

Xulosa

Tadqiqotchi A.V.Vinogradov xulosasiga ko‘ra, Neolit davri aholisi olib borgan xo‘jaligi mazmun va ma’nosini o‘rganishga iqtisodiy manbani uch guruhga ajratgan ya’ni, tabiiy-geografik sharoitni namoyon qilgan hudud, iqlim, landshaft, suv manbalari, ikkinchi guruhga turar-joylari topografik joylashishi; uchinchi guruhga esa, manzilgohlar madaniy qatlamlardan olingan materiallar (tosh va suyak qurollari, hayvonlar, suyak qoldiqlari va x.k.)[23]. O‘rta Osiyo mintaqasi hududiy joylashish xususiyati jihatidan tog‘ va tekisliklar tashkil qiladi, ularning geografik muhiti,tabiat manzarasi xilma-xilligi, iqtisodiy omillari bilan bir-biridan farqlanish yer osti tebranishlari bilan bog‘langan edi. Tosh asri so‘nggi davriga kelganda iqtisodiy va ekologik omillarda tub farqlanish bo‘lgan. Nega deganda ovchi-termachilar mazkur tarixiy davrda tog‘ sharoitida faoliyatidan voz kechib, tog‘ oldi etaklariga kichik-kichik soy etaklariga joylashishini anglash qiyin emas. Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon va boshqa daryolar tog‘lardan to‘yinadi. Balandligi jihatidan tabiat hadyasiga yaqin bo‘lsa ham, ajdodlarimiz soy etaklarida kasbi-korlarini davom ettirish uchun kelishi tasodif xolati emas.

Tabiiy g‘or-makonlar to‘rt tomoni o‘rab olingan “biqiq” geografik o‘rin aholi soni oshganligi, hayot va ijod uyg‘unligi davom ettirish,iqlim sharoit hozirgi kunga yaqin bir sharoitda, faqat ovchilik va yovvoyi mevalarni tayyor bo‘lishini kutish mavsumiy holat bo‘lganligi uchun hajmi kichik va o‘rtamiyona suv sohili etagiga va soy etaklariga kelib, geografik kenglikda kundalik faoliyatlarini kengaytirish istiqbollari ancha keng. Shu bilan birga, manzilgohlarni tografik joylashishini aholi miqdori oshgan paytda uni kengaytirish imkoniyati kengligi jihatidan tog‘ hududlaridan alohida farqlanish holati ustunligi bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии //Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в Плейстоцене и Голоцене в Средней Азии-М; Наука. 1974.

2. Кесь А.С. Природные факторы, обусловливающие расселение древнего человека в пустыне Средней Азии /КСИЭ-М.: Наука, 1958.Вып.XXX.

3. Баратов П. Ўзбекистоннинг табиий географияси.-Тошкент, Ўқитувчи. 1996.

[23] Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья (ТрХАЭЭ-М.:Наука 1981. Т.XIII-С.135-136.

4. Бижанов Е.Б. Памятники каменного века впадины Шахпахты Археология Приаралья-Ташкент,:Фан, 1984. Вып-2.

5. Исламов У.И. Крахмалов К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии-Тошкент, Фан, 1995.

6. Касымов М.Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулок в Узбекистане //МИА;-М.:Наука, Вып. 185.

7. Кабиров Ж, Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси-Ташкент, Ўқитувчи, 1990.

8. Окладников А.П. Средний палеолит-Мустьерское время в Средней Азии //Средняя Азия в эпоху камня и бронзы - М-Л,:Наука, 1966.

9. Эгамбердиева Н.А. Археология /Ўқув қўлланма-Тошкент, 2011.

10. Жўрақулов М.Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий маданият тарихи саҳифаси-//Ўзбекистон археологияси-Самарқанд, № 1 (2), 2011.

11. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Приаралье в древности и средневековье-М.: ИВЛ РАН, Наука, 1998.

12. Журақулов М.Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий маданият тарихи саҳифаси. - Самарқанд, 2011-№ 1 (2).

13. Виноградов А.В, Мамедов Э.Д. Ландшафтно-климатические условия среднеазиатских пустын в голоцене //ИМКУ-Ташкент,: Фан, 1974. Вып II.

14. Авазова А.К. Трасологический анализ орудий труда стоянин юго-Восточного Устюрта //Археология Приаралья-Нукус, 2003. Вып-VI.

15. Окладников А.П. Верхнепалеолитическое и мезолитическое время //Средняя Азия в эпоху камня и бронзы –М-Л.:Наука, 1966.

16. Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники Северо-Западного Устюрта //Археология Приаралья-Ташкент, 1991, Вып-1.

17. Холматов Н.У. Мезолит Низовьев Зарафшана //ИМКУ-Самарканд. 2001. Вып-31.

18. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья (ТрХАЭЭ-М.:Наука 1981. Т.XIII.

ÁYYEMGI QÍTAY JAZBA ESTELIGI “ERYA” SÓZLIGI HAQQÍNDA

Rametova Dilara Yusupbaevna-*Ózbekstan Respublikası IIMniń Qaraqalpaq akademiyalıq liceyiniń Tillerdi úyreniw kafedrasınıń bas oqıtıwshısı*

Gilt sózler: “Erya” sózligi, ieroglif, leksikografiya, qıtay til bilimi, sinonimiya, antonimiya, polisemiya, omonimiya, sózlik quram, túsindirme sózlikler t.b.

“Erya”-bul eń áyyemgi leksikografiyalıq sózlik bolıp, ol tolıǵı menen biziń dáwirimizde shekem jetip kelgen. “Erya” tek qıtay leksikografiyasında ǵana emes, pútkil dúnya til bilimi leksikografiyasında úlken áhmiyetke iye.

“Erya”nıń qıtay til biliminde ilimiy hám ámeliy áhmiyeti ógada úlken. Birinshiden, ol áyyemgi Qıtay jazıwınıń ieroglif belgileriniń tiykarǵı kórinisin usınadı. Ekinshiden, sózlikte milodtan burınǵı sońǵı ásirlerdegi lingvistikalıq izertlewler dárejesi, ierogliflerdiń mánilerin túsindiriwdiń dástúriy usılları kórsetilgen. Sofronov[1]: ”Erya” nıń payda bolıwı menen filologiya mektep dástúrlerinen ajıralıp shıqtı hám úlken sózliklerdiń payda bolıwına tiykar boldı. Sózliktiń tiykarǵı jetiskenligi qıtaysha belgilerdi mánilik toparlarǵa ajıratıp jaylastırıw sisteması boldı“,-dep jazadı.

“Erya” tariyxı, onıń Qıtay mádeniy dástúrlerindegi ornı haqqındaǵı maǵlıwmatlar kóp tomlıq jámáátlik monografiyalar jıynaǵında basılıp shıqtı. Solardan biri M.V. Sofronovtıń “Áyyemgi qıtaylar etnogenezi mashqalası” (1978), “Oraylasqan imperiya dáwirindegi áyyemgi Qıtaylar”(1983), ‘Orta ásirlerdegi qıtay etnosı (VII-XIIIásirler) (1984),

“Etnikalıq tariyx. Qıtay orta ásirler hám jańa waqıtlar ishinde”(1987), “Qıtayda mektep dástúrleri hám Tangut mámleketi” (2002), “Áyyemgi Qıtay mádeniyatında sóz hám bilim” (2003) atlı maqalaları járiyalandı.

A.M. Karapetyanc[2] “Erya”sózligin 4-3-ásirler áyyemgi qıtay ádebiy tilinde qıtay jazıwınıń qáliplesiwi,belgili bir normaǵa túsiwdegi mashqalaları menen baylanıslı jaǵdayların kórip shıǵadı.

Qıtay xalıq respublikası hám Tayvanda sońǵı otız jıl ishinde “Erya” ǵa baylanıslı izertlewler sanı tez kóbeydi. Zamanagóy monografiyalardan tómendegilerdi atap ótsek boladı.

1.“Eryaǵa zamanagóy sholıw” Xu Chaoxya ffiffıP (Tyanjin, 1987);

2. “Erya-oqıw ushın qollanba” Gu Tinglong F.F hám Vang Shiwei LEI (Chengdu, 1990);

3.”ERYA: Sózlerdiń tereń teńizi” /KSh: 3tSHOGSH” Syu Lili hám Chjan Insininya ShSh(Syangan, 1996);

4. “Eryanıń izertleniwi” Guan Chi (1996) h.t.b

---

[1]Софронов М.В. Н.Н. Древние китайцы в эпоху централизованных империй М.,1983.416 с.

[2]Карапетьянц А.М. Формирование нормативного письменного языка в Китае // У истоков китайский словесности: собрание трудов. М., 2010. 74-103 с.

“Erya” keń leksikografiyalıq dástúrdiń baslanıwı edi. Onıń dúziwshileri tárepinen keń ilimiy qatnasqa túsken kólegen jetiskenlikler keyingi áwlad sózlik dúziwshileri tárepinen jaqsı qabıl etildi. Bunda materiallardı jaylastırıw sisteması, ieroglif belgilerin durıs túsindiriw texnikası hám sózlik súwretlerinen paydalanıw kiredi. Sonıń menen bir qatarda “Fanyan’ hám “Shoven cze czi” menen baslanǵan kóplegen keyingi sózlikler oǵan tiyisli mániler sisteması menen “Erya” ieroglif toplamınıń salmaqlı bólimin miyras etip alǵan hám saqlap qalǵan.

“Erya” keyingi dáwirlerde ierogliflerdiń dáslepki mánilerin anıqlawǵa hám Chjou hám Xan dáwirleri tekstlerin tuwrı túsindiriwge járdem berdi hám bunıń nátiyjesinde ol áyyemgi ádebiyattıń kóplegen izertlewshileri tárepinen qádirlengen hám qollanılǵn. Bul estelik óz dáwiriniń jemisi sıpatında áyyemgi qıtay jazıwı sistemasın úyreniwde úlken áhmiyetke iye. Sózlikte kórsetilgen túsinikler leksikalıq birliklerdiń mániler sistemasın tiklewge hám Cinge shekemgi bolǵan dáwir hám Cin Xan dáwiriniń áyyemgi Qıtay tiliniń leksikaliq dúzilisiniń jaǵdayı haqqında túsinikke iye boıwǵa járdem beredi.

“Milliy tildiń túsindirme sózlikleri sóylew mádeniyatınıń qúdiretli quralı hám sol waqıttaǵı mádeniyat jemisi bolıp esaplanadı“ {Vinogradov, 1977, 243 str}. Sózliktiń dúzilisi (makro hám mikro dúzilisi) til bilimi pániniń rawajlanıw dárejesin hám milliy leksikografiya tarawında toplanǵan tájiriybeni ózinde sáwlelendiredi.

Qıtay ideografiyalıq jazıwı tiykarınan qıtay til bilimi dástúriniń ózine say belgilerin hám qıtay til biliminiń baǵdarın belgilep berdi. Ideografiyalıq sistemalarda barlıqbar bolǵan belgiler sanı jazba belgiler sanı sıpatında isleydi. Yaǵnıy ieroglifler sózligi, ieroglifler sanı waqıt ótiwi menen kóbeyip barmaqta. Mádeniy hám jazba dástúrlerdi dawam ettiriw ushın jazıw belgileri haqqqındaǵı maǵlıwmatlardı saqlap qalıw kerek edi. Bul wazıypanı orınlaw ushın jaqsı leksikografiyalıq dástúr talap etildi. Qıtayda leksikografiyalıq xızmettiń baslanıwınusqa kitapları (imla normaları hám sawatxanlıqboyınsha qollanba wazıypasın atqarǵan ieroglifler dizimi) menen baylanıslı bolıp, keyin ala olar eki túrli sózliklerdi jaratıw ushın tiykar bolıp xızmet etti. Tema boyınsha shólkemlesken sinonimlik belgiler sanı tezaurus sózliklerinde kórsetiledi, olardan birinshisi “Erya” sózligi hám tiylargıı sózliklerde bir qıylı anıqlawıshlıq belgiler sanı birinshisi “Shoven Cze Czi”. Bul sózliklerdi ajıratıp turatuǵın úsh ásir dawamında belgilerdi birlestiriw barısı juwmaqlandı, nátiyjede sózlikte material jaylastırıwdıń rásmiy sistemasın jarattı. Keyin ala “Shoven Cze Czi” ge tutas sózlerde ierogliflerdiń jazılıwı, mánisi hám oqılıwına tiykarǵı itibar berilgen. “Erya” modelinde dúzilgen sózlikler enciklopediyalıq sózlikler sıpatında islep shıǵılǵan.

“Erya”nıń ózi milodtan dáslepki sońǵı ásirlerde nusqa dápterleri dástúrlerin dawam ettiredi hám juwmaqlaydı, olardıń ayırım belgilerin saqlap qaladı. “Erya” nıń payda bolıwı menen qıtay til bilimi dástúrleriniń de qáliplesiwi tıǵız baylanıslı. Sebebi, “Erya”dan soń leksikografiya qıtay til biliminiń jetekshi tarawına aylanadı.

“Erya” tezaurusınıń sıpatlaması. “Erya” túrine qaray bul lingvistikalıq hám enciklopediyalıq sózliklerdiń belgilerin ózinde jámlegen quramalı sózlik bolıp esaplanadı. Áyyemgi qıtay tilindegi sózlerdiń mánileri usı dáwirdiń ulıwma tili quralları tiykarında túsindiriledi yamasa awdarmalanadı. Terminologiyalıq baplardaǵı ayırım sózler ekstralingvistikaliq- maǵlıwmatlardı óz ishine aladı.

Sózliktiń xronologiyalıq tiykarları hám derekleri. Sózliktiń túp nusqası Chjanguo dáwiri (milodtan dáslepki 3-ásir) aqırına tuwra keledi. Keyinirek Xan dáwirinde sózlik mazmunı tolıqtırılǵan. “Erya” derekleri janrlıq jaqtan ajıralıp turıwshı Cinge shekem bolǵan áyyengi Qıtay jazba esteligi bolıp tabıladı.

Sózlik quramı. “Erya” sózliginde Cinde shekemgi bolǵan áyyemgi qıtay tiliniń sózlik quramı berilgen. Sózliktegi leksikografiyalıq sıpattıń predmeti ieroglif jazıw járdeminde jazılǵan bir buwınlı hám eki buwınlı sóz birlikleri bolıp esaplanadı. Glossariyde ulıwma sózlerden tısqarı terminologiyalıq sózler de bar. “Erya”sózligi házirgi dáwirde tolıq dep tabılmaydı. Sebebi, onda gónergen hám túsiniksiz sózler oǵada kóp.

Sózliktiń makro dúzilisi hám materiallardı jaylastırıw tártipleri. Sózliktegi materiallar maqsetine qaray on toǵız bólim-bapqa bólingen. Bólimler toparlarlarǵa bólingen. Bólimlerde materiallardıń izbe-izligi saqlanǵan hám bir-biri menen ilimiy baylanısta islengen. Bólimler ishinde materialdıń jaylasıwı semantikalıq baylanıslar tiykarında ámelge asırıladı. Terminologiyalıq sózlikke iye bolǵan baplarda birlikler bir mikrotema yaki ulıwmalastırıwshı(ulıwmalıq) túsinik penen birlestirilgen toparlarǵa bólinedi. Bul toparlar ishinde sózler mazmunlı tártipte jaylastırılǵan. Sonda da sózlerdiń tártibi bárqulla qatań saqlanbaydı, tákirarlawlar ushırasadı.

Sózliktiń úsh baslanǵısh bólimi rásmiy kriteriyalar menen belgilenedi. 1) “Shi Gu” hám “Shi Yan” baspasında túsindirilgen bólimler kólemi, mazmunı menen ózgeshelenedi. 2) “Shi xun” ushın standart bir buwınlı bolǵan dáslepki eki baptan ózgesheligi sonda, onda kóp buwınlı birlikler de berilgen.

Sózliktiń dúzilisi hám quramı “Erya” sózliginde maǵlıwmattı beriw ushın minimal birlik - bul belgili bir formula qálpinde jazılǵan. Strukturalıq komponentler sanı jaǵınan barlıq bólimler tolıq hám tolıq bolmaǵan (qısqarttırılǵan da) bolıwı múmkin.

Sózliktegi berilgen birliklerdiń mánisin túsindiriw ushın Qıtay germenevtikalıq dástúri tárepinen islep shıǵılǵan usıllardan paydalanıladı. Bunda

birliklerdi túsindiriwdiń tiykarǵı obyekti ierogliflerdiń semantikalıq tárepi bolıp esaplanadı hám tómendegi usıllarda beriledi.1)tuwrıdan-tuwrı túsindiriw(sinonim yaki jaqın túsinik arqalı, zamanagóy yaki keń tarqalǵan ekvivalent arqalı); 2) túsiniklerdi anıqlaw; 3)sıpatlama; 4) salıstırıw;

"Erya" sózliginiń tilin túsindiriw nátiyjesinde tómendegi leksika-semantikalıq- kategoriyalar: sinonimiya, antonimiya, polisemiya, omonimiya óz kórinisin tapqan. Avstrakt sózlerge iye bolǵan baplarda polisemantikalıq birlikler óz aldına jeke-jeke túsindiriledi.

Racionallıq tárepinen sózlikten paydalanıwda naqolaylıq tuwdıratuǵın "Erya"nı túsindiriwde dúzilsi hám texnikasındaǵı tiykarǵı kemshilikler tómendegiler bolıp esaplanadı.

-toǵız terminologiyalıq bapta ishki rubrikaciyanıń joqlıǵı;

-bólimlerde materiallardı jaylastırıwda sistemalastırıwdıń jeterli dárejede bolmawı;

-JE niń polisemantikalıq tábiyatı, kombinaciyalanǵan túsindiriw usılı hám ulıwmalıq fonetikalıq ózgerisler nátiyjesinde nastandart hár qıylı glosseslerdiń payda bolıwı;

-áyyemgi qıtay jazıwı sistemasında bir túrde jazıw ushın belgilerdiń bir neshe sáykes variantları bar ekenligi nátiyjesinde sóz hám ieroglif sıyaqlı birliklerdiń sózlik quramına aralasıwı;

júdá mánilik jaqınlıǵı bolmaǵan sózlerdi sinonimler qatarına kirgiziw;

Biraq bul kemshiliklerine qaramay "Erya" tezaurusın qıtay leksikografiyasınıń ájayıp qubılısı sıpatında qaralıwı kerek. Sebebi, bul tildiń oylı tártipke salınǵan sózlik quramın jaratıwda birinshi urınıs edi. "Erya"sózliginiń ullı abırayı, túrli dáwirlerdegi sózlikler ortasındaǵı baylanıstı támiyinleytuǵın úzliksiz leksikografiyalıq dástúr, sonday-aq Venyan jazba ádebiy tiliniń salıstırmalı jaqtan bekkemligi, kóp ásirler dawamında qıtay belgileri sanınıń teń salmaqlılıǵın saqlawǵa imkaniyat berdi. Sonday-aq olardı túsindiriw de házirgi túsindiriw dástúrleri menen birdey. Bul poziciya ámeliy izertlewler nátiyjeleri menen tastıyıqlanǵan. Onıń túsindiriw bólimleriniń bir bólimi bolǵan ieroglifler toplamınıń tiykarǵı bólimi biziń dáwirimizge shekem saqlanıp qalǵan.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Карапетьянц А.М. Формирование нормативного письменного языка в Китае // У истоков китайский словесности: собрание трудов. М.,2010.74-103с.

2. Мусурмонов Э.Р. Хитой тили С., 2013.

3. Гурьян Н.В. Эволюция древнекитайского тезауруса от "Эрья" до "Шимина" Филологических науки. Вопросы теории и практики Журнал. ВАК. Т., 2015.

4. Гурьян Н.В. Первый китайский толковый словарь ”Эрья”. Историческо-типологическая характеристика. Филологических науки.Вопросы теории и практики Журнал. ВАК. Тамбов., 2013.

5. Яхонтов С.Е. Древнекитайский язык. М.,1965.

Oʻquvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda huquqshunoslik fanlari metodikasining ahamiyati va oʻrni.

Otakova Mahbuba Alisherovna - *IIV Xorazm akademik litseyi huquqshunoslik fani o'qituvchisi*

Rahmonov Faxriddin Xudarganovich - *IIV Xorazm akademik litseyi huquqshunoslik fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada o`rta ta’lim va professanal ta`lim muassasalarida huquqshunoslik fanini o’qitish metodikasining ahamiyati hamda mamlakatimizda huquqshunoslik ta’limining rivojlanishi xususida so’z boradi.

Kalit so’zlar: huquqshunoslik o’qitish metodikasi, falsafa, tarix, pedagogika, psixologiya, ekologiya, didaktika.

Oʻzbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi halqimiz uchun juda katta tarixiy ahamiyatga ega boʻlgan voqeylikdir. Mustaqillik deganda davlatning oʻzi tarixiy va madaniy an’analariga suyangan holda rivojlanishning konkret sharoitlaridan kelib chiqib, oʻzining yaqin kelajagini rivojlantirishga yoʻllarini belgilaydi. Ana shunday yoʻllardan biri ta’lim sohasining barcha jabxalarida islohatlar oʻtkazishdan iborat. Bu isloxatlar ta’lim toʻgʻrisidagi qonunda oʻz ifodasini topgan. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida barcha sohalarda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning 2017 – 2021 yillarga mo’ljallangan beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha qabul qilingan “Harakatlar strategiyasining to’rtinchi ustuvor yo’nalishi – **ijtimoiy sohani rivojlantirishga** bag’ishlangan". Huddi shu yo’nalishning to’rtinchi bandida ta’lim va ilm fanga alohida e’tibor berilgan bo’lib, ta’lim tizimida jahon andozalariga mos ta’lim shakllarini tashkil etish, bilim berishning ustuvor metodlaridan foydalanishni yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Huquqshunoslik oʻqitish metodikasi huquqshunoslik asoslari bilan bogʻliq boʻlgan

oʻquv, jarayonlar, prinstiplar va qonuniyatlar toʻgʻrisidagi fandir. Mazkur prinstip va qonuniyatlarni bilish Oʻqituvchiga maktab huquq kursi bilan bogʻliq oʻquv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil yetish va boshqarish imkonini beradi. Huquqshunoslik oʻqitish metodikasi huquqshunoslik asoslari oʻquv fanlarining mazmuni, uning oʻqitish shakllari, metodlari, vositalarini oʻzaro bogʻliq holda joriy yetishning maqsad qilib qoʻyadi.

Huquqshunoslik o’qitish metodikasi huquqshunoslik asoslari o’quv fanlarining mazmuni, uning o’qitish shakllari, metodlari, vositalarini o’zaro bog’liq holda joriy etishni maqsad qilib qo’yadi. *Huquqshunoslik o’qitish metodikasining asosiy vazifasi* o’quvchilarga huquqiy o’quv fanlar bo’yicha chuqur atroflicha bilim berish, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishga ko’mak beruvchi o’quv fanlar mazmunini, o’qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Huquqshunoslik o’qitish metodikasi fan sifatida. Har qanday fan insonning tadqiqot faoliyati bilan aloqador bo’lib, u narsa va xodisalar to’g’risida bilimlar to’plashga yo’nalgan, hamda tadqiqot qilinayotgan narsa xodisalar to’g’risida to’liq va chuqur bilim olishga qaratilgan.

Fanning asosiy funksiyasi tadqiqot hisoblanadi.

Huquqshunoslik o’qitish metodikasi fan sifatida mazkur fan bilan bog’liq o’quvchilarning bilim olish, tarbiyalanish va rivojlanishini nazariy va amaliy jihatidan tadqiq qilishni maksad qilib qo’yadi. Fanning asosiy belgisi bo’lib, maqsadning aniqligi, o’rganish predmeti, bilimlarni bilish usullari va shakllari hisoblanadi. Shu bilan birga fanning rivojlanish tarixi, uning boyishiga sababchi bo’lgan kashfiyotlarni bilish ham muhim sanaladi.

Huquqshunoslik o’qitish metodikasi ijtimoiy - gumanitar fanlar tarkibiga kiradi. Shu sababli uning oldida turgan maqsad va vazifalar ham umumpedagogik maqsad va vazifalardan kelib chiqadi.

Huquqshunoslik o’qitish metodikasi barcha o’quv fanlarga taaluqli bo’lgan pedagogik qoidalarni, huquqiy o’quv materialini tadbiq yetishga yo’nalgan. Shu bilan bir qatorda huquqni o’qitish metodikasi ijtimoiy, ilmiy, yuridik, psixologik, pedagogik bilimlarni o’zida mujassamlashtiradi. Huquqshunoslik o’qitish metodikasi huquqshunoslik asoslari o’quv fanining o’qitish maqsadini, mazmunini, huquqiy bilimlarning tanlash prinsipini belgilab beradi. Huquqshunoslik o’qitishning hozirgi davrda samarali bo’lishi o’quvchilarga o’quv, mehnat va jamoat faoliyatlarida qatnashishi uchun zarur bo’lgan huquqiy bilimlar, ko’nikmalar, malakalarni egallaganliklari bilan belgilanadi.

Huquqshunoslik o‘qitish metodikasining asosiy vazifasi o‘quvchilarga huquqiy o‘quv fanlar bo‘yicha chuur atroflicha bilim berish, ularning har tomonlama
rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko‘mak beruvchi o‘quv fanlar

mazmunini, o‘qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiishdan iborat. Huquqshunoslik o`qitish metodikasi psixologiya bilan uzviy aloqadadir. Chunki, huquqni o`qitish o`quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo`lgan samara beradi. Masalan o`smirlarda ya`ni V-VI sinf o`quvchilarida diqqat beqaror bo`lgani sababli huquqshunoslik fan o`qituvchisi dars jarayonida bir necha metodlardan foydalanib, o`quvchilar faoliyatini almashtirib turadi, hamda ularning tafakkurini konkret ekanligini e`tiborga olib, ko`rgazmali vositalardan ko`proq foydalaniladi. Yuqori sinflarda esa o`quvchilar diqqati barqarorlashgani va ularda abstrakt tafakkur rivojlangani uchun darslar ko`proq ma`ruza shaklida o`tkazilishi va bir, ikki metoddan foydalanish kifoya qilinib, fan asoslarini o`zida ifoda qiladi. Davlat organlarini, davlat mexanizmini ichki tuzilishini tashqi muhit bilan aloqasini to`g`ri tushuntirish huquq, ahloq, davlat, huquq sohasi tushunchalarini o`rganish, ular ustida kuzatish, tajribalar olib borish, o`qituvchidan yaxshi nazariy bilim, amaliy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin maktab huquqshunoslik o`quv fani bilan Davlat va huquq asoslari fani orasida muhim tafovutlar borligini o`qituvchi yaxshi bilish kerak. Huquqshunoslik fanining asosiy maqsadi huquq sohalarini alohida alohida o`rganib, har bir sohaga doir tushunchalar to`g`risida tadqiqot o`tkazishi orqali yangi bilimlarni hosil qilish bo`lsa, maktab huquqshunoslik o`quv fanining maqsadi, o`quvchilarning yoshiga mos ravishda ularga huquqiy bilimlar, ya`ni huquqiy tushuncha, qonunlar, nazariyalar berishdan bilimlar va uni tushuntirishdan iborat.

Maktab huquqshunoslik kursida fan emas, balki fan asoslari – o`quvchilar uchun zarur asosiy ma`lumotlar mujassamlashgan. Shu bilan birga maktab huquqshunoslik kursi «kichik fan» emas, balki o`quvchilarning rivojlanishi va tarbiyasiga ko`mak beruvchi huquqni asosiy tushunchalar sistemasi sanaladi.

Respublikamizda huquqni o`qitish metodikasiga oid tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. O`zbekistonda sobiq Ittifoq markazida nashr qilingan darsliklar joriy etilgani va undagi ko`pgina o`quv materiallar notanish bo`lgani sababli, o`quvchilarning bilim darajasi past edi. SHu sababli respublika metodist olimlarining e`tibori maktab davlat va huquq asoslari, konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqi darslarida mahalliy materiallardan foydalanish muammosini echishga qaratildi. (A. Saidov A..Odilqoriyev, A.T.Mamatov). Shu bilan bir vaqtda konstitutsiyaviy, huquqiy bilimlarni davlat organlariga borib o`rganish, yani nazariy va amaliy faoliyatni birga olib borilayotgan amaliy ishlar bilan bog`lash masalalari tadqiq qilindi (O Karimova, T.Azizov, X.Boboyev).

1991 yili Toshkent Davlat yuridik instituti (hozirgi yuridik universitet)da “Huquqni o`qitish metodikasi” kafedrasi tashkil qilindi.

Mazkur kafedrani tashkil etilganligi bir tomondan yuqori malakali metodist olimlarni tayyorlashga, ikkinchi tomondan huquqni o`qitishdagi turli mavzular bo`yicha ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishga imkon yaratdi.

Huquqni o`qitish metodikasi kafedrasi faqat O`zbekiston uchun emas, balki qardosh Qozog`iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg`iziston respublikalari uchun ham 15 dan ortiq yuqori malakaga metodist olimlar-fan nomzodlari etishtirib berdi. Metodist olimlardan A.Saidov, M.Mamatov, A.T.Bobayev huquqshunoslik, ma`muriy huquq, jinoyat huquqi fanlaridan o`tkaziladigan sudlarga, davlat organlariga ekskursiyalarning xillari, ularni o`tkazish metodikasi, unda o`quvchilar tomonidan olib boriladigan kuzatishlar, ish organish jarayonlarida bilim, ko`nikmalarga ega bo`ladilar.

Maktab huquqshunoslik kursini o`qitishga bo`lgan didaktik talablar, huquq darslarida o`quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish masalalari

A.A. Azamxo`jayev tashabussi bilan chop qilingan "Huquqshunoslik" ilmiy nazariy jurnalida o`z ifodasini topdi. Karimova Omina Abdurahmonovna darslarni xilma- xillashtirish, noan`anaviy darslar (seminar, konferensiya, muammoli munozarali) o`tkazish o`quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, mustaqilligini rivojlantirishda, puxta bilim egallashlarida katta rol o`ynashini ko`rsatib berdi.

Maktabdagi bilimlar tushunchalardan tashkil topgan. 1978 yillardan boshlab A.J.Rafiqov boshliq bir guruh huquqshunos metodistlar xususiy huquq tushunchalarni tadqiq qildilar. Ulardan farqli ravishda 1985 yildan boshlab O.A.Karimova huquqshunoslik faniga doir tushunchalarni, xususan, "davlat", "Shaxs va huquq", "huquqiy ong va huquqiy madaniyat", "jamiyat" kabi tushunchalarni o`quvchilar qanday o`zlashtirishi haqida kuzatish, tajriba ishlarini olib bordi va bu soxada "davlat va huquq asoslarini o`qitish prinsiplari" degan mavzuda o`quv metodik qo`llanma yaratdi. Davlat va huquq asoslari o`quv fani bo`yicha dars mashg`ulotlarini olib borish to`g`risida O.A. Karimovaning "Huquqshunoslik" darsligi umumta`lim maktablarida va akademik litseylar o`quv hayotida keng qo`llanilmoqda.

Mahalliy materiallarga asoslangan holda sinfdan tashqari mashg`ulotlarni qanday shaklda mazmunda o`tkazish kerakligi M.Jumayev, H.N.Tuychiyevalarning qo`llanmasida yoritilgan. Qo`llanmada ayrim o`quvchilar, o`quvchilar guruhi hamda ommaviy ravishda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg`ulotlarning xillari, ularning mazmuni va o`zaro bog`liqligi maktablarda o`tkazilgan pedagogik tajribalar asosida ochib berilgan.

Maktab huquqshunoslik kursini o`qitishdan maqsad o`quvchilarni faqat bilimlar bilan emas, shu bilan bir qatorda ularda o`quv ko`nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat. Bu sohada sayyor mashg`ulotlarni olib

borish nihoyatda muhim sanaladi. Shuni e`tiborga olgan holda H.N. Tuychievaning Davlat va huquq asoslariga bag`ishlangan o`ndan ortiq qo`llanmalari, N.F. Saydalixodjaevaning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish jarayoniga bag`ishlangan bir necha qo`llanmalarni nashr etdilar.

Mustaqillik yillarida Respublika metodistlarining diqqat e`tibori o`quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish masalasiga qaratildi. Bu o`rinda huquqshunoslikdan noan`anaviy darslar o`tkazishga (hamkorlikda o`qitish konferensiya darslari modulli ta`lim va h) qaratildi. (Sh. Eshonova, Z. Gafforov).

Republikamiz metodistlari huquqning faqat umumiy o`qitish metodikasi bilan emas, balki xususiy metodikasi bilan ham shug`ullana boshladilar. (D.Bekbaeva va boshqalar) maktab huquqshunoslik kursida chet tillardan olingan ko`pgina atamalar mavjud.

Mazkur atamalarning tub ma`nosini bilish huquqiy bilimlarni ongli o`zlashtirishga yaqindan ko`mak beradi. O`zbek huquqshunos olimlari yuridik, huquqiy, konstitutsiyaviy atamalarning izoxli lug`atini tuzishga muvaffaq bo`ldilar. (SH. Avazova, M. Nazarova, A.Akramov, N. Saidvalieva). Mazkur izohli lug`atlardan foydalanish o`quvchilar bilimini ongli bo`lishida ijobiy natija berishi muqarrardir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: «O’zbekiston», 2023-80 b.

2.Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi: Sh.Mirziyoyev. Toshkent: «O’zbekiston», 2022 -410 b.

3. O’rta asrlar Sharqining mashhur olim va mutafakkirlari: kitob-albom. Sh.Salixov va boshq. -Toshkent: «O’zbekiston», 2016.-156 b.

4. Davlat va huquq nazariyasi: X.T.Odilqoriyev, -Toshkent: «Adolat» , 2018, -476 b.

5.O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent «O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi», 2004. - 266 б.

TA'LIM OLUVCHILARNING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM ORNI

Shrazov Adilbay Shamshetdinovich-*Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi «Ijtimoiy -iqtisodiy fanlar metodikası» kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Klıshov Qadirbay Uzaqbaevich-*Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi «Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari» kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubxasiz, yangicha, ya’ni innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi o‘quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo‘l ochib berish uchun xizmat qiladi. Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o‘z-o‘zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch – malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo‘naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari paydo bo‘lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo‘lsada, hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangidan-yangi yo‘nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo‘lishi, ular bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi, o‘zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo‘lgan talabning ortishi sanaladi.[1]

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta‘lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlaydilar. O‘quv topshiriqlari alohida bir o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a‘zolariga beriladi. O‘qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma-xil noan’anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o‘quvchining ijodiy qobiliyatini o‘stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishva har bir yangilikni tez va to‘la qabul qila olish ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida

innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o‘zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o‘qituvchi mahoratli bo‘lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, mashg‘ulot davomida barcha o‘quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog‘i lozim. Zero, o‘qituvchi ta’lim islohotining bosh ijrochisidir.Bunda har bir o‘qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to’plamini o’zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo’llay olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.Uni hal qilishda o‘qituvchiga o‘qitishning an’anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi.

Pedagogik innovatsiya bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o‘qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o‘zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan.Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g‘oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashfiyot), amaliy jihatlarda g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish. [2]

O‘qituvchi pedagoglar jamiyatining ijtimoy topshiriqni bajaradi ular har tomonlama yetuk mutaxasislarni tayyorlashda muayyan ijtimoy siyosiy pedagogik va shaxsiy talablarga javob berish lozim.Bugungi kunda o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘qituvchilardagi ijodkorlik sifatlarini shakllantirishda yetakchi vosita-lardan biri ekanligini «o‘zini-o‘zi boshqarish», «o‘zini-o‘zi rivojlantirish», «shaxsiy faollik»,«o‘zini-o‘zi tashkil kilish» kabi tushunchalarning shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim amaliyotida qo‘llanishi ham asosiy dalil bo‘lishi mumkin. Bu jarayonda pedagog-psixolog olimlarning fikriga qo‘shilgan holda, o‘qituvchining bilish faolligi va shu asosda ulardagi ijodiy intilishni qo‘llab-quvvatlash vositalari quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan bolishi kerakligini ta'kidlamoqchimiz:

a) barcha ta'lim oluvchilarni umumiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash (tinglovlchiga diqqat bilan, yaxshi munosabatda bo‘lish, ularni o‘quv-bilish jarayonini rejalashtirishga jalb qilish, o‘zaro o‘qitish muhitini yaratish, ta'limning faoliyatli mazmuni, urgatuvchi o‘yinlar, rangbarang ijodiy ishlar, ularning yutuqlarini ijobiy «muvaffaqiyat zinapoyasi»da baholash, dialogik muloqotdan foydalanish);

b) individual shaxsiy qo‘llab quvvatlash (talabaning shaxsiy muammolarini aniqlash; rivojlanish, tarbiyalanganlik, o‘qishni takt bilan tashxislash; pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlash zaruratini tinglovchining individual hususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'minlash va boshqa[3]

Ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim boshqa ta'lim turlaridan farqli ravishda o‘rganuvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini targ‘ib toptirish bilan birga, ularda yuqori aqliy faoliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirishni shakllantiradi. Interfaol ta'limda o‘qituvchi o‘quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo‘lib, o‘quvchi bu faoliyatning sub'yekti sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Interfaol ta'limni amalga oshirishning muhim vositasi interfaol o‘qitish metodlaridir. Interfaol o‘qitish metodlari o‘quvchilardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonidagi faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalga oshishiga yordam beradi.Fan o‘qituvchisi dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan muammoli ta'lim texnologiyasini yaxshi o‘zlashtirib olgani ma'qul. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari tarkibida taqdim etiluvchi sinkveyn, «Beshinchisi ortiqcha», «Charxpa-lak», BBB («Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim»), «Bumerang», «Mulokot treningi», «Blits-uyin», «Zanjir», «Munozara», «Guruhlarda ishlash», «Taqdimot», yangi mavzuni bayon qilishda «Kichik ma'ruza», «Rolli o‘yin», «Aqliy xujum», «hamma hammaga o‘rgatadi», «Impul's», «Hayot yo‘li», «Vaziyatlar», «Aql charxi» kabi qator interfaol usullar va kichik texnologiyalarni darsning maqsadidan kelib chiqqan holda loyihalashtirib qo‘llash dars sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular o‘quvchining nazariy bilimlarni puxta egallashi; vaqtdan unumli foydalanishi; ijodiy fikrlashi; darsni faollashtirish; o‘zgalar fikrini tinglay bilishi; bildirilgan fikrlardan xulosa chiqarishiga olib keladi.[4]

O‘rganuvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi. Unda o‘rganuvchiga beriladigan topshiriqlar uning o‘zligini rivojlantirishi, namoyon etishi, anglashi va baholashiga qaratiladi. Shunga ko‘ra, topshiriq turlarida o‘z-o‘zini baholash, o‘z xatolarini tahlil qilish, o‘quv faoliyatidagi o‘rnini baholash, o‘z qobiliyati va iqtidorini yuzaga chiqarishga alohida e'tibor beriladi. O‘rganuvchiga o‘quv topshirig‘i yoki o‘quv faoliyati turlarini tanlash imkoni beriladi.

U guruh tarkibida o‘z qobiliyat va layoqatlarini rivojlantirishi lozim. Shunga ko‘ra, ta'lim oluvchilarning hamkorlikda ishlashiga sharoit yaratish uchun aqliy hujum, «rolli o‘yinlar», guruhlarda ishlash, loyiha metodi kabilardan samarali foydalaniladi.O‘quv jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan, muammoli va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari bilan bog'lik interfaol usullar va o‘yinlarni darsning maqsadidan kelib chiqib, loyihalashtirib qo‘llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- o‘rganuvchilarning o‘qishga qiziqishlari ortadi;

- o‘quv motivatsiyasi kuchayadi;
- o‘rganuvchilarning darsda zerikishi va charchashining oldi olinadi;
- o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikda ishlashi ta'minlanadi;
- o‘rganuvchilarning nutqi va mantiqiy tafakkuri o‘sadi;
- o‘rganuvchida ijodiy ishlash ko‘nikmalari va faol fikr rivojlanadi .[5]

O‘qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo‘llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday chora-tadbirlarni amalga oshirmasdan turib, o‘qituvchilardagi ijodkorlikni rivojlantirish, ularni ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorlash imkonsizdir. Mazkur jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarda mavjud pedagogik innovatsiyalar, ularning xarakterli xususiyatlari, qo‘llanish parametrlari, innovatsion o‘qitish imkoniyatlari haqida ilmiy asoslangan axborotlar berish maqsadga muvofiqdir. Muvaffaqiyatli ijodiy muhitgina o‘qituvchilar tomonidan yangiliklarni faol o‘zlashtirish va o‘z faoliyatiga tatbiq etishga o‘rgatish imkonini beradi. Bu esa ularning pedagogik faoliyatlarida bir xillikdan voz kechishlariga ko‘maklashadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.

2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheckie texnologii v podgotov' uchitelya. - T.: TDPU, 2000. -80-b.

3. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari baholashda tala-balarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monogpafiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.

4. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Papdaev A. Ta'limda innovatsion texnologiya-lap. I Ta'lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. - T.: «Istedod», 2008. -180-b.

5. Yo‘ldoshev J., Yo‘ldosheva F.,Yo‘ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. -T.: «Fan», 2008. -81-b.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning yosh avlodni tarbiyalashda ilmiy-ijodiy merosining o‘rni va ahamiyati

Tańirbergenov Shamshetbay Yusupovich-*O‘zbekiston Respublikasi Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi, qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA. Bu maqolada Uchinchi Renessans davrida ijtimoiy-gumanitar fanlarning yosh avlodni tarbiyalashda ilmiy-ijodiy merosining o‘rni va

ahamiyati mavzusida tahlil qilinadi. Maqolada bu davrning fanlari, ularning tarbiya metodlari va yosh avlodni rivojlantirishdagi ahamiyati fikrlar bilan taqqoslanadi.

Uchinchi Renessans davri yosh avlodni tarbiyalashda ilmiy-ijodiy merosining oʻrni va ahamiyati juda katta boʻlib, bu davrda ijtimoiy-gumanitar fanlar, masalan, falsafa, san'at, adabiyot, madaniyat va boshqalar, juda katta rivojlanish koʻrsatgan. Bu fanlar yosh avlodni oʻzlariga oʻziga xos xususiyatlarni oʻrgatishda va ularning shaxsiy rivojlanishiga oʻz hissasini qoʻshishda juda muhim ahamiyatga ega boʻlgan.

Uchinchi Renessans davri ilmiy-ijodiy merosi, yosh avlodni tarbiyalashda oʻziga xos metodlar va texnikalar bilan birga, insoniyatning umumiy ma'rifat darajasini oshirishga yordam berdi. Bu davrda tarbiya sohasida yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bu tadqiqotlar yosh avlodni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Bu davrda, yosh avlodni tarbiyalashda ilmiy-ijodiy merosining oʻrni juda katta boʻlib, insoniyatning umumiy ma'rifat darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Bu davrda rivojlanayotgan fanlar yosh avlodni oʻzlariga xos xususiyatlarni oʻrgatishda va ularning shaxsiy rivojlanishiga oʻz hissasini qoʻshishda muhim rol oʻynagan.

Yosh avlodni tarbiyalashda ilmiy-ijodiy meros, ularning ma'rifat, bilim va rivojlanishlarini oshirishda o'ziga xos metodlar va texnikalar bilan birgalikda ularni o'zining shaxsiy potentsialini rivojlantirishga yo'l qo'yuvchi ilmiy va ijodiy qadriyatlar to'plamini ifodalaydi. Bu meros, yosh avlodning intellektual, jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash uchun muhimdir.

Yosh avlodni tarbiyalashda ilmiy-ijodiy meros, o'quvchilarning ma'rifatni oshirish, fikr yuritish va muhokama qilish bilan birga, ularning tajribalarini, fikrini rivojlantirish va o'zlashtirishga yordam beradi. Bu meros, yosh avlodning o'zining potentsialini aniqlash, uning rivojlanishini ta'minlash va ularni mustaqil fikrlashga rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi Renessans davri ijtimoiy-gumanitar fanlarining yosh avlodni tarbiyalashdagi ilmiy-ijodiy merosi, o'quvchilarga o'zlarini rivojlantirish uchun yangi metodlar va texnikalar taqdim etish, ularning fikr yuritish va muhokama qilish qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o'ynagan. Bu meros, yosh avlodni o'zlashtirish va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan va ularning intellektual va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

Uchinchi Renessans davri, inson fikrining, san'atining va madaniyatining rivojlanishi uchun ahamiyatli bir davr bo'lib, bu davrda harbiy-akademik litseylar o'quv jarayonini o'z ichiga olgan holda faol bo'lgan muassasalar edi. Bu litseylarda

fanlarni o'qitishning muammolari va ularning yechimlari esa muhim mavzular edi.

Birinchi muammo, dars mazmuni va dars jadvali bo'lib, harbiy-akademik litseylarda fanlarni o'qitishda dars mazmuni va dars jadvalini moslashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. O'quvchilarning ehtiyojlarini va ko'nikmalarini hisobga olgan holda moslashtirilgan dars mazmuni va dars jadvali o'qituvchilar uchun muhimdir. O'quvchilarga turli sohalarda keng ko'lamli bilimlar taklif qilish orqali ularning intellektual va ko'nikma joylariga xizmat qilish mumkin.

Ikkinchi muammo, o'qitish usullari va texnologiya foydalanish bo'lib, o'quv jarayonini yanada samarali qilish uchun o'qitish usullari va texnologiyalar foydalanishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. O'qituvchilar, samarali o'qitish usullari va texnologiyalardan foydalanib, o'quvchilarni yanada samarali o'qitishga yo'l qo'yishlari lozim. O'quvchilarga interaktiv va qatnashuvchi darslar tashkil qilish orqali ularning qiziqishlarini va motivatsiyalarini oshirish mumkin.

Uchinchi muammo, sinf boshqarish bo'lib, harbiy-akademik litseylarda sinf boshqarish ham muhimdir. O'qituvchilar sinf ichida tartibni saqlash va o'quvchilarni diqqatini jalb qilish uchun samarali sinf boshqarish strategiyalarini rivojlantirishlari kerak. O'quvchilarning turli o'rganish usullarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, sinf ichida samarali o'rganish muhitini yaratishlari mumkin.

To'rtinchi muammo, baholash va qayta aloqalar bo'lib, harbiy-akademik litseylarda fanlarni o'qitish jarayonida baholash va qayta aloqalar jarayonlari ham muhimdir. O'quvchilarning rivojlanishini kuzatish va ularga foydali qayta aloqalar berish, o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlashga yordam berishi mumkin. O'qituvchilar, turli baholash usullaridan va foydali qayta aloqa strategiyalaridan foydalanib, o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasini oshirishlari mumkin.

Bu muammolarni yechish uchun o'qituvchilar, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda turli usullar va strategiyalar rivojlantirishlari zarur. Bundan tashqari, o'quvchilarning faol qatnashishini ta'kiklash, hamkorlik qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, harbiy-akademik litseylarda fanlarni o'qitish jarayoni yanada samarali va foydali bo’ladi.

Uchinchi Renessans davrida ijtimoiy-gumanitar fanlarning yosh avlodni tarbiyalashda ilmiy-ijodiy merosining o‘rni va ahamiyati mavzusidagi maqolamizda quyidagi asarlar foydalanilgan. Bu adabiyotlar yosh avlodni tarbiyalashda ilmiy-ijodiy merosining o‘rni va ahamiyatini tushuntirishda yordamchi bo‘lib, Uchinchi Renessans davri fanlarining rivojlanishiga yordam beradi. Maqolamizda bu adabiyotlar asosida Uchinchi Renessans davri ijtimoiy-

gumanitar fanlarining yosh avlodni tarbiyalashdagi merosining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Yoshlarning huquqiy madaniyatning shakllanishi, ularning o‘zlarining o‘zini etakchilik bilan tashkil etish, o‘z fikrini ifoda qilish, ijtimoiy muhitda qatnashish va qonunlarni tushunish imkoniyatlarini ta’minlashlari bilan bog'liqdir.

Yoshlar huquqlari, ularning holatiga e’tibor berish, o‘z fikrlarini ifoda qilish va qat’iyat bilan boshqa insonlarning huquqlaridan foydalanish imkonini ta’minlash muhimdir.

Universal huquqlar deklaratsiyasida aytilganda, yoshlarning huquqiy madaniyatiga taqdim etilganligi ko‘rsatiladi. Bu deklaratsiyada, yoshlarga erkinlik, shaxsiyga xos hisoblanadigan huquqlar, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy muhit, ijtimoiy aloqa va ish bilan bog‘liq huquqlar ko‘rsatiladi.

UNESCO, O‘zbekiston va boshqa davlatlarda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish va tashkil etish bilan shug‘ullanadi. Yoshlar uchun dolzarb huquqiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratish, huquqiy ta’limni takomillashtirish va yoshlarning ijtimoiy faoliyatga aktiv qatnashadiganligini ta’minlash, yoshlarning ijtimoiy muhitda o‘zini ifoda qilishi uchun imkoniyatlarni yaratishga hamda o‘z fikrini oydinlashtirish, o‘zini hisobga olgan holda muomaladan o‘tadiganligini ta’minlashga qaratilgan.

Yoshlarning huquqiy madaniyati shakllanishida, ularning huquqlarini tanish, qadrlash va himoyalash uchun tashkiliy mehnatlar amalga oshiriladi. Bu madaniyat shakllanishi, yoshlarga huquqlarini tanish, ularning erkinlik, ta’lim olish, ijtimoiy faoliyatga qatnashadiganlik kabi huquqlarini himoya qilish, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishlarini ta’minlash uchun yo‘naltiriladi. Bu, ularning huquqiy madaniyatining shakllanishi, ularning huquqlarini tanish, qadrlash uchun xususiy usullarni organishlarini talab qiladi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatining shakllanishi, ijtimoiy qatnashish imkoniyatlarini ta’minlashning muhim asosiy qismidir. Bu, ularning ijtimoiy muhitda o‘ziga xos o‘rnini topish, ijtimoiy muhitda o‘zini ifoda qilishining qonunlar tomonidan ta’minlanganligini tushunadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish” - Abdullo Oripov
2. “Yoshlar huquqlari va milliy davlatlar” - Zulfiya Isroilova
3. "The Civilization of the Renaissance in Italy" - Jacob Burckhardt
4. "The Renaissance: A Very Short Introduction" - Jerry Brotton.
5. "The Renaissance: Studies in Art and Poetry" - Walter Pater.

Ózbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati toǵrisida”gi Qonuning yurtimizda yoshlar masalasining huqiqiy bazasin mustahkamlashdagi róli

Sarsenbaeva Amangul-*Qoraqalpoq davlat universiteti*

‹‹Bugingi shiddat bilan rivojlaniyotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangidan yangi, buyuk imkonyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni oldin kórilmagan túrli xil yovuz xavf- xatarlarga ham duchor etmoqda….Farzandlarimizni birovlarning qóliga berib qóymasdan, ularni ózlarimiz tarbiya qilmoǵimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan kóproq suhbatlashishimiz, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muommolarini yechish uchun amaliy yordam berishimiz kerak››, [4]. - degan edi Ózbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Istiqlol yillarida yoshlarning har tafarlama yetuk, barkamol shaxs bólib yetishishlari uchun mustahkam huquqiy baza yaratildi. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bólib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yani 1991-yil 20-noyabrda “Ózbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari tóǵrisida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan mamlakatimizda yoshlarga e’tibor masalasi davlat siyosati darajasiga kótarilgan edi. Bu qonun bosh islohatchi bólgan davlatning yoshlar masalasiga boǵliq asosiy strategik yónalishlardagi faoliyatin boshqichma bosqich va sistemali shaklda ámalga oshirilishiga imkonyat yaratib berdi. Unda faqatgina yoshlar bóyicha davlat siyosatining maqsad va principlari berilib qóymasdan, bugungi kun kóz- qarashidan ular bilan boǵliq júdá principial masalalar ham joy olgan. Qonunda birinchi marta yoshlar hayotiga boǵliq siyosat ham da dasturlarni ishlab chiqarish, amalga oshirishda yoshlarimizning toǵridan toǵri qatnashishi asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

2016- yil 16-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi Ózbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati toǵrisida”gi 4 bob, 33 moddadan iborat Qonun [1]. ham yoshlarimizning manfaatlarini táminlashda beqiyos darajda xizmat qildi. Ayniqsa mámlakatimizning tálim, madaniyat va sport sohasidagi yoshlar siyosatida bir qator imkonyatlat yaratildi va mana shu yaratilgan sharoitlar asnosida tarixiy yutuqlarga ham erishildi.

Ótgan vaqt mobaynida yoshlarni har tomanlama qóllab quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, intelektual salohiyati yuqori, zamon bilan hamnafas, óz yónalishi bóyicha kerakli bólgan kadr yoshlarni tarbiyalash bóyicha alohida tizim yaratildi.

Ózbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, Ózbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi.

Rivojlaniyotgan davr kóz qarashidan yoshlarga oid muommolarni atroflicha órganish, samarali yechim ishlab chiqish, shuningdek 2020 yil dekabr oyida yuqori darajada tashkil qilingan Yoshlar forumida va albatta Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29- dekabrdagi Oliy Majlisga va xalqimizga Murojatnomasida qayd etilgan yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bóyicha alohida chora tadbirlar ishlab vazifasi qóyildi va aniq belgilangan maqsadlar asosida 2021yil 18-yanvarda Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‹‹Ózbekistonda Yoshlarga oid davlar siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toǵrisida›› Qarori [2] qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ózbekiston yoshlari forumida tákidlab ótganidek, “Biz yurtimizda qanday islohotlarga qól urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-ǵayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun óz oldimizga ulkan marralar qóyganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha tálim, maktab va oliy tálimni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bólǵusi Renessansning eng muhim boǵinlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qóshadilar” [3].

Yuqorida takidlangan konsepsiyaning asosiy vazifalari qatorida:

- Yoshlarning qonuniy huquq va manfatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomilllashtirish;
- Tálimning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli tálim olishini táminlash, hududlarda inklyuziv tálim rivojlanishi uchun shart- sharoit yaratish;
- Yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularning mehnatga oid qonuniy huquqlarini himoya qilish orqali ularning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;

kabi bandlarni alohida takidlab ótish kerak.

Bundan tashqari, yoshlarning tálim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bólishi, bandligi uchun shart- sharoitlar yaratish- davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida óz aksini topdi. Davlat shu orqali juda muhim bólgan majburiyatlarni óz zimmasiga olmoqda.

Davlatning qudratini belgilaydigan qator omillardan biri, shubhasiz, mánan yetuk, jismonan soǵlom, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Hukumatimiz tarafidan amalga oshirilayotgan keng kólamli

islohatlar allaqachon óz mevasini berishni boshladi va bu kabi qóllab quvvatlashlar soyasida yoshlarimiz albatta yuksak marralarni zabt etishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun / https://lex.uz/docs/3026246
2. 2021yil 18-yanvardagi ‹‹Ózbekistonda Yoshlarga oid davlar siyosatini 2025- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toǵrisida›› Qaror http://lex.uz//docs/-5234746
3. Ózbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Ózbekiston yoshlari forumidagi máruzasi // https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston- respublikasi-prezidenti -shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_ 197662
4. https://www.gazeta.uz//politics/

Taym-menejment o'quv jarayonida o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi sifatida

Bekniyazov Bayrambay Saparbaevich-*NDPI o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta’lim maktablari pedagogik faoliyatida o'qituvchilarning vaqtni boshqarish va uni o'quv va kundalik hayotda qo'llash, vaqtni rejalashtirish va vaqtni boshqarish usullari va ulardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.*

**Tayanch so`zlar:** *taym menejment, rivoslantirish, vaqtdan foydalanish, vaqtni boshqarish, vaqtni boshqarish usullari: Eyzenxaur, Paretto qonuni vaqt o`g`rilari, “ABVGD” usuli.*

Vaqtdan unumli foydalanish doimiy ravishda insonni bezovta qiladi. Chunki, barcha insonlar ham belgilangan muddatga muvofiq oldiga qo`ygan maqsadlarni amalga oshira olmaydilar. Kimdir kam kuch sarflash orqali muvaffaqiyatlarga erishadi, kimdir esa ko`p kuch yo`qotish hisobiga past natija ko`rsatkichiga ega bo`ladi. Shu boisdan ham vaqtdan unumli foydalanish masalasi psixologik muammo sifatida boshqaruv faoliyatimizda uchrab turadi.

Ko‘p holatlarda vaqtni unumli boshqarish jarayoni quyidagi unsurlarni o‘z ichiga oladi:

- ishlash qobiliyati va his-tuyg‘uni boshqarish;
- maqsadni to‘g‘ri rejalashtirish;
- vazifalarni belgilash va amalga oshirish;
- oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish;
- xulosa chiqarish [3;7]

Darhaqiqat, O`zbekiston Respublikasida aksariyat ta`lim muassasalari ish haqi fondining ulushi, hatto rivojlangan sohalarda ham, nisbatan kichikdir. Shu bilan birga, ta`lim muassasalari faoliyatini tashkillashtirishning boshqa usullari ko`pincha qo`llanilmaydi. Masalan, doimiy boshqaruvni o`rnatish, korporativ strategiyani ishlab chiqish va hk.

Vaqtdan unumli foydalanib muvaffaqiyatga erishishning siri nimada?

Ongimizni to`g`ri yo`naltirish - vaqtdan unumli foydalanishning eng maqbul yo`lidir. Maqsadni to`g`ri qo`ya bilish tafakkurimizning faollashuviga olib keladi va qisqa vaqtda ko`zlangan natijaga erishiladi.

Insonlarni muvaffaqiyatli harakat qiluvchi yoki muvaffaqiyatsiz ishlovchi shaxslar toifasiga ajratishimiz mumkin. Muvaffaqiyatli ishlovchi insonlarning siri vaqtdan unumli foydalanish uquviga egaligidadir.

“Aniq maqsadli inson xatto eng og`ir yo`lni ham bosib o`tadi. Maqsadi yo`q inson esa, xatto eng silliq yo`lda ham joyidan siljimaydi”- degan edi Tomas Karleyl`.

Vaqtdan unumli foydalanish inson tafakkuriga bog`liq jarayondir. Inson tafakkuri orqali fikrlaydi, muammo paydo bo`lganda esa, fikrlash jarayoni faollashadi. Muammoni bartaraf etish uchun hayotiy ko`nikmalar, ya`ni kundalik hayotdagi vazifalarni samarali hal qilishda insonga zarur bo`ladigan ijobiy hatti-harakatlar majmui zarur. Ijobiy hatti-harakatlariga inson madaniyati, axloqi, xulq atvori, sog`lom turmush tarzi kabi shaxsiy kategoriyalarni misol qilib olish mumkin.

Insonning shaxsiy faoliyatidagi muammolarini o`z vaqtida bartaraf etish uchun vaqtdan unumli foydalanish va vaqtni boshqarish mahorati egallansa yaxshi natijalarga erishadi va bu “Taym menejment” degan tushuncha bilan izohlanadi.

Taym menejment - bu o`z shaxsiy ish vaqtini boshqarish mahoratidir. Taym menejment - bu faqatgina zarur ishlar ro`yxatini tuzish emas, balki vaqt va yuklamani to`g`ri taqsimlash hamdir.

L.J.Zeyvertning fikricha, vaqtni boshqarish - bu o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z turmush tarzini intensiv shakllantirishdir [2;25].

Psixolog Parkinsonning fikricha: «Agar vaqtni boshqarmasang, u qo`lingdan uchib ketadi».

Vaqt haqida Vil`fredo Parettoning “80/20 qoidasi” ham vaqtdan unumli foydalanishni ifodalaydi. Uningcha «Inson umrining 80% ini mayda-chuyda, keraksiz ishlarga, 20% ini muhim, dolzarb ishlarga sarflar ekan».

Paretto qonuni 20% kuch sarflash orqali 80% natijaga erishish va aksincha: Parettoning “Disbalans tamoyil”i - vaqt, harakat va manbalarning kichik qismi natijaning katta qismiga javobgardir.

Ishlarni bajarish jarayonida vaqtni sarflashda quyidagi harakatlarni amalga oshirish, ya`ni «Ishlarni muhim/muhim emas, dolzarb/dolzarb emasga toifalash mumkin. “Vaqt o`g`rilari” muvaffaqiyatli inson bo`lib etishimiz va vaqtni foydali ishlarga sarflashimizda bizga to`sqinlik qiladi.

“Vaqt o`g`rilari” - bu saviyasi past seriallar tomoshasi, do`konlarda bo`sh vaqtni o`tkazish, soatlab kimnidir hatti-harakatini g`iybat qilish, INTERNET tizimidagi noma`qul saytlardagi “sayohat”, tafakkur talab qilinmaydigan har-xil o`yinlar va h.k.

Vaqtni tashkil etishning mazmuni Vaqtni boshqara bilish, vaqtdan foyda olish yoki vaqtning qurboniga aylanishdir.

Strategik reja tuzish - uzoqni ko`zlab reja tuzishdir. “Biz bir yilga rejalashtirganimizda, don sochamiz, o`n yilga rejalashtirganimizda, daraxt ekamiz, agar butun umrga rejalashtirsak, kishilarni o`qitamiz va tarbiyalaymiz” (Xitoy xalq maqoli).

Har kunlik reja tuzish samaradorlikni oshirish va vaqtni unumli boshqarishda zarur. Qoidaga ko`ra, oldindan to`g`ri tuzilgan reja past ko`rsatkichlarning oldini oladi. Hamma vaqt qog`ozda o`ylash va rejalashtirish lozim. Agar maqsad qog`ozga tushmasa, demak, u mavjud emas. Vazifalar ro`yxati - o`ziga xos xarita bo`lib, u sizning ko`zlangan maqsad sari yo`ldan adashib ketishingizga yo`l qo`ymaydi.

Reja tushirilgan ro`yxat bo`yicha ishlash ilk kundanoq samaradorlikni 25 foizga oshiradi. Oqshomdayoq ertaga qilishingiz kerak bo`lgan ishlaringiz ro`yxatini tayyorlab qo`ying. Ishga keliboq siz har doim kunni nimadan boshlashni bilasiz. Kun davomida tuzilgan ro`yxat asosida ishlang: yangi ish paydo bo`lganida uni avvalgi rejalashtirilgan ishlar ro`yxatiga muhimligiga qarab tirkab qo`ying. Ro`yxatingizdagi vazifani bajarganingiz hamono uni albatta o`chirib qo`ying. Bu sizga o`z ishidan qoniqish hissini beradi, g`ayratlantiradi va quvvat baxsh etadi. Yirik ishlardan tortib eng maydalariga qadar, uzoq muddatlilaru qisqa vaqtlilarigacha, butun umrlikdan boshlab bir kunlikni ham rejalashtirib chiqing. Har bir vazifaga muhlat belgilang. Qiyin, murakkab vazifani mayda, kichik vazifalarga bo`lib chiqing. Bunda sizga qarorlar daraxti yordam beradi: bunda muhim ish - daraxt, mayda vazifachalar esa uning shoxlaridir. “Shoxlash”ni toki qo`shimcha kichik vazifalarning barchasi oddiy va ravshan, oson bo`lmagunicha davom ettiring. Qachondir biror ishga kirishishdan oldin 10/90 qoidasini eslang: ishga kirishishdan oldin uni rejalashtirishga sarflangan 10 foiz vaqt uning echimiga ketadigan 90 foiz vaqtni tejaydi.

Shu bilan birga, har qanday faoliyatda vaqtni boshqarish texnologiyalaridan foydalanish va o'zlashtirish bebaho yordam berishi mumkin. Gleb Arxangelskiyning ta’kidlashicha, “vaqtni boshqarish – bu o‘zgarmas hayot

vaqtidan shaxsiy maqsadlar va qadriyatlarga muvofiq foydalanish imkonini beruvchi texnologiya. Shunday ekan, vaqtni boshqarishning maqsadli vazifasi baxtdir". [1;13].

Ta`lim muassasida muvaffaqiyatga erishishning yana bir samarali yo`li har bir xodim o`zining lavozimi va bajarayotgan funktsiyalariga qarab strategik vazifalarni amalga oshirishi, istiqbolini ko`ra bilishi lozim.

Muvaffaqiyatsizlikka erishishning eng oson yo`li esa, "VAQT" degan qimmat baho xazinadan noto`g`ri foydalanish, ya`ni siz uchun muhim bo`lgan ishni to`g`ri kelmaydigan vaqtda amalga oshirishdir.

Muvaffaqiyatga erishish, ya`ni ishingizning ijobiy hal bo`lishi uchun, ishingizni hal qiladigan kishilar: boshlig`ingiz, o`qituvchingiz, turmush o`rtog`ingiz, ota-onangiz va boshqalar bilan bu ishingizni qachon, qaysi vaqtda muhokama qilishingiz lozimligi haqida puxta o`ylab kirishish ma`qul.

Taym-menejmentning vazifasi – vaqtida eng asosiy ishni aniqlab olish. Ishlarni muhimligiga qarab joylashtirib olish mo`ljaldagi vazifalarni yaxshiroq boshqarishga ko`maklashadi. Muhim vazifalarni aniqlab olganingizdan so`ng uning natijasini - bajarilgan yo bajarilmaganini baholang. Agar muhim vazifa o`z muddatida bajarilmasa, jiddiy oqibatni keltirib chiqaradi. Ishlarni joylashtirish uchun "ABVGD" usuli yaxshi yordam beradi. Bu rejalashtirishning eng oddiy yo`li bo`lib, o`zida ro`yxatdagi har bir vazifaning muhimligiga qarab darajalaydi.

Oila ham hayotda muvaffaqiyatga erishishda vaqtdan samarali foydalanish asosiy o`rinni egallaydi. Sharoitlar va vaziyatlar dogmatik emas, ular dinamik xususiyatga egadir, bu o`zgaruvchan jarayonga inson doimo o`z vaqtida, vaqtni boshqara olgan holatda tayyorligini ko`rasata bilsagina muvaffaqiyat kalitining sohibi bo`la oladi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Архангельский, Г. Корпоративный тайм-менеджмент: Энциклопедия решений / Г. Архангельский. М.: Альпина Паблишер, 2015. - 211 с.

2. Зайверт. Л. Если спешишь - не торопись: новый тайм-менеджмент в ускорившемся мире: семь шагов к эффективности и независимости в использовании времени /Л.Зайверт; пер. с нем. Н.С.Сироткина. - Москва: Интерэксперт, 2011. - 255 с.

3. Юсупова Н. Тайм менежмент вақтни бошқариш. Т., «Янги авлод» 2009. Б.88

Психология лидерства и управления

Бекимбетова Гульсанем Шаукетовна-*Студентка 3-го курса НГПИ имениАжинияза*

1. Определение лидерства и управления

- Лидерство – это процесс влияния на других людей для достижения определённых целей. Лидерство включает способность вдохновлять, мотивировать и направлять людей.

- Управление – это процесс планирования, организации, мотивации и контроля ресурсов (включая человеческие) для достижения организационных целей. Управление более формально и структурировано по сравнению с лидерством.[1.45-67]

2. Теории лидерства

- Теория черт лидерства предполагает, что лидеры обладают определёнными врождёнными качествами, такими как харизма, уверенность и интеллект.

- Поведенческие теории лидерства фокусируются на действиях лидеров. Важными аспектами являются стиль руководства, такие как автократический, демократический и либеральный.

- Ситуационные и контингентные теории утверждают, что эффективность лидерства зависит от контекста и ситуации. В разных ситуациях требуются разные стили лидерства.

- Трансформационное лидерство – это стиль лидерства, при котором лидер вдохновляет и мотивирует последователей к достижению высоких целей и личностному росту.[4.95-120]

3. Личностные качества и навыки лидера

- Эффективные лидеры часто обладают высокой эмоциональной интеллигентностью, которая включает самосознание, саморегуляцию, мотивацию, эмпатию и социальные навыки.

- Важные личностные черты лидера включают уверенность, честность, решительность, адаптивность и способность к стратегическому мышлению.

- Лидеры должны уметь принимать сложные решения, управлять конфликтами и строить доверительные отношения.[2.80-105]

4. Влияние лидерства на организационное поведение

- Эффективное лидерство способствует повышению мотивации сотрудников, улучшению их удовлетворённости работой и увеличению производительности.

- Лидеры играют ключевую роль в формировании организационной культуры, которая может поддерживать инновации, сотрудничество и высокий уровень морального духа.

- Лидерство также влияет на процессы командообразования и координации работы в организации, что важно для достижения общих целей.[3.120-145]

5. Управленческие подходы и стили

- Классический подход к управлению включает строгую иерархию, разделение труда и формальные правила.

- Поведенческий подход фокусируется на человеческих аспектах управления, таких как мотивация и удовлетворённость сотрудников.

- Современные подходы включают гибкие организационные структуры, акцент на инновации и кросс-функциональные команды.

- Различные стили управления (авторитарный, демократический, либеральный) могут быть применимы в зависимости от конкретной ситуации и потребностей организации.[4.95-120]

6. Развитие лидерских навыков

- Обучение и развитие лидерских навыков являются важными аспектами профессионального роста. Это может включать формальное образование, тренинги, менторство и практический опыт.

- Саморазвитие и рефлексия также играют ключевую роль в становлении эффективного лидера.[5.200-230]

Литература:

1. Кузнецов, А. И. "Психология лидерства и управления." – М.: Альпина Паблишер, 2010.

2. Гоулман, Д. "Эмоциональное лидерство." – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2008.

3. Фидлер, Ф. "Теория лидерства: ситуация и стиль." – СПб.: Питер, 2012.

4. Юкл, Г. "Лидерство в организациях." – М.: Юрайт, 2013.

5. Бас, Б. М. "Трансформационное лидерство." – СПб.: Питер, 2006.

«ЖАСЛАР ҲӘМ БИЗНЕСТИ ҚОЛЛАП-ҚУЎАТЛАЎ ЖЫЛЫ»НДА ЖАҢА ӨЗБЕКСТАН – ЖАҢА СОЦИАЛЛЫҚ РЕАЛЛЫҚ СЫПАТЫНДА

Сулайманов Саламат Арепбаевич *т.и.д.(DSc), доц*

Арыслан Оразбаев *ф.и.б.ф.д.(PhD), ҚМУ*

«Социаллық пәнлер» кафедрасы доценти

Ҳәзирги дәўирдиң талапларынан келип шыққан ҳалда, Өзбекстан Республикасы Президенти Шавкат Мирзиёев тәрепинен ***2024 жылды Өзбекстанда «Жаслар ҳәм бизнести қоллап-қуўатлаў жылы»*** деп жәрия қылынды. Президентимиз өзиниң Жаңа жыл менен халқымыз ҳәм жасларымызды қутлықлаў сөзинде «Инсан – қәдирин улығлаў, халқымыздың мәплерин тәмийнлеў, буның ушын күшли экономиканы раўажландырыў бизиң тийкарғы ўазыйпамыз болып есапланады», – деп атап өтти.

Заманагөй социаллық реаллық барған сайын қурамалы түс алып, оны изертлеўде дәстүрий жантасыўлар адекват болмай қалды. Ендиликте бундай

қурамалы социаллық реаллықты жаңаша методологиялық жантасыўлар тийкарында изертлеўди талап етпекте. Бүгинги күнде Өзбекстанда жүз берип атырған социаллық процесслер, сондай-ақ, Жаңа Өзбекстанды қәлиплестириўдиң теориялық-философиялық аспектлерин анализ қылыў усы жаңа сапаны раўажландырыўдың теориялық модели болып хызмет қылады.

2024-жыл «Жаслар ҳәм бизнести қоллап-қуўатлаў жылы»нда Жаңа Өзбекстанның жаңа социаллық реаллық сыпатында қәлиплесиўине тийкар болатуғын факторларды, сондай-ақ жаңа аттракторды табыўдың айырым мәселелериниң илимий-теориялық аспектлерин анализ қыламыз. Аттрактор сөзи англичан тилинен «өзине тартыў», «өзине қаратыў», «өзине жалп қылыў» деген мәнислерин билдиреди.

Жаңа Өзбекстанның жаңа социаллық реаллық сыпатында қәлиплесиўиниң тийкарғы принциплери сыпатында биз төмендегилерди атап өтемиз: сапалы билимлендириў, жуўапкершилик, сөз бенен истиң бирлиги, ўатанды сүйиўшилик, пуқаралық позиция, жәмийетлик қадағалаў, инсан капиталы, инсанның қәдирин улығлаў, қәдириятлар үстинлиги ҳ.т.б. Жаңа Өзбекстанды қурыў биринши нәўбетте, билимди модернизация қылыў менен тығыз байланыслы.

«2023 жыл елимиз ушын берекетли ҳәм әўметли келди. Ең әҳмийетлиси, елимизде тынышлық, ҳәр қыйлы миллет ўәкиллериниң ортасында дослық ҳәм аўызбиришилик ҳүким сүрмекте», – деп атап өтти Президентимиз.

Тарийх – бул өтмиштеги сиясат, ал бүгинги алып барылып атырған сиясатта тарийхқа айланып бара береди. Илимдеги тарийхыйлық принципине тийкарланып айтатуғын болсақ, 2022-жыл 20-декабрде Өзбекстан Республикасы Президенти Шавкат Мирзиёевтиң Олий мажлис ҳәм Өзбекстан халқына мүрәжааты усынылды. Президентимиз 2023-жылды елимизде ***“Инсанға итибар ҳәм сапалы билимлендириў жылы”*** деп жәрия қылды. Президентимиздиң бул усынысы халқымыз, әсиресе жасларымыз тәрепинен толық қоллап-қуўатланды. Себеби, халқымыз ҳәм жасларымыздың пәраўан, тыныш ҳәмде бахытлы турмыс кешириўи, әлбетте, билимлендириў тараўында әмелге асырылып атырған реформаларға байланыслы. Билимниң сапасын асырыў – Жаңа Өзбекстанның жаңа социаллық реаллық сыпатында раўажланыўының бирден бир туўры жолы болып есапланады.

Әлбетте, Жаңа Өзбекстанның жасларында билимге талабы күшли болса ғана жәмийетимизде билим қәдириятқа айланады ҳәм диалектикалық көз-қарастан билим сапалы билимге айланады. Жәмийетимизде билим қәдириятқа айланыўы ушын мәмлекетимиз тәрепинен жасларымызға

сапалы билимди ийелеўинде жоқары дәрежеде имканиятлар жаратылған. Жаңа Өзбекстанды жаңа социаллық реаллық сыпатында қурыўда сапалы билимниң орны үлкен. Сапалы билим көз-қарасынан жасларымыз руўхый жақтан жетилиспесе, онда ержеткен болып есапланбайды. Себеби, сапалы билим арқалы жасларымыз руўхый жақтан жетилиседи ҳәм ержеткен болып есапланады.

Президентимиздиң 2024 жылды «Жаслар ҳәм бизнести қоллап-қуўатлаў жылы» деп жәрия қылыўындағы атап өткен креатив идеяларын, белгилеп берген ўазыйпаларды соның менен бирге, Жаңа Өзбекстанды жаңа социаллық реаллық сыпатында жәмийеттиң төмендеги 3 нызамлары менен, сондай-ақ, жәмийетлик сана ҳәм жәмийетлик болмыстың өз-ара байланыслығы арқалы анализ қыламыз. Жәмийетлик сана деп жәмийетлик болмысты сәўлелендиретуғын сезимлердиң, көз-қараслардың, идеялардың бир пүтин системасына айтылады. Жәмийетлик болмыс пенен жәмийетлик сана арасындағы өз-ара байланыс төмендегише:

1. Жәмийетлик болмыс өзиниң раўажланыў барысында ең соңында жәмийетлик сананы анықлайды.

2. Жәмийетлик сана жәмийетлик болмысты сәўлелендиреди.

3. Жәмийетлик сананың салыстырмалы өз бетинше ғәрезлиликке ийе болыўы.

Жәмийеттиң биринши нызамы бойынша жәмийетимиздиң ҳәр бир ағзасы Жаңа Өзбекстанның социаллық реаллығын жәмийетлик болмыс сыпатында қабыл қылыўы шәрт. Жәмийеттиң екинши нызамы бойынша жәмийетлик санамыз жәмийетлик болмысымыздағы Жаңа Өзбекстанның социаллық реаллығын дурыс сәўлелендириўи керек. Бүгинги күнде әмелге асырылып атырған барлық реформалар жәмийетлик болмысымыздың тийкарғы ажыралмас бөлимине айланса ғана, жәмийетлик санамыз жәмийетлик болмысымызды дурыс сәўлелендирсе, Жаңа Өзбекстанның қурылыўына тийкар болып хызмет қылады. Бунда, әсиресе, социаллық реаллықты жәмийетлик ҳақыйқатлыққа айландырыў ушын жаратылған жәмийетлик имканиятлардан нәтийжели пайдаланыў арқалы, инсан капиталын раўажландырыў, инсанның қәдирин улығлаў, барлық искерликлеримиздиң жоқары руўхыйлыққа тийкарланыўы, сөз бенен истиң бирлиги болса ғана, Жаңа Өзбекстанның реал тийкарлары жаратылады.

Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2023 жыл 11-сентябрде «Өзбекстан – 2030» стратегиясы ҳаққында»ғы ПП-158-санлы пәрманы қабыл қылынды. Усы Пәрман менен Жаңа Өзбекстанның раўажланыў стратегиясын әмелге асырыў процессинде топланған тәжирийбе ҳәм жәмәәтшиликтиң талықлаўының нәтийжелери тийкарында ислеп шығылған

«Өзбекстан – 2030» стратегиясы тастыйқланды. Демек, Президентимиздиң Өзбекстанда 2024 жылды «Жаслар ҳәм бизнести қоллап-қуўатлаў жылы» деп жәрия қылыўындағы тийкарғы мақсетлериниң бири «Өзбекстан – 2030» стратегиясында белгиленген 5 бағдар ҳәм 100 мақсетлерди толық әмелге асырыўдың логикалық даўамы болып есапланады.

Пәрманда «Өзбекстан – 2030» стратегиясының тийкарғы идеялары төмендегише сәўлеленген:

– Турақлы экономикалық өсим арқалы дәрамады орташадан жоқары болған мәмлекетлердиң қатарынан орын алыў;

– Халықтың талапларына ҳәм халықаралық стандартларға толық жуўап беретуғын билимлендириў, медицина ҳәм социаллық қорғаў системасын раўажландырыў;

– Халық ушын қолайлы экологиялық шараятларды жаратыў;

– Халық хызметиндеги әдалатлы ҳәм заманагөй мәмлекетти қурыў;

– Мәмлекеттиң суверенитети ҳәм қәўипсизлигин тәмийнлеў.

Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2023 жыл 11 сентябрде қабыл қылынған “Өзбекстан – 2030” стратегиясын 2023 жылда сапалы ҳәм өз ўақтында әмелге асырыў ис-илажлары ҳаққында”ғы ПҚ–300-санлы қарары қабыл қылынды.

“Өзбекстан – 2030” стратегиясы 5 үстин бағдар ҳәм 100 мақсеттен ибарат.

1. Ҳәр бир инсанға өзиниң потенциалын жүзеге шығарыў ушын мүнәсип шараятлар жаратыў; (1-44 мақсетлер).

2. Турақлы экономикалық өсим арқалы халықтың пәраўанлығын тәмийнлеў; (45-61 мақсетлер).

3. Суў ресурсларын үнемлеў ҳәм қоршаған орталықты қорғаў; (62-73 мақсетлер).

4. Нызам үстинлигин тәмийнлеў, халықтың хызметиндеги мәмлекет басқарыўын шөлкемлестириў; (74-89 мақсетлер).

5. «Қәўипсиз ҳәм тынышлықсүйер мәмлекет» принципине тийкарланған сиясатты изшил даўам еттириў. (90-100 мақсетлер).

Президентимиз 2024 жылда «Жаңа жылда экономикамызға шет ел инвестицияларды жалп қылыў, исбилерменлик ҳәм жеке мүлк ушын кең имканиятларды жаратыўды жәнеде күшейттиремиз. Илим-пән, инновация, IT сыяқлы тараўларды, «жасыл» ҳәм санлы технологияларды раўажландырыўға айрықша итибар қаратамыз», – деп атап өтти. Ҳақыйқатында да, XXI әсирге келип, санаат революциясы IT-технологияларының раўажланыўы нәтийжесинде санлы дәўир басланды. Бүгин әййемги грек философы Пифагордың “дүньяның тийкары – бул

санлар”, “барлық нәрселер – санлар болып есапланады” деген идеясы ҳақыйқатлыққа жоқары дәрежеде жақын екенлиги гүзетилмекте.

Ҳәзирги күнде инсан искерлигиниң барлық көплеген тараўларына санластырыў процесслери кирип келди. Бир сөз бенен айтқанда, санлы парадигма раўажланыўдың жаңа парадигмасы сыпатында тән алынбақта. Бул бойынша алымлар санлы парадигманың, санластырыўдың ҳәр қыйлы көплеген аспектлерин үйренбекте.

Бүгин Өзбекстанда санлы парадигма тийкарында раўажланыў тенденциясын анық белгилеп, нәтийжеде “Санлы Өзбекстан – 2030” концепциясын ислеп шықты. Усы концепцияда санластырыўдың жәмийеттиң барлық тараўларына, сондай-ақ, сиясат, ҳуқық, экономика, медицина, билимлендириў, мәденият, туризм ҳәм басқа системаларға кирип барыўы тийкарланып берилген.

Президентимиз өз сөзинде 2024-жылда «Жаңа жумыс орынларын жаратыў, халқымыздың дәраматларын асырыў итибарымыздың орайында болады. Ис ҳақы, пенсия, стипендиялардың муғдары асырылады. Ҳаял-қызлар ҳәм нураныйларды, жәрдемге мүтәж инсанларды қоллап-қуўатлаўға айрықша әҳмийет беремиз. Социаллық тараўлардың раўажланыўын жаңаша басқышқа көтеремиз». «Ўатанымыздың ғәрезсизлигин беккемлеў, Қураллы күшлеримиздиң әскерий потенциалың асырыў үстин ўазыйпамыз болады. Жаңа турмысты, Жаңа Өзбекстанды қурыў ушын бар күш ҳәм имканиятларымызды толық әмелге асырамыз», – деп атап өтти.

Өзбекстан Республикасы Президенти Шавкат Мирзиёев өткен 2023-жылды есап-санақ қылып, сондай деди: «Өмир бар екен, оның жетискенлиги ҳәм қуўанышлары, тәшўиш ҳәм машқалалары да болыўы тәбийий. Бирақ инсан ҳәм халықтың ақыл-зейини, ҳадал мийнети, беккем қәлби менен ҳәр қандай сынаўлардан мүнәсип өтиўге ылайық».

Соның менен бирге, «Биргеликтеги мийнетлеримиз себепли Жаңа Өзбекстан арзыўсы реал ҳақыйқатқа айланбақта. Барлық ерискен жетискенликлеримиз ушын сиз, әзиз ўатанласларымызға, шын кеўилден миннетдаршылық билдиремен», – деди Президент.

Санлы экономиканы раўажландырыў жолын таңлаған мәмлекетлер өз пуқараларының азық-аўқат қәўипсизлигин тәмийнлеўге, әсиресе, билимлендириў тараўын басқарыў системасы менен тығыз алып барыўына имканият жаратады. Демек, қайсы бир мәмлекет жасларының билим алыўына көп қәрежет ажыратса, усы мәмлекет келешекте инновациялық пикирлейтуғын жаслардың қатары кеңейип, жәмийетке көп пайда келтиретуғынлығы ҳәзирги дәўир дәлийлеп берди. Бүгин пүтин инсаният санлы раўажланыў басқышын нызамлы басып өтип атырған екен,

Жаңаланып атырған Өзбекстанда глобал раўажланыў системасы менен тығыз байланыста раўажланыўды талап етеди. Бул, өз нәўбетинде, Жаңа Өзбекстанның социаллық реаллығын санлы парадигма негизинде өзгерттириў дәўир талабы екенлигин аңлатады.

Жуўмақластырып айтқанда, Өзбекстан Республикасы Президенти Шавкат Мирзиёев тәрепинен 2024 жылды Өзбекстанда «Жаслар ҳәм бизнести қоллап-қуўатлаў жылы» деп жәрия қылыўы мүнәсебети менен билдирген креатив ҳәм прагматик идеялары социаллық имканият сыпатында Жаңа Өзбекстанның жаңа социаллық реаллыққа айланыўы ҳәм социаллық мәмлекетти қурыўда методологиялық стратегия болып хызмет қылады.

Жаңа социаллық реаллықты қәлиплестириўде жаңаша дүньяға көз-қарас, жаңаша пикирлеў, жаңаша ойлаўды талап қылады. Бундай жаңа сапаны қурыўда инсан капиталы, билим ҳәм инновациялар зәрүрли әҳмийетке ийе. Жаңа Өзбекстан жаңа аттракторды (раўажланыў мақсети) аңлатар екен, бул аттрактордың әмелге асырылыўы, дана халқымыз айтқанындай, “мақсет анық болса, мәнзиллер жақын болады” деген өмирлик ҳақыйқатта өзиниң тастыйқлаўын табады.

Zardushtiylikning boshqa dinlarga ta'siri

Idrisov Imalatdin Regan ulı-*Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs talabasi*

Sulaymanov Salamat Arepbaevich-*Tarix fanlari doktori, dotsent*

Annotatsiya: Maqolada zardushtiylik dinining o'ziga xos jihatlari, uning boshqa dinlarda saqlanib qolgan an'analari va ko'rsatgan ta'sirlari haqida chuqur bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Zardushtiylik, Avesto, Axura-Mazda, Abu Rayhon Beruniy, Qur'oni Karim, islom dini, yahudiylik, nasroniylik, Mankur, Nakir, Rizvan.

Qadim zamonlardan boshlab insoniyat har xil e'tiqodlarga amal qilib kelgan. Ular turli xil xududlarda bir-biridan farq qilgan an'analarni o'zida aks ettirgan. Eramizdan avvalgi taxminan VII asrlarga kelib bunday ko'p xudolik e'tiqodlardan farq qiluvchi ilk e'tiqod zardushtiylik dini yuzaga keldi.

Zardushtiylik paydo bo’lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya’ni quldorlik davri endi paydo bo’layotgan davr edi. U urug’-qabilachilik tuzumi emirilib aholi qullar va quldorlarga, zolim va mazlumlarga bo’linayotgan davr bo’lgan. Bu din eng avval O’rta Osiyo, so’ng Eron, Ozarbayjonda qaror topgan edi. Mazkur e'tiqod shu vaqtgacha hukm surgan dinlar orasida eng yetugi va adolatlisi edi. Shu boisdandir zardushtiylik kelajakda dunyo yuzini ko'rgan mahalliy o'z navbatida dunyoviy dinlarga ham nihoyatda katta ta'sir ko'rsatdi.

Zardushtiylik g'oyalari insoniyat uchun keyin paydo bo'lgan barcha dunyo dinlariga ta'sir ko'rsatdi va ularning dunyo dinlari darajasiga ko'tarilishida muhim rol o'ynaydi. "Avesto"da qayd etilgan odamlarni xayriya qilishga chaqiruvchi umuminsoniy qadriyatlar boshqa dinlarning ta'limotlari, g'oyalari, rivoyatlari muqaddas kitoblaridan joy oldi. Evropalik taniqli dinshunos Meri Boys bu borada: "Eronda zardushtiylik katta obro'ga ega bo'ldi. Uning ta'limotining ba'zi muhim jihatlarini yahudiy, nasroniy, islom dini va gnostik maktab tarafdorlari tomonidan o'zlashtirildi. Sharqda zardushtiylik buddizmning janubiy varianti rivojiga ta'sir ko'rsatdi" - deya o'z izohlarini qoldiradi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, eramizdan avvalgi XVIII asrda hazrati Ibrohim zardushtiylik kabi buyuk e'tiqod nuridan rozi bo'lgan. Eramizdan avvalgi, XIV asrga kelib hazrati Muso payg'ambar yolg'iz quyoshga e'tiqodga yahudiylar qavmini qaratdi. Xristian dinining "Xudo odamni o'ziga o'xshash obrazda yaratdi" - degan asosiy tushuncha zardushtiylikning Axura-Mazda insonlarni o'ziga o'xshatib yaratdi degan fikrga to'g'ri keladi.

Zardushtiylikning asosiy g'oyalari bilan bog'liq xulosalar ruhiy kechinmalar islom diniga o'z-o'zidan kirib keldi. Ulardan ba'zilari bizga islom dini bilan birga yetib keldi. Albatta, VII-VIII asrlarda O'rta Osiyoda islomning tarqalishi bilan zardushtiylik dini taqiq qilina boshlandi. Abu Rayhon Beruniyning so'zlariga ko'ra, arablar zardushtiylik ruhoniylarini qirg'in qilib, ularning ilmiy va muqaddas kitoblarini yoqib yuborishgan. "Avesto" ning "Yasiyin" deb nomlangan ikkinchi kitobida Zardushtning maktublari tabiyat va halolliklar hukumdori, odamlarga yaqin va halol, hamma narsani biladigan va hamma narsaga tayyor bo'lgan Axura-Mazdaning abadiyligiga iymon keltiruvchi duolardan iborat. Olimlar "Mazda Yasna" so'zlarining yashirin mohiyati, ya'ni "Yasiyin" ma'lum darajada Qur'oni Karimning "Bakara" surasining 225-oyatiga muvofiq keladi deb ko'rsatishadi.

Islom dinida yasiynning o'rni katta va juda savobli hamdir. Yasiynning Qur'oni Karimning o'ttiz oltinchi surasi bo'lishiga qaramay, yasiyn Qur'oni Karim bilan teng ko'riladi. Masalan, qoraqalpoq dostonlarida "Yasiyin, Qur'on o'qitib"degan ko'plab satrlar mavjud. Nima uchun bu satrlarda Qur'onning bir surasi uning o'zi bilan teng ko'riladi? Yoki xalqimizda nima uchun "bunga aytgan so'z eshakning qulog'iga yasiyn o'qigandek", yoki "qulog'iga yasiyn o'qidi" kabi tarbiyaga bog'liq gaplar uchrashadi. "Uning qulog'iga qur'on o'qidi" deb keltirish mumkinmi? Bizning fikrimizcha, buning sababi "Avesto"ning bu qismi islomga kirganligi ekanligi xaliq ongiga singib ketgan "yasiyn" so'zi Qur'oni Karimda ma'qullanib, uni rivojlandirganligini ko'rishimiz mumkin.

Do'zax nomi musulmonlarning ham yahudiylarning ham tilida "pippom" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ya'ni jahannam so'zidan olingan va islandiyalik islomshunos R. Dozining so'zlariga ko'ra islom do'zaxi ""taqlid qilish" degan

ma'noni anglatadi. Musulmon dinidagi jannat ham zardushtiylik bilan nasroniylik manbalarida uchraydi.

Payg'ambarimiz islomdan oldin ham arablar tabiiy kuchlarini boshqaradigan ruhlarga bo'lgan ishonganini aytadi. Islomda hatto jinlar ham Ollohning odamdan oldin "sof olovdan yaratilgan" deb hisoblanadi. (Qur'on, 33, 40- sura) Odamlar tuproqqa ko'milganidan so'ng, ularni so'roqqa tutuvchi Mankur, Nakir, jannatning qo'riqchisi Rizvan Islomni qabul qilgan, qolganlari esa uni qabul qilmagan va kofir sifatida qolgan deb ko'rsatiladi.

Zardushtiylikdagi devlarga ishonish, ya'ni shaytonga bo'ysinadigan odamni va inson va dunyoning dushmanlari bo'lgan devlarni ham musulmonlar o'zlariga qabul qilgan.

Zardushtiylik diniga ko'ra, o'limdan uch kun o'tgach uning ruxi yer ostidagi o'liklar makoniga tushadi. Marhumning ahvoli qolgan qarindoshlari va yaqinlarining xotirlashi va sadaqa berishi bilan bog'liq. Bu vazifani marhumning katta o'g'li o'z zimmasiga oladi. Bunday amallar dastlabki vaqtda tabiyatga jinlar zarar yetkazmasligi va xavfli vaziyatlardan eson-omon o'tishiga kuch berish uchun bajariladi. Ushbu xavfli oydan keyin ikkinchi marta, bir yil o'tgach, u uchinchi marta qon chiqariladi va qurbonlik qilinadi. Shundan so'ng, marhumning uch o'g'li yiliga bir marta esga olishlari kerak bo'lgan. Bunday an'analarning hozirgi kunda qoraqalpoq va yana birqancha xalqlar orasida saqlanib qolishi, zardushtiylik dinining qoldirgan ta'sirlari bilan bog'liqligi ko'rinib turadi.

Umuman olganda, bizning ma'naviyatimiz va milliy qadriyatlarimiz - dinimizning durdonasi bo'lgan zardushtiylikda bayonlangan fikrlar va an'analar islom dinidan ham joy olib xalqimizni yuksak ma'naviyat yo'lida kamol toptirishda hissa qo'shdi, chunki adolatli din an'analari ustunlik qilgan jamiyatda olg'a ilgarilash rivojlanish yuz beradi. Juda ko'plab ulamo va olimlarni o'z bag'rida dunyoga keltirib, voyaga yetkazgan Turon zaminining ilm-fan va madaniyat markaziga aylanishida ham avvalroq paydo bo’lgan va so'ngra esa umuminsoniy qadriyatlari islom dinidan joy olgan, zardushtiylik dini o'ziga xos asos yaratgan deya e'tirof etsak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar:

1.Ж.Базарбаев, Ғ.Хожаниязов, Р.Базарбаев "Әййемги Окс дәрьясының төмениндеги зардуштлик дининиң излери" - Нөкис - 2007

2.Ғ.Хожаниязов "Қарақалпақстандағы муқаддес орынлар" - Нөкис - 1994

3. Авесто Аскар Махкам аудармасы Тошкент - 2001

Ўзбекистоннинг бронза асри ва темир даврида маданий-хўжалик марказлариниг географик ечимлари

Абдуллаев Вахобжон Рузметович-*Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг Хоразм академик лицейи ўқитувчиси*

Ускинов Самандар Сапарбоевич-*Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг Хоразм академик лицейи ўқитувчиси*

Аннотация: Ўзбекистоннинг бронза асри ва темир даврида кечган этник муносабатлар таъсирида шаклланган маданий-хўжалик марказлариниг географик ечимлари масаласи таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: М.Р.Қосимов,Турон, Тошкент, Зарафшон, Фарғона, Сурхондарё, Хоразм, Сариқамишбўйи, Орол, Қизилқум, Устюрт, Қорақум, Селенгур, Кўлбулоқ, Учтут, Ижонд, Вауш.

Аннотация: Анализируется вопрос географического решения культурных и экономических центров, сформировавшихся под влиянием этнических отношений в эпоху бронзы и железного века Узбекистана.

Ключевые слова: М.Р. Касимов, Турон, Ташкент, Зарафшан, Фергана, Сурхандарьина, Хорезм, Сарыкамышбойи, Арол, Кызылкум, Устюрт, Каракумы, Селенгур, Колбулок, Учтут, Иджонд, Вауш.

Abstract: The issue of geographical solutions of cultural and economic centers formed under the influence of ethnic relations in the Bronze Age and Iron Age of Uzbekistan is analyzed.

Key words: M.R.Kasimov, Turon, Tashkent, Zarafshan, Fergana, Surkhandarya, Khorezm, Sarikamishboyi, Arol, Kyzylkum, Ustyurt, Karakum, Selengur, Kolbulok, Uchtut, Ijond, Vaush.

XX аср адабиётлар ва XXI аср бошлари нашрларида қайд қилинган маълумотлар Ватанимиз тарихий-географик ҳудудларида тарихий-географик манзараси, антропоген ландшафтининг шаклланиши ва ривожланиш шароитида бронза ва темир даврларида кечган этник муносабатлар тарихини ўрганишда муҳим аҳамият касб этади[24]. Геологик жараёнларни бир неча маротаба такрорланиши натижасида шаклланган Осиё материги ер юзаси манзарасини ҳилма-хил тасвир қилган бир неча физик-географик қисмлардан иборат. Шундай қисмлардан бири Ўзбекистоннинг Турон пасттекислиги марказида жойлашиши, унинг географик ҳолати, қулай иқлим шароити, аҳолининг жойлашишини тасвир қилган Тошкент, Зарафшон, Фарғона, Сурхондарё ва Хоразм текисликлари ўрнашган аҳоли учун тарихий давр, унинг турли босқичларида жамият иқтисодиётини ривожлантиришига кенг имконият яратиб берган.

[24] Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996. Б- 5,6. Баратов П,Маматқулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 2002. Б-7.

Тадқиқотчилар асарларида қайд қилинишича, бундан 4-3 млн йилликларда Сариқамишбўйи, Орол, Қизилқум-Орол ўртаси текислик манзарада бўлган[25]. Тадқиқотчилар қайд қилишича, 1 млн йилдан – 500 минг йилликларгача Ўзбекистоннинг эопестосен даврида устунлик қилган текисликда одамзод жойлашган бўлса, пейстосен музликлари даврида муайян ҳудудларида этник жараёнлар давом этган[26]. Масалан, Турон пастекислиги шимоли-ғарбида жойлашган Устюрт платаси географик манзараси жиҳатидан шимолий, марказий ва жанубий қисмлардан иборат бўлиб, умумий майдони 200 минг кв.км.ни ташкил қилади, унинг жануби-шарқий қисми Қорақалпоғистон Республикаси таркибидаги майдони 70,3 минг кв.км.ни ташкил қилган[27].

Ер геологияси тараққиёти натижасида шаклланган Осиё материги юзасини маълум географик –ҳудудий чегарага эга бўлган бир қатор минтақалар ранг-баранг қилганлиги Ўрта Осиё физик-геграфик харитада ўз аксини топган. Шундай минтақаларнинг бири, Турон пасттекислиги географик ҳусусиятини намоён қилган Ўрта Осиё минтақасидир. Минтақанинг ер юзасининг тузилиши бир-бирини такрор қилмайдиган Ўзбекистон, Қозоғистон, Туркманистон, Тожикистон ва Қирғизистон республикалари каби қисмлардан иборат. Маскур табиий географик ҳудудларнинг релъефи тоғли ва тошликлардан иборат бўлиб, уларнинг ранг-баранглик манзараси полеотектоник ҳаракатларнинг гоҳ-гоҳида такрорланиб туриши натижаси билан изоҳланади. Ўрта Осиё минтақасининг географик ўрнининг умумий майдони 3 минг 450 минг кв км географик манзараси, табиати, антопоген ландшафти, табиий ресурсдан ҳамда аҳоли жойлашиши қулайлиги жиҳатидан табиий географик ҳудудлардан иборат. Ҳусусан, биринчи табиий географик ҳудудларга Ўрта Осиёнинг текислик регионлари ташкил қилган бу ҳудудга Ўзбекистоннинг Устюрт, қуйи Амударё, Қизилқум, қуйи Зарафшон, иккинчи тоғли ва текисликлар ҳудудлари Тошкент, Фарғона водийси, ўрта ва жанубий Зарафшон ва Сурҳон воҳалари жалб қилинади. Ўзбекистон ҳудуди тоғли ва текисликлардан иборатлиги учламчи ва тўртламчи даврларда полеотектоник жараёнлар маҳсулидир. Бу муқаддас замин Ўрта Осиё марказида жойлашиши ўзига ҳос географик қулайлиги билан унга геологик жиҳатдан уланиб кетган табиий географик ҳудудлардан фарқланиш

[25] Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Мамедов Е.Д. Палеогеографическая обсловленность расселиния древнего человека в пустьинях Средней Азии//Первобитный человек и его материалная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене.-М.: Наука. 1974.-С. 290-291. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси.-Тошкент. “Ўқитувчи”. 1990. Б. 14.

[26] Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси.-Тошкент. “Ўқитувчи”. 1990. Б. 14.

[27] Баратов П. Кўр.асар. Б.150-154.

ҳусусиятларига эга. Чунки ҳудуд Турон пасттекислигини асосий қисмини ташкил қилинганлиги, иқлим шароити, табиий ресурсларга сероблиги ҳамда одамзоднинг жойлашиб, кундалик фаолиятларини олиб боришига кенг имконият мавжудлигидир. Такидлаш лозим бўладики, ўлкамизнинг географик ўрни асосий қисми текислик дир (71%), Чирчиқ-Оҳангарон, Фарғона, Зарафшон, Сурхондарё ва қуйи Амударё каби серҳосил ва серунум ҳудудлар мавжудлиги стратегик аҳамиятни белгилаб берган.

Ўрта Осиё ўтроқ ҳаёт, суғорма деҳқончлик маданиятини ривожлантиришга қулай бўлган физик-географик харитасида Ўзбекистон, Қозоғистон, Туркманистон, Тожикистон ва Қирғизистон республикалари каби минтақаларда жойлашиши жиҳатидан ижобий ва ноижобий ҳусусиятларида ўз маъносига эга.

Ижобий ҳусусиятлар:

- Инсониятнинг келиб жойлашиб, табиий ресурслардан фойдаланиб, хўжаликни турли соҳаларини ривожлантириш имконияти кенглиги;
- Амударё ва Сирдарё оралиғида кенг текисликда ўрнашган аҳолининг шимолий, шимоли-ғарбий ҳудудлар сари тарих тақозосидан келиб чиқиб, миграцион тадбирни олиб бориш имконияти;
- Халқаро карвон йўлида жойлашганлиги, шарқ дунёси аҳолисини хўжалик соҳаларида эришган ютуқларини эски дунё аҳолисига таништиришда таянч вазифасини бажариши;

Ноижобий томонлари:

- Ватанимизнинг ғарбий қисми очиқ Қорақум саҳроси, шарқида осмонўпар тоғларнинг жойлашганлиги;
- Денгиз ва океонларга чиқиш имкониятидан ҳоли эканлиги;
- Шимолий томондан очиқлиги сабаб, совуқ ҳароратнинг бемалол кириб келиши;
- Каспий денгизи шарқий соҳилидан табиат бурҳонлари натижасида Қорақум тўлқинсимон сочма қум уюмларининг сернам ва серунум текисликларини қоплаб, аҳоли озиқ-овқат муаммоларини ҳосил қилиши;
- Жанубий томондан келадиган нам ва илиқ ҳаво массалари кириб келишига тўсиқ бўлаётган осмонўпар тоғлар мавжудлиги;

Ватанимизда аҳоли жойлашишига қулай бўлган водийлар, тоғолди этаклари билан бирга, текислиги серунум бўлишида Амударё, Сирдарё, Зарафшон, Чирчиқ, Қашқадарё ва бошқа ҳажми кичик дарёлар фаолияти давомида сув таркибидаги минерал моддалари ётқизилиши муҳим аҳамият касб этган. Шу маънода Ўзбекистон тоғли ва текисликларида одамзод

манфаатларига ҳизмат қилган манзилгоҳларга сероб бўлган кўҳна ҳудудлардан бири саналади.

Ўзбекистон текислигини географик манзарасини намоён қилган Тошкент, Фарғона, Зарафшон, Сурхондарё ва Хоразм ҳудудларида аждодларимиз томонидан қолдирилган турар-жойларда кенг қамровли равишда ривожланишга олиб борилган археологик изланишлар натижаси асосида тош даврининг илк босқичларидан одамзоднинг маданий излари аниқланган. Эълон қилинган археологик адабиётларда ер геологияси тўртламчи даврнинг эоплейстосен босқичи Гюнс (1-3 млн), Гюнс-Миндел даврларида Ўзбекистоннинг муайян табиий географик ҳудудларида жойлашган одамзод табиий манбалардан фойдаланиб, этник муносабатларни олиб борган[28]. Тарихий маълумотларга кўра, тош даврининг ашел қуйи босқичида Турон пасттекислиги шимоли-ғарбида жойлашган Устюрт платоси Шахпахта ҳавзаси атрофларида қуриб қолган қудуқлар яқинида 60 га яқин очиқ типдаги манзилгоҳлар ҳажми (5х7, 10х20,50х70м ва 30х150м) одамзод истиқомад қилиб, теварак атрофдаги табиий ресурслардан фойдаланиб, касб-корларини белгилаб олганлар[29]. Устюртлик ибтидоий овчилар билан бир тарихий даврда Фарғона водийси Селенгур, Тошкент вилояти Оҳангарон водийсида Кўлбулоқ, Шимолий Зарафшонда Учтут, Ижонд ва Вауш манзилгоҳларида ўрнашган овчилар узоқ ҳудудларни ўзлаштириб, этник муносабатларни географик кенгликда олиб борганлар. М.Р.Қосимов хулосасига кўра, Кўлбулоқги кенг қамровли олиб борилган археологик изланишлар натижасида, унинг қуйи маданий қатламда ашел даври қуйи босқичига (1-22 маданий қатлам), кейинги қатламларида эса ўрта ва сўнги тош даврларига мансуб бўлган[30].

Археологик тадқиқотчилар асарларида Тошкент воҳаси ҳудудларида ўрнашган қабилалар Андронова қабилалари билан омухталашган Бурганлик маданияти вакиллари ярим ертўла уй хоналарида истиқомат қилиб, уй чорвачилиги ва қайр деҳқончилигини олиб бориб, этник муносабатларни давом эттирганлар (Бурчмулла, Янгийўл)[31]. Шу билан бирга, Ўзбекистоннинг баъзи ҳудудларида мил. авв VII-VI аср биринчи чорагида зироаткор аҳоли томонидан қад кўтарилган. Фарғона водийсида Далварзин, эйлатан, Марҳамат, Ахсикет шаҳарлари қад кўтарилган. Самарқанд

[28] Кабиров Ж, Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1990. Б- 14.

[29] Бижанов Е.Б. О находках памятников каменнего века в районе впадены Шахпахты на Устюрте// Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР – Нукус. 1983. №1. – С. 65-68.

[30] Касимов М.Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменнего века Средней Азии. – Т.: “Фан”, 1972. С-5-25.Ibragimov R.Z. O’rta Osiyo arxeologiyasi. – T.: “Asian Book House”, 2020. B-17.

[31] Оболдиева Т.Г. Погребения эпохи бронзы в Ташкентской области// КСИИМК.-М, 1955. Вып 59.-С. 145-150.

вилоятида Смарақанд ёдгорлигидан ташқари Кўктепа ҳудудий-маъмурий ва этник-маданий марказ вазифасини бажарган.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996.

2. Баратов П,Маматқулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 2002.

3. Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Мамедов Е.Д. Палеогеографическая обсловленность расселиния древнего человека в пустьинях Средней Азии//Первобитный человек и его материалная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене.-М.: Наука. 1974.

4. Оболдиева Т.Г. Погребения эпохи бронзы в Ташкентской области// КСИИМК.-М, 1955. Вып 59.

5. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси.-Тошкент. “Ўқитувчи”. 1990.

6. Бижанов Е.Б. О находках памятников каменнего века в районе впадены Шахпахты на Устюрте// Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР – Нукус. 1983. №1.

7. Касимов М.Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменнего века Средней Азии. – Т.: “Фан”, 1972.

8. Ibragimov R.Z. O’rta Osiyo arxeologiyasi. – T.: “Asian Book House”, 2020.

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ШАРОИТИДА ЎҚИТУВЧИ-ПЕДАГОГГА ҚЎЙИЛАДИГАН ДИДАКТИК ТАЛАБЛАР

Қ.Мамбетқасимова-*Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети Нукус филиали*

Аннотация. Мазкур мақолада замонавий ўқитувчи ва унга қўйиладиган дидактик талаблар баён қилинган. Шунингдек, мақолада бугунги кунда педагогнинг шахсий ва касбий сифатларини педагогик маҳоратда намоён қила олиш зарурати ҳам асосланган. Жамият тамонидан ўқитувчига қўйилаётган талаблар баён қилинган.

Аннотация. В данной статье описывается современный учитель и дидактические требования к нему. Также в статье обоснована необходимость проявления личностных и профессиональных качеств педагога в педагогическом мастерстве. Описаны требования, предъявляемые к учителю обществом.

Abstract. This article describes the modern teacher and didactic requirements for him. Also, the need to demonstrate personal and professional qualities of a pedagogue in pedagogical skills is based on the article. The demands placed on the teacher by the society are described.

Калит сўзлар. Педагог, таълим, талаб, ривожланиш, эътибор, тарбия жараёни, ташкилотчилик, муносабат.

Ключевые слова. Педагог, образование, потребность, развитие, внимание, учебный процесс, организация, отношение.

Keywords. Pedagogue, education, demand, development, attention, educational process, organization, attitude.

Кириш. Ўқитувчилик – инсон жамияти тарихи бошлангандан эътиборан давом этиб, шу билан бирга ҳамма вақт жамият ва жамоатчилик томонидан эътиборга лойиқ эъзозлаб келинган касбдир. “... Ўқитувчи – дейди Ал-Форобий, - ақл-фаросатга, чиройлик нутққа эга бўлиши ва ўқувчиларга айтмоқчи бўлган фикрларини тўла ва аниқ ифодалай олишни билмоғи зарур.” У ўз фикрини давом эттириб: “ўқитувчи ва раҳбарнинг вазифаси доно давлат раҳбари вазифасига ўхшайди, шу сабабли ўқитувчи эшитган ва кўрганларининг барчасини эслаб қолиши, ақл-фаросатга, чиройлик нутққа эга бўлиши, ўқитувчиларга айтмоқчи бўлган фикрларини тўла ва аниқ ифодалаб беришни билмоғи лозим. Шу билан бирга ўз номусини қадрлаши, адолатли бўлмоғи лозим. Ана шундагина у инсонийликнинг юксак даражасига эга бўлади ва бахт чўққисига эришади,” – деб таъкидлайди [1,28].

Абу Али Ибн-Синонинг фикрича, “... Ўқитувчи матонатли, соф виждонли, ростгўй ва болани тарбиялаш методларини, аҳлоқ қоидаларини яхши биладиган одам бўлмоғи лозим. Ўқитувчи ўқувчининг бутун ички ва тасжқи дунёсини ўрганиб, ақл қатламларига киролмоғи лозим.” [2.36]. Носириддин Тусий ўзининг “Ўқитувчиларни тарбиялаш тўғрисида” деган асарида шундай дейди: “... ўқитувчи мунозараларни олиб бориши, рад этиб бўлмайдиган даражадаги исбот қилишни билиши, ўз фикрларининг тўғрилигига ишониши, нутқи эса мутлақо тоза, жумлалари мантиқий ифодаланадиган бўлиши лозим... ўқитувчи нутқи ҳеч қачон ва ҳеч қайерда заҳархандали, қўпол ёки қаттиқ бўлиши мумкин эмас. Арс пайтида ўқитувчининг ўзини тута олмаслиги ишни бузиши мумкин.

Таҳлил ва натижалар. Замонавий мактаб ўқитувчиси қатор вазифаларни бажаради. Ўқитувчи – синфдаги ўқув жараёни ташкилотчисидир. Ўқитувчи ўқувчилар учун дарс пайти, қўшимча дарсларда ва шу билан бирга дарсдан ташқари ҳолларда ҳам керакли маслаҳатлар беришда билимлар манбаидан биридир.

Кўпчилик ўқитувчилар синф раҳбари вазифасини бажариб, тарбия жараёни ташкилотчилари бўлиб ҳисобланадилар. Замонавий ўқитувчи ижтимоий психолог бўлмаслиги мумкин эмас. Шунинг учун ҳам ўқувчилар ўртасидаги ўзаро муносабатларни йўлга сола олиши, болалар жамоасида ижтимоий-психологик механизмлардан фойдаланишни билиши зарурдир. Маълумки, педагогик фаолият – киши меҳнатининг энг мураккаб соҳаларидан биридир. Жамият томонидан қўйиладиган талабларидан энг муҳими ўқитувчининг шахси ва унинг касби билан боғлиқ хислатларига қаратилган.

Ўқитувчининг энг муҳим шахсий хислатлари қуйидагилардир:

- ўқитувчининг ўз Ватанига содиқлиги, болаларни севиши, уларни инсонпарварлик руҳида тарбиялаш истаги, ўз юрти, она тили, ўз халқининг тарихи ва унинг маданиятини севиши, давлатнинг мустақиллиги ғоясида яшашидан иборатдир;

- ижтимоий жавобгарликни юксак даражад ҳис этиши;

- олижаноблиги, ақл-фаросатли, маънавий пок;

- ўзини қўлга ола билиши, сабр-тоқаттли, бардам, матонатлилигидир [4,4].

Жамиятнинг ўқитувчилик касбига қўядиган асосий талаблари қуйидагичадир:

- кенг билим савиясига эга бўлиши, турли билимлардан хабардор бўлиши;

- ёш педагогик психиология, ижтимоий психиология ва педагогика, ёш физиологияси ҳамда макяб гигийенасидан чуқур билимларга эга бўлиши;

- ўзи дарс берадиган фан бўйича мустаҳкам билимга эга бўлиб, ўз касби, соҳасида жаҳон фанида эришилган янги ютуқ ва камчиликлардан хабардор бўлиши;

- таълим ва тарбия методикасини эгаллаши;

- ўз ишига ижодий ёндашиши;

- боаларни билиши, унинг ички дунёсини тушуна олиши;

- педагогик тахникани (мантиқ, нутқ, таълимниг ифодали воситалари) ва педагогик тактга эга бўлиши;

- ўқитувчининг ўз билим ва педагогик маҳоратини доимий равишда ошириб бориши. Ҳар бир ўқитувчи ана шу талабларга энг юқори даражада мос келадиган бўлиши учун интилиши керак.

Ўқитувчига жамият томонидан қўйиладиган талаблар, турли хиллдаги ижтимоий кутишлар, педагогнинг индивидуаллиги, унинг, шу тариқа талабларга жавоб беришга субйектив тайёргарлиги муайян ўқитувчининг педагогик фаолиятга нақадар тайёргарлигидан далолат беради.

Муҳим давлат вазифасини – кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга ошираётган замонавий мактаб ўқитувчисининг хислатлари, унинг ижодий фаолияти, асосан, амалий ишда, педагогик тажрибаларни эгаллаш жараёнида ўсиб ривожлана боради. Шу билан бирга ўқитувчи доимий равишда ўз малакасини ошириб, ўз ишининг муваффақиятини юқори даражада таъминлашга ёрдам берадиган шахсий хислатларини тарбиялаб бориши зарур.

Ендиликда глобал ўзгаришлар, фан-техника ва ахборот-коммуникация технологияларининг кун сайин ривожланиб бориши ўқитувчидан юксак маҳоратни, ўткир иродани, психологик қувватни, чуқур билим ва мулоҳазали бўлишни талаб қилади. Ҳозирги замон ўқитувчиси ўз мутахассислигига оид билимлар билан бирга, педагогик ва психологик билимларни, ҳамда турли фан йўналишлари бўйича махсус билимларга эга бўлган, касбий тайёргарлик, юксак ахлоқий фазилатларни эгаллаган, таълим муассасаларида фаолият кўрсатувчи шахсдир.

Ушбу нуқтаи назардан ҳозирги кунда қуйидаги бурч ва маъсулиятлар ўқитувчилардан талаб қилинади:

- ўқитувчи энг аввало маъсулиятни ҳис этувчи тарбиячи, тажрибали нотиқ, маданият ва маърифат тарғиботчисидир;

- ўқитувчи табиатан ўқувчиларни сева олиши, ўз меҳрини, ҳис-туйғуларини ҳар лаҳзада ўқувчилар ички дунёси билан боғлай олиши, уларнинг ҳам меҳрига, ҳурматига сазовор бўлиши керак;

- ўқитувчи жамият ижтимоий ҳаётида рўй бераётган ўзгаришлар, олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар моҳиятини чуқур англаб

этиши ва уларга холисона баҳо бериб, бу борада ўқувчиларга тўғри, асосли маълумотларни доимий бера олиши лозим;

- замонавий ўқитувчининг илм-фан, техника ва ахборот-коммуникацион технологиялари янгиликларидан ва ютуқларидан хабардор бўлиб бориши талаб этилади;

- ўқитувчи ўз мутахассислиги бўйича чуқур ва пухта билимга эга бўлиши, барча фанлар интеграциясини ўзлаштириб бориши, бунда ўз устида тинимсиз илмий изланишлар олиб бориши;

- ўқитувчи педагогика ва психология фанлари асосларини пухта билиши, ўқувчиларнинг ёш ва психологик хусусиятларини инобатга олган ҳолда таълимтарбия фаолиятини ташкил этиши керак;

- ўқитувчи касбий педагогик фаолиятида таълим ва тарбиянинг энг самарали замонавий шакл, метод ва воситаларидан унумли фойдалана олиш имкониятига эга бўлмоғи лозим;

- ўқитувчи ижодкор, таълим-тарбиявий фаолият ташаббускори ва ёш авлод келажаги учун жавобгар шахсдир;

- ўқитувчи касбий фаолияти жараёнида юксак даражадаги педагогик маҳорат, коммуникатив лаёқати, педагогик техника (нутқ, юз, қўл-оёқ ва гавда ҳаракатлари, мимика, пантомимика, такт) қоидаларини чуқур ўзлаштириб бориши шарт.

Ўқитувчи нутқ маданиятига эга бўлиши зарур, унинг нутқи қуйидаги хусусиятларни ўзида акс эттириши керак: турли шева сўзлардан ҳоли бўлиб, фақат адабий тилда ифода этилиши, ўқитувчининг нутқи содда, равон ва тушунарли бўлиши, ҳикматли сўзлар, ибора ва мақоллар, маталлар ҳамда кўчирма гаплардан ўринли фойдалана олиши лозим.

Ҳозирги шароитда жамиятнинг ўқитувчилик касбига нисбатан қўяётган талаблари кун сайин ортиб бормокда ва бу талабларни амалда тўғри ташкил қилиш вазифаси ўқитувчига боғлиқ. Замонавий мактаб ўқитувчиси қатор вазифаларни бажаради. Ўқитувчи аввало синфдаги тарбиявий жараённинг ташкилотчисидир.

Ўқитувчи тарбиячи сифатида қуйидаги талабларни билиши лозим:

• шахсни маънавий ва маърифий жиҳатдан тарбиялашда миллий уйғониш мафкурасининг ҳамда умуминсоний бойликларнинг моҳиятини билиши, болаларни мустақиллик ғояларига содиқлик руҳида тарбиялаши, ўз Ватанига, табиатга ва оиласига бўлган мухаббати;

• касбий билимларни пухта билиш билан бирга, турли билимлардан хабардор бўлиши;

• ёш педагогик психология, педагогика ва психология, ёшлар физиологияси, тарбиявий иш методикаси, мактаб гигиенасидан ўз касбига оид билимларни мукаммал билиши;

• ўз касби бўйича жаҳон фанида эришилаётган сўнгги ютуқлар, тарбия технологияси, компютер ва ахборот технологиялари, янгиликларидан доимий хабардор бўлиб бориши;

• таълим-тарбия методикасидан кўникма ва малакаларини ошириб бориши;

• ўз касбига ижодий ёндашиши;

• педагогик техника (мантиқ, нутқ таълимининг ифодали воситалари) ва педагогик тактга эга бўлиши;

• ўз билими ва педагогик маҳоратини доимий равишда ошириб бориши [5,3].

Хулоса. Муваффақиятли ишлаш учун ҳар бир ўқитувчи педагогик маҳоратга эга бўлиши зарур. Педагогик маҳоратнинг асосий қонунияти оз меҳнат сарф қилиб, улкан натижаларга эришиш. Ижодкорлик унинг ҳамиша ҳамроҳи бўлади. Педагогик фаолиятга қизиққан, қобилиятли, истеъдодли кишидагина педагогик маҳорат ҳислатлари шаклланиб боради.

Педагогик фаолият ўз моҳиятига кўра ижодий характерга эга. Ўқитувчи ўқувчи шахсини шакллантиради, кутилмаган вазиятларда мустақил қарорлар қабул қилади, педагогик муаммоларни ечади, ўқув жараёнини мустақил бошқаради. Буларнинг ҳаммаси ижодкорликнинг туб моҳияти, ишнинг мақсади ва характери билан боғлиқ. Педагогик маҳоратга эга бўлган ўқитувчигина. Ўз касбий фаолиятида улкан зафарларга эришади.

Адабиётлар:

1. Jabborov M. “Komil inson g‘oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil”, Toshkent, “Ibn Sino”, 2000-yil.
2. Mahmudov.T. Mustaqillik va ma’naviyat.-T., “Sharq”.2001, 6-12-b.
3. Mirqosimova, M.M. (2020) Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.// NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchniy vestnik NamGU 2020 yil 4-son. –B. 479
4. Murodjon o‘g‘li, U. I. (2024). “Tarixiy tafakkur” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy va pedagogik talqini: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, *4*(2), 55-63.
5. Усмоналиев, И. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish zarurati va muammoning amaliyotdagi holati. *Общество и инновации*, *3*(5/S), 132-141.

O’QUVCHI YOSHLARDA VATANPARVARLIKNI TARBIYALASH

Yusupov Quwanish Dawletbaevich-*Qoraqalpog’iston Respublikasi pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazining katta o’qituvchisi*

Yuksak ma’naviyatning yetakchi, asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu-vatanparvarlikdir. Shu bois vatanparvarlik tushunchasiga turli tomondan yondashadilar va talkin qiladilar. Bizningcha, vatanparvarlik deganda, insonning o’z ona yurtini qadrlab shu ona yurt uchun, uning qanday sohasi bo‘lmasin o’z kuch va g‘ayratini ayamasdan sarflashidir. Bu ta’rifda vatanparvarlikning barcha qirralari kamrab olinmasa ham, ammo vatanni qadrlash so’zining o’ziga keng ma’noda yondashilsa ta’rif tug‘ri tushuniladi.

To’g‘ri, vatanparvarlik haqida tom-tom asarlar yaratilgan. Ammo har davrning o’z talabi va zarurati bordir. Shu ma’noda vatanparvarlik haqida doimiy ravish da fikr yuritilsa xam foydadan xoli bulmaydi. Ajdodlarimiz tomonidan vatanparvarlikka qanday yondashilganligini tahlil qilsak, mavzumizning ko’p jihatlari yaqqol ochiladi. Chunki, vatanparvarlik xalqimizning tarixiy hayotida muhim o’rin egallagan (Spitamen, Tumaris, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najm iddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, va boshqalar faoliyati). Masalan, qadimgi ajdodlarimizdan Metexon (milodning 209 yili) Vatan haqida: «Vatan bizning olish-berish qilsak bo’ladigan mulkimiz emas. Uning bir parchasida mozorlarda yotgan, o’tgan avlod ajdodlarimizning xoklari, o’zimiz va qiyomatgacha to’g‘iladigan avlodlarimizning haqlari bordir. U dushmanga berilishi mumkin emas»,-degan edi. Bu fikrlar har bir kishini hayratga soladi, albatta. Vatanparvarlik

tushunchasini yanada kengroq tushunish uchun Furqat, Fitrat, Abdulla Kodiriy, Chulpon, Abdulla Avloniy, Usmon Nosir, Xamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov asarlarini mukammal o’rganish lozimdir. **[1]**

Shuningdek Ajdodlarimizning milliy qadriyatlar sarchashmasi bo‘lgan boy tarixiy merosni kelajak avlodga chuqur o‘rgatib, yoshlar ongiga singdirmoq kerak. Chunki tarix yoshlarni hayot voqea-hodisalariga ongli munosabatda bo‘lishga undaydi. Bolalarning murg‘ak qalbida Vatanga mehr tuyg‘ularini, bugungi kun qadriga yetish hissini uyg‘otadi. Yoshlarni ona-Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda, avvalo, imon-e’tiqod, mehr-oqibat, diyonat, adlu insof, oriyat va g‘urur kabi ezgu fazilatlarni shakllantirish judayam muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizdan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi jahonga dong‘i ketgan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Yoshlarimiz ana shunday buyuk zotlarning avlodlari ekanlarini unutmagan holda, bobolar boshlagan qutlug‘ ishlarning davomchisi, Vatanimizga munosib farzandlar bo‘lishlari lozim. Shuningdek, hayotda ko‘pni ko‘rgan, mehnatda suyagi qotgan, hozir esa piru badavlat bo‘lib yashayotgan otaxonlaru onaxonlarimizdan o‘rnak olishlari kerak. Odob-axloq, hayo-ibo, or-nomus, diyonat kabi boqiy qadriyatlar xalqimiz boy ma’naviyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan. Afsus, bugungi murakkab sharoitda “ommaviy madaniyat” niqobi ostida yoshlarimizga turli yot g‘oyalar, ma’naviy buzuqlik va axloqsizliklarni targ‘ib etishga urinayotgan ayrim g‘alamislar aynan ana shu bobomeros qadriyatlarimizga bolta urishga urinayotgani sir emas.**[2]**

Vatanparvarlik – insonning o‘zi tug‘ilib-o‘sgan ona Vatani, oilasi, ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, tabiat, millati, uning urf-odatlari, tili, madaniyatiga mehrmuhabbati, g‘amxo‘rligi, ularni e’zozlashi, avaylab-asrashi, ravnaqi uchun fidoyi bo‘lishi, himoya qilishi va sodiqligidir.

Vatanparvarlik, millat g‘ururi, fidoyilik, o‘z xalqi tarixi, uning madaniyati bilan faxrlanish, insonga hurmat–ehtirom-shularning hammasi inson ma’naviyatiga borib taqaladi. Ma’naviyat esa bugungi kunda erishgan mustaqilligimizning poydevori, tayanchi hisoblanadi.

Buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Axmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Boborahim, Ajiniyoz, Berdoq va boshqa o‘nlab, yuzlab o‘tgan allomalarimiz ham ana shu tuyg‘u bilan yashaganlar. Vatan, xalq manfaatlari, uning mustaqilligini saklash, uni yanada ravnaq toptirish yo‘lida o‘zlarini fido qilganlar, har qanday qiyinchiliklarni boshdan kechirishga, yengib o‘tishga bor imkoniyat va iste’dodlarini safarbar qila olganlar. O’z el-yurtini saqlagan, uni jahonga mashhur qilgan buyuk sarkarda Amir Temir davlati lashkaru-fuqarolarning sadoqati va fidoyiligi bilan qudratlidir, deb bejiz aytib ketmagan.

Ana shunday fidoyi odamlar qancha ko‘p bo‘lsa, davlat shunchalik qudratli va boy bo‘ladi.

Ikkinchi jahon urushida mag‘lub bo‘lgan, bugun esa ko‘p sohalarda dunyoda yetakchi o‘rinni egallab turgan Yaponiya bunga misol bo‘la oladi. Yaponiyaning qisqa vaqt ichida jahondagi eng rivojlangan mamlakatlardan biriga aylanishining sababi ham yoshlarda vatanparvarlik, kelajakka ishonch tuyg‘ularini tarbiyalay olish bo‘ldi.**[3]**

O’quvchi yoshlarda vatanparvarlik hissini oila va maktab maskanida muntazam tarbiyalab borish lozim. Oila a’zolarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi usullarda foydalanish mumkin: Vatan tarixini o‘rganish, tarixiy davrlarni yod olish, bu davrlarni boshqa davlatlar tarixiy davrlari bilan solishtirib ko‘rish; milliy-ma’naviy merosni o‘rganish; har bir oilada davlat ramzlari, madhiya, bayroq, gerbning bo‘lishi; tabiatni avaylab-asrash, uy-joylarni ko‘kalamzorlashtirish, suv, gaz, elektr energiyasini tejash, uy hayvonlarini avaylab-asrash, parvarish qilish; oilada o‘g‘il farzandlarning harbiy xizmatni bajarishlarining asosiy burch ekanligini singdirish; barcha oila a’zolarining mahalla to‘ymarosimlarida muntazam faol ishtirok etish. **[4]**

Umuman olganda Vatanimizning istiqlol va taraqqiyoti kelgusi yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, ongli, tadbirkor, yuksak axloqli bo‘lishiga bog‘liqdir.

Adabiyotlar ruyxati

1.M. Sharifxujaev Z.Davronov «Ma’naviyat asoslari» o’quv qo’llanma Toshkent-2005.

2.Usmonxon Alimov «Oilada farzand tarbiyasi» Toshkent- 2019 165-bet

3. A.Q.Munnavarov Toshkent-1996.

4.Najmidinova K. «Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy ahloqiy madaniyatning o’rni» Toshkent-2016.

ЭПОСЛЫҚ ШЫҒАРМАЛАРДЫҢ ЖАС ӘЎЛАДТЫ ТӘРБИЯЛАЎДАҒЫ ӘҲМИЙЕТИ

Қанаатова Гүлистан Оралбай қызы-*Қарақалпақстан Республикасы Педагогларды жаңа методикаларға үйретиў Миллий орайы, «Тиллерди оқытыў методикалары» кафедрасы аға оқытыўшысы*

Халық аўызеки әдебиятының ең бай ҳәм көркем жанры *эпослар* болып есапланады. Көрнекли фольклоршы Ә.Қоңыратбаев «Эпос деп ўақыясы ел-халық өмиринен алынған, образлары ири ҳәм жетилискен ҳалда дүзилип, батырлық яки ашықлық сюжетке қурылған үлкен-үлкен эпикалық жыр-дәстанларды айтамыз» деп анықлама береди [4: 126]. Халық эпослары түркий халықлар арасында оғада кең тарқалған. Әсиресе, қазақ ҳәм

қарақалпақ эпослары бойынша көплеген изертлеўлер жүргизилген. Қазақ эпосын дәўирлерге бөлген атақлы алым Ә.Марғулан:

1) Ески дәўирлерде дөрелген эпос (V-XII ә.);

2) Тарийхый дәўирлерде дөрелген эпос (XIII-XVI ә.);

3) Ноғайлы эпосы (XV-XVI ә.);

4) Жуңғар басқыншылығына байланыслы дөрелген эпос (XVIII ә.);

5) Ишки езиўшилерге қарсы гүреслерди сүўретлеўши эпос... ҳәм т.б. да түрлерге ажыратқан. Эпостың кейинги түрине жаңа дәўир менен байланыслы дөрелген шығармаларды киргизген [3: 75-81]. Миллий фольклорда баслы орынды ийелейтуғын ири эпикалық дөретпелер ҳаққында пикир жүриткен Қ.Айымбетов «Қарақалпақ аўыз әдебиятында тарийхый жырлар жыраўлардың узақ жыллар даўамында өз репертуарларында жырлаўы, қайта ислеўи арқалы жанр болып қәлиплескен» деў менен бирге, «Қарақалпақ аўыз әдебиятының тарийхый жыр жанры соңғы заманлары өмир сүрген халық шайырларының шығармаларына да өз тәсирин тийгизди. Бул традиция бүгинги күнде де даўам етип киятыр» деп жазады [1: 60-61]. Буның баслы себеби, халықтың эпосларға болған ықласында, шайырларымыздың сол руўх пенен суўғарылыўында ҳәм фольклорлық дәстүрлердиң жоғалмаўы менен байланыслы. Ә.Марғулан классификациясында көрсетилген дәўирлик бөлиниўшиликлердиң ишинде қаҳарманлық эпослардың ҳәр дәўирде де өз заманына ылайық халық дөретиўшилигинен орын алып келгенлигин көремиз. Қ.Айымбетов те эпостың халық турмысында тутқан әҳмийетине кеўил бөлген. Бул жерде биз халықтың ата-баба жолына, өз батырларына, қаҳарманлықты үгит-нәсиятлаўшы эпосларына болған ҳүрметин көремиз ҳәм жас әўладты тәрбиялаўда оның мәнис-мазмунының үлкен екенлигин аңлаймыз.

Эпослардың жас әўлад санасына сиңиўи дәстанлардан айтылған үзиндилер, толғаўлардан сайлап алынған шуўмақлар, атаның нама ырғағына салып айтқан көркем үлги қатарлары үгит-нәсиятлаўдың басланғыш сағасы болып есапланады. Қаҳарманлық эпослар халықтың муңын жырлайды, ойындағысын жеткереди. Ҳәрбир эпостың соңы жақсы ўақыя менен питеди, батыр жеңиске жетеди, ели-халқын қуўанышқа бөлейди. Алайық, «Қоблан» дәстанында ўақыяның соңында:

Қалың қыпшақ жағалап,
Қараспан таўға қоныпты,
Жылаған қыпшақ баласы,
Бурынғыдан еки есе,
Бақ-дәўлетке жолықты.
Келип қонды көп қыпшақ,

Азыўлы деген көлине.
Қалмақтан алған көп олжа,
Әдиллик пенен батырың,
Бөлип берди елине,
Пақыр, мискин, кемине.
Жарлысы байға теңелип,
Ыразы болды бәри де,
Қоблан киби ерине..., - деген кеўилге жигер бағышлаўшы, руўхландырыўшы қатарлар айтылады. Бул жас өспиримлердиң дурыс тәрбия алыўына, ерликке умытылып өсиўине, қара басынан көре, халық ғамын көбирек ойлаўына түртки болатуғын, жигерлендиретуғын шақырық сөзлер болып табылады. Ҳәрқандай оптимистлик көзқарас инсанда жақсы туйғыларды оятады ҳәм алға қарай умтылдырады. Қаҳарманлық дәстанлардың усындай әҳмийети ҳаққында М.Ғабдуллин: «Өзиниң ел-журтын, халқын сүйген, оларға жан-тәни менен бериле ҳадал хызмет еткен ҳәм бул жолда әжайып ерликлер ислер ислеген батырлар ҳаққындағы шығарылған жырлардың халық әдебияты тарийхынан алатуғын орны үлкен. Буны көп әсирлер бойына халықтың умытпай сақлап келиўиниң, сүйип жырлап, сүйсине тыңлаўының өзи-ақ дәлиллеп турады» дейди ҳәм соның менен бирге, «Халық өткен дәўирлерде батырлар жырын жасларды елди, ўатанды сүйиўге, халыққа ҳадал хызмет етиўге тәрбиялайтуғын қуралдың бири сыпатында пайдаланған. Жырдағы батырлардың ел қорғаўдағы ерлик ислерин жасларға үлги, өрнек еткен» деп жуўмақ шығарады [2: 168].

Халық поэзиясы ҳәр дәўирдиң келбетин өзинде сақлап отырады. Қобланның тарийхта болғанлығы ҳаққындағы узынннан узақ айтылатуғын кең көлемли дәстанлар да, қысқа-қайырым толғаўлар да батырдың тулғасын ҳәр қырынан сүўретлейди. Қобланның «Алаштың Ақжол бийи» атанған Дайырхожаны ашыў үстинде жазым қылғанлығы да өз алдына жырланған ҳәм онда Қыдан жыраўдың баласын жоқлап айтқан:

Қарақыпшақ Қобланда,
Нең бар еди қулыным,
Сексен асып,
Таянғанда тоқсанға,
Турмастай боп,
Үзилди ме жулыныў,
Адасқанын жолға салдың,
Бул ноғайлы елиниң,
Аққан булақ,
Жанған шырақ,

Жалғыз күнде құрыдың,

Қарақыпшақ Қобланда,

Нең бар еди қулыным..., - деген сөзлери халықтың арасында айтылатуғын турақлы жыр қатарларына да айланып қалған [5: 342]. Өз гезегинде бундай жыр үзиндилерин балалар да атқарады. Өйткени, ата-бабадан айтыла-айтыла яд болып қалған қатарлар әўладтан-әўладқа өтиў арқалы балалардың да көкирегинде мөрленип қалады ҳәм олар да өз ойынларында эпослық шығармалардан үлгилер айтып жүреди.

Әдебиятлар

1. Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис, 1968.

2. Ғабдуллин М. Қазақ халқының ауыз әдебиеті. – Алматы, 1974.

3. Маргулан А. О характере и исторической обусловленности казахского эпоса // Известия АН КазССР Серия историч. – А.-А., 1946. -№2.

4. Қоңыратбаев Ә. Қазақ фольклорының тарихы. – Алматы, 1991.

5. Сейфуллин С. Шығармалар. VI том. – Алматы, 1964.

Oqıwshı jaslar arasında huquqbuzarlıqtıń aldın alıw hám jámiyete huqıqıy tárbiyanıń roli.

Shrazov Adilbay Shamshetdinovich-*Qaraqalpaqstan Respublikası pedagoglardı jańa metodikaǵa uyretiw milliy orayı aǵa oqıtıwshısı*

Bugingi kunde tálim –tarbiya sistemasının bas maqseti hám tikeley social-gumanitar pánleri puxta biletuǵın,dun'ya maydanında óz bilim arqalı basekelese alatuǵın,óziniń puxaralıq poziciyasına iye bolǵan Watandı hámde milleti salıstırǵanda meyir –muxabbat sezimleri qáliplesken jas áulatı tárbiyalaw bolıp tabıladı. « Ózbekstan-2030 » strategiyasi tiykarında siyasiy –social , ekonomikalıq, tarawlarda reformalar ámelge asırılmaqta. [1]

Ózbekstan Respublikasında jaslardıń huquqiy bilimlerin qáliplestiriw hám olar arasında huquqbuzarlıq hám jınayatshılıqtıń aldın alıw boyınsha iskerlikte xalıqara shólkemler, xalıqara huquqiy hujetler ham turli mámleketler tájriybesi uyreniw sonday-aq milliy ózine tánligi esapqa alǵan halda ámelge asırılmaqta.Insaniyat tariyxında qudiretli mámleketlerdi idirawga juz tutqanın analiz etken tariyxshılar judá kóplep sebeblerdiń qatarında bir sebebti ayrıqsha atap ótken: milliy ruwxıyat hám ar-namıstan uzaq áwlat hár qanday ǵárezsiz mámleketi krizis batbagına batıradı. Tárbiyalıq jumıstıń ayriqsha baǵdarı retinde huqıqıy tárbiyanıń ǵárezsizligi áwele onıń mazmunı menen baylanıslı. Huqıqıy tárbiya ǵárezsiz huqıqıy sananı qáliplestiredi, bul bolsa, tárbiyanıń ayriqsha formaları hám usılların ızlep tabıw hám de qollanıw zárúriyatın talap etedi. Tárbiyashilar zárúr kólem degi huqıqıy bilimler menen qurallanǵan, huqıqıy sanasın qáliplesken, huqıqıy mádeniyatı joqarı bolıwı kerek. Huqıqıy tárbiya principlerıne ilimiylik, ámeliyat menen ajıralmaslıq, ayriqshalıqtı da kirgiziw

múmkin. Mámleketimizdiń rawajlanıw keleshekleri hár tárepleme bilimli, joqarı maman jaslar qolında bolıp, bul olardan joqarı huqıqıy sańa hám huqıqıy mádeniyatqa ıyelew huqıqtı puqta biliwdi talap etedi. Bazar ekonomikasına ótiw hám de huqıqıy demokratiyalıq mámleket qurıw, nızamshılıqtı bekkemlew jáne social ádalattıń qáliplesiwin támiyinlew, xalıqtı huqıqıy tárepten tarbiyalaw jáne onıń huqıqıy sanasına rawajlandırıwǵa baylanıslı.

Huqıqıy tárbiya degende shaxstıń sanasına shólkemlestirilgen súwrette hám anıq maqsetti gózlep tásir kórsetiwdiń arnawlı yuridikalıq túri túsiniledi.

Huqıqıy tárbiya - shaxslar jáne social gruppalardıń huqıqıy sanasına kórsetiletuǵın, anıq maqsetke jóneltirilgen, joybarlastırılǵan hám arnawlı huqıqıy tárbiya usılları jardeminde ámelge asırilatugin pedagogikalıq tásir procesi bolıp tabıladı. Mámleket hám huqıq teoriyası boyınsha sabaqliqlarda huqıqıy tárbiyaǵa keń anıqlama beriw ushraydı, yaǵnıy «huquqiy tárbiya puqaralardıń sana-sezimine jáne ruwxıylıqına tásir etiwge qaratılǵan, huqıqıy tárbiya formaları, quralları hám usıllarınan paydalanıp, puqaralar sanasında tereń hám turaqlı huqıqıy bilimler, ıqtıqatlar, mútajlikler, qádiriyatlar, nızamǵa uyqas minez-qulıq, ádetlerdi qáliplestiriw procesidir» [2].

Sonday eken, huqıqıy tárbiya puqaralarǵa huqıqıy bilimdi sińdiriwshi zárúrli social qural bolıp tabıladı. Tárbiyanı keń hám tar mániste túsiniw múmkin.Tar mánistegi tárbiya - huqıqtı qorǵaw shólkemleri xızmetkerleri tarepinen arnawlı islengen process bolıp, bunda shaxstı tárbiyalaw ushın tárbiyanıń barlıq formaları hám usılları bir maqsetke qaratıladı. Onıń shólkemlestiriwshileri, yaǵnıy tiykarǵı subektleri - ata-analar, oqıtıwshılar, huqıqtı qorǵaw shólkemleriniń xızmetkerleri hám olardıń basshıları hám basqalar esaplanadı.

Tárbiya processleriniń baǵdarların parıqlawda qollanılatuǵın zárúrli ólshemlerden biri - sańa formalarınıń túrlishe ekenligi. Sebebi, bólek alınǵan tárbiya processleriniń hár qaysısı, insan sanasına hámme táreplerin emes, tek onıń ayırım kórinislerin óz ishine aladı. Mısalı, siyasiy tárbiya - siyasiy sananı ; ruwxıy tárbiya - ruwxıy sananı ; estetik tárbiya - estetik sananı qáliplestiredi.

Huquqıy sanası hám huquqıy mádeniyatın rawajlandırıw mámleketin modernizaciya hám reforma etiw, jámiyetti demokratiyalastırıw hám jańalanıwdıń áhmiyetli shárti esaplanadı. Huquqıy mádeniyattı rawajlandırıw haqqında qanshelli jetilsken teoriyalıq pikirler bildirilmesin, olardı shaxstıń huquqıy sanasına sińdiriw barısında turaqlı hám de sistemalı jumıs alıp barılmasa,gózlengen maqsetlerge erisip bolmaydı. Bunıń ushın insan qálbine jol tabıw zárúr. Insan qálbine jol tabıw, áwele tálim-tárbiyadan baslanadı.

Huqıqıy tárbiya eki qıylı wazıypanı atqaradı. Birinshisi - tarbiyalanuwshilarga málim muǵdardaǵı huqıqıy bilimler, kónlikpeler hám ilmiy

tájriybelerdıń beriliwi. Ekinshisi - tárbiyalaniwshilarga huqıqıy ideyalar, sezimlerdi qáliplestiriw. Sol wazıypalardan kelip chiqip huqıqıy tárbiyada puqaralardıń huqıqıy sanasına qáliplestiriw tómendegishe boladi: birinshiden, tiykarǵı huqıqıy qaǵıydalar sistemasın biliw, olardıń mazmunı hám mánisin tuwrı tusiniledi;

ekinshiden, huqıq, nızamlar, nızamlılıq hám huqıqıy tártipti tereń húrmet qılıw ; úshinshiden, huqıqıy bilimlerdi ámelde ǵárezsiz qollay alıw ;

tórtinshiden, óz ádetlerin alınǵan huqıqıy bilimler menen maslastırıw;

besinshiden, huqıqıy normalardıń hár qanday buzıwlarına salıstırǵanda kelisim bermew kónlikpesin payda etiw. [3].

Huqıqıy tárbiya procesi adamlar arasında arnawlı bir munasábetler arqalı ámelge asadı. Sol sebepli huqıq menen tártiplestiriletuǵın social munasábetler huqıqıy tárbiya sheńberine kiredi. Ol jaǵdayda tárbiyalaniwshılar huqıqıy sanasına qáliplesiwi júz beredi. Huqıqıy tárbiya processinde adamlardıń arnawlı bir huqıqıy bilim dárejesine ıyelewine erisiw maqset etip qóyıladı. Olardıń jeke ıqtıqatınan kelip shıǵıw nızamǵa, huqıqqa bolǵan húrmetti qáliplestiriw huqıqıy tárbiyanıń ózegin quraydı. Huqıqıy tárbiya -shaxsqa salıstırǵanda huqıqıy sananı, huqıqıy kórsetpelerdi, nızamǵa boysiniwı minez-qulıq kónlikpeleri hám ádetlerin qáliplestiriwshi, birlesken, bir sistemalı, anıq maqsetti gózlegen halda tásir kórsetiw bolıp tabıladı. Huqıqıy tárbiyanıń tárbiyalıq jumıstıń ǵárezsiz baǵdarı retinde belgilep qoyılmalıǵanligi ósip kiyatırǵan áwladtıń ayırım bólegi huqıqıy sanasına unamsız tásir kórsetpey qalmaydı.

Paydalanǵan ádebiyatlar dizimi:

1.Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2023-jıl 11-sentyabr'degi «Ózbekstan – 2030» strategiyası haqqında»ǵı PP-158-sanlı Pármanı

2.Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. – T., 2001. – 187–188-betlar.

3. Karimova O, Gulamova Z."Huquqiy tarbiya va huquqni óqitish uslubi ". T.:1998

Эмпатия и социальная поддержка в контексте психического здоровья

Бекимбетова Гульсанем Шаукетовна-*Студентка 3-го курса НГПИ имениАжинияза*

1. Определение эмпатии и социальной поддержки

- Эмпатия – это способность понимать и разделять чувства другого человека. Она включает когнитивный компонент (понимание эмоционального состояния другого) и аффективный компонент (эмоциональное переживание в ответ на состояние другого).[1.50-75]

- Социальная поддержка – это ощущение принадлежности, заботы и принятия, которое человек получает от других людей. Она может быть

эмоциональной (помощь в стрессовых ситуациях), информационной (советы и информация) и материальной (конкретная помощь).[2.120-145]

2. Роль эмпатии в психическом здоровье

- Эмпатия способствует развитию межличностных связей, что важно для эмоционального благополучия. Люди с высокой эмпатией имеют больше возможностей для формирования крепких и поддерживающих социальных отношений.[5.95-115]

- Эмпатия связана с уменьшением уровня стресса и тревожности. Когда человек может выразить свои эмоции и быть понятым, это помогает снизить психологическое напряжение.[4.210-230]

- Исследования показывают, что эмпатия может способствовать снижению уровня депрессии и улучшению общего психического здоровья.[1.50-75]

3. Социальная поддержка и её влияние на психическое здоровье

- Социальная поддержка играет ключевую роль в преодолении стрессовых ситуаций. Люди, которые получают поддержку от окружающих, лучше справляются с жизненными трудностями и имеют более высокое качество жизни.[3.85-110]

- Наличие социальной поддержки связано с более низкими уровнями депрессии и тревожности. Социальная поддержка помогает людям чувствовать себя менее изолированными и более уверенными в себе.[2.120-145]

- Исследования показывают, что социальная поддержка может быть фактором, смягчающим последствия психических расстройств, таких как посттравматическое стрессовое расстройство (ПТСР).[6.70-95]

4. Взаимосвязь эмпатии и социальной поддержки

- Эмпатия способствует более эффективному предоставлению социальной поддержки. Люди, обладающие высокой эмпатией, лучше понимают потребности других и могут более точно предоставлять необходимую помощь.[7.130-155]

- Взаимодействие с эмпатичными людьми усиливает чувство социальной поддержки и способствует улучшению психического здоровья.[5.95-115]

5. Психологические механизмы воздействия

- Эмпатия и социальная поддержка действуют через несколько психологических механизмов, включая снижение уровня кортизола (гормона стресса), увеличение уровня окситоцина (гормона привязанности) и улучшение когнитивного функционирования.[4.210-230]

- Они также способствуют повышению самооценки и усилению чувства контроля над своей жизнью, что является важным фактором для психического благополучия.[3.85-110]

Литература:

1. Де Уол, Ф. "Возраст эмпатии: природа заботы о других." – М.: Альпина Паблишер, 2012.

2. Коэн, С., Уиллис, Т. "Социальная поддержка и адаптация к стрессу." – М.: Наука, 1985.

3. Ханс Селье "Стресс без дистресса." – СПб.: Питер, 2005.

4. Барон-Коэн, С. "Теория и практика эмпатии." – М.: Юрайт, 2013.

5. Айзенберг, Н., Фабес, Р. А. "Эмпатия и развитие просоциального поведения." – СПб.: Питер, 2008.

6. Джонс, В. Е. "Социальная поддержка: Теории и практики." – М.: Институт психологии РАН, 2011.

7. Кутчер, Дж. Л. "Психология эмпатии и социальной поддержки." – М.: Академический проект, 2010.

2-Sho'ba:

O'QUVCHILARNING MATEMATIK TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Kenjayev Sharof Shermuxamatovich, Abduraxmonov Abror Akromovich-*Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi matematika fani o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning tafakkurlarini matematik masalalar va misollar yordamida shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Masala, misol, burchak, sinus, kosinus, uchburchak, gipotenuza, teorema, funksiya, grafik, ko'rsatkich.

Matematik ta'lim jarayonida masalalardan foydalanish qadim zamonlardan beri qo'llanib kelinmoqda. Shuning uchun ham matematika darslarida matematik masalaning roli va uning o'rni haqida gap borganda quyidagi uch bosqichni ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir.

1. Matematika fanining nazariy qismlarini o'rganish matematik masalalarni yechish maqsadida amalga oshiriladi.

2. Matematika fanini o'rgatish matematik masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi.


3. Matematikani o'rganish masala yoki misollar yechish orqali amalga oshiriladi.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida masalaning roli va uning o'rniga har xil baho berib kelingan.

Matematik masala va misollarni yechish o‘quvchilarning faqatgina matematik faoliyatlarini shakllantiribgina qolmay, balki ana shu fanga doir bilimlarni o‘zlashtirish va uni amaliyotga tadbiq qilishga ham xizmat qiladi.

Aytilgan har bir bosqichni aniq mavzu materiallari asosida ko‘rib chiqamiz.

1. Darsda “*Ikki burchak ayirmasining va yig‘indisining kosinusi va sinusi*” nomli mavzuni o‘quvchilarga tushuntirsak, ular chiqarilgan natijaviy formuladan foydalanib mavzu materialiga doir misollarni yecha oladilar. [1, 63]



1-rasm

Chizmada (1-rasm) $\angle BOA = \alpha,\ \angle COA = \beta,$ $\varphi = \beta - \alpha, BD \perp CE, CQ \perp OB, DE = BF, DB = EF = OF - OE = \cos\alpha - \cos\beta,$ $QB = OB - OQ = 1 - \cos\varphi,\ CQ = \sin\varphi,\ CD = CE - BF = \sin\beta - \sin\alpha,$ CDB va CQB to‘g‘ri burchakli uchburchaklar umumiy CB gipotenuzaga ega. Pifagor teoremasi bo‘yicha: $BC^2 = CQ^2 + QB^2 = CD^2 + BD^2$ yoki $\sin^2\varphi + (1 - \cos\varphi)^2 = (\sin\beta - \sin\alpha)^2 + (\cos\alpha - \cos\beta)^2,$

$$\sin^2\varphi + 1 - 2\cos\varphi + \cos^2\varphi =$$
$$= \sin^2\beta - 2\sin\beta\sin\alpha + \sin^2\alpha + \cos^2\alpha - 2\cos\alpha\cos\beta + \cos^2\beta,$$
$$(\sin^2\varphi + \cos^2\varphi) + 1 - 2\cos\varphi = (\sin^2\beta + \cos^2\beta) + (\sin^2\alpha + \cos^2\alpha) -$$
$$-2(\sin\alpha\sin\beta - \cos\alpha\cos\beta), 2 - \cos\varphi = 2 - 2(\sin\alpha\sin\beta - \cos\alpha\cos\beta)$$

yoki

$$\cos(\beta - \alpha) = \cos\alpha\cos\beta + \sin\alpha\sin\beta. \quad (1)$$

(1) munosabat bo‘yicha va funksiyalarning xossalaridan foydalanib, yana boshqa formulalarni topish mumkin:

$$\cos(\alpha + \beta) = \cos\big(\alpha - (-\beta)\big) = \cos\alpha\cos(-\beta) + \sin\alpha\sin(-\beta),$$
$$\cos(\alpha + \beta) = \cos\alpha\cos\beta - \sin\alpha\sin\beta. \quad (2)$$

Xususan:

a) $\cos\left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right) = \cos\frac{\pi}{2}\cos\alpha + \sin\frac{\pi}{2}\sin\alpha = 0 \cdot \cos\alpha + 1 \cdot \sin\alpha = \sin\alpha,$ [2, 35]

$$\cos\left(\frac{\pi}{2} + \alpha\right) = \cos\frac{\pi}{2}\cos\alpha - \sin\frac{\pi}{2}\sin\alpha = 0 \cdot \cos\alpha - 1 \cdot \sin\alpha = -\sin\alpha;$$
$$\cos\left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right) = \sin\alpha; \quad (3)$$
$$\cos\left(\frac{\pi}{2} + \alpha\right) = -\sin\alpha. \quad (4)$$

b) $\sin\left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right) = \cos\left(\frac{\pi}{2} - \left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right)\right) = \cos\alpha,$

$$\sin\left(\frac{\pi}{2} + \alpha\right) = \cos\left(\frac{\pi}{2} - \left(\frac{\pi}{2} + \alpha\right)\right) = \cos(-\alpha) = \cos\alpha.$$

Demak,

$\sin\left(\frac{\pi}{2}-\alpha\right)=\cos\alpha;$ (5)

$\sin\left(\frac{\pi}{2}+\alpha\right)=\cos\alpha.$ (6)

$\alpha\pm\beta$ burchak sinusi uchun yuqorida topilgan formulalardan foydalanib chiqariladi:

$$\sin(\alpha+\beta)=\cos\left(\frac{\pi}{2}-(\alpha+\beta)\right)=\cos\left(\left(\frac{\pi}{2}-\alpha\right)-\beta\right)=$$

$$=\cos\left(\frac{\pi}{2}-\alpha\right)\cos\beta+\sin\left(\frac{\pi}{2}-\alpha\right)\sin\beta=\sin\alpha\cos\beta+\cos\alpha\sin\beta$$

yoki

$\sin(\alpha+\beta)=\sin\alpha\cos\beta+\cos\alpha\sin\beta.$ (7)

Agar (7) formuladagi β o‘rniga $-\beta$ qo‘yilsa, natijada:

$\sin(\alpha-\beta)=\sin\alpha\cos\beta-\cos\alpha\sin\beta.$ (8)

[2, 36]

2. Matematik tushunchalarni o‘rganish matematik misol va masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi, chunki o‘qituvchi yangi o‘rganiladigan matematik tushunchaning ta‘rifini bergandan keyin uning analitik ifodasini yozadi. Masalan $a^x=b,\ a\neq 1$ ko‘rinishdagi tenglamaga ko‘rsatkichli tenglamani deyiladi deb ta’riflangandan so‘ng, quyidagi ko‘rinishdagi ko‘rsatkichli tenglamani ifodalovchi misollarni ko‘rsatish mumkin: $3^x=27;$ $2^x=16,\ 5^x=125;$ ...

O‘qituvchi $a^x=b$ ko‘rinishdagi tenglamaning yechimini geometrik nuqtai nazardan ko‘rsatib berishi maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi o‘quvchilarga, agar koordinatalar tekisligida ikki funksiya grafigi o‘zaro kesishsa, ular kesishish nuqtasining abssissasi ana shu funksiyalarni tenglash natijasida hosil qilingan tenglamaning yechimi bo‘lishini takrorlagandan so‘ng $a^x=b$ tenglamani ham $y=a^x$ va $y=b$ ko‘rinishlarda yozib, ularning har birining garfigini chizib, bu grafiklarning kesishish nuqtasining abssissasini $x=\log_a b$ deb belgilash qabul qilinganligini tushuntirishi lozim. Bundan ko‘rinadiki, $a^x=b$ tenglamaning yechimi $x=\log_a b$ bo‘lar ekan. $(3^x=27)\rightarrow x=\log_3 27=\log_3 3^3=3\log_3 3=3.$

Ko‘rsatkichli tenglamalarning barchasi ayniy algebraik almashtirishlar yordamida soddalashtirilib, $a^x=b$ ko‘rinishga keltiriladi, so‘ngra bundan x noma‘lum $x=\log_a b$ ko‘rinishda topiladi.

3. Hozirgi davrda masala yoki misollar yechish orqali matematik ta’lim jarayonini olib borishning metodik usul va vositalari ishlab chiqilgan va bu usullar haqida ko‘pgina ilmiy metodik va didaktik adabiyotlarda bayon qilingan. Matematik tushunchani masala yoki misollar yordamida kiritish va uning tub mohiyatini o‘quvchilarga tushuntirish murakkab bo‘lgan pedagogik jarayondir.

Shuning uchun ham o‘qituvchi dars jarayonida ishlatiladigan masalani tanlash yoki uni tuzishda juda ham ehtiyot bo‘lmog‘i lozimdir. Tuzilgan masalalarni dars jarayonida qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda bo‘lishi kerak. Har bir dars jarayonida ishlatiladigan masala yoki misol darsning maqsadiga mos kelishi kerak.

Agar darsda o‘qituvchi o‘quvchilarga biror yangi matematik tushunchani o‘rgatmoqchi bo‘lsa, tuziladigan masala yoki misol ana shu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi xarakterda bo‘lishi kerak.

Masalan $y = a^x,\ a \neq 1$ ko‘rsatkichli funksiyaning grafigi nomli mavzuni o‘tishdan oldin o‘qituvchi $y = 2^x,\ y = \left(\frac{1}{2}\right)^x,\ y = 3^x$ kabi xususiy holdagi ko‘rsatkichli funksiyalarga doir bo‘lgan misollarning grafiklarini Dekart koordinatalar sistemasida o‘quvchilar bilan savol-javob asosida chizib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

a ning xususiy qiymatiga nisbatan chizilgan grafiklardan o‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda $y = a^x$ ko‘rinishdagi funksiyaning grafigi va uning xossalari haqida umumiy xulosani keltirib chiqara oladilar. Bu yerda darsni tushuntirish metodikasi xususiylikdan umumiylikka tomon bo‘lib, bunda o‘quvchilar har bir tushunchani mohiyatini anglab yetadilar. [1, 65]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.

2. A.U.Abduhamidov, H.A.Nasimov, U.M.Nosirov, J.H.Husanov Algebra va matematik analiz asoslari II qism, Akademik litseylar uchun darslik 7-nashr. Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

BA’ZI GEOMETRIK SHAKLLARNI YUZALARINI TOPISHNING QULAY USULI

Kenjayev Sharof Shermuxamatovich, Qaxxarov Akmal Abdig‘ofurovich-*Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi matematika fani o‘qituvchilar*


Annotatsiya: O‘quvchilar geometriya fanidan Dekart koordinatalar tekisligida joylashgan hamda uchlarining koordinatalari berilgan ko‘pburchaklar yuzalarini topishga odatda uzoq vaqt o‘rinishadi. Maqolada keltirilgan formulalar yordamida masalalarni qisqa vaqtda yechimini topish mumkin.

Kalit so‘zlar: Proyeksiya, yuza, uchburchak, to‘rtburchak, ko‘pburchak.

Kirish: Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan geometriya fanining planimetriya bo‘limidagi uchburchak uchlarining koordinatalari berilganda yuzalarini topishga doir tuzilgan testlarni o‘quvchilarning aksariyati Geron formulasidan foydalanib

javobni topishadi. Bunday masalalarni yechishning yana bir formulasi mavjud. Bu formula yordamida o‘quvchilar qisqa vaqtda test javobini topishlari mumkin bo‘ladi.

Asosiy qism: Faraz qilaylik, uchlari $A(x_1;\ y_1)$, $B(x_2;\ y_2)$ va $C(x_3;\ y_3)$ nuqtalarda yotuvchi ABC uchburchak berilgan bo‘lsin. Uchburchak uchlaridan OX va OY o‘qlarga proyeksiyalar tushiramiz. Natijada AA_1B_1B, BB_1C_1C hamda AA_1B_1B trapetsiyalar hosil bo‘ladi. OX o‘qdagi proyeksiyalarni mos ravishda A_1B_1 va C_1 bilan belgilaymiz.



Abssissalar o‘qidagi nuqtalarni x_1, x_2, x_3 va ordinatalar o‘qidagilarni y_1, y_2, y_3 lar bilan belgilaymiz. U holda, AA_1C_1CB yuzadan AA_1B_1B va BB_1C_1C yuzalarni ayirsak, izlangan ABC uchburchak yuzasi kelib chiqadi.

$$S_1 = \frac{AA_1 + BB_1}{2} \times A_1B_1 = \frac{y_1 + y_2}{2} \times (x_2 - x_1),$$
$$S_2 = \frac{BB_1 + CC_1}{2} \times B_1C_1 = \frac{y_2 + y_3}{2} \times (x_3 - x_2),$$
$$S_3 = \frac{AA_1 + CC_1}{2} \times A_1C_1 = \frac{y_1 + y_3}{2} \times (x_3 - x_1).$$

Bulardan,

$$S_\Delta = (S_1 + S_2) - S_3 = \frac{y_1 + y_2}{2} \times (x_2 - x_1) +$$
$$+ \frac{y_2 + y_3}{2} \times (x_3 - x_2) - \frac{y_1 + y_3}{2} \times (x_3 - x_1) =$$
$$= \frac{1}{2} \cdot [(x_2 - x_1) \cdot (y_1 + y_2) + (x_3 - x_2) \cdot (y_2 + y_3) + (x_3 - x_1) \cdot (y_1 + y_3)],$$

ya’ni

$$S_\Delta = \frac{1}{2} \cdot [(x_2 - x_1) \cdot (y_1 + y_2) + (x_3 - x_2) \cdot (y_2 + y_3) +$$
$$+ (x_3 - x_1) \cdot (y_1 + y_3)]. \quad (1)$$ [4]

(1) formula uchburchak yuzini topish formulasidan iborat. To‘rtburchak yuzining formulasi ham shu yo‘l bilan hosil qilinadi:

$$S_{t.b.} = \frac{1}{2} \cdot [(x_2 - x_1) \cdot (y_1 + y_2) + (x_3 - x_2) \cdot (y_2 + y_3) + (x_3 - x_1) \cdot (y_1 + y_3) + (x_4 - x_1) \cdot (y_1 + y_4)] \quad (2)$$ [1]

Ko‘pburchak yuzi formulasini bunday yozish mumkin:

$$S_{k.b.} = \frac{1}{2} \cdot [(x_2 - x_1) \cdot (y_1 + y_2) + (x_3 - x_2) \cdot (y_2 + y_3) + \cdots + (x_n - x_1) \cdot (y_1 + y_n)] \quad (3)$$

1-misol. Uchburchakning uchlari $A(2;3)$, $B(-2;1)$ va $C(1;-1)$ nuqtalarda yotadi. Shu uchburchakning yuzini toping. [2]

Yechilishi: Berilganlarga ko‘ra $x_1 = 2$, $x_2 = -2$, $x_3 = 1$; $y_1 = 3$, $y_2 = 1$ va $y_3 = -1$. Bu qiymatlarni (1) formulaga qo‘yib, uchburchak yuzini hisoblaymiz:

$$S_\Delta = \frac{1}{2} \cdot \big[(-2-2) \cdot (3+1) + \big(1-(-2)\big) \cdot \big(1+(-1)\big) + (2-1)\big(3+(-1)\big)\big] =$$

$$= \frac{1}{2} \cdot [(-4) \cdot 4 + 3 \cdot 0 + 1 \cdot 2] = \frac{1}{2} \cdot (-14) = -\frac{14}{2} = -7.$$

Uchburchakning yuzi musbat ishora bilan olinadi. Uning yuzi 7 kvadrat birlikdan iborat ekan.

2-misol. Uchlari $A(-1;-2)$, $B(2;-2)$, $C(0;3)$ va $D(-3;1)$ nuqtalarda yotgan to‘rtburchakning yuzini hisoblang. [3]

Yechilishi: Shartga asosan $x_1 = -1$, $x_2 = 2$, $x_3 = 0$, $x_4 = -3$; $y_1 = -2$, $y_2 = -2$, $y_3 = 3$ va $y_4 = 1$. (2) formulaga asosan to‘rtburchak yuzini hisoblaymiz:

$$S = \frac{1}{2} \cdot [(2+1) \cdot \big(-2+(-2)\big) + (0-2) \cdot (-2+3) + (-3-0) \cdot (1+3) + \big(-1-(-3)\big) \cdot (-2+1)] =$$

$$= \frac{1}{2} \cdot [3 \cdot (-4) + (-2) \cdot 1 + (-3) \cdot 4 + 2 \cdot (-1)] =$$

$$= \frac{1}{2} \cdot (-12 - 2 - 12 - 2) = \frac{1}{2} \cdot (-28) = -14.$$

Yuza har doim musbat ishora bilan olinishi lozimligi sababli, to‘rtburchakning yuzasi quyidagiga teng: $S = 14$ kvadrat birlik.

Xulosa: Dekart koordinatalar tekisligida uchburchak, to‘rtburchak va ko‘pburchak uchlarining koordinatalari berilganda ushbu shakllarning yuzalarini topish uchun maqolada keltirlgan formulalar yordamida o‘quvchi qisqa vaqtda to‘g‘ri javobni aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdalimov V. Oliy matematika. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.

2. Abdalimov V., Solixov Sh. Oliy matematika qisqa kursi.- Toshkent: O‘qituvchi, 1983.

3. Abdalimov V. Oliy matematikadan misol va masalalar to‘plami. -Toshkent: Milliy ensiklopediya, 2003.

4. Sultonov J.S. Oliy matematika. Samarqand 2012.

SPORT MASHG‘ULOTLARIDA IRODA SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TAVSIFI

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligining
Xorazm akademik litseyi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi-**Razakov Sanjar Ataxonovich**

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga jismoniy mashqlarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati rivojlanadi. Trenirovka jarayonlari ularda yuksak sport mahoratini egallashlariga, jismonan baquvvat bo‘lishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ta’limning vazifasi jismoniy mashqlarni bajarishning turli usullarini egallashga yordamlashishdir.

O‘quvchini sportni mukammal egallashida harakat tasavvurlarini roli kattadir. Harakat tasavvurlariga ega bo‘lmay o‘quvchi eng oddiy jismoniy mashqlarni ham bajara olmaydi. Harakat to‘g‘risidagi tasavvurlar doimo murakkab bo‘lib, u ko‘rish harakat elementlarining birligidan tashkil topadi. Uzoq davom etgan harakatlar dastlab ko‘z kuzatishlari keyin muskul harakat tasavvuri bilan bog‘lanadi.

O‘quvchi ongida ko‘z tasavvuri paydo bo‘lganda o‘z-o‘zidan muskul harakatlari paydo bo‘ladi. Shu sababli harakatni ko‘rsatish, doimo ham uning o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri bajarilishiga olib kelavermaydi. Muskul harakat tasavvurlarini hosil etish uchun ular jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida aniqlab olish zarur.

Bu harakat og‘zaki tushuntirish yordamida erishiladi:

1. Harakatni sekinlashtirib bajarish. Masalan, diskani otishda harakatini boshqarish muhim rol o‘ynaydi. Unga erishish uchun sportchi avvalo harakatni sekinlatib bajaradi. Shu paytda u muskulning otish vaqtdagi holatini tasavvur qila oladi. Bu jarayonda o‘qvuchi harakatni har bir detaliga mukammal e’tibor berishga harakat qiladi.

2. Turli og‘irlikdagi snaryadlardan foydalanish. O‘quvchi turli og‘irlikdagi snaryadlar bilan shug‘ullanganda, o‘sha zaxoti muskul miqdorida o‘zgarish ro‘y beradi, uni xis etadi. Bu unga harakatni yaxshi o‘zlashtirishiga yordam beradi.

3. O‘rgangan harakatlarni diffirentsional bajarish. Shug‘ullanish jarayonida sportchi mashqni umumiy, bo‘linmagan holda bajaradi. Keyin u mashqni elementlarga, qismlarga bo‘lib bajaradi, yani qo‘l va oyoq harakatlari, qo‘l bilan harakat qilganda u faqat qo‘lni o‘ylaydi, shu paytda oyoq harakatlari unutiladi.

4. Har bir aniq harakat og‘zaki ko‘rsatma asosida olib borilishi lozim. Shundagina bu harkatlar to‘g‘risida aniq tasavvurlar hosil bo‘la boradi. Jismoniy mashqlarni ko‘rsatishdan maqsad o‘quvchilarda o‘rganilayotgan harakat to‘g‘risida ko‘z tasavvuri obrazi hosil etishdir.

Ko‘z bilan qabul qilish to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish, harakatni ko‘rsatilishini tashkil etishga quyidagi talablarni qo‘yadi:

1). Qabul qilishni maqsadga yo‘naltirilgan xarakteri. Harakatni ko‘rsatishdan oldin o‘quvchilarga harakat to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun harakatni qaysi xususiyatlariga e’tibor qaratilishi lozimligi aytiladi. Harakatni bajarib turib, uning izohlash muvaffakiyat keltiradi

2). O‘qituvchi doimo o‘quvchilarni qabul qilishlarini e’tiborga olishi zarur. O‘qituvchi harakatni ko‘rsatibgina qolmay uning muhim tomonlarini tushuntirishi, e’tiborni nimaga qaratish zarurligini ham ko‘rsatib borishi lozim.

3). Ko‘rsatilgan harakatlar doimo og‘zaki izoh bilan mustahkamlanib borishi zarur, shundagina bu harakatlar o‘quvchilar ongida, esida puxta saqlanib qoladi.

Harakat malakalarini tarkib topishida ongning roli.

Harakat malakalarining shakllanish jarayoni ongli jarayon I.M.Sechenovning aytishicha harakat qanchalik yodlangan bo‘lsa, u odamning irodasiga shunchalik osonlik bilan bo‘ysunadi va aksincha bo‘lishi mumkin lekin bu avtomatlashgan harakat ongning kontrolidan tashqari emas, - deydi Sechenov. Har qanday yodlab olingan mehnat, xayotiy va sport harakatlari ongning ishtirokisiz bo‘lishi mumkin emas.

Harakat malakalarining xususiyatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi. Malakalarning ong bilan bog‘liq bo‘lishi. Malakadagi harakatning aniqligi. Bu mushak haraka va boshqa sezgilarning yuksak o‘sganligiga bog‘likdir. Malakalardagi harakatlarni tejamli bajarilishi. Malakaning turg‘unligi.

Malaka hosil bo‘lish natijasida: sport uchun zarur bo‘lgan kuch, tezlik, epchillik, egiluchanlik, chidamchilik, sharoitiga tez moslashish kabi sifatlar yetiladi. Musobaqa jarayoniga psixik jarayonlarning sifati reaktsiya tezligi oshib sportchida orientirovka yaxshilanadi. Tafakkur tez va sifatli ishlaydi. Sportchi o‘z harakatini erkin nazorat qila oladigan bo‘ladi.

Harakat malakalarining hosil bo‘lishida mushak harakat sezgilari muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda boshqa hamma analizatorlar ham qatnashadi. Sport malakalarini hosil qilishda nuth va taffakkur katta rol o‘ynaydi.Har qanday harakat malakalarini hosil qilish boshqa malakalar bilan aloqada bo‘ladi va bog‘lanadi. Malakalarning o‘zaro ta'siri ikki shaklda bo‘ladi. Bir malakadan ikkinchisiga o‘tishda mavjud malakaning ijobiy ta'sir ko‘rsatish - malakani qo‘shish deyiladi. Bir malakani ikkinchi malakaga salbiy ta'sir hilishni

interferentsiya deyiladi. Harakat malakalarining susayishi yoki mutlaqo esdan chiqarilish.

Har qanday harakatni bajarish uchun oz bo‘lsa ham kuch sarf etish lozim bo‘ladi. Iroda kuchi ikki xususiyatni ko‘rsatadi: ongli harakatlarni va qiyinchiliklarni engishni. Iroda kuchi, shuningdek, engish kerak bo‘lgan qiyinchiliklarning og‘ir yoki engilligini anglash bilan bog‘liqdir. Engish kerak bo‘lgan to‘siqlar, masalan, yuqoriga sakrashdagi balandlik, yugurish paytdagi ob-xavoning qarshiliklari va xokazolarni sportchi farqlay olishi, bundan tashqari o‘zidagi ichki, ruhiy kechinma-to‘siqlar ham ma’lum rol o‘ynaydi. Sport faoliyatida iroda kuchi o‘z xarakteri jihatdan turli-tumandir. Masalan:

1. Muskul mashqlarida talab etiladigan iroda kuchi. Jismoniy mashqlar iroda kuchi bilan chambarchas bog‘liqdir. Jismoniy mashqlarni bajarish odatdagi muskul harakatlaridan ortiqroq harakatni talab etadi. Ko‘p marotaba va tez-tez qaytariladigan harakatlar sportchi qobiliyatini shakllantirish va uning iroda kuchini sarf etishda muhim rol o‘ynaydi.

2. Diqqatni kuchaytirishdagi iroda kuchi tabiatan iroda kuchini talab etadi. U ma’lum muddat ichida tanlagan ob’ektga o‘z e’tiborini qaratishda nomoyon bo‘ladi. Shuning uchun iroda kuchi qobiliyatini tarbiyalash bo‘yicha mashqlar qilib turish kerak bo‘ladi. Bunda e’tiborni turli xil tashqi muxit qarshiliklaridan boshqa narsaga jalb etish muhim ahamiyatga ega. Shug‘ullanuvchilardan e’tiborni kuchaytirishni talab qiladigan topshiriqlarni qiyinligini hisobga olib, trener ularda iroda kuchii ham tarbiyalaydi..

3. Charchash, toliqish tuyg‘ularini engish bilan bog‘liq iroda kuchi. Bunda muskullarda ortiq va charchoq hissi bo‘lganda, sportchidan yana iroda kuchini nomoyish qilish kerak bo‘ladi.

4. Rejimga rioya qilish bilan bog‘liq iroda kuchi. Mashg‘ulotning boshlanish davrida rejimga rioya qilish iroda kuchini talab qiladi. U sportchining aniq bir vaqtda mashg‘ulotlarni boshlash, mashg‘ulot mobaynida ajratilgan vaqtda unumli foydalanishni takozo etadi.

Yaxshi sport formasiga ega bo‘lgan sportchi mazkur sport faoliyati bilan bog‘liq voqelikni tez va aniq idrok etadi. Uning idrok ko‘lmi ortadi, diqqatini to‘plash va taqsimlab olish qobiliyati yuksaladi, javob reaktsiyasi tezlashadi, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qili shva ularni ongli boshqarish vujudga keladi. Sportchi pishib etilganligining yana bir muhim belgisi unda ijobiy hissiyot-texnik holatlarning ustunligi, bardamlilik va kayfiyatlarining yuqori bo‘lishligidir.

Sport formasini psixologik tahlil etish katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, sportchi o‘zining jismoniy holatini nazorat qilish, boshqarish kabi usullarini bilib oladi. Ortiqcha uzilib qolish holatining oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бернштейн Н.А. Физиология движений и активность. М., 1990.
2. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций. М., 2003.
3. Гамезо М.В.,Домашенко И.А. Атлас по психологии. М., 2002.
4. Гиппенрейтер Ю.Б. Введение в общую психологию : курс лекций. М., 2002.

MODUL QATNASQAN EKI ÓZGERIWSHILI TEŃSIZLIKLERGI SHESHIW USILLARI

Mamutov Aybek Temirbayevich-*Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi*

Annotatsiya: Modul qatnasqan eki ózgeriwshili teńsizlikler kóbinese grafikaliq túrde olardiń sheshimleriniń toplamın tabıw arqalı sheshiledi. Modul qatnasqan eki ózgeriwshili teńsizliklerde modul qatnasqan bir ózgeriwshili teńsizlikler siyaqlı teń kúshli almastırıwlardan paydalanıp aldın analitikaliq sheshilip, keyin olardıń grafikleri járdeminde sheshimler toplami tabiladı.

Klyuch sózler: Teńleme, teńsizlik, modul, ózgeriwshi, grafik, sheshim, koordinata.

1-misal: $\left|x^2+y^2-2\right| \le 2(x+y)$ teńsizliginiń sheshimler toplamın tabıń.


Sheshiw:

$$\left|x^2+y^2-2\right| \le 2(x+y) \Leftrightarrow -2(x+y) \le x^2+y^2-2 \le 2(x+y) \Leftrightarrow \begin{cases} x^2+y^2-2 \le 2(x+y) \\ x^2+y^2-2 \ge -2(x+y) \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow \begin{cases} x^2-2x+1+y^2-2y+1 \le 4 \\ x^2+2x+1+y^2+2y+1 \ge 4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} (x-1)^2+(y-1)^2 \le 4 & (1) \\ (x+1)^2+(y+1)^2 \ge 4 & (2) \end{cases}$$

(1) teńsizliktiń grafigi orayı (1;1) noqatında hám radiusı 2 birlikke teń bolǵan jabıq dóńgelek, (2) teńsizliktiń grafigi orayı (-1;-1) noqatında hám radiusi 2 birlikke teń bolǵan ashıq dóńgelekten payda bolǵan tegisliktiń noqatlarınıń toplamı, sonday-aq berilgen teńsizlikti (1) hám (2) teńsizliklerdiń sheshimler toplamınıń kesilisiwine tiyisli tegisliktiń noqatlarınıń toplami qanaatlandıradı.

Berilgen teńsizliktiń sheshimleriniń grafigi tómendegi suwrette kórsetilgen.



Suwrettegı shegara noqatları toplamınan alınǵan qálegen noqattıń koordinataları $\left|x^2+y^2-2\right|=2(x+y)$ teńlemesin qanaatlandırǵanı ushın onıń grafigi boladı.

2-mısal. $\dfrac{y-1+\left|x-1\right|}{y-x^2+2x}\le 0$ teńsizliginiń sheshimler toplamın tabıń.

Sheshiw. Berilgen teńsizliktiń sheshimleriniń toplamı $x-1=0\Leftrightarrow x=1$ tuwrsına simmetriyalı jaylasqan boladı.

$$\frac{y-1+\left|x-1\right|}{y-x^2+2x}\le 0\Leftrightarrow\left[\begin{array}{l}\begin{cases}x-1\ge 0\\ \dfrac{y-1+x-1}{y-x^2+2x}\le 0\end{cases}\\ \begin{cases}x-1\le 0\\ \dfrac{y-1-(x-1)}{y-x^2+2x}\le 0\end{cases}\end{array}\right.\Leftrightarrow\left[\begin{array}{l}\begin{cases}x\ge 1\\ \dfrac{y+x-2}{y-x^2+2x}\le 0\end{cases}\\ \begin{cases}x\le 1\\ \dfrac{y-x}{y-x^2+2x}\le 0\end{cases}\end{array}\right.\qquad\begin{array}{l}(1)\\ \\ (2)\end{array}$$


(1) teńsizlikti sheshemiz:

$$\begin{cases}x\ge 1\\ \dfrac{y+x-2}{y-x^2+2x}\le 0\end{cases}\Leftrightarrow\left[\begin{array}{l}\begin{cases}x\ge 1\\ y+x-2\ge 0\\ y-x^2+2x<0\end{cases}\\ \begin{cases}x\ge 1\\ y+x-2\le 0\\ y-x^2+2x>0\end{cases}\end{array}\right.\Leftrightarrow\left[\begin{array}{l}\begin{cases}x\ge 1\\ y\ge -x+2\\ y<(x-1)^2-1\end{cases}\\ \begin{cases}x\ge 1\\ y\le -x+2\\ y>(x-1)^2-1\end{cases}\end{array}\right.\qquad\begin{array}{l}(3)\\ \\ (4)\end{array}$$

(2) teńsizlikti sheshemiz:

$$\begin{cases}x\le 1\\ \dfrac{y-x}{y-x^2+2x}\le 0\end{cases}\Leftrightarrow\left[\begin{array}{l}\begin{cases}x\le 1\\ y-x\ge 0\\ y-x^2+2x<0\end{cases}\\ \begin{cases}x\le 1\\ y-x\le 0\\ y-x^2+2x>0\end{cases}\end{array}\right.\Leftrightarrow\left[\begin{array}{l}\begin{cases}x\le 1\\ y\ge x\\ y<(x-1)^2-1\end{cases}\\ \begin{cases}x\le 1\\ y\le x\\ y>(x-1)^2-1\end{cases}\end{array}\right.\qquad\begin{array}{l}(5)\\ \\ (6)\end{array}$$

Berilgen teńsizliktiń sheshimleriniń grafigi tómendegi 1- suwrette kórsetilgen:



1-suwret 2-suwret

1-súwrette boyalǵan Û oblast (3), ÛÛ oblast (4), ÛÛÛ oblast (5), ÛV oblast (6) teńsizlikler sistemalarınıń sheshimleriniń toplamı boladi.

3-misal. $y \ge x^2 - 2|x+1| - 1$ teńsizliginiń sheshimler toplamın tabıń.

Sheshiw.

$$y \ge x^2 - 2|x+1| - 1 \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l}\begin{cases} x+1 \ge 0 \\ y \ge x^2 - 2(x+1) - 1 \end{cases} \\ \begin{cases} x+1 \le 0 \\ y \ge x^2 + 2(x+1) - 1 \end{cases}\end{array}\right. \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l}\begin{cases} x \ge -1 \\ y \ge x^2 - 2x - 3 \end{cases} \\ \begin{cases} x \le -1 \\ y \ge x^2 + 2\,x + 1 \end{cases}\end{array}\right. \Leftrightarrow \left[\begin{array}{ll}\begin{cases} x \ge -1 \\ y \ge (x-1)^2 - 4 \end{cases} & (1) \\ \begin{cases} x \le -1 \\ y \ge (x+1)^2 \end{cases} & (2)\end{array}\right.$$

Berilgen teńsizliktiń sheshimleriniń grafigi joqarıdaǵı 2-suwrette kórsetilgen:

2-suwrettegi $x = -1$ tuwrısı hám onnan oń táreptegi Û oblast (1) sistemanıń, al shep táreptegi ÛÛ oblast (2) sistemanıń sheshimleriniń toplamı; shegara noqatları toplamı $y = x^2 - 2|x+1| - 1$ funktsiyasınıń grafigi.

4-mısal. $(x+|x|)^2 + (y+|y|)^2 \ge 16$ teńsizliginiń sheshimler toplamın tabıń.

Sheshiw. Modul belgisi astındaǵı ózgeriwshiler koordinata kósherlerin kesip ótkende óziniń belgilerin ózgertetuǵınlıǵı sebepli 4 jaǵdaydı qarap shıǵıw kerek:

Û sherekte $x \ge 0$ hám $y \ge 0$, sonlıqtan berilgen teńsizlik $(x+x)^2 + (y+y)^2 \ge 16 \Leftrightarrow 4x^2 + 4y^2 \ge 16 \Leftrightarrow x^2 + y^2 \ge 4$ teńsizligine teń kúshli boladi. Demek, bul jaǵdayda berilgen teńsizlikti orayı koordinatalar basında hám radiusı 2 birlikke teń bolǵan sheńber hámde onnan sırttaǵı noqatlar toplamınıń Û sherekte qalǵan bóleginiń noqatları toplamı qanaatlandıradı. Bul sistemanıń sheshimleri suwrettegi Û oblast.

ÛÛ sherekte $x \le 0$ hám $y \ge 0$, sonlıqtan berilgen teńsizlik $(x-x)^2 + (y+y)^2 \ge 16 \Leftrightarrow y^2 \ge 16 \Leftrightarrow y^2 \ge 4 \Leftrightarrow |y| \ge 2$ teńsizligine teń kúshli boladı, shártti itibarǵa alsaq:

$$\begin{cases} x \le 0 \\ y \ge 0 \\ |y| \ge 2 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \le 0 \\ y \ge 2 \end{cases}$$

Demek, bul jaǵdayda berilgen teńsizlikti $y = 2$ tuwrısı menen shegaralanǵan joqarıdaǵı yarım tegisliktiń ÛÛ sherektegi qalǵan bóleginiń noqatlarınıń toplamı qanaatlandıradı, bul sistemanıń sheshimleri suwrettegi ÛÛ oblast.


III sherekte $x \le 0$ hám $y \le 0$. Bul jaǵdayda berilgen teńsizlik $(x-x)^2+(y-y)^2 \ge 16 \Leftrightarrow 0 \ge 16$ túrine iye boladi. Bul teńsizlik orınlı emes. Demek, $x \le 0$ hám $y \le 0$ shártlerde berilgen teńsizlik sheshimge iye emes.

IV sherekte $x \ge 0$ hám $y \le 0$. Bul jaǵdayda berilgen teńsizlik $(x+x)^2+(y-y)^2 \ge 16 \Leftrightarrow 4x^2 \ge 16 \Leftrightarrow |x| \ge 2$ boladı, shártti itibarǵa alsaq:

$$\begin{cases} x \le 0 \\ y \le 0 \\ |y| \ge 2 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \ge 2 \\ y \le 0 \end{cases}$$

sistemasına iye bolamız, bul sistemanıń sheshimleri suwrettegi III oblast.

Berilgen teńsizliktiń sheshimleriniń grafigi tómendegi suwrette kórsetilgen:



5-mısal: $|y|-|x+1| \ge 2$ teńsizliginiń sheshimler toplamın tabıń.

Sheshiw. Modul belgisi astindaǵı ańlatpalar $y=0$ hám $x+1=0 \Leftrightarrow x=-1$ mánisleri arqalı (yaǵnıy tuwrılardı kesip) ótkende óziniń belgisin ózgertedi. Sonlıqtan $y \ge 0$ bolǵanda $|y|=y$ ke, $y \le 0$ bolǵanda $|y|=-y$ ke, $x \ge -1$ bolǵanda $|x+1|=x+1$ ge hám $x \le -1$ bolǵanda $|x+1|=-(x+1)=-x-1$ ge iye bolamız. Solay etip tómendegi 4 jaǵdaydı qaraymiz:

1-jaǵday. Eger $x \ge -1$ hám $y \ge 0$ bolsa, onda tómendegilerge iye bolamız:

$$\begin{cases} x \ge -1 \\ y \ge 0 \\ y-x-1 \ge 2 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \ge -1 \\ y \ge 0 \\ y \ge x+3 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \ge -1 \\ y \ge x+3 \end{cases}$$

2-jaǵday. Eger $x \le -1$ hám $y \ge 0$ bolsa, onda

$$\begin{cases} x \le -1 \\ y \ge 0 \\ y+x+1 \ge 2 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \le -1 \\ y \ge 0 \\ y \ge -x+1 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \le -1 \\ y \ge -x+1 \end{cases}$$

3-jaǵday. Eger $x \le -1$ hám $y \le 0$ bolsa, onda

$$\begin{cases} x \le -1 \\ y \le 0 \\ -y + x + 1 \ge 2 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \le -1 \\ y \le 0 \\ y \le x - 1 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \le -1 \\ y \le x - 1 \end{cases}$$

4-jaǵday. Eger $x \ge -1$ hám $y \le 0$ bolsa, onda

$$\begin{cases} x \ge -1 \\ y \le 0 \\ -y - x - 1 \ge 2 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \ge -1 \\ y \le 0 \\ y \le -x - 3 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \ge -1 \\ y \le -x - 3 \end{cases}$$

Joqarıdaǵı tórt sheshimler toplamın birlestirip, berilgen teńsizliktiń sheshimler toplamın tabamiz.

$$\left[\begin{array}{l} \begin{cases} x \ge -1 \\ y \ge x + 3 \end{cases} \\ \begin{cases} x \le -1 \\ y \ge -x + 1 \end{cases} \\ \begin{cases} x \le -1 \\ y \le x - 1 \end{cases} \\ \begin{cases} x \ge -1 \\ y \le -x - 3 \end{cases} \end{array}\right. \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} \begin{cases} y \ge x + 3 \\ y \ge -x + 1 \end{cases} \\ \begin{cases} y \le x - 1 \\ y \le -x - 3 \end{cases} \end{array}\right.$$

Berilgen teńsizliktiń sheshimleriniń grafigi tómendegi suwrette kórsetilgen:

Modul qatnasqan teńleme hám teńsizliklerdiń qásiyetleri haqqında maǵlıwmatlar berilgen. Bunda modul qatnasqan teńleme hám teńsizliklerdiń qásiyetleri kópaǵzalılardıń qaysı kolco yamasa maydan ústinde qaralıwı úlken ról oynaydı.

Mısal ushın, **1. $|f(x)| = g(x)$ túrindegi teńleme.**

Moduldiń anıqlaması boyınsha berilgen teńleme tómendegi aralas sistemalar jiynaǵına teń kúshli boladi:

1-usil.

$$|f(x)| = g(x) \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} \begin{cases} f(x) = g(x) \\ f(x) \ge 0 \end{cases} \\ \begin{cases} f(x) = -g(x) \\ f(x) < 0 \end{cases} \end{array}\right.$$

2-usil.

$$|f(x)| = g(x) \Leftrightarrow \left[\begin{array}{l} \begin{cases} f(x) = g(x) \\ g(x) \geq 0 \end{cases} \\ \begin{cases} f(x) = -g(x) \\ g(x) \leq 0 \end{cases} \end{array}\right.$$

Ádebiyatlar

1. «Algebra va matematika analiz asoslari »A.U.Abduhamidov, H.A.Nasirov, U.M.Nosirov, J.H.Husanov, I – II – qisim.

2. Allambergenov. H.S, Tajetdinov. S, Júzbaev. N.U. «Algebra hám sanlar teoriyasi» Nókis 2007jil.

3. V.A.Gusev, A.G.Mordkovich «Matematika» Oqiwshilar ushin qollanba, Nukus: «Bilim», 1990jil.

4. Sh.A.Alimov, A.R.Xalmuxedov, Yu.M.Kolyagin, Yu.V.Sidorov, M.I.Shabunin «Algebra» Orta mekteptiń 8 – klasi ushin sabaqliq Nókis "Bilim" 2001jil.

5. N.V.Bogomolov «Matematikadan amaliy mashǵulotlar» Toshkent "Óqituvchi" 1984yil.

6. Kurosh A.G. "Oliy algebra kursi", Toshkent, 1976.

7. Kostrikin A.D. "Vvedenie v algebru", Moskva, "Nauka", 1977.

8. www.ziyonet.uz

9. www.pedagog.uz

BIOLOGIYANI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH YO'LLARI

Inamova Gulnora Umarxanovna-*IIV Namangan akademik litsey biologiya fani bosh o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishdagi zamonaviy texnologiyalar, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: bilish faoliyati, muammoli vaziyat, individual, didaktik maqsad, ta'limtexnologiyasi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены современные технологии преподавания биологии в академических лицеях, методы повышения познавательной активности учащихся.

Ключевые слова: познавательная деятельность, проблемная ситуация, личность, дидактическая цель, образовательная технология.

Abstract: In this article, modern technologies in teaching biology in academic lyceums, methods of increasing students' cognitive activity are mentioned.

Key words: cognitive activity, problem situation, individual, didactic purpose, educational technology.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organic olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealaming mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta’lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlami amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta’lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogic faoliyati sanaladi.[1.6]Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Polshalik didaktik olim V.Okonning «Umumiy didaktikaga kirish» nomli (Введение в общую дидактику) kitobida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etishning quyidagi yo'llari ko'rsatilgan:

1. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyati quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

• o'quv materiali bilan dastlabki tanishish;

• o'quv materiallarini o'rganish;

• o'zlashtirilgan bilimlarni awal o'zlashtirilgan bilimlar bilan taq-qoslash;

• bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash;

• o'zlashtirilgan bilimlarni yangi holatlarda qo'llash.

2 O'quvchilarning bilish faoliyatini mustaqil ish asosda tashkil etish:

• muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarish;

• o'quv topshiriqlarining maqsadini aniqlash;

• mustaqil izlanish orqali savollarga javoblar topish;

• nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar asosida javoblarning to'g'riligini tekshirib ko'rish;

• bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash;

• bilim, ko'nikma va malakalami yangi vaziyatlarda qo'llash.

3 O'quvchilarning bilish faoliyatini ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etish:

• o'quv faoliyatini amalga oshirish maqsadi, borishini aniqlash;

• o'quv faoliyatning modelini tuzish;

• jaoliyatni bajarish namunasini ko'rsatish;

• o'quvchilar tomonidan ishni bajarish;

• Faoliyatni takrorlash va xatosiz bajarishni o'rganish.

4 O'quvchilarning bilish faoliyatini axloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadida tashkil etish:

• o'qituvchining ko'rsatmasi yoki tavsiyasiga binoan, tavsiya etilgan adabiyotlami topish;

• qo'shimcha o'quv adabiyotlar bilan tanishish;

• o'rganilgan axborotlarni tahlil qilish va baholash;

• adabiyot muallifming jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy sohasida yoki fan rivojiga qo'shgan hissasini aniqlash va baho berish;

• o'quvchilarning o'z xulqi va axloqiy sifatlarini rivojlantirish yuzasidan umumiy xulosasi. [2.127]

Ta’lim jarayonini tarbiya bilan, bilim, ko'nikma va malakalami bir-biri bilan ajratilgan holda shakllantirishga mo'ljallangan o'quv faoliyatini tashkil etish mumkin emas. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etganda, ta’lim-tarbiya jarayonini yaxlit, bir tizim holatida, bilim, ko'nikma va malakalami bir-biri bilan uzviy ravishda shakllantirish lozimligini qayd etish zarur. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish va an’anaviy ta’lim tizimidagi kamchiliklarga barham berish, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning bilish faoliyatini yalpi

o‘qitish bilan bir qatorda, individual va kichik guruhlarda o'qitishni tashkil etish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etilganda o'quvchilar o'quv materialini mustaqil o'zlashtiradilar, ulaming aqliy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish darajasi hisobga olingan holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini mustaqil bajaradi va o'z bilish faoliyatining subyektiga aylanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarni vujudga keltirishda o'quvchilarning bilish faoliyatini individual va kichik guruhlarda tashkil etish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarning bilish faoliyatini individual tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

• o'quv topshirig'ining didaktik maqsadini aniqlash;

• mustaqil izlanish maqsadini va maqsadni amalga oshirish yo'llarini aniqlash;

• o'z mustaqil ishini tashkil etish;

• o'quv materialini mustaqil o'rganish;

• o'rganilayotgan obyektlami taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni, o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash;

Biologiyani o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining barcha metodlaridan, modulli ta’lim texnologiyasining o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlaridan foydalanish shular jumlasiga kiradi.

Biologiya darslarida o'quvchilarning bilish faoliyati yalpi o'qitishni individual va kichik guruhlarda ishlash shakllari bilan uyg'unlashtirilganda juda yuqori samara beradi. Hamkorlikda o'qitishning kichik guruhlarda o'qitish metodida yalpi o'qitish kichik guruhlar bilan, «arra» metodida esa, o'quvchilami awal individual tarzda, so'ngra kichik guruhlarda o'qitish uyg'unlashtiriladi.

Biologiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilish faoliyati individual, kichik guruhlarda va yalpi holda tashkil etish shakllaridan o'z o'rnida va samaraii foydalanish tavsiya etiladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini samaraii tashkil etish va oqilona boshqarish uchun biologiya o'qituvchisi quyidagi amallami bajarishi lozim:

1 O'rganilayotgan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning bilish faoliyatini qaysi shaklda tashkil etish;

2 O'quvchilarning bilish faoliyatini loyihalash;

3 O'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash;

4 Dars davomida o'quvchilarning bilish faoliyatidan olingan natijani tahlil qilish va uning maqsadga muvofiqligini tekshirib ko'rish;

5 Zarur hollarda o'quvchilarning bilish faoliyati loyihasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish.

Shunday qilib, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, mazkur faoliyatni maqsadga muvofiq tashkil etish, uni loyihalash, maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash, olingan natijani tahlil qilish va baholash bosqichlaridan iborat bo'ladi. [3.18]

Hozirgi zamon ta’lim-tarbiya jarayonida o'z hukmronligini saqlab kelayotgan an’anaviy ta’lim, o'quvchilami yalpi o'qitishni va o'quvchilaming bilish faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. O'qitish ishlarini tashkil etishda o'rta saviyali o'quvchi nazarda

tutiladi, o'quvchilarning mustaqilligi e’tibordan chetda qoladi, o'quv faoliyati o'qituvchi tomonidan boshqariladi. Shu sababli o'quvchilami o'z o'quv faoliyatining to'laqonli subyektiga aylantirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va

demokratlashtirish, o'qitish samaradorligini orttirish maqsadida biologiyani o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'ildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova.J “Biologiya o’qitish metodikasi’ Toshkent 2011.

2.Ibodova Mahfuza Namozovna. "AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI OQITISHNING INTERFAOL VA MUAMMOLI IZLANISH METODLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.4-2 (2023): 125-131

3. Ibodova M.N “Biologiyani o’qitishning intefaol va muammoli izlanish metodlari” PEDAGOGS jurnali 11.2(2022): 12-21.

TABIIY FANLARNING MUTAXASISLARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Ismoilova Himoyat Matnazarovna-*O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi Xorazm akademik litseyi umumta’lim fanlar kafedrasi boshlig‘i,kimyo fanlari falsafa doktori (PhD)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi 4805-sonli qarorida “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq maktablarda tabiiy fanlarga yo‘naltirilgan variativ o‘quv rejalari joriy etilishi belgilandi. Ya’ni maktablarda asosiy o‘quv rejasidan tashqari, kimyo va biologiyaga qiziqqan yigit-qizlar bitta sinfga jamlanib, ularga ushbu fanlarni ko‘proq o‘qitishga maktablarga imkoniyat berildi. Ikkinchisi, maktablarda kimyo-biologiya fanlarini o‘qitish dasturi ko‘rib chiqildi. Lekin birinchi bosqichdagi eng asosiy ish bu — birinchi va oltinchi sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishning yo‘lga qo‘yilganidir. Tabiiy fanlar yagona bir jamlanmaga olinadi, yagona science yoki “tabiiy fan” degan fan doirasida umumlashtiriladi, mantiqiy ketma-ketlik ta’minlanadi. Tabiiy fanlar 6-sinfgacha yagona, ya’ni bitta fan doirasida o‘qitiladi. 7 sinfdan keyin esa biologiya, kimyo, fizika, geografiya fanlari alohida ajratilib o‘qitiladi.

Tabiiy fanlarning o‘rni bugungi ilm-fanning yuragi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Chunki tabiat qonuniyatlarni bilish genetika, evolyusion ta’limot, matematika, fizika, kimyo, o‘simlik va hayvonot olami sistematikasi, antropologiya, geologiya, geofizika singari fanlar oldiga qo‘yilgan muammolar tirik va o‘lik tabiatni o‘zaro munosabati masalalarini yechishda muhim ahamiyat kasb etadi[1. 240].

Tabiiy fanlar ham fundamental fan, ham amaliy fan sifatida xalq xo‘jaligining talablari o‘zgarishiga muvofiq jiddiy yangilanishlarga duch keladi va bu esa o‘z navbatida tabiiy fanlarni o‘qitishda ma’lum o‘zgarishlarni taqozo etadi.

Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug’iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o‘qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma’lumoti, ko‘nikmasi, qobiliyati va tajribasini o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma’lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o‘xshashdir.

Ta’lim tarbiya tizimining umumiy maqsadi jamiyatimizga teng huquqli demokatik davlat talablariga javob bera oladigan mas’ulyatli barkamol jamiyat a’zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir [2. 510].

Pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati, elektron-ta’lim muhitini rivojlantirish, imlo savodxonligi, AKT, umumiy o‘rta ta’limda STEAM yondashuvi elementlaridan foydalanish, dasturlash asoslari, vizualizatsiya va dasturlash tillarini o‘rganish usullari, bulutli hisoblash, katta ma’lumotlar va virtual reallik tizimlaridan foydalanish, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullarini o‘z ichiga oladi va ular bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish lozimdir. Shuningdek, aniq va tabiiy fan va shu jumladan informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni yangilash hamda ularni mustaqil amaliy faoliyatga yo‘naltirish maqsadlidir [3. 30]

STEAM ta’lim tizimida SCIENCE (tabiiy fanlar) ham muhim o‘rin olgan bo‘lib, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim tizimida pedagogik faoliyat ko‘rsatayotgan har bir tabiiy fani o‘qituvchilarning diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim. Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish asosan dars bilan birgalikda darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham foydalaniladi.

STEAM ta’limi – maktabgacha ta’limdan boshlab texnologiya va muhandislik ishlarini o‘rganishga hissa qo‘shadigan ta’lim faoliyat majmui hisoblanadi. STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) asosida ushbu konsepsiyaning yangi variantlari paydo bo‘ldi, ularning eng keng tarqalgani STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) va STREAM (fan, texnologiya, robototexnika, muhandislik, san’at va matematika). Bugungi kunda STEAM jahon ta’limidagi asosiy tendensiyalardan biridir. Texnologiyaning jadal

rivojlanishi tufayli yangi kasblar paydo bo‘ladi. STEAM mutaxassislariga bo‘lgan talab hamma joyda o‘sib bormoqda. Turli hisob kitoblarga ko‘ra, yuqori o‘sish darajasiga ega bo‘lgan har 10 ta mutaxassisliklardan 9 tasida STEAM bilimlari talab etiladi.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining barcha metodlaridan, modulli ta’lim texnologiyasining o‘quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo‘jjallangan modul dasturlaridan foydalanish shular jumlasiga kiradi. Tabiiy fanlari dasrlarida o‘quvchilarning bilish faoliyati yalpi o‘qitishni individual va kichik guruhlarda ishlash shakllari bilan uyg‘unlashtirilganda juda yuqori samara beradi. Hamkorlikda o‘qitishning kichik guruhlarda o‘qitish metodida yalpi o‘qitish kichik guruhlar bilan, “arra” metodida esa, o‘quvchilarni avval individual tarzda, so‘ngra kichik guruhlarda o‘qitish uyg‘unlashtirildi. Tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim - tarbiya jarayonida hukmronlik qilayotgan an’anaviy darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq[4. 345].

XXI asrga kelib, fanning taraqqiyoti o‘ta jadallashdi, u qator bo‘limlarga, shuningdek, gumanitar va tabiiy fanlarga bo‘lindi. Tabiiy fanlar barcha fanlarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, u dunyoning boshlanishidan hozirgacha bo‘lgan jarayonlarni insonga bog‘liq holda emas balki tabiiy ravishda rivojlanishini o‘rgatadi. Xulosa qilib ta’kidlash lozimki, zamonaviy ta’lim bilim beruvchiga emas bilim oluvchi va undan foydalanuvchilarga moslashishi lozim. Shu o‘rinda ta’limining har bir bosqichi uchun alohida kopetensiyalar ishlab chiqilishi va bo‘lar fan dasturlari orqali bilim va ko‘nikma berishda ta’minlanishi lozim. Hozirgi zamon pedagogi har tomonlama yetuk intellektual rivojlangan, ijtimoiy sifatlar bilan tarbiyalangan, milliy va ma’naviy qadriyatlarga sadoqatli, yangicha fikrlaydigan, o‘z shaxsiy va fuqarolik pozitsiyasiga ega, milliy mafkuraning barcha sifatlarini o‘zida mujassamlashtirgan barkamol shaxsni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboqulova N.N. Tabiiy fanlarning rivojlanishi va bugungi scince fanining ta’limdagi o‘rni // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(4/2), April, 2023

2. Amanlikova N.R. Zamonaviy pedagogning kasbiy kompitentligini rivojlantirishning metodlari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023

3. Ahmedova Sh. B. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda xalqaro baholash dasturi va axborotkommunikatsiya texnologiyalari yondashuvning afzalliklari// Ta’lim texnologiyalari. VOL_2023_ISSUE_12_4

4. M.D.Uzoqjonova Tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM ta’limi tizimi // "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz September 2023 / Volume 4 Issue 9

FIZIKA FANINI O`QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.

Mirzarayimov Jaxongir Zokirjanovich-*O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Namangan akademik litseyi Umumta’lim fanlar kefedrasi boshlig‘i “fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktri (PhD)”*

Annotatsiya: Fizika fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyadan foydalanish. Zamonaviy dunyoda texnologiyalar hayotimizning har sohasiga kiritib keldi va ta'lim tizimini ham o‘zgartirdi. Fizika ta'limi esa bu jarayonda muhim o‘rin egallaydi. Bu maqolada fizika darslarini o‘qitishda qanday qilib zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mumkinligi va ularning o‘quv jarayonini qanday o‘zgartirishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Fizika ta'limi, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim jarayoni, interaktiv texnologiyalar, virtual laboratoriyalar.

Kirish: Fizika ta'limi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimdir, chunki bu texnologiyalar o‘quvchilarga konseptlarni o‘rganishda va tushunishda yordam berishi mumkin. Interaktiv texnologiyalar, masalan, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, va 3D model yaratish dasturlari o‘quvchilarga abstrakt fizika prinsiplarini ko‘rib chiqish imkonini beradi. Ular o‘quvchilarga real hayotni simulatsiya qilish, ma'lumotlarni visualizatsiya qilish, va darslik bilan mustaqil ishlashga imkoniyat yaratadi.

Bu maqolada fizika ta'limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ko‘rsatilgan foydalari va ularni qanday qilib samarali foydalanish mumkinligi ta'kidlangan. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning tushunish darajasini oshirish va ko‘nikmalarini joriy qilish mumkin. Bunga misol tariqasida "Insert" texnologiyasini ko`rib chiqamis.

O‘rganishlar natijasi: Bizga malumki boshlang‘ich fizika kursida o‘quvchilarni tashabbuskorlikka, topqirlikka, ijodkorlikka, o‘z ustida mustaqil va darslik kitobi bilan ishlashga o‘rgatish muhimdir. VI – IX sinf o‘quvchilarining fizika darsligi va fizikadan qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanishda, o‘zlari xohlagan mavzuni o‘rganish maqsadida "Insert" texnologiyasidan foydalanish juda samarali bo‘ladi. Bu “Insert “ sozini lug`aviy

manosi shundan iborat “biror manoda fikr, xayol, taassurot, ish o`rnatish uchun aytilgan" degan ma'noga keladi yaniy ingilischa "Insert" (Interactive Nothing System for Effective Reading and Thinking) usuli – asosan o‘quv materialini mustaqil o‘qib, o‘zlashtirishda qo‘llaniladi. Uning mazmuni, o‘qish jarayonida matnning har bir satr boshi (yoki qismi)ni avval o‘zlashtirilgan bilim va tajribalar bilan taqqoslash va uning natijasini varaqning chap qirg‘og‘iga maxsus belgilarni qo‘yish bilan aks ettirishdan iborat.

O‘quvchi kerakli mavzuni o‘qish jarayonida o‘z bilimi va tushunchalarga mos keladigan belgilarni qo‘yib boradi:

"V" – bilaman

"-" – o‘ylaganimga zid, notanish.

"+" – yangilik

"?" – tushunmadim, ya'ni qo‘shimcha ma'lumot kerak.

Matnni o‘qish jarayonida uning chap qirg‘og‘iga o‘zingizning tushunishingiz va bilishingizga mos keladigan belgilar qo‘yiladi. Shunday qilib, o‘quvchilar axborotni ongli ravishda o‘zlashtirishlari uchun ular matnni tushunishlarini o‘zlari kuzatib borishlari zarur. Bu belgilarda, o‘quyotgan axborotni o‘z tajribalari bilan, o‘qiyotganini oldindan unga ma'lum bo‘lgan bilimlar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlaydilar. Matn mazmunini qayta tasavvur etish va uni "ixchamlash" sodir bo‘ladi. Bu esa, tushunishning uzluq muddatli xarakterga ega bo‘lishini ta'minlaydi.

Demak, "Insert" usulidan foydalanish – belgi qo‘yib o‘qish degan ma'noni anglatadi: o‘qish va yozishni samarali amalga oshirishda o‘quvchilarda darslik bilan ishlash ko‘nikmalarni shakllantirishning qulay usuli xisoblanadi.

O‘quvchi xat boshiga bitta yoki ikkita belgi qo‘yishi mumkin. Masalan, IX sinf "Molekulalarning massasi va o‘lchamlari. Avagadro soni" mavzusi.

Insert usulidan foydalanish o‘quvchiga matnni ongli ravishda tushunib o‘qishda yordam beradi. Foydalaniladigan belgilar miqdori o‘quvchilarining yoshi va bilim darajasiga qarab kamaytirilishi mumkin.

Fizika darslarida bilim berishning asosiy vositasi kitob, tajriba o‘tkazish va masalalar yechish hisoblanadi. Tajriba o‘tkazish va masalalar yechish yordamida mavzuning mazmunini to‘liq va ongli ravishda o‘zlashtirib olish uchun o‘quvchilarning yozish orqali ta'rif va qonunlarga belgilar qo‘yish orqali bilim olish malakasi shakllantiriladi. Shuning uchun, fizika darslarida o‘quvchilarning kitob bilan mustaqil ishlashda "Insert" usuli katta yordam beradi.

Amerikalik pedagoglar tomonidan taqdim etilgan "Notanish matnni Insert usuli yordamida o‘qish" texnologiyasi fizika darslarida qo‘llanilsa maqsadga muvofiqdir. Chunki har bir fizika darsida o‘quvchilar yangi

ma'lumotlar, manbalar, formulalar, qonunlar, ta'riflar va yangi fizik olimlar hayoti bilan tanishib boradilar.

O‘quvchi matnni oxirigacha o‘qib chiqib, hozir o‘qiganlardan hech narsani mutlaqo eslab qolmasligi ko‘p o‘quvchilar uchun oddiy hol hisoblanadi. Insert usuli orqali o‘qish esa tushunib o‘qish, o‘qish jarayonida faol bilim olish imkonini beradi [1-3].

Xulosa: Bu maqolada fizika fanini o‘qitishda "Insert" texnologiyasidan foydalanishning muhimligi va uning qanday qilib o‘quv jarayonini o‘zgartirishi ko‘rsatilgan. "Insert" usuli, o‘quv materialini mustaqil o‘qib, o‘zlashtirishda foydalaniladi. O‘quvchilar o‘qish jarayonida har bir satr boshi (yoki qismi)ni avval o‘zlashtirilgan bilim va tajribalar bilan taqqoslash va uning natijasini belgilarga o‘rnatish bilan aks ettirishadi. Bu usul o‘quvchilarning matnni o‘zlashtirishlari uchun yordamchi va ta'lim jarayonini samarali qilish uchun qulaydir. Maqolada "Insert" usulidan foydalanishning qanday qilib ta'lim jarayonini o‘zgartirishi va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi ko‘rsatilgan. Shuningdek, bu usul o‘quvchilarning tushunish darajasini oshirish, ularning ko‘nikmalarini joriy qilish va o‘zlashtirishlari uchun qo‘llaniladi. Demak, zamonaviy texnologiyasidan foydalanish fizika fanini yangilashda muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahromov A, Yuldasheva M. Fizika. 9-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. T.: G‘ofur G‘ulom. 2010. 128 b. 2. P.Q.Habibullayev,
2. A.Boydedayev, A.D.Bahromov. Fizika: umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-sinfi uchun darslik. — T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,2017. — 176 b.
3. F.R.Alijonova “FIZIKA TA`LIMINI O`QITISHDA ”INSERT” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH”. O`zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi konfrensiya 2020-yil iyun -134-b.

AKADEMIK LITSEYLARDA O’QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI RIVOJLANISH TARIXINI BOSQICHMA-BOSQICH O’RGATISH USULLARI.

Xajimirzayeva Nargiza Abdulhakimovna-*Ózbekiston respublikasi iiv namangan akademik litseyi matematika fani o’qituvchisi.*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada matematika tarixining bosqichma-bosqich rivojlanish tarixi keltirilgan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлена пошаговая история истории математики.

ABSTRACT: This article presents a step-by-step history of the history of mathematics.

Matematika dars o'tish jarayonida faqatgina reja asosidagi mavzular bilan chegaralanib qolmasdan, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida ularga ko'plab matematikaning kelib chiqish tarixi, hozirgacha rivojlanish tarixi qanday bosqichlar orqali amalga oshirilganligini bilish har bir o'quvchi uchun qiziq bo'lishi aniq. Shuning uchun dars jarayonida quyidagi ma'lumotlarni berib borishimiz mumkin.

Matematika (qadimgi yunoncha: *μᾰθημᾰτικά*; μάθημα — „bilim", „fan") — aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan. Dastlabki obyekti sanoq bo'lgani uchun ko'pincha unga „hisob-kitob haqidagi fan" deb qaralgan (bugungi matematikada hisoblashlar, hatto formulalar ustidagi amallar juda kichik o'rin egallaydi). Matematika eng qadimiy fanlardan biri bo'lib, uzoq rivojlanish tarixini bosib o'tgan va buning barobarida „matematika nima?" degan savolga javob ham o'zgarib, chuqurlashib borgan. Yunonistonda matematika deganda geometriya tushunilgan. IX—XIII asrlarda matematika tushunchasini algebra va trigonometriya kengaytirgan. XX asr o'rtalarida Burbaki taxallusi ostida matematika ta'rifini qayta ko'rib chiqqan bir guruh fransuz matematiklari bu g'oyani rivojlantirib, „Matematika — matematik strukturalar haqidagi fan" degan ta'rif kiritdi. Bu yondashuv avvalgi ta'riflarga ko'ra kengroq va aniqroq bo'lsada, baribir cheklangan edi — strukturalar o'rtasidagi munosabatlar (masalan, matematika, turkumlar nazariyasi, algebraik topologiya), amaliy hamda tatbiqiy nazariyalar, xususan, fizika, texnika va ijtimoiy fanlarda matematik modellar bu ta'rif doirasiga sig'avermas edi. So'nggi asrda xilma-xil matematik obyektlar orasida juda chuqur munosabatlar mavjudligi va aynan shunga asoslangan natijalar Matematikaning bundan keyingi taraqqiyotida asosiy o'rinni egallashini ko'rsatmoqda. Dastlab oddiy sanoq sonlar va ular ustidagi arifmetik amallardan boshlangan tematik bilimlar umuminsoniy taraqqiyot bilan birga kengayib va chuqurlashib borgan. Eng qadimgi yozma manbalardayoq (masalan, matematik papiruslar) kayerlar ustida amallar va chiziqli tenglamalarni yechishga doir misollar uchraydi. Sug'orma dehqonchilik, me'morlikning rivojlanishi, astronomik kuzatuvlarning ahamiyati ortishi geometriyaga oid dalillar jamg'arilishiga olib kelgan. Masalan, Qadimgi Misrda tomonlari 3, 4 va 5 birlik bo'lgan uchburchak to'g'ri burchakli bulishidan foydalanilgan.

Geometriya darslarida ham qadimgi Misr piramidalari qanday qurilgan, uning kattaligi balandligi qanday o'lchanadi, uning hajmi qanday o'lchanadi? Shu kabi savollar albatta o'quvchilarni qiziqtiradi. Bunday savollarga javob berish uchun avvalo o'qituvchi matematika tarixiga nazar solishi lozim.

Yunonistonda geometrik xossalar faqat kuzatuv va tajriba yo‘li bilangina topilmay, avvaldan ma'lum xossalardan keltirib chiqarilishi mumkinligi ham payqalgan hamda deduktiv isbot g‘oyasi rivojlantirilgan (Fales, Pifagor va boshqalar). Bu g‘oyaning cho‘qqisi Yevklidning „Negizlar“ asarida geometriyaning aksiomatik qurilishi bo‘ldi. Bu kitob Matematikaning keyingi rivojiga katta ta'sir qildi va XIX asr boshlarigacha mantiqiy bayonning mukammalligi bo‘yicha namuna bo‘lib keldi. Yunonlar Matematikani geometriya bilan tenglashtirib, san'at darajasiga ko‘targanlar. Buning natijasida planimetriya va stereometriya ancha mukammal darajaga yetgan. Faqat 5 xil qavariq muntazam kupyoqlikning mavjudligi (Platon), kvadratning tomoni bilan diagonali umumiy o‘lchovga ega emasligi (Pifagor), nisbatlar nazariyasiga asoslangan son tushunchasi (Evdoks), qamrash usuli bilan egri chiziqli shakllar yuzi va yer uzunligini, jismlar hajmini hisoblash, Geron formulasi, konus kesimlari (Apolloniy, Pergayos), sterografik proyeksiya (Ptolemey), geometrik yasashlar va shu munosabat bilan turli egri chiziqlarning o‘rganilishi yunon geometriyasining taraqqiyot darajasi haqida tasavvur beradi. Yunon olimlari qo‘ygan burchak triseksiyasi, kubni ikkilash, doira kvadraturasi, muntazam ko‘pburchak yasash masalalari XIX asrga kelib o‘z yechimini topdi, mukammal va „do‘st“ sonlar haqidagi muammolar esa hamon ochiqligicha qolmoqda. Ayniqsa, Arximed tadqiqotlarida yunon Matematikasi o‘z davridan juda ilgarilab ketgan — u integral hisob, og‘irlik markazi g‘oyalarini qo‘llagan. Yunon olimlari trigonometriyaga oid dastlabki ma'lumotlarga ham ega bo‘lganlar (Gipparx, Ptolemey), Diofantning „Arifmetika“ asarida sonlar nazariyasiga oid masalalar qaralgan.

Hindistonda Matematika Ariabhata (V asr), Brahmagupta (VII asr), Bxaskara (XII asr) ishlarida rivojlantirilgan. Hind Matematikasining olamshumul yutug‘i o‘nli sanoq sistemasi va 0 raqamining ixtiro qilinishidir. Shuningdek, hind olimlari manfiy sonlar va irratsional ifodalar bilan tanish bo‘lganlar, geometriyada muhim natijalarni qo‘lga kiritganlar.

VII asrda islom dini tarqalishi va Arab xalifaligi vujudga kelishi bilan fan hamda madaniyat yuksalishi uchun yangi sharoit tug‘ildi. Horun ar Rashid davrida xalifalik poytaxti Bag‘dod yirik shaharga aylanib, bu yerga turli mintaqalardan olimlar kela boshlaydi. Ular dastlab yunon, suryoniy va hind tilidagi asarlarni arabchaga o‘girish bilan shug‘ullangan. Xuroson va

Movarounnahr voliysi etib tayinlangan Horun ar Rashidning o‘g‘li Ma’munning ilmparvarligi tufayli Marvga o‘rta Osiyolik olimlar yig‘ila boshlaydi. 813-yilda xalifalikka o‘tirgan Ma’mun Marvdagi olimlar to‘garagini Bag‘dodga olib ketadi va mashhur „Bayt ul-hikma“ (Ma’mun akademiyasi)ga asos soladi. Bu ilmiy muassasaga Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy rahbarlik qilgani haqida ma’lumotlar saqlangan. „Bayt ul-hikma“da, shuningdek, Ahmad al-Farg‘oniy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Habash Hosib al-Marvaziy, Muso ibn Shokir o‘g‘illari kabi ko‘plab o‘rta Osiyolik olimlar faoliyat ko‘rsatgani bu o‘lkada arablar istilosiga qadar ham fan rivojlanganligi, xususan, yosh iqtidorli olimlar chiqishi uchun qulay muhit mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

IX asrdan fan tarixi „Musulmon renessansi“ deb nomlangan yangi yuksalish davriga kiradi. „Bayt ul-xikma“da Yunoniston, Hindiston, Xorazm va Xitoyda jamg‘arilgan bilimlar sintez qilinib, Matematika izchil rivojlantirila boshlandi. Xorazmiy tarqoq bilimlarni tartibga keltirib, algebraga asos soladi. Uning o‘nli sanoq sistemasi bayon qilingan asari tufayli bu qulay hisoblash vositasi dunyoga yoyildi. Asarlari o‘qimishli bo‘lishi uchun Xorazmiy aniq va lo‘nda bayon uslubini qo‘llagan. Shu tufayli uning asarlari keng tarqalgan. Xorazmiy uslubi yevropalik tarjimonlar tomonidan muallif nomi bilan algoritm deb atalgan.

Musulmon Sharqi olimlari geometriyani ham rivojlantirgan (Sobit ibn Qurra, Abulvafo, Umar Xayyom), trigonometriyaga fan sifatida asos solganlar (Ibn al-Xaysam, Beruniy, Tusiy), xususan, Ahmad al-Farg‘oniy tomonidan Ptolemeyning stereografik proyeksiya haqidagi teoremasining isbotlanishi Bag‘dod akademiyasida geometriya chuqur o‘rganilganini ko‘rsatdi. Arab tilida ijod qilgan matematiklarning uchinchi va to‘rtinchi darajali tenglamalarni geometrik usulda yechish yo‘llari keyinchalik analitik geometriya yaratilishiga turtki bo‘lgan.

Matematika rivojlanishida Xorazm Ma’mun akademiyasi (Ibn Iroq, Beruniy) ham muhim rol o‘ynagan. Sharq Matematikasi rivojining cho‘qqisi esa Samarqand ilmiy maktabi davriga to‘g‘ri keladi. Ulug‘bek va uning rahbarligidagi olimlar (Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Miram Chalabiy, Husayn Birjaniy va boshqalar) ulkan rasadxona qurish, yulduzlar koordinatalari va sayyoralar harakatini katta aniqlikda kuzatish ishlari bilan birga kuzatuv natijalari bo‘yicha yoritqichlarning sferik koordinatalarini hisoblash usullarini, interpolyasiya formulalari, keyinchalik Gorner sxemasi deb atalgan usulni hamda ketma-ket yaqinlashishlar usulini ishlab chiqadilar. Ulug‘bekning „Ziji jadidi Ko‘ragoniy“ asaridan o‘ta aniqlikdagi trigonometrik funksiyalar jadvallari ham o‘rin olgan.

XVII asrdan Matematika tarixining J. Vallis, I. Kepler, R. Dekart, B. Kavalyeri, P. Ferma, F. Viyet va boshqa Paskal nomlari bilan bog‘liq yangi davri boshlanadi. Matematik belgilashlar keng joriy etiladi. Bu, o‘z navbatida, Matematika rivojiga ijobiy ta’sir etadi, analitik geometriya, proyektiv geometriya, ehtimollar nazariyasi va sonlar nazariyasiga asos soladi. Birin-ketin ochila boshlagan universitetlarda Matematika asosiy predmetga aylanadi.

I. Nyuton differensial va integral hisob g‘oyasiga boshqa tomondan — mexanika masalalari orqali yondashdi. Bu yerda ham ahvol geometriyaga o‘xshash edi: tekis harakatlarni o‘rgangan G. Galiley uchun elementar geometriya kifoya qilgan bo‘lsa, murakkabroq harakatlar murakkabroq chiziqlarni tekshirishni talab etar edi

10-asr boshida O. Koshining differensial va integral hisob limit hamda uzluksiz tushunchasi asosida bayon etilgan dareligi bu vaziyatga ancha oydinlik kiritdi. Lekin uzluksiz funk-siyaning integrali mavjudligini is-botlashda bu tushunchalar kamlik qildi. Kemtikni to‘ldirish yo‘lidagi urinishlar K. Veyershtrassni „haqiqiy son nima?“ — degan savolga olib keldi. Ayni paytda Evklidning mashhur beshinchi postulatini isbotlash uchun ming yillik samarasiz urinishlar noevklid geometriya ixtiro qilinishi bilan yakunlandi. Bu esa geometriya asoslarini chuqur taftish qilishni talab eta boshladi.

19-asr oxiriga kelib matematika asoslarini mustahkamlash bo‘yicha katta qadamlar qo‘yildi: haqiqiy sonlar nazariyasi tugallandi (Veyershtrass, Dedekind), matematik mantiq shakllandi (Peano, Frege), funksiyalar nazariyasi yaratildi (Riman, Lebeg, Fubini, Stiltyes), geometriyaning aksiomalar sistemasi takomilga yetkazildi (Hilbert), to‘plam tushunchasining ahamiyati anglandi, bu tushuncha asosida geometriya kabi butun matematikani ham qat’iy aksiomalar asosiga qurishga ishonch paydo bo‘ldi.

O‘rta asrlarda hozirgi O‘zbekiston hududi va uning atrofidagi mintaqada yuksalishga erishgan matematika fani taraqqiyoti 16-asrdan to‘xtab qoldi. 20-asrning 2-choragidan bu sohada yangi yuksalish davri boshlandi. 1918-yilda tashkil etilgan Markaziy Osiyodagi birinchi universitet (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) da V. I. Romanovskiy M. professori bo‘ldi. Sharqona milliy qadriyatlarni chuqur hurmat qilgan, o‘zbek tilini o‘rgangan professor iqtidorli yoshlardan professional matematiklar yetishtirishga kirishdi va Toshkent ehtimollar nazariyasi va matematik statistika maktabiga asos soldi. Bu maktabdan T. A. Sarimsoqov, S. H. Sirojiddinov, T. Azlarov, Sh. Farmonov kabi yuzdan ortiq mutaxassislar yetishib chikdi. Xalqaro Bernulli jamiyatining I kongressi Toshkentda o‘tkazilgani (1986-yil) bu sohada O‘zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlarning xalqaro miqyosda tan olinishi natijasidir.

Matematika fani vatanimizda uzoq yillar oldin rivojlana boshlagan. Yurtimizda yashab ijod qilgan Al-Xorazmiy, Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Miram Chalabiy, Husayn Birjaniy, Ahmad al-Farg'oniy Ibn Turk al-Xuttaliy, Habash Hosib al-Marvaziy, Muso ibn Shokir o'g'li kabi yirik olimlarimiz bizning faxrimiz desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu olimlar matematika rivoji uchun o'zidan katta o'lmas me'roslar qoldirganlar.

3-renessansni matematika orqali rivojlantirishga esa biz munosib olimlarni yetishtirib chiqarishimiz kerak. Tariximizni o'rganish jarayonida har bir talaba shularni oldiga qaysidir ma'noda maqsad qilib olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.

2. M. tarixi, to'plamlar, T. 2000;


3. uz.wikipedia.org

Olimpiadaning geometriyaga doir ayrim masalalaridan namunalar.

Qurbonov Sherzod Rashidovich
Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi oliy toifali matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fan olimpiadasida geometriya fanidan o'quchilarga uchraydigan ba'zi masalalarning yechimlarini keltiramiz.

Kalit so'zlar: uchburchak, to'rtburchak, burchak, kesma, balandlik, aylana, sinuslar teoremasi, kosinuslar teoremasi,




1-masala. $ABCD$ parallelogrammning BK va BH balandliklari asoslari tutashtirilishidan hosil qilingan BKH uchburchakning balandliklari O nuqtada kesishadi. Agar $KH=a$ va $BD=b$ berilgan bo'lsa, BO kesmaning uzunligi topilsin.

Yechilishi. $BHDK$ to'rtburchakning qarama-qarshi BKD va BHD burchaklari yig'indisi 180^0 ga teng bo'lganligi sababli, bu to'rtburchakka tashqi aylana chizish mumkin. Demak, $BD = 2R = b$.

ΔBOK ga sinuslar teoremasini qo'llasak, $\frac{BO}{sin\angle BKO} = \frac{BK}{sin\angle BOK} \Rightarrow$

$\frac{BO}{sin\left(\frac{\pi}{2}-\beta\right)} = \frac{BK}{sin(\pi-\gamma)} \Rightarrow$



$$\frac{BO}{cos\beta} = \frac{BK}{sin\gamma} \qquad (*)$$

Yana bir tomondan ΔBHK dan $\frac{BK}{sin\gamma} = 2R = b$ (**)

(*) va (**)larga ko‘ra $\frac{BO}{cos\beta} = b \Rightarrow BO = b \cdot cos\beta$ (***)

$\frac{KH}{sin\beta} = 2R = b \Rightarrow sin\beta = \frac{KH}{b} = \frac{a}{b}$

(***) dan $BO = b \cdot cos\beta = b \cdot \sqrt{1 - Sin^2\beta} = b \cdot \sqrt{1 - \left(\frac{a}{b}\right)^2} = \sqrt{b^2 - a^2}$

Javob: $BO = \sqrt{b^2 - a^2}$


2-masala. ΔABC da $\angle$A=α, $\angle$B=β va $AB = c$ bo‘lsa, BC tomonga hamda AC va AB tomonlarning davomiga urinuvchi aylananing radiusini toping.

Yechilishi.

ΔABC ga sinuslar teoremasini qo‘llaymiz:

$\frac{\text{BC}}{\text{Sin}\alpha} = \frac{\text{c}}{\text{Sin}(\alpha+\beta)}$, $\frac{\text{AC}}{\text{Sin}\beta} = \frac{\text{c}}{\text{Sin}(\alpha+\beta)}$

Shuningdek, $AK = AN,\ CK = CM,\ MB = BN$ tengliklarni e’tiborga olib, quyidagi sistemani hosil qilamiz:



$$\begin{cases} AC + CK = AB + BN \\ CM + MB = BC \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} AC + CM = AB + BN \\ CM + BN = BC \end{cases} \Rightarrow BN = \frac{BC + AC - AB}{2}$$

ΔAON dan $r = AN \cdot tg\frac{\alpha}{2} = (AB + BN) \cdot tg\frac{\alpha}{2} = \left(AB + \frac{BC+AC-AB}{2}\right) \cdot tg\frac{\alpha}{2} =$


$$= \frac{1}{2}(AB + BC + AC) \cdot tg\frac{\alpha}{2} = \frac{1}{2}\left(c + \frac{\text{c} \cdot \text{Sin}\alpha}{\text{Sin}(\alpha+\beta)} + \frac{\text{c} \cdot \text{Sin}\beta}{\text{Sin}(\alpha+\beta)}\right) \cdot tg\frac{\alpha}{2} =$$

$$= \frac{c \cdot Sin\frac{\alpha}{2} \cdot Cos\frac{\beta}{2}}{Cos\frac{\alpha+\beta}{2}}$$

Javob: $r = = \frac{c \cdot Sin\frac{\alpha}{2} \cdot Cos\frac{\beta}{2}}{Cos\frac{\alpha+\beta}{2}}$


3-masala. *ABC* uchburchakda $\angle C=120^0$ va $|AB| = c$ ga teng. *AB* tomon tashqarisiga muntazam ucburchak yasalgan. Muntazam uchburchak markazidan berilgan uchburchakning *C* uchigacha bo‘lgan masofa topilsin.

Yechilishi. Masala shartiga ko‘ra $\angle C=120^0$ va *ABD* uchburchak muntazam ekanligidan $\angle C+\angle D=180^0$ bo‘ladi, ya’ni *ADBC* to‘rtburchakka tashqi aylana chizish mumkin. So‘ralgan *OC* masofa *ABD* muntazam uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusiga teng bo‘lib qoldi, demak, $OC = R = \frac{\sqrt{3}c}{3}$ bo‘ladi.




Javob: $\frac{\sqrt{3}c}{3}$

4-masala. Qavariq *ABCDE* beshburchakda AB=BC, CD=DE, $\angle ABC=150^0$, $\angle CDE=30^0$, BD=2 ga teng bo‘lsa, uning yuzini toping.



Yechilishi. $AB = BC = a,\ CD = DE = b,\ AC = x,\ CE = y, \angle ACE = \alpha$ belgilashlarni kiritsak, $S_{ABC} = \frac{a^2}{4}$, $S_{CDE} = \frac{b^2}{4}$, $S_{ACE} = \frac{1}{2}xySin\alpha$ ifodalarga ega bo‘lamiz.

$\angle BAC = \angle BCA = 15^0$, $\angle DCE = \angle CED = 75^0$ ekanligi ravshan, shu bilan birga $\angle BCD=90^0+\alpha$.



ΔBCD dan kosinuslar teoremasiga ko‘ra

$$a^2 + b^2 - 2abCos(90^0 + \alpha) = 4$$

$$a^2 + b^2 + 2abSin\alpha = 4$$

ΔABC va ΔCDE larda kosinuslar teoremasiga ko‘ra

$$x^2 = 2a^2 - 2a^2Cos150^0 = a^2(2 + \sqrt{3})$$

$$y^2 = 2b^2 - 2b^2Cos30^0 = b^2(2 - \sqrt{3})$$

$$xy = ab\sqrt{(2 + \sqrt{3})(2 - \sqrt{3})} = ab$$

Demak, $S_{ABCDE} = S_{ABC} + S_{CDE} + S_{ACE} = \frac{a^2}{4} + \frac{b^2}{4} + \frac{1}{2}xySin\alpha =$

$= \frac{1}{4}(a^2 + b^2 + 2abSin\alpha) = \frac{1}{4} \cdot 4 = 1$ **Javob:** 1 kv.b.


5-masala. Agar qavariq to‘rtburchakning yuzi *S* ga teng va tomonlari *a,b,c,d* bo‘lsa, u holda $S \le \frac{1}{4}(a + c)(b + d)$ tengsizlikni isbotlang.

Yechilishi. Quyidagi chizma asosida yechamiz:

$$S_1 + S_2 = S$$

$$S_1 = \frac{1}{2}dc \cdot Sin\beta \le \frac{1}{2}dc$$

$$S_2 = \frac{1}{2}ab \cdot Sin\alpha \le \frac{1}{2}ab$$



Hosil qilingan tengsizliklarni qo‘shish orqali quyidagini olamiz:

$2S \le ab + dc$ (*)


Xuddi shunday usul bilan $2S \le bc + ad$ (**)


tengsizlikni hosil qilishimiz mumkin. (*) va (**) tengsizliklarni qo‘shib isbotlanishi kerak bo‘lgan tengsizlikka kelamiz:

$$4S \le ab + dc + bc + ad$$


$$S \le \frac{1}{4}(a + c)(b + d)$$

6-masala. Quyidagi shaklda berilganlarga ko‘ra *x* ni toping(1-chizma).





Yechilishi. Yuqoridagi 2-chizma asosida yechamiz:



Cheva sinusi teoremasiga ko‘ra

$$\frac{sinx}{sin50^0}\cdot\frac{sin20^0}{sin60^0}\cdot\frac{sin50^0}{sin30^0}\cdot\frac{sin40^0}{sin(110^0-x)}=1$$

tenglamani hosil qilamiz va uni yechamiz:

$$2sin20^0\cdot sin40^0\cdot sinx=sin60^0\cdot\cos(x-20^0)$$

$$(cos20^0-cos60^0)\cdot sinx = sin60^0\cdot\cos(x-20^0)$$

$$sinx\cdot cos20^0-\frac{1}{2}\cdot sinx=sin60^0\cdot\cos(x-20^0)$$

$$\frac{1}{2}sin(x+20^0)+\frac{1}{2}\cdot sin(x-20^0)-\frac{1}{2}\cdot sinx = sin60^0\cdot\cos(x-20^0)$$

$$\frac{1}{2}(sin(x+20^0)-sinx)==sin60^0\cdot\cos(x-20^0)-cos60^0\cdot sin(x-20^0)$$

$$sin10^0\cdot\cos(x+10^0)=sin(80^0-x)$$

$$sin10^0\cdot\cos(x+10^0)=\cos(x+10^0)$$

$\cos(x+10^0)=0\ \Rightarrow x=80^0$ **Javob:** $x=80^0$

7-masala. To‘g‘ri burchakli uchburchakning katetlari 9 va 12 ga teng bo‘lsa, uning medianalari kesishgan nuqta bilan bissektirisalari kesishgan nuqta orasidagi masofani toping.

Yechilishi. To‘g‘ri burchakli uchburchakni to‘g‘ri burchagini koordinata boshiga qilib dekart koordinatalar sistemasiga joylashtirib olamiz.

O_1 –medianalar kesishgan nuqta, O_2- bissektrisalar kesishgan nuqta bo‘lsin. O_1 nuqtaning koordinatalarini topamiz(medianalar kesishgan nuqtaning koordinatalarini topish formulasi $x=\frac{x_1+x_2+x_3}{3}$, $y=\frac{y_1+y_2+y_3}{3}$ ga ko‘ra): $x=\frac{0+9+0}{3}=3$, $y=\frac{12+0+0}{3}=4\ \Rightarrow$ $O_1(3;4)$

O_2 nuqta uchburchakka ichki chizilgan aylana markazi ekanligidan uning radiusini topish kerak bo‘ladi:

$$r=\frac{a+b-c}{2}=\frac{9+12-15}{2}=3$$

Demak, $O_2(3;3)$

Ikki nuqta orasidagi masofa formulasiga ko‘ra:

$$O_1O_2 = \sqrt{(3-3)^2 + (4-3)^2} = 1$$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.I. Skanavi. “Matematikadan masalalar to‘plami”. T:2019
2. “Fizika, matematika va informatika” ilmiy-uslubiy jurnali.

AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA FANI O’QITISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Soliyeva Madinabonu Murodjon qizi-*IIV Namangan akademik litsey fizika fani o‘qituvchisi*

madina.soliyeva93@bk.ru

Annotatsiya: Fizika fanini o‘qib o‘zlashtirar ekan, o‘quvchilar bir qator tabiat xodisa va jarayonlari bilan yaqindan tanishib boradilar. Ular haqidagi dunyo qarashlari ilmiy jihatdan asoslangan voqelikdan iborat ekanligi ko‘z o‘ngida gavdalanib boradi. Ularda dunyo va borliq falsafa nuqtai nazardan moddiyligiga ishonch shakllanadi va bu shakllanish uzluksiz rivojlanishda bo‘ladi. Mazkur maqolada akademik litseylarda fizika fanini o’qitishning o’ziga xos xususiyatlari, darslarni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holatda tashkil qilish, ta’lim prinsplari va muammoli ta’lim haqida fikr bildirilgan.

Kalit so’zlar: muammoli ta’lim, interaktivlik, kreativlik, innovatsion texnologiya, ta’lim prinsplari, ilmiy tadqiqot.

Аннотация: Изучая физику, студенты знакомятся с рядом природных явлений и процессов. Тот факт, что их мировоззрение основано на научно обоснованной реальности, становится все более очевидным. У них формируется вера в материальность мира и существование с точки зрения философии, и это формирование находится в постоянном развитии. В данной статье дается мнение об особенностях преподавания физики в академических лицеях, организации уроков с использованием инновационных технологий, принципах обучения и проблемного обучения.

Ключевые слова: проблемное образование, интерактивность, креативность, инновационные технологии, принципы обучения, научные исследования.

Abstract: While learning physics, students get to know a number of natural phenomena and processes. The fact that their world views are based on scientifically based reality is becoming more and more visible. They form a belief in the materiality of the world and existence from the point of view of philosophy, and this formation is in continuous development. This article gives an opinion on the specific features of teaching physics in academic lyceums, organization of lessons using innovative technologies, principles of education and problem-based education.

Key words: problem-based education, interactivity, creativity, innovative technology, educational principles, scientific research.

Kirish. Ta’lim ta’rbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasida ko’tarish, milliy kadrlar tayorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyati avlodni tarbiyalash maqsadida: «Ta’lim to’g’risida»gi qonun va «Kadrlar tayorlash milliy dasturi»ni hayotga tadbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb hisoblanmoqda. Shu asosda takomillashgan davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yaratish, ilmiy-uslubiy majmualarining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish. Ushbu maqsad va tajriblardan kelib chiqqan xolda o’quvchilarga fizika o’qitish jarayonida zamonaviy-innavatsion pedagogik va ta’lim texnalogiyalaridan foydalangan holda darslar uyshtirish va o’tkazishda o’quv materialini tizimga tizish,o’qitish jarayonlarini maqbul usul va yo’llar bilan boyitish, o’quvchilarga nazariy asoslangan va tajribada isbotlangan fizika o’qitishni havola etish shu kunning eng dolzarb masalasasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni, 2020 yil 12- avgustdagi PQ-4805- son va “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 19 martdagi PQ- 5032-son qarorlari bu gaplarning isboti desak mubolag’a bo’lmaydi.

Tabiiy fanlar jumladan jumladan fizika fanini o’qitishda zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning fanga bo’lgan qiziqishini ilmiy bilish faoliyatini, yaratuvchanlik, ijodkorlik qobilyatlarini shakllantirishga asosiy omil bo’lib xizmat qiladi. DTSlarining innovatsion ta’limga yo‘naltirilganligi uning maqsadli, ko‘p funksional, tarkibiy hamda mazmunli elementlar bilan belgilanadi. Ta’lim standartlari nafaqat o‘qitish mazmuni hamda taklif qilinayotgan ta’lim natijalarini to‘g‘rilaydi, balki mavjud axborot- kommunikatsion ta’lim muhiti sharoitida ushbu ko‘rsatkichlarga erishish kafolatlarini ham taminlab beradi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiyasi. Ma’lumki, akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishda talabalar tomonidan fizik hodisalarning sabablari, mohiyatini chuqurroq bilish, fizik qonunlarning mazmunini tushunib olishga erishish katta ahamiyatga egadir. Chunki egallangan mukammal bilim mutaxassislik fanlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilsa, bilimlarni amallda qo‘llash ko‘nikmalarining egallanganligi bo‘lajak mutaxasislarning amaliy faoliyati uchun zarurdir. Tabiiy fanlar, jumladan fizika fani bo‘yicha an’anaviy usulda olib borilayotgan mashg‘ulotlar talaba-o‘quvchilar uchun zerikarli bo‘lib, bilimlarni egallashda ular “passiv” pozitsiyada bo‘ladilar. Tayyor ravishda

olingan ma’lumot, axborotlar tinglovchilar, o‘quvchilar xotiralarida uzoq saqlanmaydilar va ularning bilim egallashga nisbatan ijodiy yondoshuv ko‘nikmalari rivojlanmay qolaveradi. Fizika fani rivojlanishining hozirgi bosqichida egallanishi kerak bo‘lgan bilimlar hajmi va ko‘lamining keskin oshib borishi ham bilim jarayonida talaba o‘quvchilarning faollik darajasini oshirishni taqazo qiladi.

Akademik litseylarda fizika darslarini o’tishda innovatsion ta’lim texnologiyalariga, muammoli o’qitishga va ta’lim prinsplariga alohida e’tibor berish dars sifatini oshirishga yordam beradi.

Fizikaning boshlang‘ich kursi sodda bo‘lib ko‘rinsada, uni qandaydir o‘ziga xos tizimga solingan xolda mavzular ketma-ketligida tinglovchilarga yetkazish, o‘ylaymizki, yuqori natijalarni beradi. Xozirgi vaqtda nafaqat fizika fanini balki boshqa fanlarni o‘qitishda ham texnika va texnologiyalarning so‘ngi davrlardagi jadal sur’atlardagi rivojlanishiga urg‘u bermaslikning iloji yo‘q. Shu bilan birga bir qator fanlararo fanlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi (kimyoviy fizika, biofizika, biorganik fizika, astrofizika va boshqalar) hamda bir qator yangi yo‘nalishlarning dunyo yuzini ko‘rishi (masalan, nurtolalar optikasi, raqamli texnologiyalar, nanotexnologiya va boshqalar) fizika faniga yana chuqurroq nazar solishga undamoqda. Fizikaning bunday keskin rivojlanishi ba’zi o‘quv yurtlarida ayniqsa, akademik litseylarda fizika faniga ajratilgan soatlarning chegaralanganligi uni ma’lum bo‘limlarini xattoki umumiy elementar fizika kurslarini ham o‘ziga xos, yangi, noan’anaviy o‘quv innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishni taqazo etadi. Bu sohadagi chuqur izlanishlar olib brogan F.J.Akbarova innovatsion texnologiyalarning bir qator usullarini o‘z maqolalarida atroflicha tahlil qilib berganlar [1.1226]. Yangi o’tiladigan mavzularni o’quvchilarga tushuntirish va ular ongiga chuqurroq yetkazish , darslarda turli noan’anaviy usullardan foydalanish, fizik jarayonlarni chizmalar va qiyoslash yordamida tinglovchiga yetkazish bo’yicha F.M.Mirtojiyev bir necha usullarni taklif etishgan [2.160]. Bundan tashqari akademik litseylarda fizika darslarida muammoli o’qitish va turli ta’lim prinsplaridan foydalanish bo’yicha O.Xikmatullayev bir qator ilmiy izlanishlar olib borganlar [3.910].

Natijalar va muhokama. Akademik litseylarda fizikadan ma’ruza darslarini tashkil qilishda muammoli vaziyat texnikasidan foydalanish ijobiy natija beradi. Muammoli o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchi-talabalar tomonidan ijodiy faoliyat, ilmiy izlanish usullarini asta-sekin egallab borishlariga erishish va ularda mustaqil fikrlash qobilyatlarini uyg‘otish hamda rivojlantirib borishdan iboratdir. Muammoli o‘qitishda o‘qituvchi muntazam ravishda muammoli savollar, masalalar, vazifalar yordamida muammoli vaziyatlarni yaratib, o‘rganilayotgan mavzuga tegishli o‘quv muammolarini hal qilishda o‘quvchilarning mustaqil

faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilib, kerakli bilimlarni o‘quvchilarga berib borish lozim. Muammoli vaziyat muammoli o‘qitishning asosiy elementi bo‘lib, yangi fikrlar paydo bo‘lishiga, talabalarning bilim olishga ehtiyoj sezishiga fikr-mulohazalarini faollashtirishga yordam beradi. Biror mavzuni yoki bo‘limni muammoli o‘qitishni rejalashtirishda o‘rganilayotgan materialning mazmuni, mohiyati, murakkablik darajasi axborot xarakterini e’tiborga olish lozim. Bundan tashqari o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha talabalarning bilim darajasi, intelektual imkoniyatlari, ongining rivojlanish darajasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Avvalambor talabalar fikrlash, mushohada qilish bo‘yicha individual ichki imkoniyatlarini, qobilyatlarini hisobga olgan holda, bilish jarayonida ziddiyatlarni aniqlashga qaratilgan aniq vazifalar, savollar tizimi ishlab chiqiladi. Bunday savol, vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Biror fizik hodisa mazmunini aniqlashga, yoritishga imkon beruvchi yordamchi savollar.

2) O‘rganilayotgan hodisa yuzasidan mavjud fikrlar, tasavvurlar qaramaqarshiligi, ziddiyatiga sabab bo‘ladigan, bahs-munozaraga olib keladigan savollar.

3) Mavjud fikr-mulohazalarni taqqoslab, solishtirib natijaviy xulosaga olib keluvchi savollar, vazifalar.

Muammoli vaziyatlar tizimida asosiy va bir qator yordamchi vaziyatlar aniqlanadi. Asosiy muammoli vaziyatni, vazifani aniqlash, to‘g‘ri ifodalash ancha qiyin bo‘lishiga qaramay, u talabalarning bilishdagi faolligini, bilish jarayonining samaradorligini ta’minlaydi. Talabalarda mustaqil fikrlash, izlanish malakasi va ko‘nikmalarining yetishmasligi natijasida asosiy muammoni birdan hal qilish ancha qiyin bo‘lishi tabiiydir. Shuning uchun asosiy muammoli masalani, vazifani yaxshi anglab olishga va uni hal qilishga yordam beradigan yordamchi savollar, vazifalar tizimini yaratish lozim. Bu esa talabalarning bilish faoliyatini boshqarish, ular tomonidan bilimlarni va ijodiy izlanish usullarini puxta egallash imkonini beradi [4.1094].

Mening fikrimcha, akademik litsey o’quvchilarda ilmiy kuzatish va izlanish faoliyati bo’yicha bilim va ko’nikmalarni laboratoriya mashg’ulotlari paytida shakllantirib borishga e’tiborni kuchaytirish zarur. Ya’ni, laboratoriya ishlarini bajarish jarayoniga “ilmiy-taqdiqot element”larini kiritib borish maqsadida darslarni muammoli tashkil qilish lozim. Ma’lumki har bir laboratoriya ishini bajarishda ma’lum bir fizik kattaliklar aniqlanadi yoki biror fizik hodisa namoyish qilinadi. Bu jarayonni “kichik ilmiy - taqdiqot” ishiga yaqinlashtirish uchun litsey o’quvchilar oldiga zarur ijodiy izlanish vazifalarini qo’yish mumkin. Bu vazifalarga berilgan fizik kattalikni aniqlash usullari bilan adabiyotlar yordamida tanishish, ularni taqqoslash, tanlangan usulga asos bo’lgan

fizik xulosa, kerakli qonunlarni, laboratoriya jixozlari ishlashini o'rganish, o'qituvchi nazorati ostida mustaqil o'lchash ishlarini bajarib natijalarni olish, hisoblash va ularni tahlil qilib kerakli xulosalarga kelishi, olingan natijalarning amaliy ahamiyatini bilish bilan bog'liq masalalar kiradi. Ko'p hollarda laboratoriya ishlarini "murakkablashtirish" texnik imkoniyatlari chegaralangan yoki mavjud bo'lmasa axborot texnologiya vositalaridan, masalan laboratoriya ishlari modellashtirilgan, virtual laboratoriya usullaridan foydalanish mumkin. Laboratoriya sharoitida amalga oshiriladigan ta'lim jarayoniga bunday yondashuv natijasida o'quvchilar olingan nazariy bilimlarni mustahkamlab, o'rganalayotgan fizik hodisa qonunlarning, kattaliklarning mazmun mohiyatini chuqur o'rganish bilan bir qatorda ularda ijodiy ilmiy – tadqiqot ishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllanadi, ijodiy faollik oshadi [5.136].

Akademik litseylarda fizika darslarini qiziqarli va talabaga tushunarli bo'lishi uchun XXI asr texnologiyalaridan biri bo'lgan "Interaktivlik" va "Kreativlik" usulidan foydalanish zarur. Interaktivlik- o'zaro hamkorlik ma'nosini anglatib, darslarda bu atama o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro hamkorligini bildiradi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida mashg'ulot o'tkazish uchun guruh o'quvchilari 4-5 kishilik kichik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhda kuchli, o'rta va kuchsiz o'quvchi bo'lishiga etibor berish kerak. Chunki jamoalarning teng kuchli bo'lishi taminlanishi kerak. O'quv xonasida partalarning qo'yilishi kichik guruhlar ishlashiga yordam beradi. Bunda o'quvchilar doira shaklida o'tirishadi hamda bir birlarini bevosita ko'rib turadi. Bu holatning afzalligi o'quvchilarga bevosita bir birlari bilan aloqa qilishga imkon beradi va buning natijasida o'quvchilar tezda fikr almashishadi va tez yechim topishadi. Shuni ham takidlab o'tish kerakki bu holatda munozara vaqtida kuchsiz o'quvchilar asosan o'rganuvchi rolini o'ynashadi. Yani ular yuqori saviyali o'quvchilarni fikrini eshitib ulardan kerakli bilimlarni olishadi va ularga qo'shilishga harakat qiladi. Buning natijasida esa guruhdagi past saviyali o'quvchilarning o'sishiga erishiladi. O'tkaziladigan mashg'ulotga tayyorgarlik davomida mavzuning qaysi qismini o'qituvchining o'zi tushuntirishi va o'quvchilar qaysi qismini bajarishi rejalashtiriladi. Bunda darsga qo'yiladigan maqsaddan kelib chiqqan holda, har bir o'quvchiga qo'yiladigan topshiriqlar aniq bo'lishi lozim. Ya'ni savollar o'quvchining saviyasidan kelib chiqib berilishi kerak. Buni qanday afzalliklari bor shuni ko'rib o'tamiz. Deylik kuchsizroq o'quvchiga qiyinroq savol berilsa, ma'lumki u bu savolga javob topa olmaydi va buni natijasida o'ziga bo'lgan ishonchi so'nib fanga bo'lgan qiziqishi ham kamayib ketadi. Agar o'zini saviyasiga mos savol bersak u bunga javob bera oladi(qo'ldan kelgancha) va yana ham fanga bo'lgan mehri ortib boradi. Muhokama yakunida kichik guruhdagi o'quvchilar o'zlariga berilgan

savollarning hammasiga javob berishlari va ularni butun guruh muhokamasiga, chiqarishlari kerak.

Akademik litsey o'quvchilariga fizika darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish va shu yordamida o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Mazkur texnologiya tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lib, u asosan o'quvchilar ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan [6.72].

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, fizika o'quv predmeti sifatida kelajak avlodga ta'lim berishda, tarbiyalashda katta potensial imkoniyatlarga bo'lib, uning intellektual salohiyatining rivojlanishiga, ishlab chiqarishning ilmiy texnik iqtisodiy va ekologik asoslarini chuqur bilishni taqozo etadi. Fizika fanini o'qitish jarayoni murakkab va mas'uliyatli bo'lib, u olam haqida fizik tasavvurlarni shakllantiribgina qolmasdan, davr talabiga javob beradigan yosh avlodni tarbiyalashga ham mas'uldir. Fizika metodikasini o'qitadigan o'qituvchi birinchi o'rinda fizikadan chuqur bilimga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida tasavvurga ega hamda ijodkor bo'lishi kerak, shundagina uning amaliy faoliyati samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Akbarova F.J., Fizika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish., Scientific progress.,V2, N6, 2021., C-(1225-1228).

2.Mirtojiyev F.M. Umumiy fizika kursini o'qitishda tizimlash usulidan foydalanish., 2023-yil 16-iyun. Buxoro., "Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat va sun'iy intellekt uchun dasturiy vositalar, axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari" respublika ilmiy–amaliy anjuman materiallari. C-(160-162)

3. Ximmatkulov O. "Ta'lim muassasalarida fizika fanini muammoli o'qitish masalalari". "Экономика и социум" №5(96)-2 2022. C-(908-912).

4. Tursunov.I. "Fizika fanini o'qitishda ta'lim prinsplarining ahamiyati". ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021. C(1093-1099)

5. Axmedov, Y. O. (2023). "Akademik litseylarda fizika fani o'qitishning hozirgi kundagi mavjud holati". *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(11), (135–138).

6. Maxamatrasul Djo'rayev "Fizika o'qitish metodikasi" Toshkent - 2015

7. https://pm.piima.uz/steam-ta-lim/

8. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/119/45/372

9. https://t.me/scienceboxofficial

KBK-22.3
X-30

MATEMATIK BILIMLARNI QO‘LLASH ORQALI FIZIK MASALALARNI YECHISH USULLARI

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent
“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi fizika fani
bosh o‘qituvchisi **Xasanova Gulshod Ro‘ziboyevna**
gulshodhasanovahl@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada harbiy-akademik litseylarda fizikadan masala yechish jarayonida o‘quvchilarga ushbu fandan chuqur bilim berish bilan birga ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda integrativ o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: masala, integrativ texnologiya, arifmetik usul, algebraik usul, grafik usul, aralash usul.

Аннотация: В статье рассматривается использование интегративных технологий обучения на уроках физики для развития творческих способностей учащихся, для обеспечения углубленных знаний по данному предмету в процессе решения задач в военно-академических лицеях.

Ключевые слова: задача, интегративная технология, арифметический метод, алгебраический метод, графический метод, смешанный метод.

Abstract: The article discusses the use of integrative teaching technologies in physics lessons to develop the creative abilities of students, to ensure in-depth knowledge of this subject in the process of solving problems in military academic lyceums.

Key words: problem, integrative technology, arithmetic method, algebraic method, graphical method, mixed method.

Harbiy-akademik litseylarda fizika predmetini o‘qitishda nazariy va amaliy uslublardan foydalaniladi, ular orasida fizikadan masalalar yechish bo‘yicha mashg‘ulotlarning ahamiyati salmoqlidir. Masala yechish jarayonida litsey o‘quvchilariga fizika fanidan chuqur bilim berish bilan birga ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ma’naviy tarbiya berish kabi muhim masalalar ham hal qilinadi.

Fizikadan masalalar yechish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlari kengayadi, ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Fizikaviy hodisalarning tub mohiyatini kengroq tushunadilar, fizikadagi qonunlarning amalda qo‘llanilishini chuqurroq anglaydilar.

Ko‘pgina fizik o‘lchov asboblarining vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipi bilan tanishadilar va ulardan foydalanish ko‘nikmasiga hamda malakalariga ega

bo‘ladilar. Shuningdek, fizikadan masalalar yechish o‘quvchilarda mehnatsevarlik, jur’atlilik, iroda va harbiylarga zarur bo‘lgan mustahkam iroda va metin fe’l-atvorni tarbiyalaydi.

Fizikaviy masalalarni yechish usullariga ko‘ra:

- ❖ Sifatga doir masalalar
- ❖ Eksperimentga doir masalalar
- ❖ Grafiklarga doir masalalar
- ❖ Ijodiy masalalar turlariga bo‘linadi.

Bunday bo‘linish ham shartlidir, chunki eksperimental masalalarni yechishda ham og‘zaki mulohazalardan, ham grafikdan, ham hisoblash ishlaridan foydalanamiz. Biroq bu masalalarning har biri mazmuni va murakkabligi jihatidan xilma- xildir. Bu masalalarning yechimlari aniq bir maqsadga qaratilgan bo‘lib, aniq yechilish usullariga ega. Bu masalalarning har bir turlari uchun alohida adabiyotlar mavjud.

Masalalarni yechish usullari, masalalarning sodda yoki murakkabligiga, o‘qituvchilarning qo‘ygan maqsadiga, o‘quvchilarning bilim darajasi va boshqa talaygina sabablarga bog‘liq. Masalalarni yechish usullari ularni yechishda qo‘llaniladigan matematik bilimlarni qo‘llash zaruriyatiga ko‘ra quyidagicha bo‘linadi:

- ✓ Arifmetik usul.
- ✓ Algebraik usul.
- ✓ Grafik usul.
- ✓ Aralash usul.


Masalalarni yechish jarayonida foydalaniladigan mantiqiy amallar xarakteriga ko‘ra analitik, aralash yoki analitika-aralash usullarga bo‘linadi. Bu usullarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz [2].

Arifmetik usul: Masala arifmetik usul bilan yechilganda, masaladagi fizik kattaliklar ustida faqat arifmetik amallar bajariladi. Ya’ni fizikaviy masalalarni arifmetika darslaridagi singari yechiladi. Formulalarni qo‘llamasdan savollar yoziladi. Bu usuldan fizika o‘qitishning boshlang‘ich davrida hali o‘quvchilar algebradan tegishli bilimga ega bo‘lmagan yoki fizik formulalarga kirgan kattaliklar orasidagi bog‘lanishni chuqur tushunmagan paytda qo‘llaniladi. Arifmetik usulning yana o‘ziga xos yana bir xususiyati, unda tenglamalar tuzulmasligida va tenglamalar yechilmasligidadir.

Harfiy ifodalarni qo‘llab arifmetik usul yordamida masala yechishga misol keltiraylik.

Namuna: Asosining yuzi $500\ cm^2$ ga teng bo‘lgan silindr shaklidagi po‘kak suvda suzib yuribdi. Uni yana 8 cm chuqurlikka botirish uchun ustiga qancha yuk (g) qo‘yish kerak? Po‘kakning zichligi 2 g/cm^3

Yechim: Bu masala Arximed qonuniga tegishli ekanligini tushungach, masalani yecha boshlaymiz. Yuqorida aytganimizdek, masalani savollar yordamida yecha boshlaymiz.



1-rasm

1.Po‘kakning suvga botgan chuqurligi qancha?

$F_A = mg \qquad \rho_s g V_{b1} = \rho g V$


$\rho_s S h_{b1} = \rho S h$

$h_{b1} = \frac{\rho h}{\rho_s} = \frac{0{,}2h}{1} = \frac{h}{5}$

Izoh: bu yerda $\rho\ va\ \rho_s$ mos ravishda po‘kak va suvning zichliklari. Ma’lumot uchun suvning zichligi $\rho = 1g/cm^3$ ga teng.

2.Po‘kakning ustiga yuk qo‘yilgan hol uchun uning botish chuqurligi qancha?

Tabiiyki, bu yerda uning botish chuqurligi ortadi:



2-rasm

$m_x g + mg = F_A$

$m_x g + \rho g V = \rho_s g V_{b1}$

$m_x + \rho S h = \rho_s S h_{b2}$

$h_{b2} = \frac{m_x + \rho S h}{\rho_s S}$

$h_{b2} = \frac{m_x + 200 \cdot 5 \cdot 10^{-2} h}{1000 \cdot 5 \cdot 10^{-2}} = \frac{m_x + 10h}{50} = \frac{m_x}{50} + \frac{h}{5}$

3. Po‘kak ustidagi yuk massasi qancha?


Masala shartiga asosan, po‘kakning botish chuqurliklari farqi 8 cm ga teng. Bundan foydalanib, quyidagi yechimga ega bo‘lamiz:

$h_{b2} - h_{b1} = 0{,}08m \qquad \frac{m_x}{50} + \frac{h}{5} - \frac{h}{5} = 0{,}08 \qquad m_x = 0{,}08 \cdot 50 = 4kg = 4000\ g.$

Javob: 4000 g [3].

Algebraik usul: Fizika masalalarini algebraik usul bilan yechganda, o‘quvchilarning algebradan olgan bilimlaridan foydalaniladi, formulalar ishlatiladi, tenglamalar tuziladi va yechiladi.

Namuna: Ikkita ko‘zgu bir-biriga og‘gan va ikki yoqli burchakni tashkil qilgan. Ko‘zgular orasidagi burchak $\alpha = 30^0$ ga teng. Ko‘zgulardan birining sirtiga nur $\beta = 45^0$ burchak ostida nur tushmoqda. Ikkala ko‘zgudan qaytgan nur qanday burchakka buriladi?



3-rasm

Yechim: ABC uchburchak ichki burchaklar yig‘indisi 180 gradusga tengligidan:

$$\alpha + 90 - \varphi + 90 - \beta = 180$$

$$\varphi + \beta = \alpha \quad (1)$$

ACD uchburchak ichki burchaklar yig‘indisi 180 gradusga tengligidan:

$$2\varphi + 2\beta + 180 - x = 180$$

$$x = 2(\varphi + \beta) \quad (2)$$

(1) ifodani (2) ifodaga keltirib qo‘ysak, $\alpha = 60^0$ natijaga ega bo‘lamiz.


Demak, nurning ikkala ko‘zgudan qaytish burchagi nuning tushish burchagiga bog‘liq emas.

Javob: 60^0 burchak ostida qaytadi [3].

Demak, bu masalani yechishda, algebra faniga oid bilimlar qo‘llanildi.

Grafik usul: Grafik masalalarni yechish o‘quvchilar algebra kursidan grafiklar ustida ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak bo‘ladi. Grafik usulda masalada topilishi kerak bo‘lgan fizik kattalik grafiklar ustida ishlab, amallarni bajarib topiladi. Grafik usulda yechiladigan masalalardan namuna keltiramiz:

Namuna: Grafikdan foydalanib o‘tkazgichdan oqib o‘tgan zaryad miqdorini aniqlang (C).



4-rasm

Yechim:

Toki kuchi va vaqt o‘qi orasidagi yuza son jihatdan o‘tkazgichdan oqib o‘tgan zaryad miqdoriga teng:


$$S = q = \frac{a+b}{2}h = \frac{8+6}{2}10 \cdot 10^{-3} = 0{,}07\ C$$ [3].

Aralash usul: Fizikadan masalalar yechishning aralash usulida izlanayotgan fizik kattalikning aniqlanishiga asos yaratiladi. Buning uchun dastlab berilgan fizik kattaliklar orasidagi oraliq munosabatlar aniqlanadi. Ma’lum amallarni bajarish natijasida izlanayotgan kattalik topiladigan ifoda hosil qilinadi.

O‘quvchilar ko‘pincha, masalalarni aralash usulda yechishga moyil bo‘ladilar. Ya’ni ular izlanayotgan kattalikni topishga imkon beradigan, o‘zlari biladigan formulalarni yozadilar. Formulalarni istalgan kattalikni topishga imkon berguncha o‘zaro bog‘lab yozadilar. Bunday bog‘lanishlarda, izlanayotgan kattalikni topishga imkon bermaydigan yo‘llarga ham ketib qolishi mumkin.

Masala yechishning aralash usuli sodda bo‘lib, hamma vaqt ham istalgan natijani beravermaydi.


Har doim masalani yechish masalaning mazmunini muhokama qilishdan, nima so‘ralayotganini aniqlashdan boshlangani uchun analitik usul birinchi o‘rinda bo‘ladi. Masalani yechish uchun umumiy formulani izlashda analiz metodi qo‘llanadi. Masalani analitik va aralash usullar bilan yechishga misol keltiramiz.



5-rasm

Namuna: Rasmda ko‘rsatilgan 5 kg massali jismni ko‘rsatilgan yo‘nalishda 2 m/s^2 tezlanish bilan harakatlantirish uchun F (vertikal) kuch qancha bo‘lishi kerak? $cos37^0 = 0{,}8$; jism va qiya tekislik orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,5 ga teng.

Yechim: Bu masalani yechishda analitik va aralash usulini qo‘llaymiz. Masala mazmunini mulohaza qilish orqali jismga qanday kuchlar ta’sir qilishi aniqlanadi. Bu kuchlar og‘irlik kuchi - **mg** va tayanchning reaksiya kuchi **N** dir. Bu kuchlarning yo‘nalishini chizmada ko‘rsatamiz va tegishli formulalarni yozamiz:



6-rasm

$N = (F - mg)cos\alpha$ u holda:

$F_{ish} = \mu N = \mu(F - mg)cos\alpha$

Jismning kuch tenglamasini tuzib olaylik:

$Fsin\alpha - mgsin\alpha - F_{ish} = ma$ bundan:

$$Fsin\alpha - mgsin\alpha - \mu(F - mg)cos\alpha = ma$$

bundan:

$$Fsin\alpha + \mu mgcos\alpha - F\mu cos\alpha = ma + mgsin\alpha$$

bundan:

$$(sin\alpha - \mu cos\alpha)F = m(a + gsin\alpha - \mu gcos\alpha)$$

bundan:

$$F = \frac{m(a+gsin\alpha-\mu gcos\alpha)}{sin\alpha-\mu cos\alpha} = \frac{5(2+8-3)}{0{,}8-0{,}3} = \frac{35}{0{,}5} = 70\ N$$

ekanligi kelib chiqadi. [3].

Yuqorida keltirib o‘tilgan masala yechish turlarining barchasi integrativ ta’limning tarkibiy qismlariga kiradi. Fizikadan integrativ masalalarni tuzish va yechish metodikasida ularni keng qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Sh. Axmedov, M. Dusmuratov. Fizika.T-2019

2.Rizayev T., Nurillayev B., “Fizikadan masalalar yechish metodikasi” (O‘quv qo‘llanma) Toshkent-2007.

3.Telegramm kanali: ***@Fiziklar777***

FIZIKA FANIDAN MASALALARNI MATHCAD DASTURIY VOSITASIDA HISOBLASH TEXNOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi fizika fani bosh o‘qituvchisi Turayeva **Lolaxon Yuldashevna**

Munisabonu@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika darslarida Mathcad dasturiy paketi orqali masalalar yechish hamda tavsiya etilgan dasturiy vositaning imkoniyatlari va afzalliklari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim jarayoni; ta’lim sifati; animatsiyasi; dasturiy vosita; axborot kommunikatsion texnologiyasi; tanlash imkoniyati; dasturiy paket; dasturlash.

Аннотация. В данной статье рассматривается решение задач на уроках физики с помощью пакета программ Mathcad и возможности, преимущества рекомендуемого программного обеспечения.

Ключевые слова: Образовательный процесс; качество обучения; компьютерная анимация; программный пакет; информационно-коммуникационные технологии; возможность выбора программный пакет; программирование.

Annotation. This article discusses the solution of problems in physics lessons using the Mathcad software package and the features, benefits of the recommended software.


Key words: Educational process; quality of training; computer animation; software package; information and communication technologies; possibility to choose software package; programming.

Hozirgi kunda axborot kommunikatsion texnologiya (AKT) lari rivoji dunyo bo‘ylab yangi bosqichga ko‘tarildi. Ta’lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2023 yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili deb e’lon qildi.

Ta’lim sohasida yurtimizda amalga oshirilayotgan ko‘plab islohotlar, ta’limga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi hamda AKT sohasining keng tadbiqi, ta’lim jarayoniga qo‘llash mumkin bo‘lgan ko‘plab dasturiy vositalarning yaratilishiga olib kelmoqda.

MathCad dasturiy paketidan fizika darslarida foydalanishda qanday imkoniyatlarga ega bo‘lishi haqida so‘z yuritaylik. MathCad dasturiy paketi asosan matematik hisoblash, tenglama va tengsizlik, va ularning sistemalari, massivlar va matritsalar bilan ishlash, turli sanoq sistemalarida funksiya grafiklarini chizish, hosila, integralni hisoblash, differensial tenglamalarni


ishlash, skalyar maydon va vektor maydon, ulaning gradiyenti, rotor, sirkulyatsiya kabi operatorlarini aniqlash va boshqa ko‘plab statistik tahlil, iqtisodiy masalalarni ishlash imkoniyatiga ham ega. MathCad dasturiy paketi oynasi hamda unda oddiy amallar bajarilishi namuna sifatida 1-rasmda keltirilgan. Rasmdan ham ko‘rinib turibdiki, akademik litsey o‘quvchilari fizikaga oid masalalar yechishda MathCad dasturiy paketidan osongina foydalana olar ekan.



1-rasm

MathCad tizimida uskunalar panelida turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan paketlar bo‘lib, ularni alohida-alohida oynalar tarzida ochib, ulardan ma’lum maqsadlarda foydalanish mumkin.

Masalan, 2-rasmda grafiklar chizish uchun, matematik hisoblashlar uchun, grekcha alfavitdan, operatorlardan, mantiqiy elementlardan foydalanish uchun alohida-alohida oynalar ochilgan. Fizikada shunday masalalar uchraydiki, ularni hisoblash ya’ni o‘sha jarayonni tasavvur qilish uchun modellashtirish (vizuallash) zarurati talab qilinadi.



2-rasm

Hozirgi kunda o‘quvchilar rangli va harakatlanuvchi jarayonlarga qiziqish bilan yondashadi, ularni oq –qora tasvir va harakatsiz jarayonlar qiziqtirmaydi.


Ta’lim jarayonida fizik hodisalarni o‘quvchilar tasavvur etishlari uchun MathCad dasturining yorqin grafik imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mathcad tizimining grafik vositalarining xilma-xilligini ko‘rsatadigan fizikaga oid bir nechta masalalarni hisoblashni ko‘rib chiqamiz.

MathCAD dasturiy vositasida har xil turdagi grafikalar bilan ishlash uchun juda ko‘plab imkoniyatlari mavjudligi bilan tanishib chiqamiz. Foydalanuvchi uchun eng muhimi, MathCad paketining imkoniyatlari grafiklar bilan ishlash ancha qulay bo‘lib, o‘quvchidan murakkab amallarni bajarishni talab qilmaydi.

O‘rnatilgan Frame funktsiyasi yordamida tuzilgan grafiklarni animatsiyalash, uch o‘lchovli grafiklarni yaratish imkoniyatlari mavjud. O‘ylaymanki, o‘quvchi uchun nafaqat grafikalar va animatsiyalarning qanday hosil qilinishini kuzatish, balki grafikalarni hosil qilish juda qiziqarli bo'ladi. Bu jarayonda ular nafaqat fizika, balki matematika va informatika bo‘yicha ham o‘z bilimlarini oshiradilar.


Zamonaviy axborot texnologiyalari ta’lim tizimiga yangicha qarashni, o‘qitish samaradorligini oshirish, fizik jarayonlarni tasavvur qilish imkonini beradi. MathCad amaliy paketi yordamida juda ko‘p hisob-kitob, grafik, diagramma va gistogrammalar, hosila va integralga oid ko‘plab masalalarni hisoblash imkoniyati mavjud. Shunday qilib, oxirgi o‘n yilliklar davomidagi ta’lim sohasidagi izlanishlar va statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, fizikaga oid qonunlarni hamda fizik hodisalarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim samaradorligini oshirishda kutilgan natijalarni bermoqda.

Masala №1. Jism to'g'ri chiziqli tekis harakat qilmoqda. Jismning harakat tenglamasi chiziqli funktsiya. Shuning uchun jism koordinatasining harakat vaqtiga bog‘liqlik grafigi qiya chiziqdan iborat bo‘ladi (3-rasm). Tezlik qiymatini oshirish orqali, to‘g‘ri chiziqning qiyalik burchagi ham oshishiga ishonch hosil qilish mumkin. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun tezlikning qiyalik burchagiga bog‘liqligini funktsiya hosilasi yordamida tushuntirish mumkin.



3-rasm. To‘g‘ri chiziqli tekis harakatda jism koordinatasining harakat vaqtiga bog‘liqlik grafigi

Masala №2. Jism to‘g‘ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat qilmoqda. Bunday harakatning tenglamasi kvadrat funksiyadir, shuning uchun uning grafigi parabola bo'ladi (4-rasm). Boshlang‘ich tezlikka uchta qiymat berish orqali uchta funktsiyaning grafigini hosil qilamiz. Grafikda parabolaning qanday o‘zgarishi yaqqol tasvirlangan.




4-rasm. To‘g‘ri chiziqli tekis tezlanuvchan
harakatda jism koordinatasining harakat vaqtiga bog‘liqlik grafigi

Masala №3. Harakat tenglamasi x(t)=Asin(ωt+φ) koʻrinishga ega boʻlgan prujinaga osilgan jism garmonik tebranadi. Biz amplituda, bikrlik koeffitsienti, massa qiymatlarini kiritamiz. Tezlik formulasini vaqtga nisbatan koordinataning birinchi tartibli hosilasi, tezlanishni esa vaqtga nisbatan tezlikdan olingan birinchi tartibli hosila sifatida yozamiz. Soʻngra, biz jismning kinetik va potentsial energiyalari uchun formulalarni kiritamiz. Ikki oʻlchovli grafiklardan foydalanib, biz koordinatalar, tezlik, tezlanish, kinetik va potensial energiyalarning vaqtga bog'liqlik grafigini chizamiz. Fizik kattaliklar qiymati oʻzgarganda grafiklar qanday oʻzgarishini MathCAD dasturiy vositasida ars ettirish mumkin.


$A := 5$ $k := 4$ $m := 1$ $w := \left(\frac{k}{m}\right)^{0.5}$ $x(t) := A \cdot \sin(w \cdot t)$

$v(t) := \frac{d}{dt}x(t)$ $a(t) := \frac{d}{dt}v(t)$

$T(t) := m \cdot \frac{v(t)^2}{2}$ $U(t) := k \cdot \frac{x(t)^2}{2}$



5-rasm. Garmonik tebranuvchi jism koordinatasi, tezligi, tezlanishining vaqtga bogʻliqlik grafigi.



6-rasm. Garmonik tebranuvchi jismning kinetik, potensial energiyasining vaqtga bogʻliqlik grafigi

Oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilishi qiyin mavzularni tushunishda, koʻzga koʻrinmas jarayonlar toʻgʻrisidagi tasavvurlarni hosil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari hamda turli dasturiy vositalardan foydalanish hozirgi kundagi eng qulay vosita va unumli usul hisoblanar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Гурский Д. Mathcad для студентов и школьников / Д. Гурский, Е. Турбина // Популярный самоучитель. – СПб.: Питер, 2005
2. Майер, Р.В. Решение физических задач с помощью пакета MathCAD [Электронный ресурс] / Р.В.Майер. --- Глазов: ГГПИ, 2006. - 37 с.
3. Воскобойников Ю.Е., Задорожный А.Ф., Литвинов Л.А. и др. Основы вычисл. и программ. в MathCAD. Новосибирск. 2012. 17стр.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MAHALLIY TARIXIY MATERIALLAR VOSITASIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Kosbergenov Raxat Maxsetbaevich
Ajiniyoz nomidagi NDPI assistent o‘qituvchisi.

Har bir oilada o‘ziga xos an’analar mavjud. Bu an’analar bolaning ongiga, xulq-atvoriga juda kuchli ta’sir o‘tkazadi. Masalan, oila a’zolarining tug‘ilgan kunlarini o‘tkazish, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olish va hokazo. Eng muhimi ota-onalarning hurmatini farzand doimo sezib turishi kerak.

Shu o‘rinda farzandlarga oilaviy shajarani tuzish bo‘yicha mustaqil ishni topshirish maqsadga muvofiq.

Bu bejizga emas. Chingiz Aytmatov bolalik paytlarini eslab, nuroniylar to‘y-tomoshalarda bolalardan etti bobosining nomini aytib berishini so‘raganliklarini qayd etib, shu yo‘sinda yosh avlod qalbida avlo-ajdod, qon-qardoshlik tushunchalari singdirib borilganini xulosa qiladi. [1,101]

Ma’lumki, “shajara”- arabcha so‘z bo‘lib, “daraxt” degan ma’noni anglatadi. Arablar o‘zlarining ota shajaralarini daraxtga va uning shoxlariga qiyoslashgan, daraxt uch qismga-tana, shox va shoxchaga bo‘lingani sababli, arablarning ota shajaralari ham uch qismga-nasl (aniqrog‘i, millat), toifa (qabila) va uruqqa bo‘lingan. Bunga misol qilib, payg‘ambarimiz Muhammad (SAV)ning ota shajarasini ko‘rsatish mumkin. Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” asarida aytilishicha: “Payg‘ambarimizning o‘zlari arab naslidan, Quraysh qabilasi, Bani Hoshim urug‘idan bo‘lib, otalari Abdulloh, uning otasi Abdulmutallib, uning otasi Hoshim, uning otasi Abdulmanof....., o‘n binichi otalari Quraysh, yigirma birinchi otalari Adnondur.... Payg‘ambarimizning yuqoridagi otalari Ibrohim Xalilullohdir”.[2,14]

Fanda shajarani o‘rganish-“geneologiya”, ya’ni kishilarning kelib chiqishi, o‘tgan avlodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmuini anglatadi.

“Og‘zaki yoki yozma shaklda otadan bolaga o‘tib kelgan va har bir kishining etti otasidan boshlab, toki uning etmish etti otasigacha bo‘lgan otalarini bir-biriga bog‘lab, ketma-ketdikda, uzviylikda, birini ikkinchisidan keltirib chiqarib, shulardan o‘rgigan (tug‘ilgan), urchigan (ko‘paygan), unib-o‘sgan urpoq (avlod)larning og‘a-ini, qarindosh hamda eldoshlarning bir-biriga borib qo‘shilishiga va o‘sha otalardan birining nomi bilan, ba’zan laqab oti bilan, ba’zan tamg‘asining nomi bilan, ba’zan umumiy bir etnik nom bilan atalishiga ota shajara deyiladi.”[3,16]

Shajarani tuza olish, ya’ni “7 pusht” (farzand, nyevara, chyevara, yevara, duvara, ovora, begona)ni bilish- yoshlarda o‘z ajdodlari. sulolasi, ota-onasi bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantiradi. Bu tuyg‘u yoshlarda vatanparvarlik ruhini

shakllantirishning muhim omilidir. O‘z shajarasini bilgan yoshlarda xotira bo‘ladi. Xotirasi bo‘lgan yoshlar irodali bo‘lishadiva aslo turli yot yo‘llarga kirib ketib, vataniga, xalqiga xiyonat qilmaydi. Ayrim yoshlar, shajara u yoqda tursin, o‘z oilasidan naryog‘ini bilmaydi, pasportiga millati yozilgani uchun men shu millatning vakiliman, deydi. Shajarani bilishning ahamiyatini yanada teran tushunish uchun ma’rifatparvar, jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan etakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning quyidagi so‘zini keltirish joiz: “Qabilasining ismini va etti otasining otini bilmay turg‘onlarni qul-marquq derlar.” [4,194-195]

Demak, har bir kishi ota shajarasini bilishi va uni chuqur o‘rganishga intilishi kerak.

Tan olib aytishimiz kerak, shajaraning mohiyati, uning shakllari, tuzish metodikasi ishlab chiqilmagan, “O‘zbekiston tarixi”da ham bu katta masala 6-sinfda uygi vazifa sifatida berilgan, xolos. Ota-onalarda ham shajarani tuzish malakasi yo‘q, chunki ularga ham hech kim o‘rgatmagan.

Toshkentdagi Amir Temur tarixi muzeyida “Temuriylar shajarasi” mavjud, xuddi ana shu shajara namunasida sinfdagi barcha Bo’lajak o’qituvchilarga uyga topshiriq berib, bajarilishida amaliy yordam berish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil tadqiqotchi-muallif tomonidan sodda ishlab chiqilgan “Avlodlar shajarasi” ham har qanday oila tomonidan shajarani ishlab chiqishida amaliy yordam berishi mumkin. (1-ilova, “Abduraxmonovlar shajarasi”)

Oilaviy shajarani tuzishni ommalashtirishda OTMlarining tarix fani o‘qituvchilari tashabbuskor bo‘lishlari lozim, chunki tarix fani nafaqat davlatlar, balki insoniyatning kelib chiqishi, oilalarning paydo bo‘lish tarixini ham o‘rganadi.

Yuqorida farzandlarga vatanparvarlik ruhini singdirishda oilaning barcha a’zolari, ayniqsa ota-ona ma’rifatli bo‘lmog‘iga urg‘u bergan edik, shu o‘rinda mamlakatimizda oilaviy kitobxonlikni rivojlantirish va rag‘batlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlar juda o‘rinli. Bolalarga mamlakatimiz tarixi haqida badiiy adabiyotning ta’siri juda katta ekanligini qo‘yidagi xulosalarda anglashimiz mumkin:

-buyuk ajdodlarimizning boy va takrorlanmas merosidan bahramand bo‘linadi;

-milliy o‘zligini teran anglay olishi uchun zarur bilimga ega bo‘linadi;

-asrlar mobaynida millatimizga xos bo‘lgan mehnatsyevarlik, axloq-odob, jasurlik, qahramonlik, insonparvarlik, e’tiqod kabi qadriyatlar ongu-shuuriga tezroq singadi;

-qadimdan og‘a-ini bo‘lib yashayotgan turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, urf-odatlari, an’ana va udumlari to‘g‘risida badiiy ifodalangan tarixiy, ilmiy ma’lumotlarni olishga muvaffaq bo‘ladi.

Misol uchun, mustaqillikdan so‘ng Amir Temur va temuriylar tarixiga oid ko‘plab badiiy asarlar kitobxonlarga taqdim etildi, B.Ahmedovning “Amir Temur”, Muhammad Alining “Sarbadorlar”, Yunus O‘g‘uzning “Amir Temur”, frantsuz yozuvchisi Marsel Brionning “Menkim, Sohibqiron Amir Temur” badiiy asarlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, qahramonlik eposlarida turkiy xalqlarga xos qahramonlik, vatanparvarlikni aks ettirgan “Alpomish”, “Ravshan”, “Shiroq”, “Tumaris” kabi asarlar, qadimdan xalqlarimizning kundalik turmushida rioya qiladigan odob-axloqni ko‘rsatuvchi pandnoma ruhidagi “Saddi Iskandariy” “Qutadg‘u bilik” kabi asarlar Bo’lajak o’qituvchiga millatimizning buyuk o‘tmishi, merosi, turmush tarzi, o‘z vatani uchun jonini ham ayamagan ajdodlarimiz to‘g‘risida ta’sirli ma’lumot bera oladi. Bo’lajak o’qituvchilarga yoshlikdan aytilgan ertak va dostonlardagi obrazlar har bir bolaning jismonan baquvvat, botir, qo‘rqmas, shijoatli va eng muhimi o‘z Vatani va yurti uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lib ulg‘ayishida juda muhim omil hisoblanadi. To‘marisning: “Kimki dushman nayrangiga duchor bo‘lsa, halok bo‘ladi, kimki ona Vatan mehr-muhabbatini diliga tugib dushmanga qarshi mardonavor kurashsa g‘alaba qozonadi”, degan hayqirig‘iga mos ibratli g‘oyalar ajdodlarimiz yuragini zabt etgan. Shiroq o‘z jonidan kechib, Doroning katta qo‘shinini suvsiz sahroga etaklab, mag‘lub etadiki, buni tarix unutgan emas. Spitamen: “Sen Iskandarga qarshi mardona kurashga asos qo‘yding. Sening noming kelajak avlodlar uchun yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qiladi. Bir yildan so‘ng yuzta Spitamen chiqadi, o‘n yildan so‘ng Spitamen mingtaga etadi. Yuz yildan so‘ng o‘n minglab Spitamen bosh ko‘taradi. Sen tashlagan bitta urug‘dan ko‘plab, hadsiz hisobsiz nihollar tug‘iladi. Ular ham yangi hosil beradi va nihoyat, ertami-kechmi dushman munosib jazosini oladi. Buyuk ishlar bir zumda amalga oshib ketmaydi. Hujum qil! Kurash! Lozim bo‘lganda orqaga chekin. Ammo nima uchun kurashayotganiningni unutma.” [5, 156]

Tarixiy asarlarni o‘qigan, yoki bu haqda ota-onasidan, ustozidan eshitgan Bo’lajak o’qituvchi milliy qahramonlarimiz jasoratlarini bilib oladilar, o‘sha qahramonga o‘xshashni, ulardan ibrat olishni orzu qiladilar. Tarixiy-badiiy adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati ham ana shundadir.

Tadqiqotimiz mavzusi bo‘lgan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari haqida xalq pedagogikasining manbaalarida juda ko‘p misollar keltirilgan. Jumladan, namuna ko‘rsatish, tushuntirish, tilak-istak bildirish, undash,

ma’qullash, olqishlash, ta’qiqlash, koyish, ta’na (gina) qilish, qo‘rqitish, kaltaklash va hokazo. [6,87]

Ammo tadqiqotlarimizda Bo’lajak o’qituvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ibrat, ko‘rsatish, vaziyat orqali tarbiyalash, ma’qullash va maqtash, mukofotlash, munosabat orqali tarbiyalash kabi metodlar ko‘proq samara berdi.

Biz o‘rgangan vodiy viloyatlari oilalarida xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi bilan ko‘proq shug‘ullanishadi, shu qadriyatni bolalarga o‘rgatish avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Oilalarda o‘ymakorlik (ganch, mis va yog‘och o‘ymakorligi), zardo‘zlik, kulolchilik, milliy liboslar tikish kabi mashg‘ulotlar ham yosh avlod dunyoqarashini shakllantirmoqda.

Aholining turmush tarzi, o‘z-o‘zini himoya qila olishi xalq o‘yinlarida ham o‘z aksini topgan. Bolalarga ushbu o‘yinlarni o‘rgatish orqali jismoniy kuchli qilish bilan birgalikda metin irodali, o‘z kuchiga ishonish kabi malakalarni shakllantiramiz. Misol uchun, “Quvlamachoq”, “Bekinmachoq”, “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Chavandoz”, “Chillak”, “Chaqqonlar va merganlar” kabi o‘yinlar ularni kelgusida sergak, chaqqon va jangovar qilib tarbiyalashda muhim o‘rin egallaydi.

Xalqimizning kiyinish madaniyati, pazandalik, alla aytish san’ati, milliy kuylar va cholg‘u asboblaridan foydalanishi, kashta, do‘ppi, qiyiq tikish kabi urf-odatlari ham oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi.

Demak, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi kundagi pedagogika fani oldida turgan o‘ta muhim masaladir. Shu ma’noda O.Musurmonovaning ilmiy ishlari diqqatga sazovor, uning ta’kidlashicha “.... shaxsning ichki ma’naviy dunyosi- ma’naviy ehtiyoj, ma’naviy qiziqish, ma’naviy faoliyat va ma’naviy qadriyat kabi asosiy belgilar tizimidan iborat.”[7,112]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Маънавий ҳаёт” журнали, 2021, № 4 101-бет. “Чингиз Айтматов огоҳлантиради” мақоласи.

2. Алихонтўра Соғуний. “Тарихи Муҳаммадий” Тошкент, 2007, 14-бет.

3. Ўроқов Б. ва бошқалар. “Ўзбекнинг туркман-юз эли ва унинг шажараси” Гулистон, “Зиё”, 2011.-16 б.

4. Беҳбудий Маҳмудхўжа. Танланган асарлар. Т., 1999, 194-195-бет

5. Илёсов Явдат. “Суғдиёна” (тарихий роман). – Тошкент, “Шарқ” нашриёти, 1994. – Б.156.

6. Мавлонова Р. ва бошқ. “Педагогика”. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 2001.

7. Мусурмонова О. “Ўқувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш”. – Тошкент: “Фан”, 1993. – Б.112.

MAHALLA VA JAMOATCHILIKNING «VATAN TAYANCHI» HARAKATI ORQALI O'QUVCHI YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI O'RNI

Yarmatov Akbar Normurotovich-*Qoraqalpog'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari - "Vatan tayanchi" harakati bo'limi boshlig'i, podpolkovnik*

Pazlova Meruyert Yermekbayevna-*Nukus davlat pedagogika insitituti, Pedagogika kafedrasi professori v.b., pedagogika fanlari doktori*

Annotatsiya. Mahalla va jamoatchilikning «vatan tayanchi» harakati orqali yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ushbu harakat yoshlarning vatanparvarlik, milliy qadriyat va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'ta dolzarbligi, davlat siyosati markazida turganligi, bu borada olib borilayotgan islohotlarning muhim jihatlari hamda globallashuv jarayonida mahallalarda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning an'anaviy va zamonaviy usullari yoritilgan.

Tayanch iboralar: vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mahalla, jamoatchilik, davlat siyosati, yoshlar, islohot, yoshlar yetakchisi, axloq, an'anaviy va zamonaviy usullar, "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy vatanparvarlik harakati.

V state rassmotrenы aktualnost vospitaniya molodeji v duxe voyennogo patriotizma, vnimaniye k dannomu voprosu v gosudarstvennoy politike, vajnыe aspektы provodimыx v dannoy sfere reform, a takje traditsionnыe i sovremennыe sposobы formirovaniya u molodeji morali voyennogo patriotizma s uchetom sovremennogo protsessa globalizatsii, Detsko-yunosheskoye voyeno-patrioticheskoye dvijeniye "Vatan tayanchi".

Klyuchevыe slova: vospitaniye v duxe voyennogo patriotizma, gosudarstvennaya politika, molodej, reforma, strategiya deystviy, soyuz molodeji, voyenno-administrativnыy sektor, globalizatsiya, moral, traditsionnыe i sovremennыe sposobы, Detsko-yunosheskoye voyeno-patrioticheskoye dvijeniye "Vatan tayanchi".

This article explores issues of educating youth in the spirit of patriotism and it is essence in the state policy, significance of reforms being conducted in the state as well as traditional and modern ways of forming youth's military patriotic behavour. Children and youth military-patriotik movement "Vatan tayanchi".

Key words: educating in the spirit of patriotism, state policy, youth, reforms, Strategy directions, Youth's union, military-administrative sector, globalization, morale, traditional and modern methods, Children and youth military-patriotik movement "Vatan tayanchi".

Mahalla o‘zbek xalqining qadimiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Mahalla o‘zbek xalqining yashash tarzini namoyon etuvchi maskandir. Dunyoning hech bir mamlakatida o‘zbek mahallasi singari birorta ham ijtimoiy institut yoki fuqarolik jamiyatini topish mumkin emas. O’zbek mahallasi butun dunyo ahlini o‘ziga jalb etib, tarbiya o‘chog‘i sifatida qoyil qoldirib kelmoqda. O’zbek xalqi oilasi hayotidagi muhim masalalarni, to‘y-yu hashamlarni, ma’raka-yu marosimlarni, farzand tarbiyasidagi muammolarni mahalla oqsoqollari, faollari bilan birgalikda hal etib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida aholining keng qatlamlarini qo‘llab – quvvatlaydigan turli fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan, mahallalarning ham jadal yuksalish davri bo‘ldi. Mahallalarning bugungi kunda fuqarolarning dolzarb muammolarini hal etishda, ularning manfaatlarini himoya qilishda, aholi, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy – axloqiy tarbiyasi va joylarda jamoat tartibini saqlash masalalarida ijtimoiy hayotdagi o‘rni va hissasi kundan – kunga ortib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham hukumatimiz mahalla faoliyatining huquqiy bazasini takomillashtirish, uning samarali faoliyat yuritish mexanizmlarini va vakolatlarini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda.

Yurtimizdagi har bir fuqaro o‘zining kelajagini, eng avvalo, mahallasida ko‘radi. Bir ishni boshlamasdan oldin “Mahalla nima derkin?” degan savol ko‘pchilikni o‘ylantiradi. Mahallada yashayotgan har bir oila a’zosi o‘z oilasining yillar davomida misqollab yig‘gan obro‘sini mahallada saqlashga harakat qiladi, ya’ni mahallaning tarbiyaviy ta’siri boshqa ijtimoiy ta’sir choralaridan ustun turadi.

Xuddi shu narsalar ezgu ishlarni amalga oshirishga yetaklaydi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, mahalla – tarbiya beshigi hisoblanadi. Bugungi kunda mahallalarda yoshlar masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki, yoshlarga e’tibor – kelajakka e’tibordir. Yoshlarimizni ko‘z qorachig‘iday asrash, ularni insonparvarlik va saxovat ruhida tarbiyalash har birimizning burchimizdir. Yoshlarning ma’naviy-ruhiy jihatdan qayta qad rostlashining jo‘shqin o‘chog‘i bo‘lgan eng olijanob ma’nodagi mahalla, qo‘ni-qo‘shnichilik, o‘zaro yordamlashuvning ahamiyatini ko‘proq qadrlash maqsadga muvofiqdir.

“Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim. Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur. Bunday g‘oyat muhim vazifani amalga oshirishda biz avvalo ko‘pni ko‘rgan kayvoni onaxonlarimizga, mahalla faollariga, muhtaram faxriylarimizga, siz, aziz

opa-singillarimizning aql-zakovatingiz, bilim va tajribangizga tayanamiz” [1] deydilar Prezidentimiz.

Yoshlarni nafaqat tarbiyalash, ularni vatanparvar, harbiy vatanparvar qilib tarbiyalash bugungi kundagi eng dolzarb masala. Xush yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida Yangi O’zbekistonda qanday o‘zgarishlar bo‘lmoqda? Shu haqda fikr yuritamiz.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qullab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-6260-son Farmoni [2] ijrosini ta’minlash, yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizni hurmat qilish ruhida tarbiyalash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 mart kunidagi PQ-150 sonli “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Qarori [3] tasdiqlandi.

Ushbu qaror asosida joriy etilgan “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy - vatanparvarlik harakati o‘zining bugungi kunda barcha jabhada o‘ta dolzarb va muhimligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqoridagi qaror talablariga ko‘ra umumta’lim maktablarida tashkil etilgan “Vatan tayanchi” otryadlari rahbarlari (ChQBT o‘qituvchilari) maktab hududidagi mahalliy IIB profilaktik inspektorlari bilan hamkorlikda mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash maqsadida qisqa patrullik kuzatuv xizmatlarini tashkil etadilar.

Otryad rahbarlari profilaktika inspektorlari va mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi yoshlar yetakchilari bilan hamkorlik rejalarini ishlab chiqishlari mumkin.

Otryad a’zolari (otryadlarga 10-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida sinov asosida eng munosib bo‘lgan 20-nafargacha bo‘lgan yoshlar jalb etiladi) kuzatuv patrullik xizmatlarida tartib buzarlar bilan muloqot olib bormaydilar yoki tartib buzuvchilarni qo‘lga olish tadbirlarida ishtirok etmaydilar.

“Vatan tayanchi” patrullari profilaktik inspektorlariga mahalladagi tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda ko‘maklashadilar. Ularning taqsimoti va ko‘rsatmalari bilan aniq bir ob’ekt yoki xududni kuzatib, vaziyatni o‘rganib keladilar. Belgilangan vaqtda o‘z otryad rahbariga va profilaktika inspektorlariga belgilangan shaklda ma’lumot taqdim qiladilar.

Patrullik kuzatuv xizmatida otryadlar kichik guruhlarda, ikkilik, uchlik tarkibida jalb qilinadi.

Patrullik kuzatuv xizmati aholi yashash punktlarining joylashuvi va o‘ziga hosligidan kelib chiqib tashkillashtirilishi mumkin.

Otryad a’zolarini jinoiy guruhlar, qurollangan shaxslar aniqlangan ob’ektlarni kuzatish yoki maxsus tadbirlarga jalb qilish mumkin emas.

“Vatan tayanchi” otryadlari joriy etilgan umumta’lim maktablarining joylashuvi, aholi yashash punktlarining o‘ziga xosligini inobatga olgan holda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha to‘garaklarni tashkil etish maqsadga muvofiq:

- futbol; voleybol; tennis; shaxmat; regbi; vorkaut; kurash; boks; sharq yakka kurashlari; merganlik; parashyut sporti; velosport; chavandozlik; alpinizm; suzish va h.k.

O’quvchi yoshlarga har tomonlama ta’lim-tarbiya berish maqsadida umumta’lim maktablarda amaliy va texnik yo‘nalishdagi to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish. Jumladan,

a) amaliy yo‘nalishda:

- tasviriy san’at; yosh fotograf; yosh jurnalist; yosh tasvirchi; duradgorlik; naqqoshlik; chevarchilik; musiqa (xonanda va sozandachilik); kulolchilik; temirchilik; zargarlik va boshqalar.

b) texnik yo‘nalishda:

- Boshlang‘ich texnik modellashtirish; Yosh arxitektor; Avtomodel; Aviamodel; Raketamodel; Kemasozlik; Elektrotexnika; Robotatexnika va elektron o‘yinchoqlar; Kompyuter dizayni va grafikasi; Fotodizayn va boshqalar.

Shuningdek, otryad a’zolari otryad rahbari bilan hamkorlikda mahalliy fermerlar, bog‘bonlar, tadbirkorlar bilan uchrashuvlar tashkillashtirilib, fermerlik va tadbirkorlik sir-asrorlarini o‘rganadilar. Ularga amaliy yordam beradilar.

Bundan tashqari, mamlakatimizda an’anaviy tus olayotgan “Yashil makon” milliy dasturi doirasidagi tadbirlarda ham “Vatan tayanchi” harakati a’zolari eng faol va tashabbuskor bo‘lishlari shart.

Har bir otryad o‘z maktabi, mahallasi hududida alohida ajratilgan hududiga ega bo‘ladi. U hududga turli xil mevali va manzarali daraxtlar o‘tkazadilar, gullar ekib bog‘dorchilik to‘garaklarini tashkil qiladilar.

Shuningdek, otryadlar o‘z xududlari tabiatini, imkoniyatlarini, o‘ziga xosliklarini kengroq o‘rganish maqsadida geografik va topografik tadbirlarni tashkillashtiradilar. Otryad a’zolari o‘zlari yashab turgan hududlar xaritasini o‘qishni, imkoniyat va tabiiy boyliklarini bilishlari shart. Bu orqali unda o‘zi tug‘ilib o‘sayotgan zaminga muhabbat shakllanadi.

Otryadlar o‘z yo‘nalishlarida qanday ezgu amalni bajara olishi mumkinligiga aniqliklar kiritib, mahallalardagi muammolarni, otryad a’zolari kuchi bilan bartaraf qilish imkoni bor ishlarni, yordamga muhtoj keksalar yoki nogironlar kabi masalalarni belgilab olishi, kichik guruhlarga bo‘linib, ezgu amallarni bajarib, bu orqali otryad a’zolari olqish va duolar olib ruhiy kuch oladi.

Otryad a’zolari o‘zlarining mahallalarida mahalla faollari va aholi bilan biror buyuk sarkarda, Vatan ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan (mahallada yashab o‘tgan, ikkinchi jahon urushi qatnashchisi yoki boshqa yo‘nalishdagi) qaxramon, shu shahar, qishloq, mahalla tashkil etilishida fidoyi bo‘lib yashab o‘tgan hamshahar (qishloqdosh)lar haqida xotira va qadrlash daqiqasi tadbirlari o‘tkaziladi. Ularning qaxramonliklari yodga olinadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 mart kunidagi PQ-150 sonli “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi Qarori talablariga asosan yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida mahalla yettiligiga aniq va ravshan qilib vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni har bir mahalla hodimlari qunt bilan o‘rganib bajarilishi borasida aniq chora-tadbirlarni ko‘rsa yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizni hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishlari sifatli bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -Toshkent: “O’zbekiston”,2017. -B.349.

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 iyul kunidagi PF – 6260 sonli “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 mart kunidagi PQ-150 sonli “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA KREATIV FIKRLASH TUSHUNCHASINING TAHLILI

Abdrimov Inoyatbek Axmedovich-*O’zbekiston respublikasi Mudofaa vazirligi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi direktorining o’quv ishlari bo’yicha o’rinbosari.*

Annotatsiya: Ma’lumki, bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy munosabatlarida, ish faoliyatida kreativlik ko’nikmasiga zaruriyat ortib bormoqda. Ushbu muammoni avvalo boshlang’ich ta’limdan boshlab shakllantira boshlash samarali yechimga ega bo’lishning mahsulidir. Ushbu maqolada o’quvchilarda kreativlik qobilyati va kreativ fikrlashini rivojlantirishga doir ushbu tushunchalarning pedagogik va psixologik adabiyotlarda bayon qilingan ilmiy tahlili yoritib beriladi.

***Аннотация*:** Известно, что сегодня возрастает потребность в творческих способностях в социальных отношениях и трудовой деятельности общества. Если начать формулировать эту проблему с самого начала начального образования, это приведет к нахождению эффективного решения. В данной

статье освещен научный анализ этих концепций развития творческих способностей и творческого мышления учащихся, описанных в педагогической и психологической литературе.

Abstract: It is known that today the need for creativity skills in social relations and work activities of society is increasing. Starting to formulate this problem from the beginning of primary education is the product of having an effective solution. In this article, the scientific analysis of these concepts on the development of students' creativity and creative thinking, described in the pedagogical and psychological literature, is highlighted.

Kalit so'zlar: Kreativ fikrlash, abstrak fikrlash, sintez, taqqoslash, rivojlanish genezisi, diskursiv fikrlash, reproduktiv fikrlash, vizual-majoziy fikrlash, ratsionallik, antinomiya.

Ключевые слова: Творческое мышление, абстрактное мышление, синтез, сравнение, генезис развития, дискурсивное мышление, репродуктивное мышление, наглядно-образное мышление, рациональность, антиномия.

Key words: Creative thinking, abstract thinking, synthesis, comparison, genesis of development, discursive thinking, reproductive thinking, visual-figurative thinking, rationality, antinomy.

Kirish: Har qanday inson atrofdagi dunyoni idrok etishni va tushunishni xohlaydi. Tushunish - bu ob'ekt va hodisaning mohiyatini anglash, shuningdek ulardagi eng zarur narsalarni ko'rish demakdir. Aytishimiz mumkinki, tushunish fikrlash deb ataladigan eng murakkab kognitiv psixologik jarayondir.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning kreativ fikrlashini ko'rib chiqishdan oldin, fikrlash umuman psixologik jarayon sifatida nima ekanligini aniqlaymiz. Avvalo, fikrlash eng yuqori bilim jarayoni ekanligini ta'kidlaymiz. Fikrlash deganda mutlaqo yangi bilimlarni olish va mavjud bo'lgan g'oyalar va bilimlarni kreativ o'zgartirish tushuniladi. Bundan tashqari, fikrlashni inson tomonidan olingan mutlaqo yangi bilimlarni egallash deb tushunish kerak.

Maxsus aqliy jarayon sifatida fikrlash bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchi voqelikning umumlashtirilgan aksidir. Ikkinchi, bir xil darajada muhim-ob'ektiv voqelikni bilvosita bilish.

Fikrlashning navbatdagi eng muhim xarakterli xususiyati shundaki, fikrlash deyarli har doim bilish jarayonida yoki amaliy faoliyatda yuzaga keladigan ma'lum bir muammoni hal qilish bilan bog'liq. Fikrlash har doim javob fikrlashning maqsadi bo'lgan savoldan boshlanadi. Bundan tashqari, bu savolga javob darhol emas, balki ma'lum aqliy jarayonlar yordamida amalga oshadi. Fikrlashning juda muhim xususiyati nutq bilan uzviy bog'liqlikdir. Biz har doim

so'zlar bilan o'ylaymiz, ya'ni so'zlarni aytmasdan o'ylay olmaymiz. A. G. Maklakovning fikricha, "*fikrlash - bu voqelikni umumlashtirilgan aks ettirilgan va bilvosita bilish jarayonidir"* [12, 583 bet].

Boshqa mualliflar fikrlash orqali narsalarning mohiyatini tushunadigan g'oyalar harakatini tushunadilar. Fikrlashning natijasi tasvir emas, balki ba'zi bir g'oya va fikrdir.

Boshqa psixologik jarayonlardan farqli o'laroq, fikrlash ma'lum bir mantiq bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, fikrlash tuzilishida psixologlar bir qator mantiqiy jarayonlarni ajratib ko'rsatishadi: asosiy (sintez), taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirishni tahlil qilish. Tahlil jarayonini N. F. Talizina "*biror narsani qismlarga ajratish yoki ob'ektning individual xususiyatlarini aqliy ajratish*" deya tariflaydi. Ushbu jarayonning ma'nosi shundaki, ushbu jarayon yordamida biz biron bir ob'ekt yoki hodisani sezganimizda qismlarni aqliy ravishda ajratib olishimiz mumkin. Shuning uchun biz u yoki bu ob'ekt qaysi qismlardan iboratligini bilib olamiz. Aytishimiz mumkinki, tahlil kabi mantiqiy jarayon yordamida biz sezgan narsamizning tuzilishini bilib olamiz [10, 40 bet].

O'z navbatida, tadqiqotchi olimlar tahlil va sintez bir – birini to'ldirishini ta'kidlaydilar (*tahlil sintez orqali, sintez esa tahlil orqali amalga oshiriladi*). O'z ma'nosiga qarama-qarshi bo'lib, tahlil va sintez bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shunga ko'ra, ushbu mantiqiy jarayonlar ikkalasi ham har bir murakkab fikrlash jarayonida ishtirok etadi [5, 104 bet].

Analitik-sintetik faoliyat qobiliyati nafaqat u yoki bu ob'ektning elementlarini, uning turli xususiyatlarini ajratib ko'rsatish yoki elementlarni bir butunga birlashtirish qobiliyatida, balki ularni yangi aloqalarga kiritish, yangi funktsiyalarini ko'rish qobiliyatida ham namoyon bo'ladi.

Taqqoslash deganda ob'ekt, hodisa belgilari o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqni aniqlashni talab qiladigan aqliy harakatlarning mantiqiy usuli tushuniladi. Taqqoslash qobiliyatini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Taqqoslashni qabul qilish uchun quyidagi amallarni bajarish tavsiya etiladi:

- *ob'ektdagi belgilarni ajratib ko'rsatish;*
- *ob'ektlarning umumiy xususiyatlarini belgilash;*
- *taqqoslash uchun asoslarni ajratib ko'rsatish;*
- *ob'ektlarni ushbu asosda taqqoslash* [10, 96].

Mantiqiy taqqoslash jarayoni ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin: bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri. Agar biz ikkita ob'ekt yoki hodisani bir vaqtning o'zida idrok etish orqali solishtirish imkoniga ega bo'lsak, biz to'g'ridan-to'g'ri deb

ataladigan taqqoslashdan foydalanamiz. Keyin taqqoslash orqali taqqoslashni amalga oshirganimizda, biz bilvosita taqqoslashdan foydalanamiz [6, 208 bet].

Yana bir muhim mantiqiy jarayon - bu umumlashtirish, bu taqqoslash jarayoni natijalarini og'zaki shaklda taqdim etishni anglatadi. Abstraktsiya va umumlashtirish jarayonlari bir-biriga bog'liq deb ishoniladi. Aniqlashtirish abstraktsiyaga qarama-qarshi bo'lgan jarayonni anglatadi. Aynan shu mantiqiy jarayon umumiy narsaning namunasi yoki tasviri vazifasini bajaradi.

Fikrlashning uchta asosiy shakli mavjud:

- **tushuncha** (*asosan ob'ektlar va voqelik hodisalarining umumiy, muhim va xarakterli xususiyatlarini ifoda etadigan fikr*);
- **hukm** (*nafaqat bayonotni, balki ob'ektlar, hodisalar va xususiyatlarga oid har qanday pozitsiyani inkor etishni ham o'z ichiga olgan fikrlash jarayonining shak*li);
- **xulosa** (*ikki yoki undan ortiq hukmdan butunlay yangi hukmni, ya'ni natija yoki natijani keltirib chiqaradigan fikrlash jarayoni*) [3, 34 bet].

Xulosani hisobga olgan holda, odam asosan deduktiv va induktiv kabi xulosalardan foydalanadi deb aytishimiz mumkin. Induktiv asoslanadi fikrlash xususiydan umumiy hukmga, deduktiv esa umumiydan xususiyga.

Psixologiyada fikrlash turlarining quyidagi tasnifi quyidagi asoslarga ko'ra ajratiladi:

- **rivojlanish genezisi** (*vizual-samarali, vizual-majoziy, og'zaki-mantiqiy, mavhum-mantiqiy*);
- **hal qilinadigan vazifalar tabiati** (*nazariy, amaliy*);
- **batafsillik darajasi** (*munozarali, intuitiv*);
- **yangilik va o'ziga xoslik darajasi** (*reproduktiv va samarali fikrlash*) [13, 688 bet].

Vizual-samarali fikrlashning o'ziga xos xususiyati shundaki, fikrlash jarayoni haqiqiy narsalarga ega bo'lgan odam tomonidan amalga oshiriladigan amaliy transformatsion faoliyatdir. Ushbu turdagi fikrlash ishlab chiqarishda haqiqiy mehnat bilan shug'ullanadigan odamlarda rivojlangan.

Vizual-majoziy fikrlash deganda tasvirlar va tasvirlarga tayanish bilan tavsiflanadigan fikrlash turi tushuniladi. Aynan shu fikrlash turi amaliy faoliyatda yuzaga keladigan va yanada murakkab fikrlash turlarini shakllantirish uchun asos bo'lgan eng elementar hisoblanadi. Tushunchalar bilan mantiqiy jarayonlar yordamida amalga oshiriladigan fikrlash turi og'zaki mantiqiy deb ataladi.

Mavhum (abstract) - mantiqiy fikrlash - bu ob'ektning muhim aloqalari va xususiyatlarini ajratishga va ahamiyatsiz narsalardan chalg'itishga asoslangan fikrlash turi [4, 98 bet].

Nazariy fikrlash deganda nazariy xulosalarga asoslangan fikrlash turi tushuniladi. Nazariy fikrlash jarayonida qonunlar va qoidalar o'rganiladi.

Amaliy fikrlash-bu ko'p hollarda nazariy fikrlash bilan taqqoslanadigan fikrlash turi. Biroq, amaliy fikrlash maqsadlarni belgilash bilan bog'liq.

Diskursiv fikrlash - fikrlash mantig'i bilan bevosita bog'liq bo'lmagan fikrlash bilan tavsiflanadi. Shuningdek, fikrlashning bu turi vaqt o'tishi bilan rivojlanib boradi va mavzu tomonidan juda yaxshi tushunilgan bosqichlarga ega. Ushbu turdagi fikrlash intuitiv fikrlashning teskarisidir, chunki u vaqt o'tishi bilan minimallashtiriladi va bosqichlarga bo'linmaydi.

Reproduktiv fikrlash katta rol o'ynaydi, shuningdek past mahsuldorlik bilan belgilanadi. Ushbu turdagi fikrlash yordamida maktab o'quvchilari tuzilishi bilan ma'lum bo'lgan muammolarni hal qilishadi. Shuningdek, reproduktiv fikrlash nafaqat mutlaqo yangi materialni o'zlashtirishni, balki konvertatsiya talab qilinmasa, olingan bilimlarni amalda qo'llashni ham ta'minlaydi.

Samarali fikrlash kreativ deb ham ataladi. Samarali (kreativ) fikrlash deganda kreativ tasavvurga asoslangan fikrlash tushuniladi. Bu yuqori yangilik, uni olish jarayonining o'ziga xos xususiyati va intellektual shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi.

Munozara:

Kreativ fikrlash har doim ham fikrlash turlaridan biri bilan bog'liq emas. Psixologlar odam qanday qilib yangi, mutlaqo g'ayrioddiy vazifalarni hal qilishini aniqlash uchun ko'p vaqt va kuch sarfladilar. Hozirgi kunga qadar ijodning psixologik tabiati haqidagi savolga aniq javob yo'q. Psixologiya muammolarni hal qilish jarayonini tavsiflashga, aniq yechimni topishga yordam beradigan shartlarni tavsiflashga imkon beradigan ba'zi ma'lumotlarga ega. Kreativ fikrlashning asosiy xususiyati nafaqat paydo bo'lgan muammolarni tahlil qilish, balki tizimli munosabatlarni o'rnatish qobiliyatidir [1, 150 bet].

Mahalliy va xorijiy psixologlarning ta'kidlashicha, kreativlik ilmiy bilimlar predmeti sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega: nafaqat uni o'rganish jarayonida qiyinchilik, balki uni tavsiflashda ham qiyinchiliklar mavjud. Shunday qilib, xorijiy psixologiyada kreativ fikrlash "kreativlik" atamasi bilan bog'liq. XX asrda aql-idrok va muammo yuzaga kelgan vaziyatlarni hal qilishning muvaffaqiyati o'rtasidagi munosabatlarning etishmasligi to'g'risida ma'lumot ushbu fikrlash turini ajratib turadigan turtki bo'ldi. Shuning uchun muammoli vaziyatlarni hal qilishning muvaffaqiyati ushbu ma'lumotni vazifalarda juda tez sur'atlarda turli yo'llar bilan o'zlashtirish qobiliyatiga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, shunga o'xshash fikrlash turi, ijodkorlik sifatida, insonning aql-idrokidan alohida o'rganila boshlandi, bu butunlay yangi narsalarni yaratish yoki kashf qilishni anglatadi.

Ko'pgina psixologlarning fikriga ko'ra, kreativlik kreativ fikrlash sifatida qaraladi. Shuning uchun kreativ fikrlashni tavsiflovchi to'rtta parametr mavjud:

- *yengillik;*
- *moslashuvchanlik;*
- *o'ziga xoslik;*
- *yangi o‘zgacha g‘oyalarni ishlab chiqish* [8, 105 bet].

Kreativ fikrlash deganda bilimlarni yaratish, kashf etish va o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan fikrlash tushuniladi. Bularga tasavvur va boshqalar kiradi. Kreativ fikrlashni o'rganib, N. V. Drujinin shunday xulosaga keldi: "kreativ odamlar ko'pincha fikrlashning yetukligi, chuqur bilim-mulohazalari, turli xil qobiliyatlari va atrofdagi voqelikka, xulq-atvorga va xatti-harakatlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarini ajoyib tarzda birlashtiradilar" degan fikrini bildiradi [9, 656 bet].

Shunday qilib, kreativ fikrlashning quyidagi xarakterli qobiliyat xususiyatlarini mavjud:

- **Evristik** - naqshlar, xususiyatlar va munosabatlarni kashf qilishni talab qiladigan muammolarni hal qilish qobiliyati;
- **Ijodkorlik** - butunlay yangi usullarni shakllantirish qobiliyati;
- **Harakatchanlik** - bitta maqsad bilan birlashtirilgan muammolarni hal qilishga asoslangan mahorat;
- **Mustaqillik** - yangi bilimlarni olishga xalaqit beradigan an'analar va qarashlarga qarshi turish qobiliyati;
- **Ekspozitsiya** - o'rganilayotgan ob'ektning istiqbolini ko'rish, kelajakdagi holatni bashorat qilish, farazlarni taklif qilish qobiliyati;
- **Tizimlilik** - ob'ektni butun sifatida qamrab olish qobiliyati;
- **Ratsionallik** - eski bilim tizimini inkor etishga asoslangan mahorat;
- **Ochiqlik** - turli g'oyalarni qabul qilish va rad etish qobiliyati;
- **Antinomiya** - ob'ektning qarama-qarshi tomonlari yoki bir-birini istisno qiladigan ta'riflarining birligini ko'rish qobiliyati;
- **Umumlashtirish** qobiliyati.

Psixologlar, agar inson quyidagi mantiqiy jarayonlar guruhlarini bajarishga qodir bo'lsa, kreativ fikrlashga ega ekanligini isbotladilar: tizimlar va ularning elementlarini birlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, tadqiqot jarayonlarini bajarish.

Matematikada kreativ fikrlashning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:

- *matematik materialni rasmiylashtirish, muammoning rasmiy tuzilishini tushunish qobiliyati;*
- *miqdoriy va sifat munosabatlari sohasida mantiqiy fikrlash qobiliyati;*

- ❖ *matematik mulohazalar jarayonini va tegishli harakatlar tizimini takomillashtirish qobiliyati;*
- ❖ *matematik faoliyatda fikrlash jarayonlarining moslashuvchanligi;*
- ❖ *fikrlash jarayonining yo'nalishini tez va erkin qayta qurish qobiliyati;*
- ❖ *aniq, sodda, iqtisodiy va oqilona yechim topish qobiliyati;*
- ❖ *matematik xotira;*
- ❖ *aqliy qobiliyatlarning matematik yo'nalishi*.

Kreativ fikrlash quyidagi ahamiyatsiz tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: fikrlash jarayonlarining tezligi vaqtinchalik xususiyat sifatida, tez va aniq hisoblash qobiliyati, raqamlar va formulalarni yodlash, mavhum matematik munosabatlar va bog'liqliklarni vizual ko'rish qobiliyati.

Kreativ fikrlash har doim ham fikrlashning faqat bitta turi bilan bog'liq emas. Kreativ fikrlash jarayonida kognitiv faoliyatning o'zida motivatsiya, maqsadlar, baholash, ma'nolarga oid neoplazmalar paydo bo'ladi. Yana bir narsani aytishimiz mumkinki, kreativ fikrlash til bilan bog'liq.

Xulosa:

Shuni ta'kidlash kerakki, kreativ fikrlashni tavsiflovchi ko'rsatkichlar quyidagilar: ravonlik (tezlik), fikrning moslashuvchanligi va o'ziga xosligi. Ravonlik kabi ko'rsatkich kreativ fikrlashning fikrlash qulayligi va vazifaning aniqligi kabi tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Fikrlashning moslashuvchanligi deganda bir xil muammoni hal qilishning turli usullarini topish qobiliyati tushuniladi. Fikrlashning o'ziga xosligi-bu bir hil guruhga berilgan javobning minimal chastotasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. I.S.Khotamov, M.K.Olimov, G.R.Madrahimova,I.S.Foziljonov “Kreativ fikrlash”. Kredit-modul bo‘yicha (*O‘quv qo‘l-lanma*)./ T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. 192 bet.
2. Худойназаров, Э. М. (2022). Синфдан ташқари ишлар ўқувчилар мантиқий фикрлашини ривожлантириш омили сифатида: https://doi.org/10.53885/edinres 2022.8. 08.032
3. Khudoynazarov, E. (2023). Theoretical Foundations Of Growing Logical Thinking Of Elementary School Students. *International Bulletin of Engineering and Technology*, *3*(5), 33-37.
4. Madrakhimovich, K. E. (2023). Didactic Principles of Developing Logical Thinking in Students. *New Scientific Trends and Challenges*, 97-100.
5. Белошистая А.В., Левитес В.В. Развитие логического мышления младших школьников на основе использования специальной систем занятий: Монография / А.В. Белошистая, В.В. Левитес. – Мурманск: МГПУ, 2009. – 104 с.

6. Волков Б.С. Психология младшего школьника: уч. пособие / Б.С. Волков. – М.: Академический проект, 2005. – 208 с.

7. Виноградова И.П. Развитие мышления младших школьников в процессе решения нестандартных задач [Офиц. сайт]. URL: http://orenipk.ru/bank/Text/t31_11.htm (дата обращения: 13.02.2016).

8. Виноградова Т.И. Беглость, гибкость и оригинальность как основные компоненты в структуре креативности / Т.И. Виноградова // Научно-исследовательские публикации. – 2014. – № 4. – С. 104-108.

9. Дружинин В.Н. Психология общих способностей / В.Н Дружинин. – 2-е изд. – СПб.: Изд-во «Питер», 2009. – 656 с.

10. Талызина Н.Ф. Формирование познавательной деятельности учащихся / Н.Ф. Талызина. – М.: Знание, 2006. – 96 с.

11. Худойназаров, Э. М. (2020). Устные упражнения как основа формирования и развития деятельности математического мышления у учащихся начальных классов. *International scientific review*, (LXXI), 93-94.

12. Маклаков А.Г. Общая Психология: учебник для вузов / А.Г. Маклаков. – СПб.: Питер, 2008. – 583 с.

13. Немов Р.С. Психология / Р.С. Немов. – М.: Владос, 2003. – 688 с.

ANIQ FANLARNI O’QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Miskinov B. Yakubov O.B-*Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litsey o’qituvchisi*.

Rajapova A.M-*IIV Xorazm akademiklitseyi o’qituvchisi*

Annatatsiya: Mamlakatimiz ta’lim tizimida aniq fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb mavzudir. Axborot texnologiyalari - bu o'quvchilarga nafaqat bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni, balki shaxsiy fazilatlarni ham egallashga yordam beradigan va ularning bilimga bo'lgan qiziqishini qondirishga yordam beradigan butun dunyo bo'ylab ta'lim vositasidir. Ushbu maqolada aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so’zlar: Renessans, aniq fanlar, axborot texnologiyalari, zamonaviy ta’lim, rivojlanish, ta’lim tizimi, multimedia, kompyuter dasturlari, GeoGebra, Matlab.

Аннотатция: Эффективное использование информационных технологий при преподавании конкретных предметов в системе образования нашей страны является актуальным вопросом. Информационные технологии – это всемирный образовательный инструмент, помогающий учащимся приобретать не только знания, навыки и умения, но и личностные качества, а также удовлетворять их

любознательность. Эта статья посвящена использованию информационных технологий в преподавании конкретных предметов.

Ключевые слова: Возрождение, конкретные науки, информационные технологии, современное образование, развитие, образовательная система, мультимедиа, компьютерные программы, GeoGebra, Matlab.

Annotation: The effective use of information technologies in the teaching of specific subjects in the education system of our country is a topical issue. Information technology is a worldwide educational tool that helps students acquire not only knowledge, skills and abilities, but also personal qualities and helps them to satisfy their curiosity for knowledge. This article is about the use of information technology in teaching specific subjects.

Key words: Renaissance, exact sciences, information technologies, modern education, development, educational system, multimedia, computer programs, GeoGebra, Matlab.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo’yilgan hozirgi davrda Uchinchi renessans poydevorini yaratishga bel bog’lagan O’zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho merosini chuqur o’rganish va uni keng jamoatchilikka yetkazish masalalari ustuvor masalalardan biriga aylandi, chunki zamonaviy jahon sivilizatsiyasida ilm fanning o’rni beqiyos.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonimizda aniq va tabiiy fanlarning ahamiyati katta. Chunki bu ikki yo’nalish deyarli barcha sohalarni qamrab oladi. Aniq va tabiiy fanlar ilmiy tadqiqotlar, innovatsion texnikalar yordamida insoniyatga dunyoni anglash, uning qonuniyatlarini o’rganish va uning rivojlanishiga o’z hissasini qo’shishga imkon beradi. Bu fanlar yoshlarning Uchinchi Renessans davrida mustaqil va yetuk salohiyatli inson bo’lib yetishishiga imkon beradi.

Ilm-fan barcha sohalarda ham birdek jadallik bilan rivojlanyapti. Ayniqsa axborot texnologiyalarining rivojlanishi barcha sohalarning oldinga siljishiga yetarlicha ta’sir ko’rsatyapti. Axborot texnologiyalari aniq va tabiiy fanlarni o’qitishda ham o’zining muhim o’rniga ega. Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etishning asosiy maqsadi yangi turdagi ta’lim faoliyatining paydo bo’lishiga yordam berishdir. O’z faoliyatimizda ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, o’quv jarayonida ulardan foydalanish bo’yicha ma’lum bir tajribalarga ega bo’lib bormoqdamiz. Axborot texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish ta’lim sifatini va samaradorligini oshiradi, ta’limning yangi metodlarini va shakllarini amalga oshirishga imkon beradi.

Ta’lim berish jarayonida o’quvchining fikrlashini, tasavvurini rivojlantirishga yordam beradigan ko’plab aniq va tabiiy fanlarni o’rganishga mo’ljalangan

kompyuter dasturlari, multimedia ta’lim dasturlari, loyihalar yaratildi. Ta'lim dasturlarining keng ro'yxati mavjud, ammo qulayroq va qulayroq GeoGebra bepul matematik dasturi bo'lib, u geometriya, algebra, jadvallar, grafiklar, statistika va arifmetikani o'z ichiga oladi. GeoGebra oddiy figuralar yaratish, geometrik ko‘pyoqlamalar, aylanish jismlari va ularning kesimlarini qurish, funktsiyalarni qurish va ularning dinamik o‘zgarishlarini amalga oshirish imkonini beradi. Koordinatalar asboblar paneli yordamida ob'ektlarni chizish mumkin.

GeoGebradan foydalanish mumkin bo’lgan holatlar:

- parametrli chiziqli va kvadrat tenglamalarni yechish;

- tenglamalar sistemasini yechish;

- trigonometrik, logarifmik va modulli funksiyalarni ko’rish, tengsizliklarni yechish;

- funksiyalarning xossalarini tadqiq qilish;

- hosila tushunchasini o’rganish;

- tekislkda figuralar yasash;

- ko’pburchaklar perimetri va yuzasini hisoblash;

- hajmli figuralar va ularning kesimlarini qurish;

- ehtimollik va statistik xarakteristikalar hisob-kitoblari, shu jumladan ehtimollik taqsimoti natijalarini grafik shaklda taqdim etish xususiyati;

- kompyuter algebra tizimi (CAS) yordamida ramziy hisob-kitoblarni bajarish;

-elektron jadvallar bilan ishlash (murakkab statistik ma'lumotlarni yuritish, moliyaviy va boshqa hisob-kitoblar).

Matematikani o’rganishda bizga ko’plab imkoniyatlar beradigan yana bir dastur Matlab dasturidir. Matlabning 1-lahjasi 70-yillarning oxirlarida Nyu-Meksika va Stanford universitetida yozilib, matritsalar nazariyasi, chiziqli algebra, sonlar tahlili kursidan dars berish uchun qo’llanilgan.

Hozir tizimning imkoniyatlari keng darajada oshgan. Hozirda Matlab - bu muxandislik va ilmiy hisoblarning yuqori samarali tili. U matematik hisoblar, ilmiy grafikani vizuallashtirish va dasturlashni ta’minlaydi.

Matlab tizimi ko’proq qo’llaniladigan sohalar:

- matematika va hisoblash
- algoritmlarni qayta ishlash

- hisoblash eksperimenti, modellashtirish imitatsiyasi, maketlash
- berilganlarni tahlil qilish va natijalarni vizuallashtirish
- ilmiy va muhandislik grafikasi
- amaliyot dasturlarini qayta ishlash

Matlab - bu shunday interfaol (bevosita) tizimki, undagi asosiy ob'ekt bo'lgan massivning o'lchamlarini aniq yozish talab qilinmaydi. Bu esa juda ko'p hisoblashlarni(vektor, matritsa ko'rinishidagi) tez vaqtda echish imkonini beradi. Shuning uchun Matlabda xotirani dinamik taqsimlash evaziga C va Fortran tillaridagiga qaraganda amallar bajarish osonroq kechadi. Matlab tizimi bu ham amaliyot muhit, ham dasturlash tilidir. Tizimning eng kuchli tomonlaridan biri bu Matlab tilida ko'p marta foydalaniladigan dasturlar yozish mumkin.

Matlab tizimining yordam lahjasidan foydalanish mumkin va Adobe Acrobat yordamida PDF formatda chop qilish mumkin. Adobe Acrobat tahrirlovchisi matnni har xil shriftlarda, grafika va tasvirlar bilan kitobni o'qish imkonini beradi.

Agarda kompyuter Internet tarmog'iga ulangan bo'lsa, Matlab tizimi varag'iga chiqish mumkin.

Matlab tizimida amaliy dasturlar paketi mavjud:

- Notebook
- Symbolic Mathematics Toolbox
- Control Systems Toolbox
- Signal Processing Toolbox

Matlab tizimining dastur ta'minoti tarkibiga "tirik" kitob (MS Word tahrirlovchisi muhitidan) yaratish uchun yangi vosita qo'shilgan. Amaliy dasturlar paketi Notebook shunday vositadir. Amaliy dasturlar paketi Notebook muhitida yaratilgan hujjat M-kitob deb ataladi. M-kitobda matnlar, Matlab tizimi buyruqlari va ularning bajarilish natijalari joylashgan. M-kitobni yaratish yoki tahrirlashda Word tahrirlovchisi M-book maxsus shablonidan foydalanadi. Bu shablon Word tahrirlovchisi hujjatidan Matlab tizimiga kirish va uni formatlashni boshqarish imkonini beradi. Amaliy dasturlar paketi Notebook bilan ishlash uchun Word tahrirlovchisini yuklash kerak va yangi M-kitob ochish yoki mavjud M-kitobni tahrirlash kerak. Word tahrirlovchisi hujjatini M-kitobga aylantirish mumkin. M-kitobga matn kiritish Word tahrirlovchisida matn kiritishdan farq qilmaydi. Matlab tizimi buyruqlari va operatorlarini yozish uchun maxsus kataklardan foydalaniladi. Bu buyruq va operatorlarni matn ichida ham joylashtirish mumkin. M-kitob bilan ishlashda amaliy dasturlar paketi Notebookning quyidagi buyruqlaridan foydalanish mumkin:

- Define Input Cell (kiritish yacheykasini yaratish)
- Define AutoInit Cell (avtostart yacheykasini yaratish)

- Define Calc Zone (hisoblash zonasini yaratish)
- Undefine Cells (yacheykani matnga akslantirish)
- Purge Output Cells (chiqarish yacheykasini o’chirish)
- Group Cells (ko’p satrli kiritish yacheykasini yaratish)
- Ungroup Cells (yacheykalar guruhini kiritish yacheykasiga akslantirish)
- Hide/Show Cell Markers (yacheyka markerlarini yashirish/ko’rsatish)
- Toggle Graph Output for Cell (grafika chiqarishni ta’qiqlash/ruxsat berish)
- Evaluate Cell (yacheykani hisoblash)
- Evaluate Calc Zone (zonani hisoblash)
- Evaluate M-book (M-kitobni hisoblash)
- Evaluate Loop (kiritish yacheykasini takrorlashda hisoblash)
- Bring MATLAB to Front (Matlab buyruqlar darchasini 1-bo’lib ko’rinadigan holga keltirish)
- Notebook Options (M-kitobdagi hisoblash natijalarini terminalga chiqarishni boshqarish)

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatning ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib,

dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol

topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo

etamiz. -T., O'zbekiston: NMIU, 2016. B-14.

2. Aniq fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar – тема научной статьи по СМИ (медиа) и массовым коммуникациям читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке К
и
б
е
р
Л

4. Nasirova Sh.N., Maxmudova M.A. The importance of electronic education resources in the effectiveness of the lesson Electronic journal of actual problems of modern science, education and training december 2019-V ISSN 2181-9750, Urganch, № 5, 2019.-S.1-8.

3. GeoGebra rasmiy sayti https://www.geogebra.org/.

Algebralıq teńlemelerdi sheshiwdiń grafikalıq usılı

Kaipanov Askar Bazarbaeyevich-*Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi*

Annotatsiya: Parametrge baylanıslı teńlemelerdi sheshiwde grafikalıq usıldı qollanıw úlken rol oynaydı. Parametrge baylanıslı teńlemelerdi sheshiwdiń grafikalıq usılınıń mazmunı tómendegiden ibarat;

Berilgen teńleme x qa qarata sheshiledi hám $x=\varphi(a)$ funkciyanıń xoa tegisligindegi grafigi sızıladı yamasa bul teńleme a parametrge qarata sheshiledi hám $a=\psi(x)$ funkciyanıń aox koordinatalar tegisligindegi grafigi sızıladı. Sońınan, teńlemeni sızılǵan grafikke qarata izertleymiz.

Parametrli teńlemelerdi sheshiwdiń grafikalıq usılı sheshimdi anaǵurlım kórgizbeli, barlıq múmkinshiliklerdi tolıǵıraq qamtıwǵa imkaniyat jaratadı. Bunda teńlemeni sheshiw barısında payda bolatuǵın barlıq jaǵdaylar hám artıqsha sheshimlerge alıp keletuǵın, ulıwma sheshimge iye bolmaytuǵın jaǵdaylardı shıǵarıp taslaw imkaniyatı payda boladı.

Klyuch sózler: Teńleme, teńsizlik, modul, ózgeriwshi, grafik, sheshim, koordinata.

Mısal 1.

$$\left(a^2-5a+6\right)x=a^2-4 \qquad (1)$$


Teńlemeni sheshiń hám a parametrdiń qanday mánislerinde:

a) oń korenlerge b) teris korenlerge, v) nolge teń korenge g) sheksiz kóp sheshimge d) sheshimge iye emesligin anıqlań.

Sheshiliwi: (1) teńlemeni

$(a-3)(a-2)x=(a-2)(a+2)$ kórinisinde túrlendireyik; Eger $a=2$ bolsa, $-1\cdot 0\cdot x=0\cdot 4 \Rightarrow x$ qálegen ekenligine iye bolamız.

Eger $a \neq 3$ hám $a \neq 2$ bolsa, $x = \dfrac{(a+2)(a-2)}{(a-3)(a-2)} = \dfrac{a+2}{a-3} = 1 + \dfrac{5}{a-3}$



Juwabı:

$a < -2, \quad a > 3$ oń korenlerge

$-2 < a < 3$ te teris korenlerge

$a = -2$ de nolge teń korenge


$a = 2$ sheksiz kóp sheshimge

$a = 3$ te sheshimge iye emes.

Mısal 2. $\sqrt{a + \sqrt{a + x}} = x$ parametrli teńlemeni sheshiń.

Sheshiliwi: Haqıyqıy mánisleri oblastı $x \geq 0$. Berilgen teńleme $f(f(x)) = x$ kóriniske iye, bunda $f(x) = \sqrt{a + x}$ qatań ósiwshi funkciya. Demek berilgen teńleme $f(x) = x; \quad \sqrt{x + a} = x$ teńlemege teń kúshli. Endi berilgen funkciyanıń grafigin

jasayıq:



1) $a = -x$

2) $a = x^2 - x$

$x^2 - x = 0 \quad x(x-1) = 0$

$x_1 = 0 \;\; x_2 = 1$

Endi parabola menen tuwrı sızıqtıń kesilisiw noqatların tabıw ushın $x^2 - x = -x \Leftrightarrow x = 0$ teńlemeni sheshemiz. Demek, tuwrı hám parabola tek (0,0) bir noqatta kesilisedi.

Juwabı: $a = -\frac{1}{4}$ te $x = \frac{1}{2}$ 1 korenge iye.

$-\frac{1}{4} < a \le 0$ de $x = \frac{1 \pm \sqrt{1+4a}}{2}$ 2 korenge

$a > 0$ de $x = \frac{1+\sqrt{1+4a}}{2} > 0$ 1 korenge

$a < -\frac{1}{4}$ te sheshimge iye emes.

Mısal 3. $x^2 + x + a - 2 = 0$ teńleme.


1) a parametrdiń qanday mánislerinde haqıyqıy korenlerge iye

2) a parametrdiń qanday mánislerinde haqıyqıy hár qıylı belgidegi korenlerge iye.

3) a parametrdiń qanday mánislerinde $|x| \le 2$ intervalda teńlemeniń tek 1 koreni jaylasqan.

Sheshiliwi: (2) teńlemeden a parametrin anıqlaymız: $a = -x^2 - x + 2$ hám $a(x)$ funkciyanıń grafigin jasaymız.

$D > 0 \quad x_1 = -2, \quad x_2 = 1, \; A\left(-\frac{1}{2}, \; \frac{9}{4}\right)$



Juwabı: 1) $a < \frac{9}{4}$ te haqıyqıy korenlerge iye.

2) $a < 2$ korenleri hár qıylı belgide .

3) $-4 \le a < 0, \quad a = \frac{9}{4}$ te tek 1 koreni ǵana $|x| \le 2$ intervalda jaylasqan.

Ádebiyatlar

1. Abduhamidov A.U. va boshq. Algebra va matematik analiz asoslari, I, II-qism.-T.: O'qituvchi.-2010.
2. Aleksandrov B.İ. i dr. Posobie po matematike dlya postupayushix v vuzı.-M.: Izd. Moskovskogo un-ta, 1972.
3. Galitskiy M.L., Moshkovich M.M., Shvartsburd S.İ. Algebra va matematik analiz kursini chuqur o`rganish.-T.: Óqituvchi, 1995.
4. Gornshteyn P.I., Polonskiy V.B. Yakir M.S. Zadachi s parametrami, M. 1998.
5. Evseeva A.I. Uravneniya s parametrami // Matematika v shkole, 2003, №7.
6. Epifanova T.N. Graficheskie metodı resheniya zadach s parametrami // Matematika v shkole, 2003.
7. Zavalo S.T. Uravneniya i neravenstva, Kiev.-1973..
8. Kojuxova S.A., Kojuxov S.K. Svoystva funktsiy v zadachax s parametrom // Matematika v shkole, 2003.
9. Litvinenko V.N., Mordkovich A.G. Praktikum po elementarnoy matematike. Algebra. Trigonometriya. –M.: Prosveshenie, 1991.
10. Markov V.K. Metod koordinat i zadachi s parametrami.-M: Izd. MGU, 1970.
11. www.ziyonet.uz
12. www.referat.arxiv.uz
13. www.pedagog.uz

BIOLOGIYA SHÍNÍĞÍWLARÍNDA VIRTUAL LABORATORIYA DÁSTÚRLERINEN PAYDALANÍW METODIKASÍ.

Rametullaeva Venera Karimollaevna-*Nókis "Temurbekler mektebi" áskeriy-akademiyaliq liceyi biologiya páni oqıtıwshısı*

Omarova Dilnaz Boranbaevna-*Nókis "Temurbekler mektebi" áskeriy-akademiyaliq liceyi biologiya páni laboranti*

Annotaciya : Zamanagóy tálim sistemasında virtual laboratoriyalardan paydalanıw ózlestiriwde joqarı nátiyje beredi. virtual laboratoriya jumısları arnawlı kompyuter programmaları bolıp, qandayda bir process yaki obyektni modellerin monıtorda yamasa noutbukda kóriw múmkinshiligin beredi. Ulıwma bilim beriw mektepleri ushın biologiya páni boyınsha virtual laboratoriyadan paydalanıw oqıwshılar ózlestiriw natiyjeliligi asıwına alıp keledi.

Tayanısh sózlar:AKT, virtual laboratoriya, programma, elektron mazmunı, mikroskop, lupa, mikropreparatlar, reaktivler.

Respublikamızda zamanagóy informacion-texnologiyalari hám kommunikatsiyaların jaratıw, elektron mámleket xızmetlerin kórsetiwdiń pútin sistemasın islep shıǵıw, mámleket shólkemleriniń xalıq menen baylanıs etiwiniń jańa mexanizmine ótiw, mektep, orta arnawlı hám joqarı tálimdi elektron oqıw qurallar menen támiyinlew ushın jetilisken programmalıq támiynatqa bolǵan mútájlik asıp barıp atır. Cifrlı texnologiyalar turmısımızdıń barlıq iskerlik tarawılarına izbe-iz kirip baratırǵan bir waqıtta bir ǵana tálim salasın kompyuterlestiriw hám avtomatlastırıw, basqarıwda informaciya texnologiyalarınan paydalanıw boyınsha salmaqlı jumıslar ámelge asırılıp atır. Atap aytqanda, tálim mákemeleriniń oqıw laboratoriya hám texnikalıq úskeneler, kompyuterler, multimedialı elektron resurslar, elektron sabaqlıqlar hám oqıw qóllanbaları menen támiyinlengenligi, sol menen birge, tálim sistemasında immersiv texnologiyalar, zamanagóy interaktiv tálim ortalıǵı engizillıgi buǵan ayqın mısal bóle aladı. [1, 43-b.].

Virtual laboratoriyalardan paydalanıw tómendegi jaǵdaylarda zárúr boladı:

laboratoriya shınıǵıwların ótkeriw ushın kerek bolatuǵın ;

materiallar, reaktivler hám úskeneler jeterli bolmaǵan sharayat;

aralıqtan oqıtıwdı ámelge asırıwda, sonıń menen birge, ilimiy jumıs jurtıshda.

Tábiyiy pánlerden virtual tájiriybeler, virtual laboratoriya jumısları tálimdiń perspektivalı baǵdarı bolıp, studentler hám oqıtıwshılar itibarın tábiy ózine tartadı. virtual laboratoriyalardı oqıw ámeliyatına engiziwdiń zárúriyatı, tálimdi nomerlestiriw sharayatında búgingi dáwir talabı esaplanadı. Oqıw processlerinde kompetentlilikka tiykarlanǵan jantasıwdı ámelge asırıw tálimdiń ámeldegi standartları oqıw processinde shınıǵıwlardı ótkeriwdiń aktiv hám ınteraktiv formaların, sonday-aq kompyuter simulyatsiyalarini, auditoriyadan tısqarı jumıslar menen birgelikte keń qóllawdı názerde tutadı hám studentlerdiń kásiplik pedagogikalıq iskerlikke tayarlawda zárúrli áhmiyetke iye boladı.

“Virtual laboratoriya jumısı" termini ele basqa túsinikler, atap aytqanda, tábiyiy pánlerdi oqıtıwda virtual laboratoriya túsinigi hám virtual tájiriybe menen baylanıslılıǵın anıq ańlatiwshı tiykarlanǵan atamanı almaǵan. [2].

Dubovikova Z. N. virtual laboratoriyalardı qóllaw boyınsha tómendegishe kassifikatsiyani usınıs etedi:-demonstratsion qóllaw (real isten aldın) -real orınlanıwıkerak bolatuǵın jumıstı úlken ekranda proyektor járdeminde kórsetiw;-ulıwmalastırıw ushın qóllaw (real istenso'ng) frontal (demostratsiya arqalı nátiyjelerdi anıqlawtırıw, juwmaqlardı qáliplestiriw hám bekkemlew), yaki individual (eksperimentning matematikalıq tárepi, grafiklardı analiz qılıw, sanlar áhmiyeti, alınǵan nátiyjelerdi real turmısqa salıstırıw) rejimlerde;-eksperimental

qóllaw (real jumıs ornında) -individual (kishi gruppalarda) tapsırmalardı real atqarmastán virtual atqaradı hám kompyuterde eksperiment ótkeredi [3].

Virtual laboratoriyanıń birinshi bet áynegi: Úlkenlashtirib kórsetiwshi ásbaplar vao'simlik toqımasınan waqtınshalıq preparat tayarlaw.

Maqset. Lupa hám mikroskop dúzilisi menen tanısıw, islewdi úyreniw, ósimlik shólkemlerinen waqtınsha preparat tayarlaw kónlikpesin qáliplestiriw. 1.Úlkeytip kórsetiwshi ásbaplar

Jumıs baǵdarı :1. Úlkenlestiriwshi ásbaplardı kórip shıǵıw.

2. Lupanı dúzilisin úyreniw.

3. Mikroskop menen islew qaǵıydaları menen tanısıp shıǵıw.

4. Mikroskoptı jaqsılap úyrenip shıǵıw hám onıń optikalıq hám mexanik bólimlerin tabıw.

2. Ósimlik toqımasınan waqtınshalıq preparat tayarlaw.

Jumıstıń barıwı : Ósimlik toqımaların, olardıń kletkalıq dúzilisin úyreniw ushın hár qıylı preparatlar tayarlanadı. Qoplovchi toqımanı úyreniwde tradiskansiya bargidan paydalanıladı. Onıń ushın japıraq juwıladı, buyım aynashasın tazalap ústine bir tamshı suw tamızıladı. Japıraq astından skalpel járdeminde juqa etip kesindi alınadı hám priproval iyne járdeminde buyım aynekshesınıń suw tamızılǵan ayına qoyılıp qaplawshı ayna jawıp mikroskopda kóriledi. Tap sonday preparat tayarlab kartoshka tuganagi yamasa ivitilgan biyday dáninentoplawshı toqımanı, almurt yamasa biyi miywesiniń eti (mezokarp) den alıp kletkaların kóriw múmkin. [4]

Ádebiyatlar

1.Ergasheva G.S., Umarova M.N. The use of digital educational technologies in biology lessons // The modern vector of the development of science Proceedings of the IV International Scientific and Practical Conference 13-14 April 2023. -Philadelphia, USA. 110 p. –pp. 43-45.

2.Гавронская Й.Й., Оксенчук В.В. методика создания виртуалных лабораторних работ по химии // Современные проблемы науки и бразований. –2015. –No 2-2.;URL:https://science-education.ru/ru/article/view?id=22290

3.Дубовикова З.И., Использование виртуальных лабораторных работ по биологии в условиях реализации ФГОС ООО, февраль 2020 год //

4. BIOLOGIYA MASHG‘ULOTLARIDA VIRTUAL LABORATORIYA DASTURLARIDANFOYDALANISH METODIKASI

Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversiteti professori,

INTERFERON INDUKSIYA BO`LISHIDA ORGANIZMNING GIPOREAKTIVLIK HOLATI

Namozov Orif Mardonovich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

Rametullaeva Venera Karimollaevana

Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi biologiya fani o‘qituvchisi

Rezyume. Organizmni giporeaktivlik holatidan chiqarish orqali endogen interferon sintez bo`lishini regulyatsiya qilish, induktorning qisqa muddatli ta’sir etishining oldini olish va natijada endogen interferonning uzoq muddatli hosil bo`lishiga erishish mumkinligi o`rganilgan.

Kalit so‘zlar: gossiol, megosin, megoferon, rometin, gozalidon, interferon induktori, hujayra kulturasi, giporeaktivlik (refrakterlik), kombinatsiya.

O‘simliklardan ajratib olingan yangi moddalar yoki ular asosida sintez qilingan hosilalarning virusli kasalliklarga qarshi biologik faolligini, shu moddalarning organizmda endogen interferon sintezini induksiya qilishi orqali aniqlash, shuningdek, turli hujayralarning viruslarga qarshi rezistentligini organizmga moddani turli usullar bilan kiritish orqali kuchaytirish kabi qonuniyatlarni tajriba yo`li bilan aniqlash katta ahamiyatga ega bo`lmoqda. Virusli infeksiyalarga qarshi dorivor moddalar qo`llanilishi natijasida organizmning viruslarga qarshi kurashish faolligi oshadi [1, 2].

Hozirgi paytda interferonning bir necha yuzlab turli-tuman kimyoviy tuzilishga ega bo`lgan induktorlari ma'lum. Ular yuqori va quyi molekulyar tabiiy va sintetik birikmalardan iboratdir. Bu moddalarning barchasi umumiy biokimyoviy xossaga ega bo`lib, hujayra kulturasida va tirik organizmda interferon hosil qila olishga moyilligi bor. Ko`plab quyi molekulyar induktorlarning biologik faolligi va kimyoviy tuzilishi orasida o`zaro bog`liqlik borligi va shuningdek, bu bog`liqlik hozirgacha to`liq aniqlanmaganligi olimlarda katta qiziqish uyg`otmoqda. Tabiiy va sintetik kimyoviy moddalar o`zlarining endogen interferon induksiya qila olish xossasini namoyon qilishi bilan davolashda keng qo`llashga yaroqli bo`lgan preparatlarga aylanishi mumkin.

Diqqatni ko`proq, o`simliklardan ajratib olingan quyi molekulyar birikmalar o`ziga tortmoqda [1]. Chunki, bunday moddalar boshqa turdagi kimyoviy birikmalardan, kelib chiqishining tabiiyligi, antigen faolligi yo`qligi, ma’lum kimyoviy tuzilishga ega bo`lib, biologik faolligi bilan kimyoviy tuzilishi orasidagi o`zaro bog`liqlikni aniqlash imkoni borligi va shunday qilib, tirik organizm uchun zaharliligi kam, interferon sintezini induksiya qilishda yuqori faollikka ega bo`lgan, viruslarga qarshi faollikni namoyon eta oladigan yangidan-yangi induktorlarni yaratishda maqsadga muvofiqligi bilan ajralib turadi. Bunday

induktorlar endogen interferon sintezini induksiya qila olishi bilan virusli va bakteriyali kasalliklarni davolashga nomzod dorivor moddalar hisoblanadi [3].

Tibbiy davolashda ishlatish uchun o`simliklardan ajratib olingan moddalar orasida quyi molekulyar polifenollar va ularning hosilalari bilan bir qatorda glisirrizin kislotaning hosilalari ham istiqbolli preparatlar bo`lib hisoblanadi [4, 5]. Ko`p sonli o`simlik moddalari orasidan alohida e'tiborga ega bo`lgani ─ polifenollar, ya'ni Gossipol hosilalari va shunga o`xshash birikmalar bo`lib, ular noyob kimyoviy tuzilishga egaligi, funksional guruhlarining ko`p (polifunksional)ligi, toutomer holatlarga oson o`ta olishi va yuqori darajada reaksiyaga kirishuvchanligi, keng doirada: saraton kasalligida va viruslarga qarshi immunitetni modullovchi hamda shu kabi boshqa biologik ta'sirlar ko`rsatishda faollikka ega bo`lishini ta'minlaydi [6, 7].

Rometin preparati – Megosinning N–polivinilpirrolidon (PVP) (molekulyar massasi 8000±2000) bilan hosil qilgan kompleksi [8] hamda Megoferon, ya'ni Megosinning glitsirrizin kislota bilan hosil qilgan kompleksining interferon sintezini induksiya qilish faolligi (titri) tajriba hayvonlari organizmida, oldindan ma'lum bo`lgan Gossipol va Megosin moddalariga nisbatan taqqoslab o`rganildi (1- jadval).

1- jadval

Tanlab olingan moddalarining asos va nazorat moddalarga nisbatan fizikaviy, kimyoviy xossalari va biologik faolligidagi farqi

Modda nomi (shifri)	**Tarkibi**	**Molekulyar tavsifi**	**Interferon faolligi, bk/ml**	**Suvda eruvchanligi**
Gossipol (asos modda)	2,2'-bis-(1,6,7-trigidroksi-3-metil-5-izopropil-8-formil)-naftalin	Quyi molekulyar	16─32	Amalda erimaydi
Megosin (nazorat modda)	2,2'-bis-(1,6,7-trigidroksi-3-metil-5-izopropil-8-metiniminoetan-sulfat-natriy)-naftalin		64─128	Kam eriydi
Megoferon	2,2'-bis-(1,6,7-trigidroksi-3-metil-5-izopropil-8-		512─1024	Yaxshi eriydi

(hosila modda)	metiniminoetan-sulfat-natriy)-naftalinning glisirrizin kislota bilan hosil qilgan kompleksi			
Rometin (hosila modda)	2,2'-bis-(1,6,7-trigidroksi-3-metil-5-izopropil-8-metiniminoetan-sulfat-natriy)-naftalinning N–polivinilpirrolidon bilan hosil qilgan kompleksi	Yuqori molekulyar	1024	Yaxshi eriydi

Gossipolning suvda eruvchanligi yaxshilangan hosilalari – Rometin va Megoferon preparatlari Gossipol preparatiga nisbatan interferon sintezini yuqori darajada (512─1024 yed/ml gacha) induksiya qilishi tajribada isbotlandi.

Preparatlarning faollik ketma-ketligini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

Gossipol < Megosin < Rometin < Megoferon.

Induktorlarni tibbiy amaliyotda qo`llashdagi cheklanishlardan biri organizmning ma'lum induktorga nisbatan giporeaktivlik (refrakterlik) holati yuzaga kelishi, ya'ni organizmga yoki hujayra kulturasiga preparatni takroran berishga javoban interferonning kam miqdorda hosil bo`lishi bilan tavsiflanadi [9, 10, 11].

ADABIYOTLAR

1. Ершов Ф.И. ─ «Противовирусные средства». //«Клиническая фармакология и терапия», Москва, 1995, Т.4, №4, С.72─75.

2. Масычева В.И., Даниленко Е.Д., Игнатьев Г.М. и др. «Особенности формирования противовирусной устойчивости при местном применении индуктора интерферона Ридостина». //«Вопросы вирусологии», 1997, №3, С.126─128.

3. Ершов Ф.И., Сайиткулов А.М., Тазулахова Э.Б., Асланова Д.Х. «Растительные вещества ─ активные индукторы интерферона». //В сб.: «Интерферон─89», Москва, 1989, С.37─42.

4. Исмаилов А.И., Барам Н.И., Зияев Х.Л. и др. ─ «Таблетки Гозалидона, обладающий антихламидийным действием». //Патент. Приоритет. № 9900355.1 полож. реш. от 13.03.2001.

5. Сайиткулов А.М., Виноград Н.А., Зияев Х.Л. и др. ─ «Индуктор интерферона на основе Госсипола». //В сб.: «Интерферон─92», Москва, 1992, С.149─153.

6. Дидковский Н.А., Малашенкова И.К., Тазулахова Э.Б. ─ «Индукторы интерферона ─ новый перспективный класс иммуномодуляторов». //«Аллергология», 1998, №4, С.26─32.

7. Ершов Ф.И., Тазулахова Э.Б.─ «Индукторы интерферона ─ новое поколение иммуномодуляторов». //«Вестник Российской Академии медицинских наук», 1999, №4, С.52─56.

8. Режепов К.Ж., Казанцева Д.С., Эрматов А.М., Намазов О.М. и др. ─ «Фенольные соединения: фундаментальные и прикладные аспекты». //«Материалы IX Международного симпозиума», Москва, 2015, С.636–638.

9. Тазулахова Э.Б., Сайиткулов А.М., Ершов Ф.И. ─ «Возможности преоделения гипореактивности к индукции интерферона». //«Вопросы вирусологии», 1983, №3, С.334─336.

10. Фам Дык Мань, Сайиткулов А.М., Жураева У.М. ─ «Противовирусная активность растительных индукторов интерферона при экспериментальной гриппозной инфекции». //«Истеъдод», Ташкент, 1998, №8, С.36─37.

11. Фам Дык Мань ─ «Закономерности продукции интерферона при использовании индукторов растительной природы». //«Клиническая и теоретическая медицина Узбекистана», Ташкент, 2000, №1, С.52─55.

ELEKTRODINAMIKA BO‘LIMINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB O‘QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent
“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi fizika fani
*yetakchi o‘qituvchisi-**Boltaboyeva Rayxan Ismailovna*** boltaboyevarayxan77@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada harbiy-akademik litseylarda fizikaning elektrodinamika bo‘limini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: masala, integrativ texnologiya, arifmetik usul, algebraik usul, grafik usul, aralash usul.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan pedagogik soha mutaxassis-larining fikricha “Zamonaviy pedagogik texnologiya” - bu o‘quvchilarni o‘qitish, o‘rgatish va ularni har tomonlama rivojlantirish qonun-qoidalarini o‘z ichiga olgan pedagogik tadbirlar tizimidan iborat. [1.5]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ta’limni texnologiyalashtirish asosini, ta’lim oluvchilarni, uning samaradorligini oshirish va ta’lim oluvchilarni berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida

loyihalashtirilayotgan o‘quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to‘liq boshqarish g‘oyasini tashkil etishdir.

Ta’lim amaliyotida “Zamonaviy pedagogik texnologiya” 3 ta ko‘rinishdagi tayanch mazmunidan iborat:

1. *Umumiy pedagogik mazmun.* Bu ko‘rinish ta’lim muassasadagi ta’lim-tarbiya mezoni bilan chambarchas bog‘liq;

2. Xususiy uslubiy mazmun. Bu o‘quvchi tomonidan aniq bir mavzu uchun tanlab olingan usul va didaktik vositalar majmuasidan iborat bo‘lib, shu orqali ta’lim bosqichlari tizimga solinadi;

3. Modulli texnologik mazmun. Berilgan ta’lim mazmuni qismlarini alohida texnologiyalashtiriladi va qo‘yilgan maqsadga erishiladi.[2.24]

O‘qituvchining darsda ilg‘or pedagogik texnologiyani joriy qilishdagi bosqichlari quyidagicha:

- ta’lim oluvchilarga bo‘lajak faoliyatning maqsadlarini qo‘yish va tushuntirish;
- o ‘qitishning tanlangan usullari, vositalari va shakllarini qo‘llash;
- ta’lim oluvchilar faoliyatini rag‘batlantirishning turli choralarini ko‘rish;
- o‘qitish jarayonlarining sifatini nazorat qilish va baholash, ularni tahlil qilish va korreksiya qilish.

O‘qitish texnologiyasini joriy qilish va amalga oshirish jarayonida, pedagogik tizimning barcha komponentlarini ularning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro belgilanganligi albatta mavjudligi, o‘quv jarayoni qatnashchilarining psixologik shaxsiy va individual xususiyatlarini albatta hisobga olish va boshqa kabi omillarni hisobga olish kerak.

Shu o‘rinda biz innovatsiya va interfaol so‘zlarining ma’nosini ochib ketsak. Innovatsiya – ta’lim tizimidagi har qanday yangilik. Ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o‘zlashtirishi, qo‘llashi. Interfaol (inter – lotincha – o‘zaro) o‘zaro faol, ya’ni o‘qituvchi bilan o‘quchining faol munosabati, idrok etishi, to‘liq tushunishi. Innovatsiya – bu yangilikni kiritish, qo‘llash degan ma’noni anglatadi.[1.10]

Har bir dars uchun mos keladigan metodlarni tanlash, shubhasiz, o‘qituvchidan katta mahorat, ijodiy yondashuv, tajriba va metodik bilim talab qiladi. Qo‘llanilayotgan metod o’quvchilarning teran mushohada qilishi, tafakkurini rivojlantirishi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishiga maksimal yordam berishi kerak.

Darsda innovatsion usullardan foydalanish uchun namunalar:

1. “ Bingo” metodi

Bu o‘tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash usullaridan biri bo‘lib, o‘quvchilar diqqatini, tafakkurini, bilimdonligi, chaqqonligini aniqlaydi.

O‘qituvchi kattaliklar nomini aytib turadi, o‘quvchilar raqam bilan belgilab chiqishadi. Kim birinch va to‘g‘ri belgilaganiga qarab baholanadi. Masalan:

φ	**E**	**ε**	**ρ**	**A**	**σ**	**r**
U	**q**	**I**	**R**	**P**	**j**	**W**
C	**Δ** φ	**d**	**ε** $_0$	**e**	**F**	**k**

1. Elektr maydon kuchlanganligi
2. Kuchlanish
3. Tok kuchi
4. Tok zichligi

va hokazo.

2. “Xotira mashqi” o‘yinining borishi:

O‘quvchilarga 10 ta fizik tushuncha aytiladi, 3 marta takrorlanadi. Nechta eslab qolishi tekshiriladi. 9-10 ta so‘z topsa – a’lo, 7-8 ta topsa – yaxshi, 5-6 ta topsa – qoniqarli deb baholanadi. Masalan:

Kuchlanganlik, elektr toki, potensial, zaryad, Amper, kuchlanish, kondensator, tok manbai, quvvat, tok zichligi.

3. “ Mosini toping” metodi

Bunda o‘quvchilar jadvalda sonlar bilan berilgan savollarga mos javoblarni harflar orqali belgilashadi. Bu metod orqali o‘quvchilardagi sinchkovlik, ziyraklik qobiliyatlari tekshiriladi. O‘tilgan mavzularni takrorlashda, mustahkamlashda qo‘llash maqsadga muvofiq.

1	Zanjirdagi tok kuchi kuchlanishga to‘g‘ri, qarshilikka teskari proporsional.	**A**	To‘liq zanjir uchun Om qonuni
2	Tashqi kuchlarning berk zanjir bo‘ylab birlik zaryadni ko‘chirish da bajargan ishiga teng kattalik	**B**	Umumiy tok kuchi o‘tkazgich lardagi tok kuchi bilan bir xil

3	Ampermetr o‘lchash chegarasini oshirish uchun shunt	**C**	Tok manbaining bera oladigan eng katta tokidir.
4	I=ε/ R+r	**D**	Kuchlanish
5	O tkazgichlar ketma-ket ulanganda	**E**	Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni
6	Qisqa tutashuv toki -	**F**	Umumiy tok kuchi o‘tkazgichlardagi tok kuchlari yig‘indisiga teng
7	O‘tkazgichlar parallel ulanganda	**J**	Elektr yurituvchi kuch
8	berk zanjir bo‘ylab birlik zaryadni ko‘chirishda bajargan ishiga teng kattalik	**H**	Parallel ulanadi

4. “Ha yoki yo‘q”

Bu metoddan dars jarayonida o‘tilgan mavzuni takrorlab olish uchun, vaqtdan unumli foydalangan holda barcha o‘quvchilarni frontal baholashda ishlatiladi. Berilgan savollarga o‘quvchilar faqat “ha” yoki “yo‘q” deb javob berishadi. Masalan:

1. Zaryadli zarralar o‘z-o‘zidan harakatga keladi?

2. O’tkazgich ko’ndalang kesimidan vaqt birligi ichida oqib o’tgan zaryad miqdoriga elektr toki deyiladi

3. Vaqt davomida kattaligi va yo’nalishi o’zgarmaydigan tok o’zgarmas tok deyiladi.

4. Tok kuchi voltmetr yordamida o’lchanadi.

5. Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni tok kuchi, kuchlanganlik va qarshilikni bog’laydi

6. O’tkazgich qarshiligi tok kuchi va kuchlanishga bog’liq

7. O’tkazgich qarshiligi temperaturaga bog’liq

8. O’tkazgichlar ketma-ket ulanganda umumiy kuchlanish o’tkazgichlardagi kuchlanishlarga teng.

5. “Aqliy hujum” orqali formulalar ustida ishlash:

Bu orqali o’quvchilarning ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. O’zlariga umuman notanish bo’lgan formulalarni keltirib chiqaradilar. Shu orqali o’zlariga bo’lgan ishonchlari mustahkamlanadi.

1.Lorens kuchi formulasini yozing:

2.Moddiy nuqta aylana bo’ylab harakatlansa qanday kuch yuzaga keladi?

3.Ikkala kuchni tenglashtiring.

4. Magnit maydonidagi zaryadli zarrachaning harakat trayektoriyasi aylanadan iborat bo’lsa, uning radiusi nimaga teng?

5. Aylanma harakatda aylanish davri nimaga teng edi?

6.Zarraning aylanish radiusini bilgan holda, uning aylanish davrini qanday hisoblash mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: Iqtisodiyot, 2011. – 208 b.

2. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedmahorat. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003 – 176 b.

FIZIKA FANIGA OID AYRIM MASALALARNI GRAFIK USULDA YECHISH METODIKASI

Djanikulov Sherali Baxodirovich-*Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi oliy toifali fizika fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika faniga oid ayrim masalalarni grafik usulda yechish metodikasi keltirilgan. Ushbu maqolaning maqsadi bir fizik miqdorning boshqasiga bog‘liqligini ifodalovchi funksiyalarning grafiklarini tuzish va tahlil qilish uchun talabalarning "grafik savodxonligini" oshirishdan iborat. Ushbu maqola maktab o‘qituvchilari va akademik litsey iqtidorli o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, maqoladan ular fizika fanidan olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rishda, shuningdek, fizika fanini chuqurroq o‘rganishda ham foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: grafik, grafik metod, grafik savodxonlik, grafik munosabat.

Zamonaviy maktab fizikasi darsliklarida fizik jarayonlarning grafik tasviriga unchalik ahamiyat berilmagan. Koordinatalar va tezlikning vaqtga funksional bog‘liqligi maktab darsliklarida keltirilgan bo‘lsa-da, bu juda yuzaki muhokama qilinadi. Misol sifatida faqat standart topshiriqlar ko‘rib chiqiladi.

Maktab fizika darsliklarida boshqa grafik misollar (masalan, massaning zichlikka, kuchning koordinata yoki vaqtga bog‘liqligi va boshqalar) berilmagan. Fizika fanidan o‘tkazilayotgan nufuzli olimpiadalarda foydalanilgan masalalarda ham grafiklar tez-tez uchrab turadi.

Birinchidan, olimpiadada ishtirok etayotgan o‘quvchilar “grafiklarni o‘qiy olishlari”, ya’ni grafikda nima ko‘rsatilganligini tushunishi; bir fizik miqdorning boshqasiga to‘g‘ri yoki teskari proportsionalligi nimani anglatishini, grafik munosabatlardan qanday qo‘shimcha ma'lumotlarni olish mumkinligini tushunishi kerak.

Ikkinchidan, yechimi analitik jihatdan ancha murakkab va mashaqqatli bo‘lgan ayrim masalalarni yechishda ma'lumotlarni grafik ko‘rinishda ifodalash orqali ancha oson yechish ham mumkin. Bunday masalalarda o‘quvchi masalaning holatini tahlil qilishi, optimal sanoq sistemasini tanlashi va unda analitik yechimni sezilarli darajada soddalashtirish yoki masalani yechish jarayonini tushuntirish (isbotlash) imkonini beradigan grafiklarni chizishi muhim ahamiyatga egadir [1,5].


Grafik tushunchasiga turli xil ta'riflar mavjud. Grafik - bu chiziqlar va boshqa grafik elementlardan foydalangan holda ba'zi sonli ma'lumotlarni vizual ravishda ko‘rsatadigan chizmadir. Matematikadagi grafik raqamlar va miqdorlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning vizual tasviridir. [1,8]

Fizika masalalarini yechishda grafiklardan keng foydalaniladi. Masalan, harakat masalalarida tezlanish va tezlikni to‘g‘ri chiziqning qiyalik burchagi tangensi, bosib o‘tgan masofa va tezlikning o‘zgarishini grafik ostidagi sohaning yuzasi bilan aniqlash mumkin.

Eng muhimi, masalada berilgan vaziyatning ko‘rgazmaliligini oshirish va o‘quvchilarda masaladagi vaziyatni to‘g‘ri tasavvur qilishi uchun ham grafiklardan foydalanish mumkin. Ushbu "ko‘rgazmalilik" masala bayonida tasvirlangan fizik qonunlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yoki analitik hisob-kitoblarni soddalashtirishga imkon beradi.

1-masala. Yer sirtidan vertikal yuqoriga uchirilgan raketaning dvigatellari 10 s davomida ishlab turdi va raketaga 30 m/s^2 tezlanish berdi. Dvigatellar o‘chirilgach raketa yer sirtidan qanday maksimal balandlikka ko‘tariladi? [2,16]

Masalaning yechilishi:



1-rasm. Raketa harakatlanish tezligining vaqtga bog‘lanishi:
qizil chiziq – dvigatel ishlayotgan vaqtda tezlik grafigi
ko‘k chiziq – dvigatel ishlamayotgan vaqtda tezlik grafigi

Ushbu masalani yechishda tezlikning vaqtga bog‘lanish grafigidan foydalanamiz. Dastlab raketa dvigateli ishlayotgan vaziyat (dastlabki 10 sekund)

uchun raketa tezligining vaqtga bog‘lanishini chizib olamiz (1-rasmdagi qizil chiziq):

$v = 30t$ (1)

Raketa dvigateli o‘chirilgach, vertikal yuqoriga otilgan jism harakatiga mos harakatlanadi (1-rasmdagi ko‘k chiziq). Uning tezlanishi yer gravitatsiya maydoni erkin tushish tezlanishiga teng bo‘ladi:

$v = 300 - 10t$ (2)

Raketa maksimal balandlikka ko‘tarilgan vaqtda uning tezligi nolga teng bo‘ladi. Raketaning tezligining vaqtga bog‘lanish grafigi va vaqt o‘qi orasidagi uchburchak sohaning yuzasi raketaning yer sirtidan maksimal ko‘tarilish balandligiga teng bo‘ladi:

$S_\Delta = \frac{l \cdot h}{2} = \frac{40 \cdot 300}{2} = 6000$ (3)

$H = S_\Delta = 6000\ m = 6\ km$ (4)

Masala javobi: Raketaning yer sirtidan maksimal ko‘tarilish balandligi 6 km ekan.


2-masala (Moskva shahar olimpiadasi, 2004 y). Uzoq magistralda bir-biridan 1 km masofada svetoforlar o‘rnatildi. Har bir svetofor 30 soniya davomida qizil, keyingi 30 soniya davomida yashil yonadi. Bunda 40 km/h tezlikda harakatlanayotgan avtomobil birinchi svetofordan yashil chiroqda o‘tsa, to‘xtamasdan harakatlanadi, ya’ni qolgan barcha svetoforlardan ham yashil chiroqda o‘tadi. Avtomobil yana qanday tezliklarda harakatlansa, svetoforlarda to‘xtamaydi? [3,10]

Masalaning yechilishi:

E'tibor bering, 40 km/soat tezlikda harakatlanayotgan avtomobil qo‘shni svetoforlar orasidagi 1 km masofani soatning 1/40 qismida = 1,5 minutda bosib o‘tadi (qizil chiziq) [1,75].

Shunday qilib, u svetoforning ruxsat beruvchi va taqiqlovchi signallari 2-rasmda ko‘rsatilganidek taqsimlangan taqdirdagina keyingi svetofordan to‘xtamasdan o‘tishi mumkin bo‘ladi, ya’ni

$v = \frac{\Delta S}{\Delta t} = \frac{1\ km}{1{,}5\ min} = 40\ \frac{km}{h}$ (5)



2-rasm. Svetaforlarning ishlash rejimi

qora gorizontal chiziq – svetaforning qizil chirog‘i yongan vaqtga mos keladi.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, avtomobil 2 km yo‘lni 1 min, 3 min, 5 min, … , (2n+1) minutlarda bosib o‘tsa, svetoforda to‘xtamasdan harakatlanadi, bu yerda n = 0, 1, 2, … . Shunday qilib, svetoforda to‘xtamasdan katta yo‘lda harakatlanishi uchun zarur bo‘lgan avtomobil tezligi quyidagiga teng bo‘lishi mumkin:

$$v = \frac{120}{2n+1}\ \frac{km}{h} \qquad (6)$$

bu yerda n = 0, 1, 2, …

Demak faqat yashil chiroqda o‘tishi uchun avtomobil tezligi quyidagilarga teng bo‘lishi mumkin:

$$v_1 = \frac{\Delta S_1}{\Delta t_1} = \frac{2\ km}{1\ min} = 120\ \frac{km}{h}$$ (ko‘k chiziq)

$$v_2 = \frac{\Delta S_2}{\Delta t_2} = \frac{2\ km}{3\ min} = 40\ \frac{km}{h}$$ (qizil chiziq)

$$v_3 = \frac{\Delta S_3}{\Delta t_3} = \frac{2\ km}{5\ min} = 24\ \frac{km}{h}$$ (yashil chiziq)

$$v_4 = \frac{\Delta S_4}{\Delta t_4} = \frac{2\ km}{7\ min} = 17{,}14\ \frac{km}{h}$$ (binafsha chiziq)

Masala javobi: 120 km/h, 24 km/h, 17,14 km/h va hakazo

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, masalalarni yechishda grafik metoddan foydalanish orqali biz masalani yechish jarayonini soddalashtirishga, masalada berilgan jarayonning takrorlanish qonuniyatlarini aniqlashga, masala yechimining jozibadorligini oshirishga, o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishini orttirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.С.Ладных – Графические методы решения задач по физике. Методическое пособие для учителей физике и учащихся при подготовке к олимпиаде. Белгородб 2019. – с.79

2. Черноуцан А.И. – ФИЗИКА. Задачи с ответами и решениями: Учебное пособие. – М.: Книжный дом «Университет», 2001. – 336 с.

3. Задачи Московских городских олимпиад по физике. 1986 – 2005: С.Д.Варламов, В.И.Зинковский, М.В.Семѐнов [и др.]; под ред. М.В.Семёнова, А.А.Якуты – 2-е изд., исправл. — М.: МЦНМО, 2006. — 623 с.: ил. – ISBN 5-94057-219-7

UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA JISMONIY TARBIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

D.Erejepov-*Ichki ishlar vazirligi Qoraqalpoq akademik liceyi jismoniy tarbiya o'qituvchisi*

M.Xudaybergenov, *Ichki ishlar vazirligi Qoraqalpoq akademik liceyi Yoshlarni chaqiriqqa qadar boshlang'ish tayyorgarlik o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ismoniy tarbiya va uni o'qitish sohasida faol foydalaniladigan zamonaviy innovatsion texnologiyalarni to'rtta asosiy turga ajratish vazifasi qo'yilgan. Jismoniy tarbiya darslarida amaliy foydalanishda har bir turning o'ziga xos xususiyatlari, ularning ijobiy tomonlari va sog'liqqa ta'siri ajralib turadi va tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: sog'liqni tejaydigan tur, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiya.

Zamonaviy dunyoda ilm-fan, madaniyat va ta'limning turli sohalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhimligini inkor etish qiyin, ko'plab fan arboblari ham xuddi shunday pozitsiyaga ega.

Xoɔsh, nima uchun jismoniy tarbiya va uni o'qitish sohasida yangi ilg'or texnikalarni joriy etish juda zarur? Bunga bir nechta asosiy sabablar mavjud.

1. Salomatlikni mustahkamlash va uni tejash

Har bir jismoniy tarbiya darslari, xoh maktabda bo'lsin, xoh boshqa o'quv yurtlarida bo'lsin, o'zlarining asosiy vazifalaridan biri – bolalar va o'spirinlarning sog'lig'ini mustahkamlash va saqlashdir. Bu, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarida aniq namoyon bo'ladi, chunki o'sha paytda o'qituvchi bolalarda o'z sog'lig'iga nisbatan oqilona yondashish uchun kundalik hayotda zarur bo'lgan zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni maqsad qilgan. Sog'liqni saqlashni tejaydigan ta'lim texnologiyalarini boshqa barcha turdagi texnologiyalarning eng muhimlari deb atash mumkin. ular bolalarning yoshi va kognitiv xususiyatlariga, vosita va statik yuklarning qulay kombinatsiyasiga, kichik guruhlarda o'rganishga, aniqlikdan foydalanishga va ma'lumot berishning

turli usullarining kombinatsiyasiga asoslanganligi sababli, bu shubhasiz talabalarning jismoniy va psixologik holatiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bundan tashqari, so’nggi va takomillashtirilgan usullarda sport bilan shug’ullanayotganda ko’plab kasalliklar xavfi kamayadi. Jismoniy tarbiya sohasidagi ilg’or usullar nafaqat uning paydo bo’lishining dastlabki bosqichlarida jismoniy harakatsizlik rivojlanishining oldini olishga, balki mavjud simptomlarning namoyon bo’lishini kamaytirishga ham qodir. Va bu faqat bitta misol, oldini olish mumkin bo’lgan kasalliklar ro’yxati juda ko’p.

2. O’quvchilar va ularning ko’pqirrali qobiliyatlarini ochib berish

Ko’pincha odamlar o’zlari aslida nimaga qodir ekanliklarini bilishmaydi. Jismoniy tarbiya mashg’ulotlari bolalarga ham, kattalarga ham turli xil jismoniy fanlarda o’zlarining potentsiallarini ochib berishga yordam beradi, bu vakolatli yondashuv bilan, agar bola haqida gap ketganda, turli xil maktab sport musobaqalarida, olimpiadalarda va tanlovlarda g’olib bo’lishiga imkon beradi, bu uning portfeliga ijobiy ta’sir ko’rsatadi va kelajakda oliy o’quv yurtlariga kirishda yordam beradi. ta’lim muassasasi. Va agar biz talaba haqida gapiradigan bo’lsak, unda mavjud yutuqlarni yangilari bilan to’ldiring, bu hatto talabaga sport bilan bog’liq talabalar tadbirlarida faol ishtirok etadigan bo’lsa, sinfdoshlariga qaraganda ko’proq stipendiya olishga imkon beradi.

3. Yoshlar o’rtasida sportni ommalashtirish

Bir qarashda, bu nuqta I bandga juda o’xshaydi, lekin aslida bu mutlaqo to’g’ri emas. Birinchi band jismoniy tarbiya bilan shug’ullanishni o’rgatish muhimligini ko’rsatadi, shu bilan birga ushbu band yoshlar o’rtasida sport va sog’lom turmush tarziga qiziqishni oshirishga qaratilgan. Axir, agar talabalar yoki talabalar o’z tanalariga qanday qilib to’g’ri g’amxo’rlik qilishni bilsalar, bu ularning sog’lom turmush tarziga rioya qilishni xohlashlariga kafolat bermaydi. Shu sababli, samarali sport bilan shug’ullanish uchun sharoit yaratish etarli emas, shuningdek, talabalar va talabalarni ushbu mavzuga qiziqtirish, ularga jismoniy tarbiya ko’plab shubhasiz afzalliklarga ega ekanligini ko’rsatish kerak. Bugungi kunda insonning pozitsiyasi, uning o’z ijtimoiy, psixologik va jismoniy sog’lig’iga munosabati salomatlikni mustahkamlashning hal qiluvchi omili sifatida tan olingan. Inson hayoti haqidagi yangi g’oyalar shaxsni jismoniy va ma’naviy rivojlanishga erishishga, farovonlikni, aqliy va jismoniy salomatlikni yaxshilashga yo’naltiradi. Oddiy qilib aytganda, agar odamning o’zi bunday maqsadni qo’ymasa, muhim natijalarga erishish juda qiyin, shuning uchun sog’lom turmush tarzini yaratish va saqlashga qaratilgan shaxsning qadriyat va motivatsion munosabatlarini shakllantirish muhimligi oshadi. Ushbu turmush tarziga rioya qilishni qanchalik ko’p odamlar qiziqtirsa, sog’lom turmush tarzining ahamiyatini anglash zamonaviy jamiyatga shunchalik chuqur kirib

boradi, bu esa ko’proq odamlarni sport bilan shug’ullanishga undaydi, chunki bu allaqachon madaniyatning bir qismiga aylanadi. Yangi zamonaviy texnikalarning joriy etilishi bolalarga sportga qiziqish bildirishga va hatto uni sevishga yordam beradi, shu bilan birga ularning yo’qligi dars oluvchilar va jismoniy tarbiya juftliklari sonining ko’payishiga olib kelishi mumkin, bu esa vaqt o’tishi bilan ularning faoliyati va sog’lig’iga salbiy ta’sir qiladi. O’quvchini qiziqtirish va uni sport bilan shug’ullanishga ishontirish – bu birinchi qarashda oson ish.

4. Psixologik foydalari

Psixologik afzalliklar jismoniy madaniyatga innovatsion usullarni joriy etgandan so’ng maktab o’quvchilari va talabalarga ta’sirning har qanday ijobiy psixologik oqibatlarini anglatadi. Ushbu psixologik afzalliklardan biri, masalan, o’quvchilarning o’ziga bo’lgan ishonchini oshirish, shuningdek, sport mashqlaridan keyin kayfiyatni yaxshilashdir. Psixologik foyda haqida gap ketganda, ularning talabalar va maktab o’quvchilari o’rtasida jismoniy madaniyatni ommalashtirishdagi muhim rolini esga olish kerak. To’g’ri o’tkazilgan darsdan ijobiy his-tuyg’ularni olish motivlarni tasniflashda faoliyat jarayonidan qoniqish bilan bog’liq ichki motivlarga bog’liq bo’lishi mumkin. Oddiy qilib aytganda, agar talaba jarayondan zavqlansa, unda u ko’proq tirishqoqlik bilan shug’ullanishga va darslarni qoldirmaslikka, sog’lig’i haqida ko’proq o’ylashga harakat qiladi.

Texnologiyalar tasnifi

Jismoniy tarbiya darslarida qo’llaniladigan innovatsion texnologiyalarni quyidagi tasnifga bo’lish mumkin: sog’liqni tejash, shaxsga yo’naltirilgan, axborot-kommunikativ va tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiya texnologiyasi.

Sog’liqni tejash

Inson hayotining turli sohalarida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning hozirgi bosqichida talabalar va o’qituvchilarning sog’lig’ini saqlash va yaxshilashga qaratilgan sog’liqni saqlash faoliyatiga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Universitetlarda o’qituvchilar o’quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan band, buning natijasida ularning harakatsiz turmush tarzi turli kasalliklar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. O’qishda katta stressga duchor bo’lgan yoshlar, shuningdek, jismoniy tarbiya tizimida jismoniy tayyorgarlik va organizmning morfofunktsional holati darajasini oshirishga imkon beradigan innovatsion sog’liqni saqlash texnologiyalariga muhtoj.o’qish va o’qishdan bo’sh vaqt. Bularning barchasiga asoslanib, ushbu tur boshqa barcha texnologiyalar orasida eng muhim bo’lganligi ajablanarli emas, chunki ular ma’lum yosh guruhlarining xususiyatlariga, har xil turdagi yuklarning maqbul kombinatsiyasiga, kichik guruhlarda o’qitishga, vizualizatsiyadan foydalanishga

va turli xil ma’lumotlarni taqdim etish shakllarining kombinatsiyasiga asoslangan va hokazo.

Shaxsga yo’naltirilgan texnologiya

Ushbu yondashuvdan foydalanganda o’qituvchi asosiy harakatlarni bolalarda ijtimoiy tipik xususiyatlarni shakllantirishga emas, balki ularning har birida noyob shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga sarflaydi. Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv o’quv jarayonida sub’ekt vakolatlarini qayta taqsimlashni o’z ichiga oladi, bu o’qituvchilar va ularning o’quvchilari o’rtasidagi sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini o’zgartirishga yordam beradi. Shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni amalga oshirish har bir talabaning o’sib borayotgan organizmining individual xususiyatlari va imkoniyatlarini to’liq hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerakligi aniq.

Ko’rib turganingizdek, shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalar jismoniy madaniyatdagi boshqa innovatsion texnologiyalar bilan juda ko’p o’xshashliklarga ega, bu umumiy vazifalar va ularni amalga oshirish usullarida namoyon bo’ladi. Shu munosabat bilan shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni boshqa taqdim etilgan yondashuvlar bilan osongina birlashtirish mumkin, bu umuman intizomga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Aholining sog’lom turmush tarzini rivojlantirish ta’lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir, ammo shu bilan birga zamonaviy ta’lim tizimi zamonaviy innovatsion texnologiyalarni, shu jumladan axborot-kommunikativ texnologiyalardan (AKT) foydalanishni joriy etishni talab qiladi. Zamonaviy o’qituvchining vazifasi jismoniy rivojlangan, intellektual shaxsni shakllantirish bo’yicha pedagogik faoliyatni boyitish uchun barcha turdagi resurslardan foydalanishdir. Ushbu manbalardan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridir.

Pedagogik faoliyatda axborot resurslaridan foydalanish sohasidagi pedagogikaning zamonaviy vazifalari quyidagilardan iborat:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda pedagogik faoliyatning yangi vositalarini, o’quv faoliyati va kompetentsiya samaradorligini oshirish uchun resurslarni izlash. O’qituvchi keyinchalik yangi bilim va ko’nikmalarni amalda samarali qo’llash uchun ilmiy maqolalar, ishlarni o’qish va boshqa o’quv materiallarini o’rganish orqali o’z kasbiy mahoratini oshirishi mumkin

- ta’lim faoliyatining barcha ishtirokchilarini kelajakdagi maktab o’quvchilarining shaxsiy, intellektual va jismoniy fazilatlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan tanishtirish;

- ota-onalarning axborot texnologiyalariga ijobiy munosabatini shakllantirish. O’quvchilarning ota-onalariga o’quv jarayonida qanday qilib foydali foydalanish mumkinligini va ular qanday rol o’ynashini ko’rsatish juda muhimdir;

- axborot kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion o’qituvchilarning ijtimoiy doirasini topish. Kompyuter va Internet yordamida o’qituvchilar o’z tajribalarini hamkasblari bilan osongina baham ko’rishlari, u yoki bu masala bo’yicha maslahat izlashlari va jismoniy tarbiya sohasidagi yangi tadqiqotlar va yangiliklar haqida o’z vaqtida bilib olishlari, o’quv materiallari bilan bo’lishishlari mumkin.

Differentsial jismoniy tarbiya texnologiyasi

Tabaqalashtirilgan yondashuvning mohiyati talabalar, talabalar guruhlarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sport faoliyati mazmunini tanlash asosida jismoniy tarbiya qadriyatlarini rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni ta’minlashdir. Differentsial yondashuvga bo’lgan ehtiyoj, o’qituvchining ta’lim muammolarini hal qilishdagi frontal ishi talabalar tarkibining heterojenligi tufayli juda qiyin bo’lgan holatlarda yuzaga keladi, bu ayniqsa jismoniy madaniyatni rivojlantirish jarayonida namoyon bo’ladi. Differentsial yondashuvning asosiy maqsadi jismoniy madaniyat qadriyatlarini samarali o’zlashtirish va shaxsning jismoniy madaniyatining muhim xususiyatlarini shakllantirish uchun jismoniy tarbiya jarayonini optimallashtirish deb hisoblanadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQSHUNOSLIK FANLARINING O‘QITILISHIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TIL MEY‘ORLARINING TO‘G‘RI FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.

Otakova Mahbuba Alisherovna
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Xorazm akademik litseyi huquqshunoslik fani o‘qituvchi
mahbubaotakova@gmail.com
Tel: +998973645709

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonda huquqshunoslik fanlarini o‘qitilishida axborot texnalogiya o‘rni, ahamiyati va uchunchi renessans davrini barpo qilish jarayonida huquqshunoslik fanlari, normativ huquqiy hujjatlarning ahamiyati, internet saytlaridan va til mey‘orlaridan foydalanishning afzalliklari haqida so‘z boradi.

Аннотация:В статье говорится о роли и значении информационных технологий в образовании юридических наук в Новом Узбекистане, а также о значении юридических наук, нормативных правовых документов и

преимуществах использования интернет-сайтов в процессе становления третьего периода Возрождения.

Annotation: The article talks about the role and importance of information technology in the education of legal sciences in New Uzbekistan and the importance of legal sciences, normative legal documents and the advantages of using Internet sites in the process of establishing the third renaissance period.

Kalit soʻzlar; Renessans, Yangi Oʻzbekiston, inson qadri, qonun ustuvorligi, axborot, internet, axborot texnologiyalari, internet saytlari, til meyʻorlari, orfoyepiya, orfagirafiya Konstitutsiyaviy qonuniylik, fuqarolik jamiyati, **xalq manfaatlari,** sifatli taʻlim

Ключевые слова: Возрождение, Новый Узбекистан, человеческое достоинство, верховенство закона, информация, интернет, информационные технологии, интернет-сайты. Конституционная законность, гражданское общество, интересы народа, качественное образование.

Key words: Renaissance, New Uzbekistan, human dignity, rule of law, information, internet, information technologies, internet sites Constitutional legality, civil society, people's interests, quality education

Avvalam bor uchinchi renessans barpo etilishida Oʻzbekiston Konstitutsiya va huquqshunoslik fanlarining oʻqitilishida axborot texnologiyalarining oʻrni va ahamiyatini tahlil etishdan oldin “renessans” atamasiga toʻxtalsak. Xoʻsh, Renessans oʻzi nima? Uning yuzaga chiqishiga qanday tarixiy sharoitlar turtki boʻldi?

“Renessans” fransuzcha “qayta tugʻilish” degan maʼnoni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyat, ilm-fan, sanʼat, taʼlim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turgʻunlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Darhaqiqat tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX-XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi-XVI asr birinchi choragi. Birinchi Renessansda yurtimizdan Al-Fargʻoniy, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshgʻariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar — Imom Al - Buxoriy, At -Termiziy, mutakallimlar — Moturudiy va Abul Muin Nasafiy kabi atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchi Renessansda — Mirzo Ulugʻbek, Gʻiyosiddin Jamshid Al - Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoladdin Behzod, buyuk insonlar oʻz bilim, salohiyatlari va buyuk kashfiyotlari orqali dunyoga oʻzbek nomini tanitganlar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur.

«Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg’onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun „Yangi O‘zbekiston“ va „Uchinchi Renessans“ so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg’un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug’ maqsadlar sari ruhlantirmoqda», — deya fikr bildirdi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Yangi O‘zbekiston» gazetasi muhbiriga bergan interyusida.

«Yangi O‘zbekistonni barpo etish bu shunchaki xohish, istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu - intilishlariga mos, uning milliy manfatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir», [2,2-b.].kabi so‘zlar bilan boshlanuvchi Prezident Shavkat Mirziyoyevning «Yangi O‘zbekiston Strategiyasi» nomli kitobida ham Uchinchi Renessansni qurish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritilgan.

Barcha sohalar qatori O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va huquqshunoslik fanlariga berilayotgan e’tibor va bu fanlarni o‘qitilish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga, internet saytlari orqali halqaro huquqiy hujjatlar bilan tanishishga imkoniyatlarni yaratilayotgani bu fanlarning uchinchi renessans poydevori uchun nechog’li muhim ekanligini anglatadi. Birgina misol sifatida yoshlaning bilimini yanada oshirish va takomillashtirish maqsadida 2022 yil 28 yanvar sanasida qabul qilingan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning ikkinchi bandi **“Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” [2]; deb nomlanib qo‘yidagi maqsadlarni amalga oshirishga doir ko‘rsatma va topshiriqlar berilgan. Bular misolida qoyidagilarni keltirib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.**

14-maqsad: Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash.

17-maqsad: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish va elekton hukumat yaratishda xalq bilan zamonaviy axborot texnologiyalari orqali muloqatni yo‘lga qo‘yish

20-maqsad: Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar oʻrtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish.

44-maqsad: Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, axborat texnologiyalaridan unumli foydalanish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.

2022-2026 yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasida huquqshunoslik fanlarini oʻqitilishini va Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining zamon talablariga mos keladigan va gender tengligi asoslari mustahkamlangan shaklda qoʻshimcha va oʻzgartirishlar qilish nazarda tutulganligi, shundan dalolatki, Konstitutsiyamiz mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimizning tinch-osuda, farovon hayotini ta'minlashning muhim asosidir. Uning hayotimizdagi oʻrni va ahamiyatini keng targʻib etish, aholi, ayniqsa, yoshlar ongu shuurida Vatanga sadoqat, qonunlarimizga hurmat tuygʻusini mustahkamlash uchun zarur ekanligi hech kimga sir emas. Shu oʻrinda yangilangan Konstitutsiyamizdan bir necha huquqiy normalarni keltirib oʻtsak, "Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega va toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiladi". yoki "Har kim oʻz huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli"., "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini ragʻbatlantiradi." [1]; kabi huquqiy normalarni Konstitutsiyamizda oʻz aksini topishi davlatimizdagi olib borilayotgan siyosatning qanchalik adolatli ekanligining isboti desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Yuqorida keltirilganidek, Oʻzbekiston Konstitutsiyasini oʻrganish va huquqshunoslik fanlarini oʻqitilishini takomillashtirish jarayonida **axborot texnologiyalaridan foydalanishni** yanada rivojlantirish "Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, jahon internet saytlaridan foydalishga, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi". Ushbu haqqoniy e'tirof Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-noyabrda imzolagan "Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish toʻgʻrisida"gi farmoyishda alohida ta'kidlandi.

Biz yoshlar buyuk allomalarning munosib vorislari boʻlibgina qolmay ular bilan faxrlanishimiz, balki ularga munosib izdosh boʻlishga harakat qilishimiz ham farz, ham qarzimiz hisoblanadi. Buning uchun avvalo oʻzimiz birinchilardan boʻlib olgʻa siljishimiz lozim zero Prezidentimiz qadimgi yunon faylasufi Suqrotning "Oʻzgalarni oʻzgartirmoqchi boʻlgan inson, avvalo, oʻzini oʻzgartirishi lozim. Buning uchun esa, aniq maqsad, tolmas iroda va doimiy

izlanish kerak”, [4]; degan hikmatli iborasi bu borada hammamiz uchun asosiy mezon bo‘lishi zarur degan so‘zlari hammamizni oldinga siljishimizga kuch beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent «Adolat», 2023.
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi: Sh.Mirziyoyev. Toshkent: «O‘zbekiston», 2022 .
3. “O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 16.11.2023 yildagi F-72 sonli.
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi», 2004.
5. Informatika va axborot texnologiyalarini taʻlimda oʻqitilishining afzalliklari, Toshkent «Oʻqituvchi», 2021.
6. Oʻquv fanlarni oʻqitishda til meʻyorlaridan toʻgʻri foydalanish qoidalari. Toshkent «Adolat», 2023.

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR LUG‘ATI USTIDA ISHLASH USULLARI

Jumaniyazova Zulxumar Allanazarovna-*O‘zbekiston Respublikasi IIV Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy- akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabda ona tili darslarida lug‘at bilan ishlash metodikasi ko‘rsatib berilgan va dars jarayonida o‘quvchilarning ona tili faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish masalalari haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Lug‘at ustida ishlash, so‘z ma’nosini o‘zlashtirish, lug‘atni boyitish.

Dars jarayonida lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

I.O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlarni, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. O‘zbek tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni yangi so‘zni, shu jumladan, o‘zbek tili darslarida 4-6 so‘zni qo‘shishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim. II.O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi: 1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirish, ya’ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma’nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish;

2)so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish;

3) so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish;
4) ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish.
III. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi. Adabiy til me’yori degan tushunchani o‘zlashtirgach, o‘quvchilar yuqorida izohlangan so‘zlar o‘rniga adabiy tildagi so‘zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so‘zlar, so‘zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so‘z va iboralar o‘quvchilarning faol lug‘atidan chiqib keta boshlaydi.
IV.So‘z ma’nosini tushuntirish. So‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Darsda atamalarning ma’nosini tushuntirish mazkur so‘z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma’nosini tushuntirish bilan o‘quvchilar predmet keng ma’noda qo‘llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe’l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi. So‘zning ma’nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma’nosi tushuntirilishi lozim bo‘lgan.

O‘quvchilar lug‘ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi. Birinchidan, atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o‘yini va o‘qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo‘yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko‘pgina yangi nom va iboralarni o‘rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o‘tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi. ayrim so‘zlar ma’nosiga aniqlik kiritiladi. Ikkinchidan, o‘quvchilar lug‘atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. Darslar jarayonida o‘quvchilar Oybek, H.Olimjon, M. Shayxzoda, G‘.G‘ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, X.To‘xtaboyev, P.Mo‘min, Q.Muhammadiy, Sh.Sa’dulla, Z.Diyor, N.Fozilov, T.Adashboyev, A.Obidjon kabi ko‘pgina so‘z ustalarining asarlarini o‘qiydilar. O‘zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o‘zlashtiradilar. Uchinchidan, darslar jarayonida o‘quvchilar lug‘ati ma’lum mavzularga oid so‘zlar hisobiga ham boyiydi. Ular

lug‘atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinso‘z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar kabi ko‘pgina so‘zlar qo‘shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko‘p ma’noli so‘zlar, sinonimlar, ko‘chma ma’noda ishlatiladigan so‘zlarni, ba’zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar. Ta’kidlash joizki, o‘quvchilar lug‘atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta’sir qiladi. Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o‘rganish darslari ko‘pgina so‘z va atamalarni o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so‘zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o‘quvchilar lug‘ati tartibga solinadi, so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida guruhlanadi, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, so‘zlarning o‘zgarishini o‘rganish bilan esa lug‘atga aniqlik kiritiladi; ular o‘rgangan so‘zlaridan o‘z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug‘atlari faollashadi. O‘quvchilar lug‘ati maxsus lug‘aviy mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi. Bulardan tashqari, kinofilm va teleko‘rsatuv matnlari, o‘qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o‘quvchilar lug‘atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi. Lug‘atni boyitishda turli lug‘atlar juda foydali qo‘llanmadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun „Imlo lug‘ati” mavjud. O‘qituvchi ma’lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug‘atlardan (o‘zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug‘atlaridan, turli terminologik lug‘atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”, Toshkent-1995-yil, “O‘qituvchi” nashriyoti.
2. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018.
3. Zamonaviy dars. T.:2007. J.Yo`ldoshev va boshqalar.

BOSHLANG’ICH TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARGA EKOLOGIK TARBIYANI RIVOJLANTRISH

G‘aniyev Farrux G‘aybullayvich-*Shaxrisabz “Temurbeklar maktabi” HAL avtotransport vositalari xaydovchilarni tayyorlash fani o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA: Bugungi XXI asr fan va texnikaning rivojlanishi zamonnig shiddat bilan o’sishi ilm fanga bo’lgan talabning oshishiga sabab bo’lmoqda. Aynan ilm-fanga talabning oshishi bevosita tarbiyaning ta’limga bog’liqlik nazariyasini ham kuchaytirmoqda. Ushbu maqolada tarbiyaning ta’lim bilan yaxlitligi, jumladan ekologik tarbiyaning zamonaviy ta’limda tutgan o’rni va metodlari bo’yicha turli olimlarning fikri hamda boshlang’ich ta’limda qo’llanilishi to’g’risida mulohazalar keltirib o’tilgan va tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’zlar: Ekologiya,ekologik tarbiya, pedagogika,zamonaviy ta’lim,metod,kuzatuv metodi,suhbat metodi,savol-javob metodi.

ABSTRACT: In today's XXI st century, the rapid development of science and technology is leading to an increase in demand for science. It is precisely the growing demand for science that reinforces the theory that education is directly related to education. This article provides feedback on the integration of education with education, including the views of various scholars on the role and methods of environmental education in modern education and its application in primary education. conclusions were drawn.

Keywords: Ecology, environmental education, pedagogy, modern education, method, observation method, conversation method, question-answer method.

KIRISH


2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni so‘zsiz amalga oshirish, respublika hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta’lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ekologik bilim va ekologik tarbiyaga oid tamoyillarni belgilash muhim strategik vazifaga aylantirildi.

Ta’lim jarayonida ijtimoiy hodisalar negizida shaxsni tarbiyalashning eng ommabop vositasi, shubhasiz ekologik tarbiyadir.O’quv mashg’ulotlari jarayonida bola shaxsining ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirish, atrof- muhit tushunchasini rivojlantirishda ekologik tarbiyaning o’ziga xos jihatlari bor. Ekologiya atamasi yaqin vaqtlargacha faqat mutaxassislarga ma’lum bo’lib,uni fanga 1866-yili nemis olimi E.Gekkel kiritgan. ,,Ekologiya”so’zi ,,eko”-uy,turar joy”, ,,logos”-fan so’zlarini anglatib,u atrof-muhitning buzilishi va bunga sabab bo’lgan omillar,muhit halokatining oldini olish,chora -tadbirlarini ishlab chiqish borasidagi bilimlarni targ’ib etishdagi nazariyalarni ham O’rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muso al-Xorazmiy, Abu Nassr farobiy Abu Rayhon Beruniy ,Abu Ali ibn Sino kabi allomalar tabiat fanlariga katta hissa qo’shganlar. Jumladan,g’arb madaniyatining ajralmas qismi sifatida ekologik omil va tarbiyaning o’rni beqiyos. Buyuk yunon faylasufi Arastu barcha fanlarni tabiat va fizikaga ajratishi ham ularning tabiat sirlarini bilishga katta qiziqish bilan qaraganidan dalolat beradi. Qadimgi yunon tafakkurida,oldingi sahifalarda qayd etilganidek, ,,kullura” tushunchasining ,,yerga ishlov berish”, ,,yerni qayta ishlash” ma’nosida qo’llanilishi ham qadimgi yunonlar ta’savvurida ma’naviy madaniy hayotnni va tabiatning o’zaro bog’liq ekanligini ifodalaydi. Hozirgi

vaqtda o’quvchilarda ekologik bilim (ta’lim) va ekologik madaniyat (tarbiya) ning dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Jumladan bugungi mavzuyimiz ekologik tarbiya ekan,demak biz ekologik bilimda keying jarayonga aloqador bilimlarni almashamiz. Ekologik tarbiya-ekologik bilim mahsuli ya’ni ekologik nazariyaning amaldagi ko’rinishini axloqiy jihatdan shakllantirish me’yori. Bu izoh natijasida ekologik madaniyat atamasi vujudga keladi. Shuni aytish joizki,ekologik tarbiyaga ega bo’lgan shaxsda ekologik madaniyat yuksak ko’rsatkichga yetishi tabiiy holdir. Shu o’rinda mashhur g’arb olimi V.A.Suxamlinskiy talqini juda o’rinlidir. V.A.Suxamlinskiy shunday deydi:„tabiatni inson tushungandagina tabiat uning tarbiya manbasi bo’lib qoladi”.

Boshlang’ich sinf o’quvchisida ekologik tarbiyani shakllantirish bevosita atrofmuhitni o’rgatish bilanaloqadordir. Pedagogik izlanishlar natijasida o’quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirishning metodlari,usul va uslublari aniqlangan. O’quvchilarda tarbiya turini shakllantirishda pedagogic kuzatuv, suhbat va savol-javob metodlari muhim o’rin tutadi.

1. **Pedagogik kuzatuv**-mazkur metod o’quvchi shaxsini tabiiy holda hamda maxsus tashkil etilgan sharoitlarga o’rganish uning ruhiy-irodaviy,intelektual irodaviy hamda emotsional xususiyatlarini aniqlash,ularga tayangan holda o’quvchiga muayyan ta’sir ko’rsatish xususida umumiy ta’savvurni hosil qilishda



muhim ahamiyat kasb etadi. Mening nazdimda ushbu metodning ekologik tarbiyani shakllantirishdagi boshlang’ich metod sifatida qaralsa o’rinli bo’ladi. Kuzatish metodi orqali o’quvchi shaxsining tabiat va undagi muammolarga qarashini, savol-javob yoki hikoya vaqtida,muzokaralar jarayonindagi talqinini o’rganishga foyda beradi.

2. **Suhbat metodi:** mazkur metod bevosita kuzatish metodi bilan uyg’undir. Suhbat metodi orqali o’quvchi shaxsida ekologik tarbiyani shakllantirishning og’zaki usulidan foydalanilib,bu metod orqali ekologik tarbiyani turli hikoyalar,rivoyatlar,xalq og’zaki ijodi namunalari,jumladan maqollar orqali,tanqid va tahlilar yuzasidan olib boorish o’rinlidir. Suhbat metodida

o’quvchi shaxsiga hamda pedagog zimmasiga to’siqlar qo’yilmay,aksincha, erkin muloqoqt qurish tarbiyaning yetarlicha nuqtaga chiqishiga yordam beradi deb hisoblayman. Jumladan,o’rtaga tashlangan mavzu yoki muammoga ekologik bilimlarni ishga solgan holda fikr bildirish,jamoa bilan yohud pedagog orqali xato talqinlar va qarashlarga barham berish yoki ijobiy fikrlarni ekologik madaniyat darajasida shakllanishiga ko’maklashish mazkur metod faoliyatida amalga oshiriladi.

3. Savol-javob metodi. Mazkur metod suhbat metodining tub mohiyati asnosida shakllanadi. Savol-javob usuli pedagog va o’quvchi shaxsida faol muloqotni yuzaga keltiruvchda bir qator imkoniyatlarga ega. Bu metoddan samarali foydalanishning ham bir qancha vositalariga e’tibor qaratish joiz. Ya’ni: -pedagog tomonidan ishlab chiqilayotgan savollarning o’quvchi yoshiga va psixologik holatiga mosligi; -savollarning muayyan mavzu yoki holat mazmunining tahlil etishga yo’naltirilganligi; -savollarning bir-birini mantiqiy to’ldirib borishi,ular o’rtasida o’zaro aloqadorlik,izchillik hamda uzviylikka erishish; -savollarga to’la qonli javob berih uchun o’quvchilarga imkoniyat yaratish. Pedagog sifatida ekologik tarbiyani shakllantirar ekanmiz,albatta qadriyatlarga,urfodatlarga,ilmiy va badiiy adabiyotlarga tayanib mulohaza yuritish darkor. Bugungi kunda kuchli fuqarolik jamiyati qurish arafasida turgan davlat ekanmiz, pedagoglar zimmasiga o’quvchi shaxsini komil shaxs sifatida komol toptirish vazifasi kuchaytirildi. Jumladan komil shaxs dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan barkamol shaxs ekan,demak biz pedagoglar ta’lim tarbiya jarayonida,ayniqsa tarbiya nuqtayi nazarida ham diniy,ham dunyoviy manbalar negizida uzluksiz jrayonni olib borishimiz darkor. Jumladan, Qur’oni Karim, hadislar,qadimgi diniy manbamiz bo’lmish ,,Avesto”,qolaversa zamonaviy adabiyot namoyondalari asarlaridan suhbat va savol-javob metodlarimizdan foydalanishimiz o’rinli. Bugungi zamon hamnafasi bilan aytadigan bo’lsak,dunyo hamjamiyatlarida aynan ekologik tarbiyaga qanday yechimlar topilayotgani, bartaraf etilayotgani,usul va uslublaridan ham yetarlicha o’rganib,uni boshlang’ich sinf ishlanmalarimizga qo’shishimiz darkor. Jumladan rus pedagogikasidagi ekologik tarbiya yondashilgan usul samaralidir. Rus pedagogikasi uchun bolalarning tabiat bilan yaqin aloqasini shakllantirish maqsadida ekskursiyalar sonini ko’paytirish. Ushbu yondashuv bir tomondan bolada axloqiy tamoyillarni rivojlantirish, tabiatning go’zalligini ko’rish,uni his qilish va tushunish qobiliyatini, boshqa tomondan, bilim qiziqishini rivojlantirish, tabiatni bolani o’qitishning universal obyekti sifatida ko’rib chiqishni nazarda tutgan. Buning natijasida aqliy va axloqiy-estetik rivojlanish uchun tabiatdan foydalanishning katta imkoniyatlarini ta’kidlanadi. Bu metod orqali bolaning tabiat haqidagi bilimlarini va tabiat bilan aloqani kengaytirishni tavsiya qilaman.

XULOSA

Muhtasar aytganda, boshlang’ich ta’lim yoshidagi bolalarning ilmiy va kabiy bilimlarini rivojlantirishda ekologik tarbiyadan foydalanish bugungi kunning muhim vazifaalrdan sanaladi. Ta’lim jarayonida ekologik tarbiyani asosan amaliy jihatdan olib borilishi samarali usul deb hisoblayman. Shu asosda bolaning ekologik madaniyatini shakllantirishda yuzaga chiqarish mumkun bo’lgan natijaga erishiladi.

REFERENCES

1. 1.https://lex.uz/docs/-4354743.
2. Pedagogika. 1-qism (M.To'xtaxo'jayeva, S.Nishonova) Toshkent 2020
3. N. Isakulova. „Sinfdan tashqari o’quv jarayonida o’quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishnnig pedagogic shart-sharoitlari’ Toshkent-2012
4.https://voilokmaikop.ru/uz/istoriya-ekologicheskogo-obrazovaniya-kratkoekologicheskoe-obrazovanie-v.html

AKADEMIK LITSEYLARDA MATEMATIKA O‘QITISHDA RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIMNING O‘RNI

J.Pirekeev, *Ichki ishlar vazirligi Qoraqalpoq akademik liceyi Umum ta’lim fanlar kafedra boshlig’ı*

***R.Ibragimov**,Ichki ishlar vazirligi Qoraqalpoq akademik liceyi matematika fani o’qituvchisi*

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilgan islohotlar akademik litseylarni zamonaviy o‘quv-laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash, o‘quv dasturlari, o‘quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablarga mos holda yangilash, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sifati samaradorligini oshirish alohida ahamiyatga molik.

Akademik litseylarda matematika o‘qitishning xususiyatlari hamda muammolarini tadqiq qilish bo‘yicha bajarilgan ilmiy izlanishlar sifatida A.Abduxamidov, O.Musirmonov, A.Nasimov, A.Normatov J.Xusanov, A.YU.Bakirova, X.A.Sultonova, SH.S.Saipnazarov, I.U.Ibragimov, U.X.Xonqulov, E.O.SHaripovning ilmiy tadqiqot ishlarini ta’kidlab o‘tish mumkin. Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va undan foydalanishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, SH.S.Axrarov, U.SH.Begimqulov, R.Boqiev, M.X.Lutfullaev, I.I.Tayloqov, A.Haitov, U.YUldashev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Akademik litseylarda o‘qituvchilar matematika ta’limining butun muammosini o‘quvchilarga faqatgina muayyan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini berish bilan cheklanibgina qolmay, o‘quvchilarning shaxsiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi ham muhim. Ba’zi pedagoglar matematik rivojlanishni – matematika fani sohasidagi dalillar va malakalarni egallash

jarayoni oqibatida o‘z-o‘zidan kelib chiquvchi deb hisoblaydi. O‘quvchilarga matematikadan bir nechta formula, ta’rif va teoremalarni o‘tib, masalalar to‘plamidan bir necha yuz masalalarni echimini topish orqali zaruriy rivojlanishni egallaydi. Bilim, ko‘nikma va malakalarning mazkur miqdori kamaytirilsa, kutilgan natija va rivojlanishni ta’minlab bo‘lmaydi. Bu nuqtai nazar pedagogik jihatdan xato hisoblanadi.

Agar inson faoliyatida matematik teorema va formulalar ishlatilmasa, kundalik hayotda tenglamalar echilmasa, trigonometrik ifodalar hal qilinmasa, unda u maktabda va akademik litseyda uzoq vaqt o‘zlashtirishga harakat qilgan dalillar tezda unutiladi. Uning matematik rivojlanishigina buni saqlab qolishi mumkin.

Matematika o‘qitish nazariyasi va metodikasi o‘quvchilarning rivojlanishi, matematik tarbiyasi masalalariga borgan sari ko‘proq eътibor qaratmoqda. Bu haqda o‘qitish metodikasiga nisbatan asta-sekin o‘zgarib borayotgan qarashlar va bu bilan bog‘liq ravishda mazkur fan nomining o‘zgarishi guvohlik bermoqda: matematika metodikasi (matematikaga yo‘l) – matematika didaktikasi (matematika o‘qitish) – matematika pedagogikasi (matematik tarbiya). Zamonaviy umumta’lim dasturi ta’limning bosh maqsadlari qatorida “o‘quvchilarning intellektual rivojlanishlari”ning ko‘rsatilishi ham bejizga emas. Matematika ta’limi jarayonida o‘quvchilar shaxsini rivojlantirish masalasiga taniqli matematik, pedagog A.I.Markushevich katta eътibor qaratgan. Uning fikriga ko‘ra, maktabda matematika ta’limining butun muammosini o‘quvchilarga faqatgina muayyan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini berish bilan cheklash mumkin emas. Bu matematikaning umumiy ta’limdagi rolini qonuniy ravishda cheklagan bo‘lar edi.

Matematik dalillar bilan tanishish, matematik nazariyani tahlil qilish va o‘zlashtirish, formulalar hosil qilish, ko‘pgina sonli mashqlarni echish insonning qobiliyatlarini rivojlantirishi va uning shaxsini shakllanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishiga shubha yo‘q. Lekin mazkur vositalar, ayniqsa, ba’zi akademik litseylarda
odatlanib qolgan anъanaviy vositalar bilan zamonaviy sharoitlar, zamonaviy jamiyatda talab qilinadigan darajadagi matematik rivojlanish va tarbiya vazifasi ta’minlana olmaydi. Bu akademik litseylarda matematikani o‘qitishdagi zaif jihat bo‘lib, uni bartaraf etishga eътibor qaratish lozim.

Akademik litseylarda matematika fanini o‘qitishning maqsad hamda vazifalari mazmuni aynan rivojlantiruvchi ta’lim asosida o‘qitishni taqozo etadi. Matematika orqali o‘quvchilarda quyidagi tayanch kompetentsiyalar: kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish,ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika

yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish, fanga oid umumiy kompetentsiyalar: matematika mazmuniga oid va kognitiv kompetentsiyalar (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlashi) shakllantiriladi.

Rivojlantiruvchi ta’limning ta’rifi sifatida quyidagini belgilab olamiz: bu “muayyan fan sohasida axborot bilan ishlash usullarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, uning bevosita natijasi aqliy rivojlanish va bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish hisoblanadi”.

Akademik litseylarda axborot-rivojlantiruvchi ta’lim asosida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini shakllantirish va kompetentsiyalarni egallashi zarur deb hisoblaymiz. Rivojlantiruvchi ta’limni amaliy qo‘llashning xilma-xil yo‘llarini inobatga olgan holda, biz shuni aniq tushunamizki, akademik litseylarda axborot sharoitida o‘quvchilar bilish jarayonlarining ijodiy va tadqiqotchilik xususiyati tashqaridan belgilangan emas, balki maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonining natijasidir. Uni ham va buni ham shakllantirish zarur. Axborot hajmining jadal o‘sish surъati yaqqol ifodalanuvchi axborot-rivojlantiruvchi yo‘nalgan ta’lim texnologiyasini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi. SHuning uchun modelь asosi sifatida o‘qitishning axborot-rivojlantiruvchi metodi qabul qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov A.A. Teoriya i praktika intencifikatsii podgotovki uchiteley fizika-matematicheckix dictiplin. Acpekt icpolьzovaniya kompyuternыx credctv v uchebno vocpitatelьnom protsecce: Dicc...dokt.ped.nauk. (13.00.01., 13.00.02.) – T.:1990. – 360 c.

2. Xonqulov U.X. Akademik litseylarda matematikaning stoxastika yo‘nalishi elementlarini o‘qitishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish: ped.fan.bo‘yicha fal.dok.dis. –Toshkent, 2019.

3. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy acoclari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.– 160 bet.

USHINCHI RENESSANS BARPO ETILISHIDA ANIQ FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Rajabov Elyor Baxtiyorovich

“Nukus Temurbeklar” maktabi harbiy-akademik litsey fizika fani o‘qituvchisi

Biz yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga jazm qilgan ekanmiz, birinchi galda ta’lim-tarbiya masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishimizga to‘g‘ri keladi. Ta’lim deganda men nainki ongimizga mahkam o‘rnashgan Maktabgacha ta’lim tashkiloti– maktab – o‘rta maxsus – oliy ta’lim tizimini, balki, keng ma’noda, ma’rifatli jamiyat qurish, odamlarning ilmga munosabatini o‘zgartirish masalasini ham nazarda tutmoqdaman. Mana shunday

go’zal jannatmakon yurtda biz tug’ulganimiz va uchinchi renesansni barpo etishda biz yoshlar ham o’z xissamizni qo’sha olishimiz biz uchun albatta katta sharafdir [1. 2170.]

“Renessans” lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan.

Ta’limni rivojlantirish - mamlakat rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Chunki davlatning taraqqiy etishi fuqarolarning ma’naviy va ma’rifiy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar bilan qurollangani hamda har tomonlama rivojlangan va jahon talablariga javob bera oladigan bilimli yosh kadrlari bilan belgilanadi. O‘z navbatida jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirish uchun ham bilimli kadrlar talab etiladi. Shunday ekan, ta’limni izchil rivojlantirish, yoshlarga zamonaviy bilimlar berish, ularga o‘z ustlarida mustaqil ishlash va ilmiy izlanishlar o‘tkazishni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borishi bilan, u jamiyatning barcha sohalariga kirib bormoqda. Ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilar uchun bir qator: fan materiallarini elektron shaklda tayyorlash, taqdimotlar tayyorlash, mavzulami multimedia vositalari yordamida tushuntirish, tajriba ishlarini vizual tarzda bajarib ko‘rsatish, amaliy masalalarning yechimlarini yuqori aniqlikda olishni o‘rgatish va boshqa ko‘plab qo‘shimcha qulayliklar yaratadi. Fanlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish fan xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Xususan, aniq fanlami o‘qitishda murakkab masalalarni yechish, ko‘p bajariladigan sikllarni hisoblash, funksiyalar grafiklari, ayniqsa, uch o‘lchamli grafiklarni chizish hamda barcha sohalarning murakkab masalalarini yechish o‘rgatiladi. Bu masalalarni qo‘lda yechish ancha qiyinchilik va muammolar tug‘diradi. Shu sababli mazkur muammolarni kompyuter dasturlari yordamida yechish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan masalalarni dasturlash tillari va matematik dasturiy paketlar yordamida hal qilish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, dasturlash tillarida har bir masalani yechish uchun uning

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etishning asosiy maqsadi bugungi axborot olamiga xos bo‘lgan yangi turdagi ta’lim faoliyatining paydo bo‘lishiga yordam berishdir. Boshlang‘ich ta’lim odatda

ta’lim tizimining tamal toshi sifatida tanilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ta’lim sifati unga bog‘liq bo‘lib, bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga katta mas’uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida boshlang‘ich maktab "mahorat maktabi" sifatida qaralib, keyingi bilim olish uchun o‘quvchi o'qish, yozish va hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni egallashi kerakligini anglatadi. Bu ta’lim bosqichi deb hisoblanadi. Bugungi dunyoda boshlang‘ich ta’limga boshqa nuqtai nazardan qaraladi. Bugungi kunda u ta’lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta’lim olish kuchlarini sinash joyi bo‘lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta’lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o‘quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o‘qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o‘quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o‘qishga o'rgatish — zamonaviy boshlang‘ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi. Aniq fanlarni o‘qitish jarayonida AKTdan foydalanish faqat asosiy yo‘nalishlari shakllanadi[2. 372]

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta’lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, o‘quvchi va talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, isonparvarlik tuyg‘ulari tizimi shakllantiriladi. Hozirgi ta’lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan iborat. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o‘z bilim va tajribalarini o‘sib kelayotgan avlodga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har qanday o‘qitish jarayonining samarasi, uning qanday metodlar asosida rejalashtirilishiga bevosita bog‘liqdir. Shundan kelib chiqib, ta’lim tizimida o‘qitish jarayoni ya’ni o‘quv mashg‘ulotlarida intellektual va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash vaqtini tejash bilan birga, amaliy ko'nikmalari shakllantirish, fikrini erkin bayon eta olish, o‘tilayotgan materiallarni tez o‘zlashtirish, keng raqobatni shakllantirish va talaba yoshlarning aniq fanlarga qiziqishlari oshishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxamadaliyeva M.X., Normamatova Y. Uchinchi renesansni barpo etishda talaba yoshlarning shaxsiy va kasbiy tashabbuslari // Science and

innovation international scientific journal Volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

2. Gulbahor Yuldasheva, Hilola Shermatova Aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish//SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1601

KIMYO FANINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Saparbaeva Zamira Bazarbaevna

O‘zbekistan Respublikasi IIV Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: **Bugungi kunda organik kimyoni o‘qitishda o‘quvchilar bilimida bo‘shliqlar aniqlanmoqda. Ana shu bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan didaktik materiallardan namunalar keltirilgan.**

Kalit so‘zlar: **darslik, o‘quv dasturi, bo‘shliq, faoliyat, metodika, didaktika, pedagogika, kichik guruh, dars, o‘qitish.**

Z**amonaviy ta'limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.**

Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'i nazar pedagogik texnologiyalar:

- **pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;**
- **o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;**
- **o‘quvchilar tomonidan fanlar bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;**
- **o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;**
- **o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;**

pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda tahsil oluvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol metod texnologiyasining mohiyati o‘quvchilarning ijodkorligiga tayanish va darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug‘dirishdan iboratdir. Bu metodga ko‘ra darslar bir necha bosqichga bo‘linadi:

1. Tashkiliy bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilarni faollashtirish, mavzuining mazmun mohiyatiga kirib borish, uni anglab etish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko‘zda tutiladi.

2. Aqliy hujum. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo‘llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo o‘quvchilarga aqliy hujum yo‘li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali olinadi.

3. Tushunish bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshitiladi va o‘qituvchi tomonidan yangi fikrlar tomonidan to‘ldiriladi.

4. Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa jumlalarda yozma ravishda bayon qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh topshiriq bo‘yicha o‘z fikrini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga ma’lum qiladi. Organik kimyo fanini o‘tishda quyidagi didaktik o‘yinlarni qo‘llash mumkin:

“Uchinchisi ortiqcha” o‘yini. O‘yin tartibi: o‘quvchilar o‘zlariga berilgan topshiriqdagi ortiqcha tushunchani topishlari kerak. Bunda atamalar yoki moddalar aralashtirib beriladi. Masalan: 10-sinfda “Uglevodlar” mavzusi bo‘yicha ushbu o‘yinni quyidagicha o‘tkazish mumkin.

Ortiqcha uglevodni aniqlang.

1. glyukoza, maltoza, fruktoza.
2. saxaroza, riboza, sellyuloza.
3. fruktoza, kraxmal, sellyuloza.

«Kim eng ko‘p kimyoviy formula yozadi» o‘yini. O‘yin tartibi: o‘quvchilar oldida faqat qog‘oz va qalam bo‘lishi kerak. O‘yinni «uglevodarodlar», «aminokislotalar», «oqsillar» mavzusi bo‘yicha o‘tkazish

ayniqsa yaxshi natija beradi. Bu o‘yin uchun ma’lum vaqt belgilanadi. Masalan, «aminokislotalar» mavzusi e’lon qilinadi deylik, o‘quvchilar esa belgilangan vaqt ichida o‘zlari bilgan barcha aminokislotalarni yozib chiqadilar. Yozilgan har bir aminokislota uchun bir ball beriladi. Ball sifatida rangli kartochkalar beriladi. O‘yinda eng ko‘p kartochka to‘plagan o‘quvchilar g‘olib hisoblanadi.

“Kim chaqqon?” o‘yini. o‘yin tartibi: bunda o‘qituvchi har bir guruh sardoriga atom-molekula sharlarini tarqatadi va o‘zi oldindan tayyorlab kelgan (parta soniga qarab) moddalar formulasi yozilgan qog‘ozlarni tarqatadi va 3 daqiqa vaqt belgilab, shu formula asosida atom sharlarida moddalarning struktura tuzilishini yasashni aytadi va o‘quvchilar modda nomi va birikmadagi elementlarning valentligini ham aytishi zarur. Qaysi guruh chaqqonlik bilan birinchi bo‘lib topshiriqni bajarsa, shu guruh sardori yana 5 ball olish imkoniyati ya’ni rag‘batga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o‘rganish jarayonida noan’anaviy usullarni qo‘llash o‘quvchilarning ilm olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, ularning mustaqil fikrlashiga, o‘z nuqtai nazarini erkin bayon eta olishiga, darslik, qo‘shimcha ta’lim vositalaridan mustaqil bilim ola bilishiga yordam beradi. Bu o‘rinda fan o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi va to‘liq qondirishi, ta’limning tashkiliy shakllarini tanlashidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tolipov O‘, No‘monova N.Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Xalq ta’limi.-Toshkent,2016.

2. A.Mavlyanov va boshqalar “dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish” Toshkent. 2018 y

3.Choriev R.Yangi pedagogik texnologiyalar-ta’lim–tarbiya sifat va samaradorlik omili. Toshkent - 2015.254-255 b.

4. Zunnunov A, Didaktika (Ta’lim nazaryasi).-Toshkent.,2016.-132 b.

Simmetrik almashtirishlar xossalari va yechimlar guruhlari

Qutlimuratov Bobur Baxrom o‘g‘li- *“Jaloliddin Manguberdi” nomidagi harbiy akademik litseyi matematika fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun Simmetrik almashtirishlar xossalari va yechimlar guruhlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: nochiziqli Shredinger tenglamasi, soliton yechim.

Quyidagi

$$iu_t + u_{xx} + \mu|u|^2 u = 0, \qquad (1)$$

kubik nochiziqli Shredinger tenglamasini qaraymiz. Bu yerda $u = u(x,t)$ ikkita x, t haqiqiy o‘zgaruvchining kompleks qiymatli funksiyasi va μ nolga teng

bo‘lmagan haqiqiy parametr. Nochiziqli Shredinger tenglamasining fizik modeli (1) va uning umumlashmalari fizikaning turli sohalarida, masalan, optika, suv to‘lqinlari, plazma fizikasi, kvant mexanikasi, yuqori o‘tkazuvchanlik va Bose-Eynshteyn kondensat nazariyasida uchraydi. Optikada nochiziqli Shredinger tenglamasi (1) toladagi ko‘plab nochiziqli ta’sirlarni modellashtiradi, shu jumladan o‘z-o‘zidan fazali modulyatsiya, to‘rt to‘lqinli aralashtirish, ikkinchi garmonik hosil qilish va boshqalar. Suv to‘lqinlari uchun nochiziqli Shredinger tenglamasi (1) modulyatsiyalangan nochiziqli to‘lqin guruhlari paketining evolyutsiyasini tavsiflaydi.

Yaxshi ma’lumki nochiziqli Shredinger tenglamasi $\mu > 0$ fokuslangan holat uchun

$$u(x,t) = k\sqrt{\frac{2}{\mu}}\,\mathrm{sech}\big(k(x-2\alpha t)\big)e^{i\left[\alpha x-(\alpha^2-k^2)t\right]}, \qquad (2)$$

ko‘rinishidagi “yorug‘ ” soliton yechimga ega. Bu yerda α va k ixtiyoriy haqiqiy o‘zgarmaslar.

$\mu < 0$ fokuslanmaydigan holat uchun

$$u(x,t) = k\sqrt{-\frac{2}{\mu}}\,\tanh\big(k(x-2\alpha t)\big)e^{i\left[\alpha x-(\alpha^2+k^2)t\right]}, \qquad (3)$$

“qorong‘u” soliton yechimga ega. Bu yerda α va k ixtiyoriy haqiqiy o‘zgarmaslar. Ushbu yechimlar lokal harakatlanuvchi to‘lqinlar uchun amal qiladi. Fokuslangan nochiziqli Shredinger tenglamasi va fokuslanmaydigan nochiziqli Shredinger tenglamasining n-soliton yechimlari sochilish nazariyasining teskari masalasi, Darboux almashtirishi va Hirota bichiziqli usuli bilan hisoblanishi mumkin. Budan tashqari, $\tilde{u}(x,t) = u(ix,-t)$ fokuslangan nochiziqli Shredinger tenglamasi va fokuslanmaydigan nochiziqli Shredinger tenglamasi o‘rtasida Backlund almashtirishini qo‘llash mumkin.

Bu paragrafda biz nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun simmetrik almashtirishlar va unga mos keluvchi bir parametrli yechim guruhlarini keltiramiz.

Bilamizki nochiziqli Shredinger tenglamasining chiziqli tenglamasi quyidagicha berilgan

$$i\sigma_t + \sigma_{xx} + 2\mu|u|^2\sigma + \mu u^2\overline{\sigma} = 0, \qquad (4)$$

Bu yerda $\overline{\sigma}$ - σ ning kompleks qo‘shmasi.

Ushbu

$$\sigma_1 = iu, \quad \sigma_2 = u_x, \quad \sigma_3 = u_t, \quad \sigma_4 = ixu - 2tu, \quad \sigma_5 = u + xu_x + 2tu_t, \quad (5)$$

ya’ni, σ_i $(1 \le i \le 5)$ besh funksiyalar, nochiziqli Shredinger tenglamasining chiziqli tenglamasini qanoatlantiradi.

Eslatib o‘tamiz, vektor maydonlarining kommunikatori

$$[K_1,K_2]=K_1'(u)[K_2]-K_2'(u)[K_1], \qquad (6)$$

bilan aniqlanadi. Bu yerda $K'(u)[S]$ orqali $K'(u)[S]=\left.\frac{\partial}{\partial\varepsilon}\right|_{\varepsilon=0} K(u+\varepsilon S)$ Gateaux hosilasi belgilangan. σ_i $(1\le i\le 5)$ simmetriyalari vektor maydonlari kommutatori ostidagi kompleks maydon ustida besh o‘lchovli Lie algebrasi va $[\sigma_r,\sigma_s]$ $(1\le r<s\le 5)$ da nolga teng bo‘lmagan kommutatorlar quyidagilardir:

$$\begin{aligned}&[\sigma_2,\sigma_4]=\sigma_1,\ \ [\sigma_2,\sigma_5]=\sigma_2,\ \ [\sigma_3,\sigma_4]=-2\sigma_2,\\ &[\sigma_3,\sigma_5]=2\sigma_3,\ \ [\sigma_4,\sigma_5]=-\sigma_4.\end{aligned} \qquad (7)$$

Bunda $\sigma_1,\sigma_2,\sigma_3$ simmetriyalar mos ravishda $u-$masshtab invariantligiga, x va $t-$almashtirish invariantlariga mos keladi. σ_4 va σ_5 simmetriyalari Galiley invariantligi va umumiy o‘lchov o‘zgarmasligidan olingan ikkilik τ simmetriya deb ataladi.

Ko‘rinib turibdiki, σ_i $(1\le i\le 5)$ simmetriyalar quyidagi tarzda beshta bir parametrli yechimlar guruhini hosil qiladi.

$$\begin{cases}\tilde u_1(x,t)=e^{i\varepsilon}u(x,t),\\ \tilde u_2(x,t)=u(x+\varepsilon,t),\\ \tilde u_3(x,t)=u(x,t+\varepsilon),\\ \tilde u_4(x,t)=e^{i(\varepsilon x-\varepsilon^2 t)}u(x-2\varepsilon t,t),\\ \tilde u_5(x,t)=e^{\varepsilon}u(xe^{\varepsilon},te^{2\varepsilon}),\end{cases} \qquad (8)$$

Bu yerda u nochiziqli Shredinger tenglamasini qanoatlantiradi, ε esa ozod haqiqiy parametr. $\varepsilon=\pi,\frac{\pi}{2}$ bo‘lganda birinchi yechim guruhi $\tilde u_1$ mos ravishda $-u$ va iu maxsus yechimlarni qabul qiladi.

Nochiziqli Shredinger tenglamasi ham akslantirish simmetriyasiga ega. $t-$ o‘qqa nisbatan simmetrik ekanligidan $u(x,t)$ yechim yangi $u(-x,t)$ yechimni hosil qiladi. Shunday qilib, biz quyidagi ikkita besh parametrli yehimlar guruhini hosil qilamiz.

$$\tilde u_\delta(x,t)=e^{i\left(\alpha x e^{\beta}-\alpha^2 t e^{2\beta}+\eta_0\right)+\beta}u\left(xe^{\beta}-2\delta\alpha t e^{2\beta}+\xi_0,te^{2\beta}+\zeta_0\right), \qquad (9)$$

Bu yerda $\delta=\pm 1$ va beshta erkin parametr $\eta_0,\xi_0,\zeta_0,\alpha,\beta$ mos ravishda beshta $\sigma_1,\sigma_2,\sigma_3,\sigma_4,\sigma_5$ simmetriyalariga mos keladi. Ushbu ikki yechimlar guruhlari har xil yangi ma’lum yechimlarni qurish uchun ishlatilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. A. Hasegawa, Y. Kodama, Solitons in Optical Communications, Oxford University Press, New York,1995.

2. A. Tovbis, S. Venakides, The eigenvalue problem for the focusing nonlinear Schr¨odinger equation: new solvable cases, Physica D 146 (2000) 150–164.

3. A.D. Polyanin, V.F. Zaitsev, Handbook of Nonlinear Partial Differential Equations, Chapman & Hall/CRC, Boca Raton, 2004.

4. A.H. Khater, W. Malfliet, D.K. Callebaut, E.S. Kamel, The tanh method, a simple transformation and exact analytical solutions for nonlinear reaction–diffusion equations, Chaos Solitons Fractals 14 (3) (2002) 513–522.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Temirova Muqaddas Ulug‟bek qizi-*O‘zbekiston Respublikasi IIV Jizzax Akademik litseyi Ona tili va Adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ta‘lim uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uning sifati darsda qo‘llanilgan metodlarga bog‘liq. Darsning mazmunli o‘tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o‘qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Mazkur maqolada ona tili va adabiyot darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: interfaol usullar, ona tili, adabiyot darslari, o'quvchilarning faolligi, tilni bilish, tanqidiy fikrlash, madaniy tushunish, innovatsion texnologiya, charxpalak, taqdimot usuli, tanlash, ixtiyoriy, bajarish, majburiy, imkoniyat, metod, texnologiya.

KIRISH. Ona tili va adabiyot darslari o`quvchilarning til ko`nikmalarini, madaniy

tushunchalarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi o`rin tutadi. Ushbu darslarning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilar tobora ko'proq o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladigan interfaol usullarga murojaat qilmoqdalar. Ushbu maqola ona tili va adabiyot darslarida qo`llaniladigan turli interfaol usullar, ularni amalga oshirish va o`quvchilarning bilim olish natijalariga ta‘sirini o`rganishga qaratilgan.

Natijalar: Ona tili va adabiyot darslarida interfaol usullarning joriy etilishi istiqbolli natijalarni ko`rsatdi. O‘quvchilar munozaralarda faol ishtirok etadilar, yaxshilangan til bilimlarini namoyish etadilar va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Interfaol o'qishlar va multimedia taqdimotlari tushunish va madaniy tushunishni kuchaytiradi. Rol o'ynash va hikoya qilish faoliyati o'quvchilarda ijodkorlik va empatiyani rivojlantiradi.

Bugungi kunda tezlik bilan o`zgarayotgan, jadallashib rivojlanayotgan dunyoda xalqimiz ertasiga ishonch bilan intilayotgan, to`g`ri tanlangan taraqqiyot yo`lidan og`ishmaslik uchun yosh avlodni yangicha tafakkur va yangicha yondashuvlar asosida tarbiyalash muhimligi barchaga ayon. Hozirda olib borilayotgan ta‘lim sohasidagi tub islohotlarning negizida ham ta‘lim mazmuni va shaklini takomillashtirish yotadi. Hozirgi bolalarning olamni bilishga bo`lgan ehtiyoji va qiziqishi oldingi yillarga nisbatan ancha farqli ekanligi ham sir emas. Yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik ―qurol― va vositalar bilan ta‘minlash davr taqozosidir.

Zamonaviy ta‘lim oldida turgan eng muhim vazifa o`quvchining ilm olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Bu vazifa esa darslarda zamonaviy yangi pedagogic texnologiyalar, interfaol usullar vositasida amalga oshirilishi samaraliroqdir. Interfaol usullar o`quvchilarga tez muddatda samarali ta‘sir etishi, o`quvchilarda mustaqil fikrlashni, ulardagi ijodkorlik hamda mavzu mohiyatini qiziqib o`zlashtirishlarini ta‘minlaydi.Jumladan maktabda adabiyot darslarida ham interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini ta‘minlabgina qolmay, o`quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni ham oshiradi.

―Rolli o`yin― usuli - ta‘lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shartsharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi usuldir. Rolli o`yinlar o`quv jarayonida ta‘lim oluvchilar motivatsiyasini shakllantitishga yordam beradi.‖Rolli o`yin usulini qo`llash uchun avval senariy ishlab chiqiladi,o‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi, so`ngra rollar taqsimlanadi, rollari haqida tushunchaga ega bo`lgan ishtirokchilar tomonidan rollar ijro etiladi va yakuniy xulosaga kelinadi. Masalan, 6-sinfda Abayning “Nasihatlar” asarini o‘tishda Yurak, Aql va G‘ayrat o‘rtasida bo‘lib o`tgan bahsni rollarga bo‘lib o`qitish va sahnalashtirish o`quvchilarning to`g`ri xulosa chiqarishlariga yordam beradi.

―”Mozaika” usuli – bo`laklardan yig‘ib butun hosil qilishdir. Bu usuldan foydalanish uchun harflar yoki so‘zlar oldindan kartochkalarga ya‘ni tarqatmalarga yozilgan bo`lishi kerak. O`quvchilar harflar yoki so`zlar ketma-ketligini to`g`ri joylashtirib berilgan topshiriqni bajarishlari lozim.adabiyot darslarida she’r,asar, janr nomlari, badiiy san’at turlari berilishi mumkin. Bundan tashqari biror asarga oid rasmlarni qirqib bo`laklab qo`yilsa,o‘quvchi uni yig`ib rasm asosida asar haqida ma‘lumotlar berishi mumkin. Darsda guruhlar bilan ishlaganda ham bu usuldan samarali foydalansa bo‘ladi.

―”Nuqtayi nazaring bo‘lsin” usuli – bu usul dars jarayonida qo`llanganda o`quvchilar muayyan mavzuda o`z nuqtai nazarini asosli dalillab, uni himoya qilishga o`rganadilar, o`quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o`z fikrlarini sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini

o`zgartirishga ishontiradigan g`oyalarni eshitib o`zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini beradi. Hatto darsda faol bo`lmagan o`quvchilarni ham savollar orqali munozara jarayonida ishtirok etishlariga majbur qiladi. 6-sinfda Tog`ay Murodning —”Yulduzlar mangu yonadi” asari g`oyasini tushuntirishda “Nuqtayi nazaring bo`lsin”usulidan foydalanib darsni tashkil etish mumkin. Bu usulning maqsadi shuki o`quvchining bevosita adibning ijodi, ma‘naviy merosimizga qo`shgan ulkan hissasi to`g`risida (adibning o`zidan ,yor-u do`stlari tomonidan bayon etilgan) videolavhalarda ko`rsatish,asardagi so`zlarni o`quvchi tomonidan o`qitilmay,balki asar qahramonlari tomonidan videolavhalar orqali yetkazishni ta‘minlashdan iboratdir.

O`qituvchi tayyorlangan bu lavhalarni ko`rsatish bilan bir qatorda uni izohlash, to`ldiribborishi, o`quvchilarni jalb qila olishi, tanqidiymushohadali fiklarini eshitishi, xulosalab borishi dars samaradorligini yanada oshiradi. —”Klaster” metodi. Klaster (g`uncha, bog`lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo`lib, u o`quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o`ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g`oyalar o`rtasidagi aloqalar to`g`risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob‘ektga yo`naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog`liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o`quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o`zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo`lishini ta‘minlashga xizmat qiladi

Dars – ta‘limning asosiy shakli bo`lib, murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi.respublikamizda ta‘lim sohasida chuqur islohotlar o`tkazilayotganligi, ayrim xorijiy ta‘lim tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar, jahon ta‘lim standartlariga yaqinlashishga intilish, darslik va o`quv dasturlarining yangi avlodi yaratilishi darsni yanada ixcham va qiziqarliroq shaklda tashkil etilishi uchun zamin bo`lmoqda. Maqolada ta‘limning interfaol usullarining ayrimlari haqida ma‘lumot berildi xolos. Ularni boyitish,to`ldirish, yangi-yangi usullarni kashf etish, dars samaradorligini oshirish barchamizdan izlanishni talab etadi .

Ma'lumki, muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o‘z darslarida qo‘llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi.

Bugungi kun o‘qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta‘limtarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta‘minlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim va hayotiy ko‘nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik,

xalqparvarlik tuyg‘ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta‘lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta‘lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi.

Ko‘p yillar davomida an‘anaviy dars o‘tish ta‘limning asosiy shakllaridan biri bo‘lib keldi. An‘anaviy darsda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o‘quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda
bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan‘anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta‘minlashni taqozo etadi. Noan‘anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg‘ulot turidir. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to‘qnashuvi yuzaga keladi. O‘quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog‘onaga ko‘tariladi. O‘qituvchi shu tarzda o‘quvchilarni faollashtiradi, o‘zlashtirishi past o‘quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi. Ta‘lim uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uning sifati darsda qo‘llanilgan metodlarga bog‘liq. Darsning mazmunli o‘tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o‘qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to‘g‘ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaolmetodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o‘qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o‘tishni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchi doimo o‘z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo‘lishi va o‘z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo‘lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o‘quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo‘ladi. Ma‘lumki, hozirgi kunda interfaol

metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan. Keng qo‘llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”,”Taqdimot”, “Blits-so‘rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida “Sinkveyn”,”Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida; “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”,”Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta‘minlab, o‘quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. O`zbek tili darslarida ham yuqorida sanab o‘tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha… yo‘q”, “Ta‘rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin vaqtida o‘quvchilaro‘zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, qat‘iyat paydo bo‘ladi. Munozaraga kirishishni o‘rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asaosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi.

—”Charxpalak”. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo‘lim tugallanganda o‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash,mustahkamlash uchun mo‘ljallangan.

”Charxpalak” texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar sharoitga qarab guruhlarga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a‘zolariga tarqatiladi;
- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o‘ng

burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o‘zining ramziy belgisini qo‘yib ushbu tarqatmani keyingi guruhga “charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiradilar;

—boshqa guruh a‘zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o‘zgartirishlar kiritadilar; materialning oxirgi almashishidan so‘ng har bir guruh o‘zi ilk bor to‘ldirgan tarqatmani o‘z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;

— o‘qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda to‘g‘ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to‘g‘ri javob aytib o‘tiladi;

—har bir o‘quvchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o‘zlarini baholaydilar.

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda mashg‘ulot o‘tkazish uchun

o‘quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin:

So‘z ma‘nosining ko‘chish usullari.

Ona tili fanidan "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari mavzusi o'rganilgandan

so'ng o'quvchilarga "Guruhlarda ishlash texnologiyasi" yordamida "Men to'ldiruvchiman!" mavzusida ijodiy matn tuzish beriladi. Ushbu metod yakka tarzda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham amalga oshishi ham mumkin. Mavzu borasidan matn o'quvchilar yordamida taqdim etiladi. Bu texnologiya yordamida o'quvchilarning jamoada ishlash malakalari shakllantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish ko'nikmasi yanada mustahkamlanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imloviy savodxonligini mustahkamlash niyatida matn yaratish borasidan ko'pgina qiziqarli topshiriqlar taqdim etish mumkin. Shuningdek, "Morfologiya" bo'limini o'tish vaqtida har bir so'z turkumi borasidan grammatik ertak to'qish vazifasi berilsa, o'quvchilarning grammatik savodxonligi yaxshilash bilan birgalikda mantiqiy mushohada qilish qobiliyati takomillashadi, ijodkorligi oshadi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sohasidagi muhim yo’nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya metodlarini joriy etishdan iborat.

Xulosa

Ona tili va adabiyot darslarida o`quv natijalarini oshirishda interfaol usullar samarali ekanligi isbotlandi. Pedagoglar o`quvchilarga yo`naltirilgan ta‘lim muhitini uchun ushbu usullarni o`rganish va amalga oshirishda davom etishlari kerak. Interfaol usullarning o`quvchilarning tilni bilishi, tanqidiy fikrlashi va madaniy tushunchasiga uzoq muddatli ta’sirini baholash uchun keyingi tadqiqotlar zarur. Bundan tashqari, o'qituvchilarning interfaol usullarni samarali

qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun malaka oshirish dasturlarini taklif qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Rafiyev A. , G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik).T. , “Sharq”, 2013.

Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to‗plami. T. “Navro‘z”, 2018.

Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , ―Iqtisodiyot‖, 2012.

“Umumta’lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018. 5.”Til va adabiyotta‘limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018.

“Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018.

Rafiyev A. , G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.

Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to`plami. T. “Navro‘z”, 2018.

Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , “Iqtisodiyot”, 2012.

“Umumta’lim fanlari metodikasi”jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018. 5. “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018

Saydalievich, U. S., Abdurashid ogli, A. S., & Qurbonboy ogli, X. J. (2021). UNDERSTANDING AND CONCEPTING BALLS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 924-929.

Ismoilovich, M. R., Saydaliyevich, U. S., & Murodjon og, B. K. (2022, May). РОЛЬ ВОЕННОЙ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ В ВООРУЖЕННЫХ СИЛАХ. In NTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 447-452). Akhmedov, A. N., & Abdurakhimov, S. A. (2018). The study of the grinding process of rushanka from the nuclei of cotton seeds of different varieties. CHEMISTRY AND CHEMICAL ENGINEERING, 2018(3), 17

Nyuton ko’pyoqliklari va darajali almashtirishlar

Xazratova Gulshoda Abdulatif qizi

O‘zbekiston Respublikasi IIV ning Xorazm akadimek litseyi o‘qituvchisi. Urganch sh.

E-mail: xazratovagulshoda5@gmail.com

Annotatsiya. Nyuton ko’pyoqligi, Nyuton diagrammalari tushunchalari keltirilgan. Qatorning Nyuton ko’pyoqligi, qatorning Nyuton diagrammasi ta’riflari berilgan. Darajali almashtirishlarning ta’riflari va ularning ayrim

xossalari keltirib o'tilgan. Shuningdek, Nyuton ko'pyoqliklariga doir misollar ham qaralgan.

Annotation. Concepts of Newton's multiplicity, Newton's diagrams are presented. Definitions of Newton's multiplicity of series and Newton's diagram of series are given. Definitions of level substitutions and some of their properties are given. Examples of Newton's polynomials are also considered.

Kalit so'zlar: Nyuton ko'pyoqligi, Nyuton diagrammasi, qatorning Nyuton ko'pyoqligi, qatorning Nyuton diagrammasi, darajali almashtirishlar.

Biz $\mathbb{N}$, $\mathbb{R}_+$, $\mathbb{R}$ bilan mos ravishda natural sonlar to'plamini, musbat haqiqiy sonlar to'plamini va haqiqiy sonlar to'plamini belgilaylik. Faraz qilamiz $K \subset \mathbb{N}^k$ bo'lib, bu yerda

$$K = \{n: n = (n_1, n_2, \dots, n_k) \in \mathbb{N}^k\},\ N_0 = \{0,1,2,3, \dots n, \dots\},\ n_i \in N_0$$
$$i = 1,2, \dots, k.$$

1-tarif. K to'plamning Nyuton ko'pyoqligi deb

$$\bigcup_{n \in K} (n + \mathbb{R}_+^k)$$

to'plamning $\mathbb{R}_+^k$ dagi qavariq qobig'iga aytiladi.

2-tarif. K to'plamning Nyuton diagrammasi deb, K to'plamning Nyuton ko'pyoqligining barcha kompakt yoqlarining birlashmasiga aytiladi.

K to'plamning Nyuton ko'pyoqligi odatda $\Gamma_+(K)$ orqali, K to'plamning Nyuton diagrammasi esa $\Gamma(K)$ orqali belgilanadi.

Ikki o'zgaruvchili $f(x)$ funksiyaning Teylor qatorini qaraymiz:

$$f(x) = \sum_{n \in N_0^2} a_n x^n,$$

bu yerda $a_n = a_{n_1 n_2} \in \mathbb{C},\ n = (n_1, n_2)$ bo'lib, $n_1, n_2 \in N_0$ daraja ko'rsatkichlari, $x = (x_1, x_2)$ noma'lum. x^n monom $x^n = x_1^{n_1} x_2^{n_2}$ kabi aniqlanadi. Bu qator uchun $suppf$ bilan f funksiyaning tashuvchisini belgilaylik. $suppf$ quyidagicha aniqlaniladi:

$$suppf = \{(n_1, n_2) \in N_0^2:\ a_{n_1 n_2} \neq 0,\ n_1, n_2 \in N_0\}.$$

yoki qisqaroq

$$suppf = \{n \in N_0^2: a_n \neq 0\}.$$

kabi aniqlanadi.

3-tarif. f qatorning Nyuton ko'pyoqligi deb $suppf$ to'plamning Nyuton ko'pyoqligiga aytiladi va $\Gamma_+(f)$ kabi belgilanadi.

4-tarif. f qatorning Nyuton diagrammasi deb $suppf$ to'plamning Nyuton diagrammasiga aytiladi va $\Gamma(f)$ yoki $N(f)$ kabi belgilanadi.

5-tarif. f qatorning asosiy qismi deb

$$f(\Gamma) = \sum_{n \in \Gamma(f)} a_n x^n$$

ko'phadga aytiladi.

1-misol. Ushbu ikki o'zgaruvchili funksiyaning Nyuton ko'pyoqligini topamiz:

$$f(x_1, x_2) = {x_1}^3 + 3{x_1}^2 x_2 + 4{x_2}^2 + 5{x_1}^2{x_2}^2 + 0{x_1}^5 + 0{x_2}^{13} + \cdots.$$

Bu funksiyaning Nyuton ko'pyoqligi

$$suppf = \{ n \in N^2 : a_n \neq 0\} = \{(3,0), (2,1), (0,2), (2,2)\}.$$

to'plamning Nyuton ko'pyoqligiga teng.

2-misol. Quyida keltirilgan misolning Nyuton diagrammasini toping.

$$f(x_1, x_2) = 5{x_1}^2 + 13{x_1}^3 x_2 + 4{x_2}^4 + 6{x_1}^3{x_2}^2 + {x_1}^{15} + 0{x_2}^{100} + \cdots$$

Endi biz tashuvchining ta'rifiga ko'ra

$$suppf = \{ n \in N^2 : a_n \neq 0\} = \{(2,0), (3,1), (0,4), (3,2), (15,0)\}.$$

to'plamga ega bo'lamiz. Ushbu to'plamning Nyuton diagrammasi $f(x_1, x_2)$ funksiyaning Nyuton diagrammasini beradi.

Quyidagi shakldagi almashtirishga darajali almashtirish deyiladi.

$$\begin{cases} w_1 = {v_1}^{a_1}{v_2}^{a_2} \\ w_2 = {v_1}^{b_1}{v_2}^{b_2} \end{cases}$$

bu yerda, $v_1, v_2, w_1, w_2 -$ musbat haqiqiy qiymatlar qabul qiladi. a_1, a_2, b_1, b_2-daraja ko'rsatkichlari musbat ratsional qiymatlar qabul qiladi.

Ushbu $\begin{cases} w_1 = {v_1}^{a_1}{v_2}^{a_2} \\ w_2 = {v_1}^{b_1}{v_2}^{b_2} \end{cases}$ sistema $a_1 b_2 - a_2 b_1 \neq 0$ bo'lsa, quyidagi ko'rinishdagi yagona yechimga ega bo'ladi.

$$\begin{cases} v_1 = {w_1}^{\frac{b_2}{B}}{w_2}^{\frac{-a_2}{B}} \\ v_2 = {w_1}^{\frac{-b_1}{B}}{w_2}^{\frac{a_1}{B}} \end{cases}$$

Haqiqatan ham, $\begin{cases} w_1 = {v_1}^{a_1}{v_2}^{a_2} \\ w_2 = {v_1}^{b_1}{v_2}^{b_2} \end{cases}$ ushbu sistemani o'rniga qo'yish usuli yordamida yechaylik, sistemani birinchi ifodasidan v_1 ni topib ikkinchi ifodaga qo'yamiz, $v_1 = {w_1}^{\frac{1}{a_1}}{v_2}^{\frac{-a_2}{a_1}}$

$$w_2 = \left({w_1}^{\frac{1}{a_1}}{v_2}^{\frac{-a_2}{a_1}}\right)^{b_1} \cdot {v_2}^{b_2} = {w_1}^{\frac{b_1}{a_1}}{v_2}^{\frac{-a_2 b_1}{a_1}}{v_2}^{b_2} = {w_1}^{\frac{b_1}{a_1}}{v_2}^{\frac{-a_2 b_1 + a_1 b_2}{a_1}}$$

Bu ifodadan v_2 ni topsak,

$$v_2 = \left(w_2 w_1^{\frac{-b_1}{a_1}}\right)^{\frac{a_1}{-a_2b_1+a_1b_2}} = w_2^{\frac{a_1}{-a_2b_1+a_1b_2}} w_1^{\frac{-b_1}{-a_2b_1+a_1b_2}} = w_1^{\frac{-b_1}{B}} w_2^{\frac{a_1}{B}}$$

Shu metodni yana bir bor qo'llab v_1 ni ham topamiz, $v_2 = w_1^{\frac{1}{a_2}} v_1^{\frac{-a_1}{a_2}}$

$$w_2 = {v_1}^{b_1} \cdot \left(w_1^{\frac{1}{a_2}} v_1^{\frac{-a_1}{a_2}}\right)^{b_2} = {v_1}^{b_1} w_1^{\frac{b_2}{a_2}} v_1^{\frac{-a_1b_2}{a_2}} = w_1^{\frac{b_2}{a_2}} v_1^{\frac{a_2b_1-a_1b_2}{a_2}}$$

Bu ifodadan v_1 ni topsak

$$v_1 = \left(w_2 w_1^{\frac{-b_2}{a_2}}\right)^{\frac{a_2}{a_2b_1-a_1b_2}} = w_2^{\frac{a_2}{a_2b_1-a_1b_2}} w_1^{\frac{-b_2}{a_2b_1-a_1b_2}} = w_1^{\frac{-b_2}{B}} w_2^{\frac{-a_2}{B}}$$

tenglikka ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.А.Зорич. Математический анализ. Часть II. МЦНМО, Москва, 2002.

2. П.К.Рашевский. Курс дифференциальной геометрии. Москва, 1938.

3. Usmanov S.E. The Boundedness of Maximal Operators Associated with Singular Surfaces. Russian Mathematics. 65, (6), 73–83 (2021).

4. Xasanov Gafurjan Aknazarovich, Xazratova Gulshoda Abdulatif qizi, Abduraxmonova Maftuna Abdusalomovna. "Silliq funksiyalar uchun muvofiqlashgan koordinatalar sistemasining mavjudligi". Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Instituti "Matematikani o'qitishning dolzarb muammolari va yechimlari" mavzusidagi respublika ilmiy onlayn anjumani

5. Усманов С.Э., Кувондиков Б.Б., Хазратова Г.А. Максимальные операторы, связанные с поверхностями. Материалы международной конференции "Современные проблемы теории чисел и математического анализа", посвященной 80-летию со дня рождения доктора физико-математических наук, профессора Дододжона Исмоилова (Душанбе, Таджикистан, 29-30 апреля 2022 г.)

UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA ILMIY-IJODIY MEROSINING O'RNI VA AHAMIYATI

Xodjayeva Sanobar Karimbayevna

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseyi

Rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda Uchinchi Renessans davrida ijtimoiy-gumanitar fanlar ilmiy-ijodiy merosining yosh avlodni tarbiyalashdagi hal qiluvchi roli va ahamiyati yoritilgan. U ushbu davr madaniy qadriyatlar va intellektual izlanishlarning qayta tiklanishini ifodalaydi, an’anaviy bilimlarni zamonaviy ta’lim amaliyotlari bilan integratsiyalashuviga urg‘u beradi. Maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarning yoshlarda tanqidiy fikrlash, madaniy ong va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashdagi o‘rni o‘rganilib, ushbu merosning O‘zbekiston jamiyati kelajagini shakllantirish va mas’uliyatli fuqarolikni tarbiyalashdagi ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Renessans davri, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ta’lim, yosh avlod, ilmiy meros, madaniy tiklanish.

Annotation: The article explores the pivotal role and significance of the scientific and creative heritage of the social and humanitarian sciences in educating the young generation during the Third Renaissance period in Uzbekistan. It delves into how this period represents a resurgence of cultural values and intellectual inquiry, emphasizing the integration of traditional knowledge with modern education practices. Through an examination of the role of social and humanitarian sciences in fostering critical thinking, cultural awareness, and ethical values among youth, the article highlights the importance of this heritage in shaping the future of Uzbekistan’s society and nurturing responsible citizenship.

Keywords: renaissance period, social and humanitarian sciences, education, young generation, scientific heritage, cultural revival.

O‘zbekistonda Uchinchi Renessansdavrida ijtimoiy-gumanitar fanlar ilmiy-ijodiy merosining yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni va ahamiyati ustuvor. Bu davr intellektual va madaniy qadriyatlarning tiklanishini ifodalaydi, millat kelajagini shakllantirishda bilim va innovatsiyalarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Quyida bir nechta asosiy jihatlar:

1. ***Madaniy tiklanish:*** Uchinchi Renessans davri O‘zbekistonning boy madaniy merosiga, jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarga qiziqishning qayta tiklanishi bilan tavsiflanadi. Bu fanlarning ilmiy-ijodiy merosini ta’lim-tarbiyaga singdirish orqali yoshlar o‘zlarining madaniy o‘ziga xosligi, tarixiy ildizlarini chuqurroq anglaydilar.

2. ***Intellektual rivojlanish:*** Ijtimoiy va gumanitar fanlar yoshlarda tanqidiy fikrlash, empatiya va madaniy ongni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tarix, sotsiologiya, adabiyot va falsafa kabi fanlarni o‘rganish orqali talabalar tahliliy ko‘nikmalarni va ijtimoiy muammolarga nisbatan kengroq nuqtai nazarni rivojlantiradilar, ularni o‘z jamoalariga mazmunli hissa qo‘shishga tayyorlaydilar.

3. ***Qadriyatlar ta'limi:*** Uchinchi Renessans davridagi ta'lim axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik faolligiga katta e'tibor beradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning ilmiy-ijodiy merosi ushbu qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ularni mas'uliyatli fuqarolik va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga yo'naltirishda poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.[3.45]

4. ***Innovatsiya va taraqqiyot:*** Uchinchi Renessans davri an'anaviy bilimlarni saqlab qolishdan tashqari, ijtimoiy va gumanitar fanlarda innovatsiyalar va taraqqiyotni rag'batlantiradi. Yosh olimlar o'tmish mutafakkirlari merosiga asoslanib, zamonaviy muammolar va imkoniyatlarni hal qilish uchun yangi g'oyalar va istiqbollarni qo'shishga da'vat etiladi.

5. ***Global ishtirok:*** Uchinchi Renessans davrida O'zbekistonda ta'lim tobora global istiqbol va hamkorlikka yo'naltirilgan. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning ilmiy va ijodiy merosini o'rganish orqali yoshlar global muammolar haqida tushunchaga ega bo'ladilar va madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantiradilar, ularni o'zaro bog'langan dunyoda konstruktiv ishtirok etishga tayyorlaydilar.

Umuman olganda, O'zbekistonda Uchinchi Renessans davrida ijtimoiy-gumanitar fanlarning ilmiy-ijodiy merosi yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Ushbu merosni o'zlashtirib, yoshlar o'z millatining madaniy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadigan bilimdon, faol fuqarolar bo'lish huquqiga ega.[4.87]

Xulosa. Xulosa o'rnida, maqolada O'zbekistonda Uchinchi Renessans davrida ijtimoiy-gumanitar fanlar ilmiy-ijodiy merosining yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni va ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Bu davrning madaniy tiklanishni ifodalashi, an'anaviy bilimlarning zamonaviy ta'lim amaliyotlari bilan integratsiyalashuviga urg'u berilgan. Yoshlarda tanqidiy fikrlash, madaniy ong va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash orqali ushbu fanlarning ilmiy-ijodiy merosi O'zbekiston jamiyati kelajagini shakllantirish va mas'uliyatli fuqarolikni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu meros yosh avlodning millatning madaniy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allabergenov, Y. (2019). The Renaissance of Uzbekistan. Tashkent: Sharq.

2. Mirziyoyev, S. (2017). The Third Renaissance: New Challenges, New Achievements. Tashkent: Uzbekistan National Library.

3. Rakhmatullaev, A. (2020). Cultural Revival and Educational Reform in Uzbekistan. Journal of Central Asian Studies, 12(2), 45-60.

4. Suleymanov, R. (2018). Modernization of Education in Uzbekistan: Challenges and Prospects. Educational Sciences Quarterly, 10(3), 87-102.

5. Yusupov, N. (2021). The Role of Social Sciences in Uzbekistan's Renaissance. Journal of Uzbek Studies, 8(1), 123-138.

ҮШИНШИ РЕНЕССАНС - МИЛЛИЙ РАЎАЖЛАНЫЎ СТРАТЕГИЯСЫ

"Илим ҳәм билимниң қәдирине жетип мәмлекетимизде илим үйрениў тийкарында көз қараслар қәлиплестирилсе, ата-бабаларымызға мүнәсип келешек қура аламыз"

SHAVKAT MIRZIYOYEV

М.Е.ТОЛЫБАЕВ – ҚМУ «Археология» кафедрасы ассистенти.

Өзбекстан Республикасы ғәрезсизлигиниң 29 жыллығы мүнәсибети менен Президентимиз Шавкат Мирзиёев тәнтаналы қутлықлаў сөзинде раўажланыўымыздың мақсети Үшинши Ренессанс болыўы лазымлығын атап өтеди. Бул стратегиялық идея өзиниң уллылығы, миллий раўажланыў бәрше тараўларда қандай улыўмалық мақсетти гөзлеў зәрүрлигин көрсетеди. Әмелде мәмлекет басшысы раўажланыўдың ҳәзирги басқышында Өзбекстан миллий идеясының жаңа ҳәм анықластырылған мазмунын билдиреди.

Бүгин шексиз мақтаныш пенен айта аламыз, данышпан халқымыздың узақты көре алыўы, бирдемлиги, пидайы мийнети менен өмирдиң бәрше сынаўларынан мүнәсип өтип келген. Усы арқалы бизлердиң инсаныйлық қәдириятларымызды, динимизди, миллий мәмлекетшилигимизди тиклеп берген. Бүгин жәҳәнде елимиз ҳаққында сөз еткенде «Жаңа Өзбекстан» сүрени тилге алынып, илгери сүрилмекте. Бул кейинги жылларда раўажланыўдың жаңа басқышына қәдем қойғанлығын ҳәм ерисилип атырған жетискенликлерин сыпатлап береди. Халқымыздың уллы күдирети йош урып турған заманда Өзбекстанда жаңа бир ояныў даўири- Үшинши Ренессанс дәўирине тийкар жаратылмақта.

Үшинши Ренессанс идеясын, әўели жәмийетимиз терең аңлап алмағы керек. Ҳәр бағдарда, тараўда әмелге асырылатуғын ислеримиз, келешек реже-дәстүрлеримиз, тәлим-тәрбия ҳәм кадрлар сиясаты, инвестициялық сиёсат — улыўма бәршеси оған шараят ҳәм орталық жаратыўға қаратылмағы керек.

"Ренессанс" сөзликте французша "қайта туўылыў" деген мәнисти аңлатады. Атама сыпатында оның мазмуны бираз кең: мәдениятта, илим-пәнде, көркем-өнерде, тәлим-тәрбияда, улыўма жәмийет турмысында узақ мүддетли турғынлықтан кейинги қайт жанланып, тез раўажланыўды, жәмийетлик сана ҳәм қәдириятлар системасын жаңа сыпат басқышына шығыўын аңлатады. Дәслепки мәрте бул атама Европада XV-XVI әсирлердеги раўажланыў дәўирине қарата қолланылған. Ренессанс деп

аталған бул социаллық ҳәдийсе бизиң тилимизге «Ояныў дәўири» деп аўдармаланған.

Австриялы белгили шығыстаныўшы **Адам Мецтиң** 1909-жылда **“Мусылман Ренессансы”** атамасында фундаментал шығармасын баспадан шығарған. Усыннан кейин Ренессанс тек ғана Европаға тийисли ҳәдийсе емеслигин, оны Шығыс халықлары европалықларға салыстырғанда ертерек басынан кеширгенлиги ҳаққында коз-қараслар ҳәм изертлеўлер пайда бола баслайды.

Россиялы уллы шығыстаныўшы академик **Н.Н.Конрад** Ренессанс VII — VIII әсирлерде Қытайда басланып, VIII әсирде Ҳиндстанда даўам еткенлигин, оннан IX-XII әсирлерде ислам мәмлекетлери эстафетаны қабыллағанлығын, манғоллар басқыны себепли бираз пәсейген раўажланыў темпи Амир Темур ҳәм темурийлер дәўиринде және қайта тикленгенлигин атап өтеди. Ол Орта Шығыс Ояныў дәўирин Алишер Наўайы дәўирине шекем созады. Жавоҳарлал Неру Бабурды да Ренессанстиң типик ўәкили деп баҳалаған еди.

XV әсирден Ренессанс Европаға жылжыйды. Бул пайытқа келип Европа 300-350 жыл даўамында ислам алымлары, бизиң уллы әўладларымыздың шығармаларын, әсиресе Хорезмий, Ферғаний, Ибн Сина ҳ.т.б. шығармаларын латиншаға аўдармалап, терең өзлестирип алған еди. Бул әлбетте Европа Ояныўына жүда күшли тәсир көрсеткен.

Ғәрезсизликке ерискеннен кейин дәслепки шерек әсир даўамында миллий тиклениў менен шуғылланыўға туўры келди. Енди миллий тиклениўден миллий раўажланыўға өткенимизден кейин, Үшинши Ренессансқа ерисиўди мәмлекет басшысы стратегиялық ўазыйпа етип қойды. Шынында да тарийхый жақтан алғанда биз еки Ренессансты бастан кеширдик:

- биринши си IX — XII әсирлер;
- екинши си XIV әсир ақырғы шереги - XVI әсирдиң биринши шереги.

Ҳәр еки Ренессанс дәўиринде де биз дүньяның алдыңғы, раўажланған халықлары қатарында болғанбыз. Егер және усындай дәрежеге ериспекши болсақ, Үшинши Ренессансты әмелге асырмағымыз керек.

Миллий идея тийкарында белгили бир халықтың жоқары келешек мақсетин бир неше сөзлерде яки түсиниклерде биргеликли сүўретлеўши ураннан ибарат. Ол халықты сол мақсет жолында бирлестиреди ҳәм бағдарлайды. Халық бәрше ис-ҳәрекетлерин, умтылысларын, қурыўшылық искерлигин оған муўапықластырады. Зәрүр болса, экономикалық, социаллық қатнасықларды, мәмлекеттиң ҳуқықый, сиясий, идеологиялық тийкарларын, тәлим-тарбия системасын терең реформалайды.

Миллий идеяның баслы ўазыйпаларынан бири, әўели халықтың аўызбиршилигин, мәмлекеттиң аймақлық бирлигин сақлаў ҳәм беккемлеўден ибарат.

Екиншиден, миллеттиң жоқары мақсетин, раўажланыў шоққыларын, нышанларын улыўмалық тәризде анықлайды. Миллий идея түрли түсиниклерде сүўретлениўи мүмкин. Бирақ сүўретлеў формасына қарамастан, халыққа келешекти, жәмийетлик бағдарды көрсетиўи керек.

Миллий идеяны жанландырыў ушын оны Үшинши Ренессанс идеясы менен байытыў зәрүр. Тек ғана Үшинши Ренессансты әмелге асырып, биз азат ҳәм абат Ўатанда еркин ҳәм параўан турмыс қура аламыз. Және де Үшинши Ренессансқа ерисиўди миллий идеяның жаңа формасы деп жәриялаў мақсетке муўапық болды.

Миллий идея енгизилген ўазыйпаларды емес, бәлким стратегиялық жоқары мақсетти сүўретлейди. Усы мәнисте Үшинши Ренессанс идеясы келешекке умтылыўға жүдә сәйкес келеди. Бул идеяның бағдарлаўшы күши улыўма идеологиялық потенциалы жүдә жоқары болып, ҳәзирги пайытта өтмиш тарийхымыздың зерли бетлери, уллы әўладларымыздың қурыўшылық ҳәм дөретиўшилик идеялары менен байланысқан. Бизге бул түсиник кимлердиң әўладлары екенлигимизди еслетип турады. Жаңа Ренессанс жолында халқымыз ҳәр түрли сыртқы тәсирлерге шалғымаслығы керек, себеби тарийх сабақларын умытыўға ҳақымыз жоқ.

Үшинши Ренессанс идеясы миллий руўхиятымызға, халқымыздың нийет-тилеклерине жақын.

Ренессанс деген менен ол жүз берип қалмайды. Буның ушын ҳәр тәреплеме пухта ойланған сиясат алып барылыўы, халықта руўхый көтериңкилик, турақлы жигерли умтылыс жүз бериўлери керек.

Әўели атаманың мазмунын анық ашып бериў, халықтың бәрше қатламлари, әсиресе жаслар санасына жеткериў керек. Өтмиш ренессанслары дәўиринде әўладларымыз нелерге ерискенлигин, жәҳән цивилизациясына қосқан үлеслерин, басқа халықлар, үлкелер жетискенликлери менен салыстырып, дүньяның жетекши мәдениятларынан, илим-пәни, көркем-өнери ҳәм әдебиятларынан бирин, алдыңғы социаллық пикир ҳәм көз-қарасларын жаратқанлығын анық, қысқа жарытыў зәрүр.

Сондай-ақ, өтмиштеги тарийхый ўақыялардың дағдарыс себеплери объективлик пенен анализлениўи керек. Мысалы, Уллы географиялық ашылыўлар себепли Уллы Жипек жолының тоқтап қалыўының объектив себеби болса да, ишки ҳәм сыртқы гүреслер, тахт ушын тартыслар, бөлиниўшилик, инсан кәмиллиги тек инсанның ишки дүньясына

қаратылып, жәмийеттиң социал-экономикалық раўажына жетерлише итибар бермеслик киби субъектив факторлар дағдарысын келтирип шығарған баслы себеплер еди. Тарийхтан сабақ алыў, тийисли жуўмақ шығарыў ушын булар жаслар, халық санасына жеткерилиўи керек. Биз көбирек әўелги ояныў дәўирлериниң жетискенликлерин мақтаныш пенен еслеп, негедур олардың дағдарыс себеплери ҳаққында сөйлеўди оншалық мақул көрмеймиз.

Президентимиз, жаслардың еркин пикирлейтуғын жоқары интеллектуал ҳәм руўхый потенциалға ийе болып, дүнья көлеминде өз теңлеслерине ҳеш қайсы тараўда бос келмейтуғын инсанлар болып камал табыўы, бахытлы болыўы ушын мәмлекетимиз ҳәм жәмийетимиздиң бар күш ҳәм имканиятларын сарплаймыз – деп атап өтеди [1, 14]

Биринши ҳәм екинши ренессанслардың тарийхый шараяты ҳәм дәўир талаплары, имканиятларын шынлық пенен баҳалап, Жаңа Ренессанстың шәраятлары ҳәм талаплары менен улыўма өзгеше екенлигин тийкарлап, дәлиллеў мақсетке муўапық.

Өтмиш тарийхы биз ушын өмир мектеби, мисли тынық бир айна, оған қарап сабақ аламыз, жуўмақ шығарамыз, келешек жолын белгилеймиз.

Ҳәр қандай цивилизация – халықлар, миллетлер, елатлар искерлигиниң ҳәм унамлы тәсириниң нәтийжели жемиси болып есапланады.

«Орта Азия Египети» атанған ҳәзирги Қарақалпақстан территориясы уллы еки дәрья - Жайхун ҳәм Сайхун дәрьялары аралығында қәлиплескен, жәҳән мәдениятының әййемги орайларының бири.

Бул жерлерде бизиң әййемги тарийхымыздың ҳәм мәдениятымыздың бесиги жаралған болып, дүньяға белгили илимпазлардың, ойшыллардың камал тапқан муқаддес жери есапланады.

Қарақалпақ халқының бийтәкирар тәбияты, әййемги тарийхы ҳәм бай мәдениятының ҳаққында Президентимиз Ш.М.Мирзиёев: «Қарақалпақ дияры өзиниң дүньяда уқсасы жоқ, қайталанбас көркем-өнери менен бәршемизди таң қалдырып келеди. Әсиресе, әўладларымыздан қалған бийбаҳа фольклорлық шығармалары дыққатқа ылайық. Өз журты, өз үлкесинде ата-бабаларының мийрасына ҳәмийше садықлық руўхында жасап атырған мәрт ҳәм мийнеткеш қарақалпақ елиниң беккем еркине тән берип, бундай халық пенен ҳәр қандай мақтансаң арзыйды», - деп атап өтеди [2. 206, 210, 212].

Қарақалпақстан Республикасында 285 тен аслам мәдений мийрас объектлери мәмлекетлик дизимге алынған. Олардан археологиялық естеликлер-131, архитектуралық естеликлер-25, монументал көркем-өнер естеликлери-89, дыққатқа ылайық орынлар – 40 ты қурайды [3. 5-10].

Бул жерлерде жасаған ата-бабаларымыз бир неше мың жыллар даўамында теберик қоллары менен қорған-қалалар қурып, оны гүллендириўде өзлериниң бай тәжирийбелерине таянған ҳалда мийнет еткен. Өз жерлерин сыртқы жаўлардан ерлик пенен қорғап, тәбийий апатлардан усталық пенен сақлап, бул мәдений мийрасларды кейинги әўладларға жеткерип бериўге ҳәрекет еткен.

Пидайы алымлардың археологиялық экспедициясының көп жыллық нәтийжели мийнетлери себепли бул әпсаналы үлкениң қараңғылыққа айланған узақ өтмиштеги тарийхы қайтадан тикленип, сырлы естеликлер ғәзийнесине айланған бул теберик жер бирме-бир тилге кирип өтмиш ўқыяларын дәстан етип өз сырларын ашып берди.

Бүгинги күнде биз уллы алымлардың жарқын өмир жолын еслеп оларға ҳурмет келтирер екенбиз, оның аты ҳәм мийнетлери халқымыздың өтмиш тарийхы менен тығыз байланыслы екенлигин және бир мәрте сезинемиз.

Улыўма алғанда, уллы устаз алымлардың терең ҳәм дана шешимлери ҳәзирги әўладлар ушын өтмиш тарийхын изертлеўдиң жарқын ҳәм исенимли үлгиси болып қалады.

Себеби мәдений мийраслар халықтың раўажланыў жолының белгили басқышының айнасы болыўы менен бирге, келешек әўладтың руўхый жақтан өсиўине ҳәм көз-қарасларының беккемлениўине өзиниң унамлы тәсирин жасайды.

«Сахрадағы Лувр» атанған дүньяға белгили И.В.Савицкий атындағы Қарақалпақстан мәмлекетлик көркем-өнер музейиниң бийбаҳа экспонатлары, жер асты сарайын еслететуғын Мазлумхан сулыў, сондай-ақ бир неше археологиялық естеликлер тарийхы менен жақыннан танысыў нәтийжесинде, ҳәр бир жас әўлад қәлбинде мақтаныш сезимлери оянып, руўхый жақтан байытып, туўылған елине деген сүйишпеншилигин және де арттырады.

Бул мәдений мийрасларға деген әжайып образлар «Ўатан» деген уллы туйғы менен үнлескен ҳалда инсан кеўлинде терең орналасып, өмириниң мазмунына айланып бармақта.

«Қарақалпақстанның жети әжайып естелиги» атлы китабында келтирип өткениндей, шығыс данышпанларының «Инсанның аяғы өзи туўылған жеринде тамыр байлаўы керек, лекин оның нәзери дүньяны гүзетсин» [4. 9, 12] деген даналық сөзин басшылыққа алған ҳалда, устазларымыздың баслап берген илим жолын өзимизге теберик билип, ата-бабаларымыздан мийрас бай мәдений естеликлер ҳаққындағы мағлыўматларды илимий жақтан және де байытыў, жаңалықлар ашыў келешегинен үмит күттиретуғын билимли ҳәм пидәкер жаслардың әдиўли миннети деп билемиз.

Президентимиз исеним билдириў тийкарында мәмлекетимизди қәбилетли, лидерликке ийе жаслар көп болғанлығы ушын да мәмлекетимизди Үшинши Ренессанс дәўирине тийкар бар екенлигин атап өтип, жасларымыз заманагөй билим ҳәм көнликпелерди ийелеп, өз зийреклиги менен ҳәммеге өрнек болыўлары керек деген еди. Буның ушын олар ўатанның етеңги күнин өз өмириниң мазмуны деп билиўлери керек.

Демек, ҳәр биримиздиң жүрегимизде бай тарийхымыз бенен мақтаныш сезимлери жасар екен, әлбетте ҳәўес етсе арзыйтуғын уллы келешегимиз де болады.

Пайдаланған әдебиятлар дизими:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз – Т, «Ўзбекистон», 2016.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.-Т, «Ўзбекистон», 2017.

3. Қарақалпақстан Республикасы Министрлер Кеңесиниң «Қарақалпақстан Республикасындағы материаллық мәдений мийрас объектлериниң мәмлекетлик қорғаў дизимин қайта тастыйықлаў ҳаққында»ғы 2016-жыл 31-декабрь күнги 407-санлы қарары, 5-10 б.

4. Хожаниязов Ғ., Ҳәкимниязов Ж. Қарақалпақстанның жети әжайып естелиги. Нөкис., 2004. 9,12 б.

Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlashda modulli dasturlar va zamonaviy o'quv vositalari

Mustafaev Kuatbay Muratbaevish-*O‘zbekiston Respublikasi IIV Nukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi, kasbiy fan o‘qituvchisi*

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o‘limga olib kelgan yo‘l-transport hodisalarining soni hali ham yuqori bo‘lib, avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Jumladan, yo‘l infratuzilmasini harakat xavfsizligini ta’minlashning zamonaviy talablariga to‘liq muvofiqlashtirish, ushbu sohadagi qoidabuzarliklarning barvaqt profilaktikasiga yo‘naltirilgan samarali tizimni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, inson omilini istisno qiluvchi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish talab etilmoqda.

2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, **Yangi O‘zbekiston** sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har

qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish **maqsadida** mamlakatimizda **yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari** 2022 yil 4 apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”qarori belgilab berildi[1].

Mudofaa vazirligi tomonidan avtomototransport vositalari haydovchilari mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga jalb etilgan chaqiriluvchilarga o‘qishni tugatganlaridan so‘ng, 18 yoshga to‘lmagan bo‘lsalar-da, hududiy YHXBda imtihonlarni topshirishlariga ruxsat beriladi. Ularga nazariy va amaliy imtihonlarni topshirganlaridan so‘ng tegishli toifadagi («B» va (yoki) «C») avtotransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi milliy haydovchilik guvohnomasi beriladi. Bunda «Alohida belgilar uchun» joyida uning egasi qaysi muddatdan (18 yoshga to‘lganidan keyin) avtotransport vositasini boshqarish huquqiga ega ekanligi ko‘rsatiladi.

Zamonaviy texnogen faoliyatning ko'lami va sur'ati ortib borayotganligi sababli jamiyat, ko'chalar va yo'llardagi transport harakati, jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlashda modulli dasturlar va zamonaviy o'quv vositalarinan foydalanish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, nazariy fanlarni o'qitishda ko'pincha ikkita haddan tashqari holat mavjud: bir tomondan, ma'ruza o'qishga bo'lgan haddan tashqari ishtiyoq, ikkinchidan, yo'l harakati qoidalari darslarida talabalar oddiygina imtihon topshiriqlarini o'rganishadi. Bunday haydovchilik maktablari xavfsiz haydashni o'rgatmaydi, balki sizni hududiy YHXBda imtihonidan o'tishga tayyorlaydi. Va bu turli xil narsalar. Bunday, ta'bir joiz bo'lsa, "mashg'ulot" dan so'ng bu talabalarda qanday bilim zaxirasi qoladi? Axir ular 2-3 oydan keyin bilimlarini unutishadi, lekin ular qoidalarni hech qachon o'rganishmagan. Natijada nima bo'ladi? Yodlangan, topshirilgan, unutilgan. Yo'llarda qanday haydash kerak? Ha, "hamma kabi"!

Mashg‘ulotlarni o‘tkazishda shuni hisobga olish kerakki, mustahkam bilim tushunish orqali keladi, tushunish esa odam o‘ylay boshlaganda, ba’zi masalalarni yechayotganda fikrlay boshlaganida yuzaga keladi. Shuning uchun simulyatsiya topshiriqlarini bajarish va tematik muammolarni hal qilish kabi usullarni o'quv jarayonidan chiqarib tashlash mumkin emas.

O'qitishga modulli yondashuv bilan o'qituvchi o'quv ma'lumotlarining "estafetasi" bo'lishni to'xtatadi, lekin kompetentsiyalarni o'zlashtirish jarayonining tashkilotchisiga aylanadi. Ya’ni, u o‘quvchilarga kerakli ma’lumotlarni olishga yordam beradi, ularning ushbu kasbni o‘rganishdagi

faoliyatini yo‘naltiradi, mulohazalar bildiradi, nazorat qiladi, maslahat beradi, natijalarni baholaydi.

Albatta, modulli o‘qitishga o‘tish o‘qituvchilarni yangi metodika bo‘yicha tegishli tarzda tayyorlashni, shuningdek, o‘quv jarayonini rejalashtirish va o‘qituvchilarning o‘quv yuklamalarini o‘zgartirishni taqozo etadi. Biroq, modulli o'qitishning ba'zi individual elementlari allaqachon qabul qilinishi va darslar davomida ishlatilishi mumkin.

Endi o'quv qurollariga kelsak. Zamonaviy sinfda quyidagilar bo'lishi kerak: multimediyali proyeksiya uskunalari, talabalar uchun ish stantsiyalari va o'quv ko'rgazmali qurollar.

Zamonaviy vositalar va o'qitish usullari bilan jihozlangan haydovchilik maktabi yo'l harakati qoidalari va dasturlaridagi o'zgarishlarga tez va tejamkor javob bera oladi (buning uchun siz faqat kompyuterdagi diskni almashtirishingiz kerak), shuningdek mashg'ulotlarda yuqori natijalarga erishish bilan birga mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish uchun vaqt kerak[2].

Modul spetsifikatsiyasi:

1.Harakatlar: Haydashni boshlash uchun mashinani tayyorlang, qo'shni hududdan yo'lga chiqing

2. Ko'nikmalar; Xavfsizlik choralariga rioya qilgan holda transport vositasini nazorat qilish va kundalik texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish, uning ishlashini taqiqlovchi nosozliklarni aniqlash, xavfsiz haydashni boshlash va qo'shni hududdan yo'lga chiqish.

3. Bilim: Avtotransport vositasini nazorat ko'rikdan o'tkazish va kundalik texnik xizmat ko'rsatish tartibi, nosozliklar va uning ishlashi taqiqlangan shartlar, ishlarni bajarishda xavfsizlik choralari, harakatni boshlash va qo'shni hududlardan yo'lni tark etish tartibi.

4. Resurslar:

Trening mashinasi

Avtosimulyator

5.Uskunalar:

1. multimedia ta'lim vositalari

2. elektron ta'lim

Modul bo'yicha qo'llanma

Nomi: Kam harakatli yo'llarda mashina haydang.

Vazifa:Ushbu modulni tugatgandan so'ng, talaba tirbandligi past bo'lgan yo'llarda avtomobilni boshqarishi mumkin.

O'qitish usullari:Mini ma'ruzalar. Videolarni tomosha qilish (slaydlar).

Nazariy materialni mustaqil o‘rganish.

Baholash jarayonining umumiy xususiyatlari

Ushbu modulni o'zlashtirganligini tasdiqlash uchun talaba kam harakatlanadigan yo'llarda avtomashinani mustaqil boshqarish qobiliyatini namoyish qilishi kerak.

Baholash turlari va usullari modul maqsadlariga mos kelishi kerak va quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

— vaziyatli masalalarni yechish (testlar);

— amaliy topshiriqlarni bajarish.

Yakuniy baholash har tomonlama bo'lishi kerak.

Baholash natijalarini qayd etish uchun talaba nazorat ro'yxatini tuzish kerak.

Baholashning umumiy tamoyillari va yondashuvlari

Ushbu modulni baholashning optimal usuli talabalarga ko'nikma va bilimlarni namoyish etish bo'lib, ularga haqiqiy transport sharoitida o'z vakolatlarini tasdiqlash imkonini beradi.

Ushbu modulni o'zlashtirganligini tasdiqlash uchun talaba kam harakatlanadigan yo'llarda avtomashinani mustaqil boshqarish qobiliyatini namoyish qilishi kerak.

Og'zaki yoki dasturlashtirilgan so'rov ham o'rinli bo'lishi mumkin. Amaliy topshiriqlarga qo'yiladigan savollar va talablar matni aniq, tushunarli va talabalar uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Baholovchilar o'quv modulidagi barcha faoliyatni baholashda qo'llaniladigan usullarni hujjatlashtirishlari kerak.

Ushbu modulni tugatgandan so'ng, siz avtoulovni kam harakatlanadigan yo'llarda mustaqil ravishda boshqarishingiz mumkin.

Modulni o'zlashtirish jarayonida sizdan muayyan harakatlardagi ko'nikmalaringizni baholash uchun turli amaliy topshiriqlarni bajarish so'raladi. Yutuqlaringizni aniqlashda baholashning eng muhim elementi modul kompetentsiyalarini o'zlashtirishni davom ettirishingiz bo'ladi[3].

Faoliyatingizni doimiy baholash modulning har bir faoliyatini doimiy ravishda o'zlashtirish bo'yicha amalga oshiriladi va ushbu modulning barcha faoliyati uchun yakuniy baholash bilan yakunlanadi.

Bundan tashqari, modul natijalarining yutuqlarini baholashda sizning "dalillar portfeli" hisobga olinadi, unda ishchi daftar, modul bo'yicha bajarilgan harakatlar natijalari bilan talabalar jurnali va tematik muammolarni hal qilish natijalari bo'lishi kerak. (testlar).

Bo'lajak haydovchilarni tayyorlash amaliyotida maxsus ilmiy, uslubiy va ommabop adabiyotlarda e'lon qilingan bir qator qarama-qarshiliklar mavjud, ammo ular na ilmiy, na amaliy yechim topmaydi.

Haydovchilarning ishonchliligini oshirishga uning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish orqali erishish mumkin, bu kasbiy tanlash va tayyorlashni tashkil etish vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”qarori

2.Олейникова О. Н., Муравьева А. А., Коновалова Ю. В., Сартакова Е. В. Разработка модульных программ, основанных на компетенциях: Учебное пособие. – М.: Альфа-М, 2005. – 288 с.: ил.

3.Муравьева А. А., Кузнецова Ю. Н., Червякова Т. Н. Организация модульного обучения, основанного на компетенциях: Пособие для преподавателей. – М.: Альфа-М, 2005. – 96 с.: ил.

THE FORMATION OF THE SCIENCE OF PHYSICS THE GOAL OF TEACHINGTHE BASICS OF

Kunnazarov Abbaz Biysenbayevich.

Nukus “School of Temurbeks” HAL is a physics teacher

Annotasiya. The article Physics science students by deep learn, toteach the system the purpose of the formation of its sections and about the problems of teaching the science of physics through to tizimlashti and goals to the person directed the education of the young intellectual development and capacity development is dedicated.

Key words: Virtual ,physical, intellectual potential, virtual laboratory, scientific research, creative projects.

Physics is the science by the students of deep studyfor work training system the purpose of the form of the teacher the main tasks of one.

The goals of the science of physics teaching the following to be arranged it can be.

- Virtual physics.
- Creative projects.
- Programming languages physical simulyator create.
- Scientific research.
- Reviews

Physics teaching goals come out students forassignments shall be formed. The above educational purpose out increase to teacher education of the rebuild.

Virtul physics lessons in differential education on the basis of readersng to the person directed to to fit the development of the intellectual, which comes salohiyatlarini aimed at plans should be made.

The reader virtual physics of deep study also pedagogical software environment on the topic of a new project to create a programming language to create a program on the basis of physical model qonu simulyator and scientific – creative to work it is necessary to be.

Physics is the science of teaching the system the purpose of oddiydan complex is directed. Virtual physics educationalrning the lower level of thinking suited comes. Creative projects and programming languages physical views simulyatorla creating readers to fit the mid-level of thinking and cognitive development comes. Research readers thinking and intellectual development of high savinyasi corresponds to. Educational so to achieve the results that you need them in a high level thinking to high intellectual ability physics on the science of the development of the disabled, the development of scientific research skills to achieve it is necessary to.

This here of physics science teaching muamcost and purposeto tizimlashti through to the person directed the education development of the age , intellectual capacity, boosting it.

Which of the country's intellectual potential is high, and in those countries developed will be.

Physics is the science of teaching, the goals included: virtual physics,creative projects, programming languages, physical simulyator to create, scientific research, like the course it is important to remember school physics concepts, but not the physical law and the formula of the analysis ,the physical law of the practical application on virtual projects ,create new simulyatorlar of the program structure and physics researchers in the field of scientific skills to develop is necessary.

Physics is the science of teaching and also to the person directed education, the development of local job trainingg intellectual capacit y todevelop in order to shajara a structure has which complex educational organizational system and the classification to the creation of an important role in it.

This, which describe the purpose of education physics teacher's lesson of the organization to the complexity of teaching with the goal of radically new stages and levels of the organization necessary to creates opportunity.

This, which describe the purpose of education technology education within the framework of mutual connection shajara a system.

The teaching of physics which describe the purpose of educational research issuedngcore constitute it.

The teaching of physics which describe the purpose of education of the person the reader thinking skills with different levels of development will be directed. Student science study for the disabled logical development stream how to work at the pedagogical level agreement. Differential stream approach on the basis of a disabled student a lesson tactic that is suitable to the level of required improvements will be.

The teaching of physics which describe the purpose of education of radicalsignificance in the following table are listed.

Physics to know the level of	**The definition**	**Of the teacher's task the**	**Student the task of**
Virtual physics	Physics department and to the subject on teaching software tool is selected	Software tools using the physicalact of a show makes it explains, teaches	Sinxron on the basis of physical law learns, knowsthe content understands virtual physics perception makes.
Creative project	Physical azerbaijanis these large objects as properties determine the physical law of the implementation and providing project to create	The reader to co according to project plan explains, teaches physical views of far tushu feature provides comments, designingbasics teaches you	The software tools that reflect the real opportunities based on physical one of the largest characteristics based on physics of the law in the object properties on the basis of thevirtual laboratory of the creation of

Programming in the language of physical simulyatorto create	Physicallaw visual show which programming language simulyator program to create	student's intellectual potential is the level of developmenton the plan was made	Physics, and programming in the field of capable, who are the students to the subject suitable physical the process of visual demonstrasiyasiga on simulyator project and the program of creation of the
Scientific research	of “intellectual potential of the state of the wealth of the state of the uture”is the slogan school starts	Students between the intellectual potential of the most high the some of they you identify them and the referat, course work diploma work as assignments will be given.	Well-known physical scientists, life, physical discoveries in the history of physics with modern achievements in the field of scientific research workers, independent, and teacher guidance involved there are

reviews from	Readers in the study of physics on the interests of the development dynamicsbased readers intellectual salohiyatlarini the development of a directed system of valuations worked out to be need		

In the table outlined are each a stage from the previous stage is based on. For example, virtual physics stage school physics textbooks is based on knowledge. The main purpose of school reader the entire body when he graduated with physics in the field of scientific work hoxish be able to deal with should you. The reader, when he graduated school “great physical I am a scientist” that's the goal to achieve is necessary.

Used literature

1. Begimqulov Is It.Sh. Pedagogical education in modern information technologies, the introduction of scientific - theoretical basis. – T.: Science, 2007. 160 – b.

2. Qurbonov M. Xamidov V. S. Modern information technology on education system. *“General secondary education, theoretical and practical problems” on the topic the republic scientific-practical candiesrentsiyasimaterials.* Tashkent, 2009 year, the voles. 21-25 b, pp. 21-25 b.

3. Yusupov D. Mislitelniy experiment v prepodavanie physics. M.: Prosvetshenie, 1987. – 95 s.

4. Razumovskiy .V.G. Razvitie tvorcheskix sposobnostey uchatshixsya v prosess is obucheniya physics. - M.: Prosvetshenie, 1975. 272't.

5. Mirzaqulov A.M. Yo'ldashev In G.I.//Physics lesson in the readers intellectual salohiyatlarini development factors.// Sovremennie differentsialnix uravneniy I smejnix razdelov the problem of mathematics. 416- 418 page. 12-13 march 2020 year.

6. Yo'ldashev in G. Physics science teaching for software tools and virtual laboratories. ACADEMIC RESEARCH IN SCIENCE EDUCATION,

2(6), 612-616. https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-01094

7. Yo'ldashev In M. (2021). Effektivnoe upravlenii investisionnoy deyatelnostyu information kommunikasionnix texnologiy Uzbekistana. Studencheskiy vestnik, (3-4), 11-13.

8. May Ibragimov, G. Y. (2022). Advantages of credit-module system in the field of education. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 14-16.

9. G.Spiritually, M.Yo'ldosheva (2022). Ispolzovaniya informasionnix texnologiy v organizasiyax. CHAIR scientific progress 3 volume 3 | | 2022 ISSN: 2181-160,477-480.

Учинчи ренессанс даврида рақамли иқтисодиётда математик моделлаштиришнинг таъсири

Ж.К.Калимбетов, ИИВ Нукус “Темурбеклар мактаби” Харбий-академик лицей ўкитувчиси, j.kalimbetov@umail.uz

Аннотация: Мақолада аҳоли даромадларини солиққа тортиш назарияларини оптималлаштириш муҳим жиҳатлари кўриб чиқилган. Аҳоли даромадлари таркибига солиқлар ставкаси таъсирини моделлаштириш муаммоси ечимида соддалаштирувчи тахминлар кўрсатилган.

Калит сўзлар: аҳоли даромади, солиқ солиш, солиқ ставкаси, солиқ чегирмаси.

Abstract: The article considers the important aspects of optimization of theories of taxation of population incomes. Simplifying assumptions are shown in the solution of the problem of modeling the effect of the tax rate on the composition of the income of the population.

Key words: personal income, taxation, tax rate, tax deduction.

Президентимиз қайд этганидек, “Янги Ўзбекистонни барпо этиш – бу шунчаки хоҳиш-истак, субъектив ҳодиса эмас, балки туб тарихий асосларга эга бўлган, мамлакатимиздаги мавжуд сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий вазиятнинг ўзи тақозо этаётган, халқимизнинг асрий интилишларига мос, унинг миллий манфаатларига тўла жавоб берадиган объектив заруратдир”

Янги Ўзбекистонда таълим-тарбия мутаносиблигини таъминлашда қатор омилларни назарда тутиш лозим. Фуқаролик масъулияти ва замонавий дунёқарашга эга баркамол авлодни тарбиялаш биринчи ўринда туради. Мана шу мақсад бизни тараққиётнинг навбатдаги босқичига элтади. Зотан, Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш ғояси ҳам тасодифий эмас, балки туб тарихий қиёфамизни дунёга намоён қилувчи омил эканини унутмаслик даркор. Ўз навбатида, Президентимиз Шавкат Мирзиёев раҳнамолигида Ўзбекистонда янги Уйғониш даври, яъни Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш асосий мақсад этиб белгиланди. Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, “Биз Учинчи Ренессанс масаласини стратегик вазифа сифатида олдимизга қўйиб, уни миллий ғоя даражасига кўтармоқдамиз”.

Аҳоли даромадлари тенглиги таъминланадиган ҳар қандай иқтисодий тизимда прогрессив даромад солиғи муҳим солиқ инструменти бўлиши мумкин деб тахмин қилинади. Ҳатто, юқори ижтимоий иқтисодиётда ҳам агарда ишловчиларнинг барчаси давлат томонидан ёлланган бўлсада, юқори малакали меҳнатнинг яширин нархи, албатта, ишчи кучига тланадиган даромаддан анча юқори бўлиши лозим. Америка ва ғарбий Европа мамлакатларида юқори ва паст даромадларга солиқ ставкаларини қўлланиши кенг доирада ва узоқ вақт давомида муҳокама қилинган бўлсада, бироқ, даромадни тақсимлашда қандай солиқ ставкаси муҳим инструмент бўлишига қарамасдан илмий назариялар деярли мавжуд эмас.

Умуман олганда, қайта тақсимловчи прогрессив солиққа тортиш одатда жисмоний шахснинг даромади (аниқроғи, унинг тахминий даромади миқдорига) билан боғлиқ. Унинг аниқ интеллект коэффициенти (I.Q.), илмий даражаси, яшаш жойи, ёши ёки ижтимоий мавқеи орқали жисмоний шахснинг даромад олиш потенциали тўғрисидаги ахборотга эга бўлиш мумкин, аммо табиий равишда тахмин қилиш мумкин, унинг даромад потенциали энг ишончли кўрсаткич бўлиб унинг даромади ҳисобланади.

Mirrleesнинг таъкидлашича, инсонларнинг иқтисодий кўрсаткичларини иқтисодий имкониятларининг далили сифатида ишлатиш натижасида даромаднинг ижтимоий маржинал фойдалигининг тўлиқ тенглиги маъқул бўлмай қолади, чунки бундай натижага олиб келадиган солиқ тизими барча юзага келиши мумкин бўлган ноқулайларни бартараф этади. Шунинг учун қуйидаги саволлар юзага келади: оптимал даромад солиғини қайси принциплар тартибга солиши керак?; бундай солиқ ставкаси қандай белгиланади? ва солиқ ставкаси ўрнатилгандан кейин даромад тенгсизликнинг даражаси қандай ўзгаради?.

Ушбу тадқиқот иқтисодчи олимларнинг аҳоли даромадларини таркиби, шаклланшиш механизми ва оптимал солиққа тортишга оид назария ва илмий мақолаларга асосланади. Мақолада аҳоли даромадларига оптимал солиқ солиш бўйича илмий изланишларни таҳлили амалга оширилган ва тегишли хулосалар шакллантирилган. Тадқиқотни амалга оширишда илмий абстракция, таснифлаш, қиёсий таҳлил, анализ, гуруҳлаш, баҳолаш каби усуллардан фойдаланилган.

Аҳолининг даромадларини тартибга солиш механизмининг объекти даромадларни бирламчи тақсимлаш, фискал ва трансферт тизими орқали қайта тақсимлаш, аҳолига хизмат кўрсатиш орқали якуний тақсимлаш бўйича механизм субъектлари ўртасидаги объектив мавжуд муносабатлар ва ўзаро муносабатлардир.

Аҳоли даромадлари таркибига солиқлар ставкаси таъсирини моделлаштириш муаммоси ечимида қуйидаги соддалаштирувчи тахминларни келтириш мумкин:

1. Вактинчалик характердаги муаммоларни эътиборга олинмаслиги. Даромад солиғи одатда ҳар йили даромаддан ундирилади, солиққа тортиш учун даромадни бир йилдан иккинчисига ўтказиш имконияти чекланган. Оптимал тизимда, шубҳасиз, солиқ тўловларини даромад ва бошланғич бойликнинг бутун ҳаётий структураси билан боғлаш ва тўловларни режалаштиришда номукаммал хусусий капитал бозорларига ва номукаммал олдиндан кўришга эътибор бериш мақсадга мувофиқ бўлади.

2. Мойилликдаги фарқлар, оила аъзолари миқдори ва таркиби, шунингдек, ихтиёрий трансфертлардаги фарқлар эътиборга олинмайди. Чунки бу кўрсактичлар турли хил муаммоларни келтириб чиқаради ва уларни инобатга олмаслик табиийдир.

3. Тахминларга кўра, индивидлар ўзлари ишлаб чиқарадиган меҳнат миқдори ва турини фойдалилик функциясини максимал даражада оширишга мос келадиган оқилона ҳисоблаш йўли билан аниқлайдилар ва ижтимоий фаровонлик фойдалиликнинг индивидуал даражалари функцияси бўлиши

керак. Бундан ташқари, инсон томонидан таклиф қилинадиган меҳнат миқдори унга тўланадиган нархни ўзгартирмасдан жуда катта фарқ қилиши мумкин деб тахмин қилинади. Биринчи тахминда айниқса, даромаднинг юқори даражасида баъзида истеъмолнинг тўйинганлиги ва иш ишчига олиб келадиган даромад билан боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра амалга оширилиши ҳақиқатга мос келмайди.

4. Миграция мумкин эмас деб тахмин қилинади. Миграция таҳдиди, реал солиқ тизимларида ривожланиш тезлигига катта таъсир кўрсатганлиги сабабли бу тахмин асосли ҳисобланади.

5. Давлат иқтисодиётда банд бўлган шахслар ҳақида уларнинг фойдалилиги ва ўз навбатида фаолияти бўйича тўлиқ маълумотга эга бўлиши керак. Амалда, албатта, ўз-ўзини иш билан таъминлашдан, хусусан, ишчи ва унинг оиласи томонидан ўзи учун бажарилган ишлардан олинадиган даромадга нисбатан баъзи мамлакатларда ноаниқлик даражаси жуда юқори.

6. Математик формулани янада қулайроқ қилиш учун турли хил расмий соддалаштириш амалга оширилган: бир турдаги меҳнат ва истеъмол товарлари мавжудлиги; фаровонлик иқтисодиётнинг турли шахслари нуқтаи назаридан ажралиб туради ва симметрикдир, яъни фойдалилик функцияси (ҳамма учун бир хил) тўғри танланган бўлса, у шахсларнинг фойдали хизматлари йиғиндиси сифатида ифодаланиши мумкин.

7. Оптимал солиққа тортиш шкаласини бошқариш харажатлари аҳамиятсиз деб тахмин қилинган.

Солиқ назарияси ривожланишининг ҳозирги босқичида солиққа тортиш самарасига алоҳида эътибор қаратиш лозим, чунки уларнинг оқибатлари жамият учун анча эҳтимолий ва аввалдан аниқ прогноз қилиб бўлмайдига оқибатлар олиб келиши мумкин. Солиққа тортишнинг асосий самрасида бири “даромад самараси” бўлиб, солиқлар ўз моҳиятига кўра жисмоний шахслар даромадларини қайта тақсимлаш орқали бир қисмини олиб қўйиши, ўз навбатида солиқ тўланган кейинги жисмоний шахснинг тасарруфида реал даромад миқдорига (жумладан, истеъмол ва жамғариш нормасига) таъсир кўрсатади.

GAT ma’lumotlarini integratsiya qilish. GAT yordamida turli manbalardan yig‘ilgan ma’lumotlarni birlashtirish va ularni yagona tizimda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Bu esa ekologik vaziyatni to‘liqroq va aniqroq baholashga imkon beradi [3.361].

- *Suv va tuproq resurslarini integratsiya qilish*. Suv va tuproq resurslari haqida turli manbalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish orqali ularning o‘zaro ta’sirini va holatini aniqroq baholash mumkin.
- *Biodiversitet monitoringi*. Turli xil manbalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish orqali hududdagi biologik xilma-xillikni kuzatish va uning o‘zgarishini baholash mumkin.

Modellashtirish va bashorat qilish. GAT yordamida ekologik vaziyatni modellashtirish va bashorat qilish usullari ishlab chiqiladi. Bu usullar yordamida turli ekologik jarayonlar va ularning oqibatlarini oldindan baholash mumkin [3.398].

- *Iqlim o‘zgarishi modellarini ishlab chiqish.* Iqlim o‘zgarishi va uning hududiy ekologik vaziyatga ta’sirini baholash uchun modellar ishlab chiqish va ularni GAT yordamida tahlil qilish mumkin.
- *Antropogen ta’sirlarni baholash*. Inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan ekologik o‘zgarishlarni modellashtirish va bashorat qilish orqali ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish mumkin.

Orol bo‘yi hududidagi ekologik vaziyatni monitoring qilishda GAT texnologiyalaridan samarali foydalanish mumkin. Ushbu hududda GATni qo‘llashning quyidagi usullari mavjud:

- *Suv resurslari monitoringi.* Orol dengizi va uning atrofidagi suv havzalarining monitoringi GAT yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bu esa suv resurslarining holati va dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

- *Suv sathi o‘zgarishini kuzatish.* Sun’iy yo’ldosh tasvirlari va GAT yordamida suv sathining o‘zgarishini muntazam kuzatish va uning sabablari haqida tahliliy ma’lumotlar olish.
- *Tuproq va o‘simlik qoplamining monitoringi.* Orol bo‘yi hududidagi tuproq va o‘simlik qoplamining holatini GAT yordamida monitoring qilish orqali ularning o‘zgarishini baholash mumkin.
- *Tuproq sho‘rlanishini kuzatish***.** GAT yordamida tuproqning sho‘rlanish darajasini kuzatish va bu jarayonning dinamikasini o‘rganish mumkin.
- *O‘simlik qoplamining o‘zgarishini kuzatish*. Masofaviy zondlash va GAT yordamida o‘simlik qoplamining o‘zgarishini kuzatish va uning sabablarini aniqlash mumkin.

Orol bo‘yi hududidagi ekologik vaziyatni monitoring qilish va boshqarish uchun geoaxborot tizimlari (GAT) katta imkoniyatlarga ega. GAT yordamida turli ekologik jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish va bashorat qilish mumkin. Ushbu tezisda GATning imkoniyatlari va ularni ekologik vaziyat monitoringida qo‘llash usullari tahlil qilindi. GAT texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali Orol bo‘yi hududidagi ekologik muammolarni hal qilish va mintaqaning barqaror rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paul A. Longley, Michael F. Goodchild, David J. Maguire, and David W. Rhind. "Geographic Information Science and Systems". Publisher: Wiley. Published in 2005., 496 p.
2. Monika S. Bauer, Thomas K. Kienzle "GIS Fundamentals". Publisher: Wiley. Published in 2015., -386 p.
3. David M. Smith. "Cartography and Geographic Information Systems (GIS)". Publisher: Human Geography. Published in 2015., -445 p.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

J.Pirekeev, *Ichki ishlar vazirligi Qoraqalpoq akademik liceyi Umumta’lim fanlar kafedra boshlig’i*

R.Seytmuratov, *Ichki ishlar vazirligi Qoraqalpoq akademik liceyi o’qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada dars jarayonida kompyuter texnologiyasi elementlarini ko‘proq qo‘llash, o‘quv jarayonini xilma-xilligini oshirishga yordam berib, multimedia ma’ruzalarda o‘quv materialining animatsiyalar bilan keng qamrab olinishi o‘qituvchiga mavzu bo‘yicha ko‘proq axborot berish va

tushuntirish uchun chegaralangan vaqtdan unumli foydalanishi talabalarning esda saqlab qolish darajasini ham oshirishi haqida fikr yuritiladi.

Ta’limda o‘qitishning sifatini oshirish so‘zsiz yangi o‘qitish usullaridan qanday foydalanishga bog‘liq bo‘lmoqda.Yangi o‘qitish usullari talabalarning e’tiborini ta’lim jarayoniga jalb eta bilish muhim sanaladi. Bunda albatta talaba doimiy ravishda izlanish va harakatda bo‘lishi lozim, ya’ni berilgan ma’lumotlarni ochishi, qayta ishlashi va olgan bilimlarni aniq masalalar yechishda qo‘llashi lozim. Axborot texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘qitishning barcha shakllarida (ma’ruza, amaliyot, laboratoriya va mustaqil ta’lim) tezlik bilan o‘z samarasini beradi.

Hozirgi vaqtda shu narsa aniqki, ta’lim sistemasining strategik rivojlanish yo‘nalishi - shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim berish muaamolarining echimini topish, ya’ni bu yo‘lda eng asosiysi bilim berish faoliyatidir. Xozirgi zamonda ilmiy fikrlash va ilmiy texnika progressi keskin va intensiv ro‘y bermoqda. SHundan kelib chiqqan holda zamonaviy o‘qituvchilar ya’ni murabbiylar zamon bilan hamnafas bo‘lishlari shart va zarurdir. Dars jarayonida kompьyuterdan foydalanish o‘qituvchi va talabalarga, interaktiv o‘quv qo‘llanmalari bilan bog‘liq bo‘lgan yangidan – yangi o‘ziga xos qulayliklar yaratadi. Kompьyuterni boshqa o‘qitish vositalari, masalan proektor elektron doskalar bilan operativ qo‘shilishi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanib ma’lumot berish xajmini oshiradi va bu bilan o‘qituvchi uchun dars vaqtidan unumli foydalanishga imkoniyat yaratadi. Dars jarayonida kompьyuter texnologiyasi elementlarini ko‘proq qo‘llash, o‘quv jarayonini xilma – xilligini oshirishga yordam berib, talabalarni - tinglovchilarni zerikish “kasalligidan” qutqaradi, ta’lim berishni sifat jihatidan yangi, yuqori pog‘onalarga ko‘taradi, benuqson o‘quv darsliklari bilan ta’minlashga erishiladi, shaxs rivojlanishiga yordam beradi, talaba va o‘qituvchining ijodiy potentsiali va bilish faolligini shakllantiradi ularda o‘qishga, hayotga bo‘lgan qiziqishini orttiradi .O‘qituvchi prezentatsiya slaydalarini ko‘rsatayotgan paytida, har xil rasmlar, formulalar va grafiklarni ko‘rsatishi, ma’ruzani qisqa va lo‘nda qilib yozdirishi mumkin. Bunda talaba bir vaqtning o‘zida eshitayotgan tushunchalarini ko‘zi bilan ko‘rib ham turadi. Ma’lumki, axborotning katta qismi ko‘rish orqali olinadi.

Darsda o‘tilgan mavzuni umumlashtirish va mustaxkamlash hamda chuqur va yaxshilab o‘rganish uchun kompьyuterga kiritilgan elektron testlardan foydalanish o‘z navbatida talabalarda mazkur fan bo‘yicha ko‘nikma va maxoratni shakllantiradi. Ularda yangi kompyuter dasturlariga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi. Oraliq va yakuniy nazoratda ham kompьyuterdan foydalanish yuqori samara beradi. Kompьyuter talabalarni ilmiy ish olib borish faoliyatlarida ham katta rolь o‘ynaydi. Masalan, talabalar nazariy mexanika fanining aniq bir

mavzusi bo‘yicha prezentatsiyalar tayyorlashning effektiv va qiziqarli usulini ishlab chiqadilar va animatsiyalarni tayyorlashni o‘rganadilar. Bu talabalarda kompьyuter bilan muloqotda bo‘lish texnika va texnologiyasini shakllantiradi.

O‘quv materiallarini mulьtimedia tizimlari ko‘rinishida tayyorlash va ularni kompьyuter tarmoqlari va uzatish vositalari orqali ko‘pchilikka taqdim etish mumkin.Kompьyuter texnologiyalarining ta’lim tizimiga keng joriy etilishi barcha turdagi o‘qitish shakllarining, o‘quv materiallarini qaytadan ko‘rib chiqishni talab etadi. O‘quv materiallarining elektron shakli an’anaviy qog‘oz shaklidan farqli ravishda o‘rganishga qulay muqobil variantdir. Elektron shakldagi o‘quv materiallarining eng asosiy yutug‘i – uning ixchamligi va tejamligidadir. Xalqaro iqtisodiy tanqislik davrida qog‘oz va bo‘yoqqa bo‘lgan talabni pasaytiradi.Elektron shakldagi axborotga barcha turdagi axborotlarni(matn, grafik, animatsiya) joylashtirish va ularga ishlov berish mumkin.Kompьyuter texnologiyalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilishi ma’ruza darslarining ham shaklini o‘zgartirishini talab etmoqda. Ma’ruzachi cheklangan hajmdagi vaqt orlig‘ida belgilangan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni o‘rganishga yo‘naltiruvchi ko‘rsatma va izohar beradi. Bunday sharoitda o‘qitish sifati va samarasini oshirish uchun o‘quv materialini vizuallashtirish muhim o‘rin tutadi. An’anaviy usulda ma’ruza darslarida doska, mel va plakatlar kabi vositalardan ko‘p foydalanilgan. Ular xam o‘z vaqtida etarli darajada samara berib kelgan. Lekin plakatlar statistik xarakterga ega bo‘lib ularga o‘zgartirish kiritib bo‘lmagan. Doskaga ma’lumotlarni yozib o‘chirishga ko‘p vaqt sarflangan. O‘z-o‘zidan ma’lumki belgilangan materiallarni talabalar e’tiboriga to‘liq taqdim etish imkoniyati chegaralangan. Kompьyuterga ulangan sonli videoproektorlarning qo‘llanilishi an’anaviy o‘qitish usulidan axborotlarni elektron shaklda tasvirlash imkoniga ega yangi integrallashgan o‘qitish usuliga o‘tkazdi. Ma’ruza o‘qituvchisi doska va mel o‘rniga axborotlarni turlicha ko‘rinishlarda tasvirlovchi juda katta imkoniyatga ega bo‘lgan zamonaviy vositalarga ega bo‘ldi. Bunda o‘qituvchi o‘quv materialini taqdim etish shakli va ketma-ketligini o‘zi aniqlaydi. Talabalar berilayotgan materiallarning asosiy qisminigina konspekt qilib, ko‘proq vaqtini tinglashga va savollar berishga sarflaydi.

Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, mulьtimedia ma’ruzalarda o‘quv materialining grafik, tasvir va animatsiyalar bilan keng qamrab olinishi o‘qituvchiga mavzu bo‘yicha ko‘proq axborot berish va tushuntirish uchun chegaralangan vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi. Taqdim etilayotgan materiallarning vizualligi talabalarning esda saqlab qolish darajasini ham oshiradi.

Gap shundaki an’anaviy o‘qitish usullarida guruhni faol ishlashga jalb etish va ularning o‘zlashtirishini nazorat qilish hamma vaqt ham ko‘ngildagidek

bo‘lavermaydi. O‘quv materialining elektron shaklda bo‘lishi, materialni (matnli, grafikli, ovozli, animatsion) kompьyuter ekranida ko‘rish, o‘rganish, o‘zgartirish kiritish va yozib olib yanada chuqurroq o‘rganishga imkon beradi. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari va ularni qo‘lash masalalari, innovatsion o‘zgarish va yondashuvlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyat –uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida talabalarning fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, kasbiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha hamda ta’lim samaradorligini ta’minlovchi quyidagi uslubiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

– talabalarning axborot madaniyatini shakllantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

– turli fan va kompьyuter to‘garaklari, Internet klublarida bo‘lajak mutaxassislardan kasbiy sifatlarni shakllantirishga aloxida e’tibor berish;

– talabalarning axborot-kommunikatsion texnologiyalari bo‘yicha mustaqil ishlarini tashkil etishlaridan unumli foydalanish;

– tegishli o‘quv fanlarini o‘rganishda predmetlararo bog‘liqlik va aloqadorlikni ta’minlash;

– talabalarning kasbiy amaliy faoliyatini takomillashtirish;

– fan-texnika va texnologiyalarning so‘ngi yutuqlari bo‘yicha ma’lumotlardan foydalanish;

– kompьyuter vositasida o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va faol metodlarni qo‘llash;

– baxolashda talabalarni faolligi va mustaqil ishlash qobiliyatiga aloxida e’tibor qaratish.

Umuman olganda, quyidagi hollarda o‘quv jarayonida nazariya va amaliyotni birgalikda o‘tkazish yaxshi natijalar beradi:

1. Darsning sifati eng avvalo darsning mazmunini to‘liq shakllantirishga va ta’lim maqsadiga erishishi lozim.

2. O‘qitish turi muammoli yoki tadqiqotga oid faollashtiruvchi bo‘lishi hamda ma’ruza har bir tinglovchida fikrlashni uyg‘otishi zarur.

3. Muammo elementlari bo‘lgan ijodiy fikrlash darsiga aylantirish, ya’ni baxs – bu faol, qiziqarli, qizg‘in va extiros suxbat bo‘lib, uning ishtirokchilari muhokama qilinayotgan masalalarni mufassal tushunishga, bilishga diqqat e’tiborini qaratishi lozim.

4. Muammoviy uslub avvaldan mavjud bilimlar asosida mustaqil bilimlar olib borishni talab qiladi, ijodiy fikrlashni uyg‘otadi, qo‘yilgan muammolarni echish

ayni bir masaladagi turlicha nuqtai-nazardan, fikrlar, qarashlar to‘qnashuvini vujudga keltiradi.

5. Axborot texnologiyasi joriy qilishda va buning orqasida ta’limning muhim tamoyillari tizimlilik, ko‘rgazmalilik, ilmiylik va tarixiylik aloqadorligini ko‘rsatish.

6. YAngi pedagogik texnologiya va usullarni keng joriy qilishga erishish.

7. Zamonaviy axborot texnologiyalarni qo‘llash, o‘qitish jarayonini kompьyuterlashtirish, hamda kompьyuter tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini axborot bilan ta’minlashga erishish.

8. Dars samarasini oshirishga xizmat qiladigan o‘quv-uslubiy ilmiy, qomusiy adabiyotlar bilan ta’minlashga erishish.

9. O‘qitish samaradorligini oshirishdagi omillardan biri bizning nazarimizda darslarga xamkasblarning kirishi va ular fikrlarini, tahlillarini, eshitish shu yo‘sinda kamchiliklarni tuzata borish.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim maskanlarida yangi pedagogik texnologiyalargaasoslanib, kompьyuter texnikalaridan foydalanish ta’lim beruvchiniyam, ta’lim oluvchilarniyam faollashtiradi. Ajratilgan vaqtdan unumli foydalanib ko‘rilayotgan mavzu to‘g‘risida batafsilroq va to‘laroq ma’lumotlar olishga imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сапаев Б., Тоджиев Ж.Н., Раззоқова С.Р. Ҳозирги замонавий олий ўқув юрти таълимида педагогик технологиялардан фойдаланиш. “Аниқ фанларнинг ўқитишнинг долзарб муоммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. Гулистон- 2013 й

2. «Таълим самарадорлигини ошириш йўллари» мавзусидаги семинар-тренинг материаллари.- Т.,2002 й.

3. Использование современных информационных и коммуникационных технологий в учебном процессе: учебно-методическое пособие / Авторы-составители: Д.П. Тевс, В. Н. Подковырова, Е. И. ,Апольских, ,М. В, Афонина. – Барнаул: БГПУ, 2006.

4.Атамурзаев М., Тангиров А., Охунбоев М. «Ахборот тизимлари» фанидан маърузалар курси. – Т., 2016 й.

YOSHLARIMIZNI TURLI AXBOROT MANBALARIDAN TO’G’RI FOYDALANISHGA O’RGATAYLIK

Raximova Feruza Atabek qizi, *O’zbekiston Respublikasi IIV Xorazm akademik litseyi ,,Umumta’lim fanlar’’ kafedrasi Informatika va AT fani o’qituvchisi*

Annotatsiya:Mazkur makolada bugun uzluksiz ta’lim amalyotida qo’llanilayotgan axborot texnologiyalari,internet tizimininng ta’lim tarbiya jarayonidagi o’rni va undan samarali,maqsadli foydalanish imkoniyatlari,yo’llari va usullari xususida so’z yurutiladi.

Kalit so’zlar:kompyuter,texnologiya,internet,kompyuter texnologiyasi,internet tarmoqlari,ma’lumot.

So’z,fikr,mantiq,mushohada,tashbeh amallari buyuk va qudratli oliy tabiat tomonidan faqat xazrati insonga ato etilgan ne’matlardan.Mazkur fikriy,aqliy jarayonlar maqsadli,o’rinli,chiroyli va zaruriy,ahamiyatli faoliyatga aylanishi uchun faoliyatdan ko’zlangan maqsad inson uchun ta’limiy va nazariy ahamiyat kasb etishi,faoliyatni amalga oshiruvchi rejalar o’rinli tuzilishi kabi qator amallarga bog’liq.Bu jarayonda albatta nazariy savodxonlik o’ta muhim ahamiyat kasb etadi.Nazariy savodxonlik o’z navbatida mazkur yo’nalish bo’yicha egallangan tushunchalar,g’oyalar,faktlar ko’lami va ularni esda saqlash,qayta takrorlash natijasida vujudga kelgan bilimlar majmuasi yoki mujassam bilimlarga bevosita bog’liq.Mazkur jarayonlar zamirida so’zsiz ma’lumot olish,ma’lumot yig’ish faoliyati yotadi.

Birorta yo’nalish bo’yicha ma’lumot olish,tushunchalarga aniqlik kiritish va ularni izohlash borasida albatta kitobning bahosi yo`qdir.Insoniyatning kitobga bo`lgan qiziqishi va ehtiyoji eramizdan oldingi asrlardayoq paydo bo’lgan va ular bizgacha esa Misr papiruslari,Shumer-Bobil Sopol kitoblari ko’rinishida yetib kelgan.Samarqand oliy nav qog`ozining dovrug`i esa butun dunyoga tarqalgan.Inson aqliy zakovati,ma’naviy kamolotida kitobning o’rni beqiyos.Bugun ma’lumot olish,tahlil jarayonlarini amalga oshirish,ma’lumot to’plashning tezkor usullari yaratilganki,toki ular yaratilish asnosida kishilarga ezgulik ulashish,og’irini engil qilish,izlanish yo’lidagi vaqtni tejash kabi ezgu maqsadlarni nazarda tutadi.

Donishmand otaxonlar-u kayvoni onaxonlar ko’pni ko’rganlar,tajribali keksa avlod vakillari ota-onalarimiz,aziz va muhtaram ustozlar,murabbiylarimiz go’zal fazilatlar va sifatlar eltuvchilaridir.Ular suhbati bizni ezgulik sayharakatlari,turmush ziynati hayot haqiqatlari bilan ro’baro qiladi,fikrlarimizni oydinlashtirib,aqlimizga sayqal beradi,yaxshilikni yomonlikdan,halolni haromdan farqlashga o’rgatadi.Bilim olish,o`rganish,ilm izlash,dono xalqimizda doimo e’tirof etilgan olimu fuzalolar,hurmat va ehtiromlarga loyiq topilib, ustozlar,sharaflangan go’zal fazilatlarga oshufta bo’lishga da’vat etilgan.Mazkur sayharakatlar yurtimizdan qator mutafakkirlar,donishmand Al-Xorazmiy,Al-Beruniy,Az-Zamaxshariy,olimu-fuzalolarni Najmiddin Kubro,Sulaymon Boqirg’oniy , Rabg’uziylarni voyaga yetkazgan,dunyoga mashhur etgan.Ular ilm,bilim yo’lini go’zal,halol hisoblaganlar.

Bugun ma’lumot olish va yig’ishning tezkor imkoniyatlari vujudga kelgan.Ana shunday imkoniyatlardan biri axborot texnologiyalarining samarali rivojidir.Internet tarmoqlari bugun o’qish,izlanish,ma’lumot yig’ishda qulay va oson imkoniyatlarni yaratib beradi.U o’zining tezkorligi,ma’lumotlarni samaradorligi va qiziqarliligi bilan kishilarni o’ziga tez jalb etadi.Ushbu jixatlardan bilar bilmas,tushunarli tushunmas,qandaydir malumotlar tasiriga tushib qolish imkoniyatlarini yaratib beradi.Bazida bu ichki xususiyatlarni junbushga keltruvchi holatlar esa yoshlarni o’z tasiriga olgan holda oqibatsizlikga,yot qarashlar millatlar tomon yo’naltiriladi.Har qanday ma’lumot ham insonni ezgulik tomon chorlayvermaydi.Taxlil va inson zakovati ila amalga oshirilgan tashbex o’tkazilgan ijobiy va go’zal amallarga chorlovchi m’lumotlar va go’zal insonni insonparvarlik,ezgulik tomon yo’naltiradi,uning inteluktual salohiyatini yuksaltirgan holda marifat va manaviyat izlashga shay qiladi,shaxs kamoloti pillapoyalar tomon chorlaydi.Hayotning asl mohiyatiga ana shu so’qmoqlar orqali boriladi.

XXI-asr globallashuv asri bo’ldi desak adashmaymiz. Mamlakatimizda barcha sohalar qatori kompyuter texnologiyalari ham shu qadar rivojlandiki,hozirgi kunda hech bir tashkilot,korxona ta’lim muassasalarini kompyutersiz,internetsiz tasavvur qilish qiyin.Shunday zamonaviy texnologiyalar bilan taminlangan dargohlarda taxsil olayotgan yoshlarimizni butun dunyo tan olmoqda.Ular o’z intellektual salohiyati bilan yuksak cho’qqilarni zabt etmoqda.Lekin shuni ham unutmaslik lozimki,globallashuvni foydali tomoni bilan bir qatorda zararli tomonlari ham yo’q emas.Bugungu kunda inson ongini va qalbini egallash uchun qattiq kurash bormoqda.Bu kurashda turli mafkuraviy poligonlar tomonidan xar hil tasir vositalari ishga solinmoqda.Bunday tasir turli xil jozibali g’oyalar bilan niqoblangani sabab bir qarashda ularni qanchalik xavfli ekanini anglash oson emas.Xozirgi kunda deyarli har oilada kompyuter,internet xizmatlari mavjud.Kompyuter yoki internet xizmatidan foydalanish bazi hollarda bolaning bilimi,onggi,dunyo qarashini o’stirish uchun xizmat qilsa,bazilarida esa ota-onalarning “qulog’im tinchisa bas” kabidagi maqsadini amalga oshiruvchi bekorchi,lekin shu bilan birga bola miyasini zaxarli g’oylalar bilan to’ldiruvchi,jozibador o’yinlar manbai bo’lib xizmat qimoqda.Bugun yoshlarimiz bo’sh vaqtlarining ko’p qismini kompyuter o’yinlariga sarflayotganliklari ko’pchilikka sir emas.Bazi holatlarda 5-6 yoshlar jajji pokiza tuyg’ularga to’la qalb egalari ham o’z akalariga qo’shilib,bu jangari o’yinlarga berilib ketganliklarini ko’rish ayanchli holatdir.Mana shunday o’yinlar farzandlarimiz ongiga qanday tasir qilishini o’ylab ko’rganmisiz?Muntazam ravishda jangari o’yinlar o’ynaydigan yoshlarimiz qalbiga shavqatsizlik,ko’zlagan maqsadiga qay

yo’l bilan bo’lmasin erishish,jizzakilik,o’ljasiga erishish yo’lida hech kimni ayamaslik kabi illatlar shakillanishiga zamin yaratadi.

Bu jozibador shu bilan birga xavfli o’yinlarga mukkasidan ketgan bolaning oldingi qiziqishlari doirasi torayib,butun o’y xayolini o’yin haqidagi fikrlar egallaydi,o’yin boshlanishini orzuqib kutadi,o’yinsiz qolsa asabiylashadi,tobora ko’proq oynash fikri uyg’onadi,o’yindan o’zini to’xtata olmaydi,oxir oqibat esa bu o’yinlarni o’ynashga bo’lgan kuchli xohishini amalga oshirish yo’lida hech narsadan tap tortmaslikka borib yetishi mumkin.

Biz bu voqea-hodisalarga ogohlik bilan yondashish,farzandlarimizni yukoridagi ko’rinishdagi globallashuv taxdididan asramog’miz lozim.Samimiy istakimiz shuki,yoshlarimiz ajoyiboot hisoblangan internetning talim-tarbiyaviy,ilmiy xususiyatlaridan baxra olishi va undan unumli foydalanishga oid bilim,ko’nikma va malakalarini muntazam oshira borsalar,faqat ezgu va yaxshilik maqsadlarida foydalanishsa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.O.Musurmonova,M.Qarshiboyev.Milliy istiqlol g’oyasi va manaviyat asoslari.

2.O’zbekiston Respublikasining ,,Talim to’g’risida’’gi qonuni.Toshkent.,,Sharq’’HMK,1997

3.O’zbekiston Respublikasi ,,Qadrlar tayyorlash Milliy dasturi’’Toshkent,1997

4.O’zbekiston Respublikasi maktabgacha talim konsepsiyasi.Toshkent,2008 yil.

O‘QUV JARAYONIDA ONLAYN RESURSLARNING QO‘LLANILISHI

A.K.Turayev, *Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi oliy toifali informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: maqolada ta’lim faoliyatida foydalaniladigan onlayn resurslar tasnifi tasvirlangan. Zamonaviy darsda ushbu manbalardan foydalanishning asosiy maqsadlari sanab o‘tilgan. Onlayn resurslarning vazifalari tavsiflangan. Sinflarda onlayn resurslardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari sanab o‘tilgan. Bugungi kunda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan o‘quvchilar uchun elektron resurslarni ishlab chiqish bo‘yicha amalga oshirilayaotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. O‘quv jarayonida o‘quvchilar tomonidan foydalaniyayotgan ta’limga oid internet resurslarining nomlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: onlayn resurslar, Internet resurslari, onlayn resurslarning funktsiyalari, simulyatorlar, calculation, simulyatsiya, diagnostika, konservativ, multimedia, kompetensiya, onlayn resurslardan foydalanishning afzalliklari, onlayn resurslardan foydalanishning kamchiliklari, ta’limga oid internet resurslar.

Kirish: Hozirgi vaqtda biz ta’lim sohasida global axborotlashtirishni boshdan kechirmoqdamiz. Ta’limni axborotlashtirish - ta’lim va ta’limning pedagogik va psixologik maqsadlariga erishishga qaratilgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlash jarayoni bo‘lib, ularni amalga oshirish uchun onlayn ta’lim resurslari paydo bo‘lgan va ulardan muvaffaqiyatli foydalaniladi. Ushbu resurslar o‘quv jarayoniga faol integratsiyalashgan va an’anaviy o‘qitish usullarini foydali tarzda to‘ldiradigan multimedia va kommunikatsiya texnologiyalarini kiritish bilan birga keladi. Ko‘pincha “Internet-resurs” tushunchasi “onlayn resurs” tushunchasi bilan sinonimdir, natijada biz ta’rif beramiz.

Internet-resurs - bu birlashtirilgan texnik, apparat va dasturiy vositalar, shuningdek, Butunjahon Internet tarmog‘ida nashr etish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar to‘plami. Internet-resurs matn, grafik va multimedia ko‘rinishidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Asosiy qism: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha YUNESKO tashkiloti uslubiy maqsadlariga ko‘ra ochiq ta’lim onlayn resurslarining quyidagi tasnifini taklif qiladi:

1. Simulyatorlar - ko‘nikmalarni mashq qilish va olingan bilimlarni mustahkamlash uchun ishlatiladi;

2. O‘qitish - bilim berish va ko‘nikmalarni shakllantirish;

3. Axborot qidirish va ma’lumotnoma - so‘rov bo‘yicha ma’lumot berish;

4. Nazoratchilar - olingan bilim va ko‘nikmalarni tekshirish uchun mas’uldirlar;

5. O‘yin - reaktsiya, mantiqiy fikrlash, xotira va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bo‘sh vaqtni tashkil qilish;

6. Calculation – hisob-kitoblarni avtomatlashtirish uchun foydalaniladi;

7. O‘yin shaklida o‘rganish uchun o‘quv va o‘yin dasturlari;

8. Namoyish – maksimal ravshanlikka erishish uchun axborot, hodisa va jarayonlarni vizual tarzda aks ettirishga xizmat qiladi;

9. Laboratoriya – masofaviy tajribalar uchun resurslar;

10. Simulyatsiya va modellashtirish - uning tomonlarini o‘rganish uchun haqiqatni simulyatsiya qilish.

Ta’lim jarayonida onlayn resurslardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi.

1. Darsda ushbu texnologiyadan foydalanish. O‘quvchilar o‘qituvchining savollariga javob berish uchun elektron pochta, qidiruv tizimi bilan ishlashni va Internetda ma’lumot topishni o‘rganadilar. Shunday qilib, o‘quvchilar Internetdan foydalanishning asosiy ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar va o‘z ehtiyojlari uchun ba’zi telekommunikatsiyalarni o‘zlashtiradilar.

2. O‘qituvchi o‘z darsini g‘ayrioddiy va qiziqarli o‘tkazishga intiladi. Dars davomida onlayn material namoyish etiladi va multimedia fayllari ijro etiladi.

Masalan, atrofdagi dunyo haqidagi darslarda vulqon otilishi yoki quyosh tutilishini ko‘rsatish. Internet texnologiyalari tufayli sinfda ko‘rish qobiliyati oshadi.

3. Kamroq konservativ o‘qituvchilar o‘quvchilarga onlayn resurslardan foydalangan holda ta’lim muammolarini hal qilish imkonini beradi.

4. Hozirgi vaqtda ta’lim muassasalari elektron ta’limdan foydalanishga majbur. Ta’lim dasturini amalga oshirish uchun hozirgi ta’lim muammolarini hal qilish uchun onlayn resurslardan foydalanish kerak.

Onlayn manbalar quyidagi funktsiyalarga ega:

1. Diagnostika funktsiyasi. Bu funksiya talabaning ko‘nikma, qobiliyat va bilim darajasini aniqlash imkonini beradi. Onlayn ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlari o‘quvchilar bilimidagi kamchiliklarni topish va bartaraf etish imkonini beradi.

2. Tarbiyaviy funksiya. Bu funktsiya shundan iboratki, onlayn resurslardan foydalanish ma’lum bir fanni o‘zlashtirishda talabaning ishini tashkil qilish imkonini beradi. O‘zining ta’lim funktsiyasini bajarishda onlayn resurs talabaga bir xil turdagi guruh yoki bir xil qiyinchilik darajasidagi topshiriqni qayta hal qilish imkoniyatini beradi.

3. Tarbiyaviy funksiya. Onlayn manbalar kabi zamonaviy o‘quv vositalari o‘quvchilar faoliyatini tartibga soladi va ularning o‘zini o‘zi tashkil etishiga yordam beradi. Ushbu vositalar bilan ishlashda maktab o‘quvchilarida mas’uliyat, mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirish istagi paydo bo‘ladi.

Konservativ fikrlaydigan o‘qituvchilar o‘quv jarayonini amalga oshirishda onlayn resurslardan foydalanishdan qochishadi, ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va foydaliligi yo‘q deb hisoblaydilar va quyidagi onlayn resurslardan foydalanishning afzalliklarini unutadilar:

1. Taqdim etilgan materialning istalgan vaqtda mavjudligi. Elektron texnologiyalar uzluksiz o‘qitishni tashkil etish imkonini beradi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari istalgan vaqtda topshiriq yoki manbalardan foydalanishlari mumkin.

2. Mobillik. Internet mavjud bo‘lgan har qanday joydan bilim olishning mavjudligi.

3. Taqdim etilgan ma’lumotlarning kengligi. Internet muhitida bo‘lgan talaba bevosita o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan material ustida ishlash jarayonida istalgan dunyo manbalariga murojaat qilishi mumkin.

4. Axborotning tezkorligi. An’anaviy ta’limda axborot manbai kitob yoki darslik hisoblanadi. Qog‘oz yozuvlari kamdan-kam yangilanadi, chunki maktablar zarur moliyaviy yordamga ega emas. Internet resurslari har qanday ma’lumotni yangilash va dolzarb ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

5. O‘quv jarayonini avtomatlashtirish. O‘qituvchiga topshiriqlarning ko‘p o‘xshash variantlarini tuzish va qayta ishlash kerak emas. Tizim natijalarni mustaqil ravishda tekshiradi va saqlaydi.

6. Multimedia. Onlayn resurslardan foydalanish multimediadan foydalanishni o‘z ichiga oladi, bu materialni idrok etishni yaxshilaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich maktabda, chunki o‘quvchilar vizual-majoziy fikrlashdan og‘zaki-mantiqiy fikrlashga o‘tishning o‘tish bosqichida.

7. Zamonaviy informatsion texnologiyalarini egallash ta’lim muassasasi bitiruvchisining kompetensiyalaridan biridir.

Onlayn resurslardan foydalanishning quyidagi kamchiliklari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Kompyuter savodxonligiga bo‘lgan ehtiyoj. Onlayn ta’lim resurslari bilan ishlash imkoniyati bo‘lmasa, ulardan foydalanish samarasiz bo‘ladi.

2. Emotsional ishtirokning pastligi. Darsdagi harakatlar uchun hissiy mustahkamlashning yo‘qligi ma’lumotlarning esda qolishini pasaytiradi.

3. Nazoratning zaif darajasi. Darslarda onlayn testlardan foydalanish mumkin. O‘quvchi aldash, ma’lumotni uchinchi tomon manbalaridan topish imkoniyatiga ega, bu esa o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini shubha ostiga qo‘yishi mumkin .

Ammo bu kamchiliklar AKT kompetensiyasi bo‘yicha malaka kurslarini o‘tash, onlayn resurslardan foydalanishda o‘qituvchining ko‘proq hissiy ishtiroki va ta’lim faoliyatida nazoratni kuchaytirish orqali osongina qoplanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Xalq ta’limi vazirligi tomonidan o‘quvchilar uchun elektron resurslarni ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” DUK tomonidan foydali onlayn resurslar, platforma va portallar uchun qo‘shimcha elektron kontentlar ishlab chiqildi hamda keng ommalashtirish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘quvchilar darslarni o‘zlashtirishi va takrorlashi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, shuningdek maktabdan tashqari ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadida **Maktab.uz** masofaviy ta’lim platformasi ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda Maktab.uz portaliga Xalq ta’limi vazirligi uchun “Onlayn maktab” telekanallari uchun ishlab chiqilgan 1-11 sinflarga mo‘ljallangan 7 ming 500 dan ortiq maktab o‘quv dasturi bo‘yicha tayyorlangan videodarslar hamda ularning 2 ming 400 dan ortiq taqdimotlari yuklangan.

Bundan tashqari 2021 yil davomida 1-4 sinflar uchun 7 ta fandan jami 84 ta animatsion videodars ko‘rinishidagi resurslar, 5-8 sinflar uchun 5 ta yo‘nalish bo‘yicha 100 dan ortiq, 9-11 sinflar uchun 12 ta yo‘nalish bo‘yicha 250 dan ortiq videodarslar maktabdan tashqari ta’lim kontenti sifatida ishlab chiqilgan va Maktab.uz portaliga bosqichma-bosqich joylanmoqda. Shuningdek, portalda hamkor tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan qo‘shimcha elektron ta’lim resurslari ham joylashtirib borilmoqda.

O‘quvchilarda kitobxonlikni yanada ommalashtirish maqsadida Kitob.uz portalini targ‘iboti natijasida joriy yil yanvar oyida portalga tashrif buyuruvchilar soni 16 mingtani tashkil qildi, ularning 93 foizi yangi tashrif buyuruvchilar hisobiga to‘g‘ri keladi. Kitob.uz – 4000 taga yaqin elektron va audio kitoblarni o‘z ichiga olgan bepul onlayn kutubxona hisoblanadi. Shuningdek, kitob.uz portali mobil ilovalarning yuklab olishlar sonida ham keskin ko‘tarilishlar yuz berib, Android va iOS mobil versiyalari hisobida umumiy yuklab olishlar soni qariyb 20 ming martani tashkil qilmoqda.

“EduKids” loyihasi doirasida yaratilgan 100 dan ortiq ilmiy-ommabop animatsion dayjestlarni keng ommaga targ‘iboti natijasida telegram ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida joylashtirib borilayotgan dayjestlarning o‘rtacha ko‘rilish soni 50 mingtani tashkil qilmoqda.

“EduKids” – o‘quvchi-yoshlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yosh avlodni kelajakda muvaffaqiyatga erishish va o‘z ustida ishlashga chaqirish, shuningdek o‘quvchilarda ma’lum bir mavzular bo‘yicha aniq tasavvurini shakllantirish, unda ota-onalar, jamiyat va o‘qituvchilarning rolini yanada oshirishni maqsad qilgan 100 dan ortiq ilmiy-ommabop animatsion dayjestlar to‘plamidir.

“Smartland” ta’lim platformasi mobil ilovalarini qishki ta’til davrida yuklab olishlar soni 5 ming 774 tani (Google Play) va 100 tani (App Store) tashkil etadi. “Smartland” loyihasi 15 ta fan bo‘yicha rus va o‘zbek tillaridagi 136 ta o‘yin hamda 2008 ta mashqlarni o‘z ichiga olgan interaktiv virtual ta’lim platformasi hisoblanadi. Mazkur ta’lim platformasining iOS va Android operatsion tizimlari uchun mo‘ljallangan mobil ilovasi ishlab chiqilgan.

Maktablarda o‘quvchilar tomonidan foydalaniyayotgan ta’limga oid internet resurslari

Barcha uchun ochiq onlayn kurslar

Barcha uchun ochiq onlayn kurslar (BUOOK) kompyuter va internet yordamida o‘rganuvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu kurslardan yuqori sinflardagi maktab o‘quvchilari ham foydalanishlari mumkin. Turli manbalardagi kurslarni taklif qiluvchi mashhur tijorat va notijorat tashkilotlariga Academic Earth, edx, Class Central, Udacity, Coursera, Udemy va FutureLearn kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

Edukids

EduKids - o‘quvchi-yoshlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yosh avlodni kelajakda muvaffaqiyatga erishish va o‘z ustida ishlashga chaqirish, shuningdek o‘quvchilarda ma’lum bir mavzular bo‘yicha aniq tasavvurni shakllantirishga qaratilgan 100 dan ortiq ilmiy-ommabop animasion dayjestlar to‘plamidir.

Uzbekcoders.uz

Dasturlashni o‘rganish uchun ochiq va bepul onlayn platforma. Ushbu onlayn portal 4 ta yo‘nalish (ma’lumotlar tahlili (Data analysis), android ilovalar (Android), Front-End, Full-Stack) bo‘yicha istagan kishiga IT-mutaxassisliklarni mutlaqo bepul o‘rganish imkoniyatini beradi.

Idea.uzedu.uz

Mazkur platforma o‘quvchi-yoshlarning xalq ta’limi tizimini rivojlantirish bo‘yicha g‘oya va takliflarini shakllantirish va ularni qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan. Ushbu platformaning maqsadi foydalanuvchilarning taklif va g‘oyalarini yig‘ish, saralash va amaliyotga joriy etishga yo‘naltirish, innovatsiyalarni joriy etishda fuqarolarning ishtirokini ta’minlashdan iborat.

Smartland

Interfaol virtual ta’lim platformasi. Ushbu ta’lim platformasi orqali bolalar bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun interaktiv ko‘rinishdagi mantiqiy o‘yinlar to‘plamidan foydalanishlari mumkin.

Olympiad.uzedu.uz

Fan olimpiadalarining onlayn platformasi bo‘lib, onlayn olimpiadalar tashkil etish va iqtidorli o‘quvchilar bazasini shakllantirish axborot tizimi. Ushbu tizim orqali 4-11-sinf o‘quvchilari masofadan turib 6 ta fandan olimpiadalarda ishtirok etish imkonini beradi.

Skillshare

Skillshare — milliondan ortiq o‘rganuvchi va o‘qituvchilarni birlashtiruvchi bilim yoyish jamiyati. Bu saytda yo‘riqnomalarga amal qilgan holda istagan inson hunarmandchilik, pazandalik, suratkashlik, texnologiya yoki yozish kabi darslarni (odatda 30 daqiqadan 1 soatgacha bo‘lgan) o‘tishi mumkin. Bu loyihalarga asoslangan darslarni (masalan, 3D grafika) ko‘rish uchun yaxshi manbadir. Bundan tashqari, mavzu bo‘yicha guruhlangan treklar ham mavjud. Saytda 300 dan ortiq dars bepul, 3 000 tadan ortiq dars jamlangan kutubxonadan foydalanish uchun esa obuna bo‘lishingiz kerak bo‘ladi.

Reddit

Reddit uning foydalanuvchilari tomonidan taqdim etiladigan san’at va kompyuter fanlari kabi standart fanlarni, shuningdek, “ko‘ngilochar o‘yinlar”ni (StarCraft II strategiyasi kabi) qamrab oladi.

Khan Academy

Khan Academy'da hozirgi vaqtda 38 milliondan ziyod onlayn o'rganuvchi mavjud. Khan Academy'da qiziqarli videodars va interaktiv kurslar mavjud.

iTunes U

IOS, Mac yoki Windows uchun ishlab chiqilgan iTunes U ilovasi nafaqat yetakchi maktablar va boshqa manbalar taqdim etayotgan kurslardan foydalanish, shuningdek, kurs topshiriqlarini bajarish va har bir dars uchun eslatma qoldirish imkonini beradi. Katalog turli mavzular bo'yicha yuz minglab manbalarni o'z ichiga oladi. Ushbu saytda bularning barchasi sizning qo'lingiz ostida jam bo'ladi.

Open Culture

Open Culture —saytda 2 300 ta bepul onlayn kurs, 1 150 ta bepul kino, 700 ta bepul audio kitob, 800 ta bepul kitob, 200 ta bepul darslik, 300 ta bepul til darsi, 150 bepul biznes kursi va boshqalar keltirilgan.

Xulosa: Hozirgi vaqtda ta'lim tizimini onlayn rersurlarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki onlayn resurslar ko'pincha multimedia ko'rinishida tashkil etilganligi uchun undan ma'lumotlarni o'zlashtirish o'quvchilar uchun oson bo'ladi. O'quvchilarning yosh toifalariga ko'ra ham, internetda turli resurslar mavjud. O'z bilimini mustaqil tarzda oshirmoqchi bo'lgan o'quvchilarga bu resurslar juda qo'l keladi. Onlayn resurslar orqali o'quvchilar bepul onlayn kurslar, audio va video ko'rinishidagi kitoblar, elektron darsliklar va kitoblarni topishlari mumkin. Bu resurlar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi zamonda o'quvchilarning katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqtda o'rganishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uza.uz/oz/posts/maktab-oquvchilari-uchun-qanday-elektron-platformalar-bor_352370
2. https://oliygoh.uz/post/free-online-courses
3. https://havola.uz/sources/online-cource?sort=-title

4. Использование интернет ресурсов в реализации комплексной дополнительной общеобразовательной общеразвивающей уровневой программы художественной направленности [Электронный ресурс] – URL: https://multiurok.ru/files/ispolzovanie-internet-resursov-v-realizatsii-kompl.html
5. О проблемах использования интернет-ресурсов современной системе общего образования [Электронный ресурс] – URL: https://scienceforum.ru/2017/article/2017035170

6. Преимущества и недостатки электронного обучения [Электронный ресурс] – URL: https://studbooks.net/2090977/informatika/preimuschestva_nedostatki_elektronnogo_obucheniya

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYASI FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METOD USULLARIDAN FOYDALANISH

Djurayev Shavkat Orziqulovich, *Toshpo‘latova Marhabo Isakulovna*

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi Umumta’lim fanlar kafedrasi Informatika va axborot texnologiyasi fani o‘qituvchilari

Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib, dars o‘tishni taqozo etadi. Kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o‘tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o‘zini mas’ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

Ta’limda axborot texnologiyalarini qo‘llaganda o‘quvchi eshitish, ko‘rish, ko‘rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni interfaol usullarda tashkillashtirish uchun ma’lum bir shart - sharoitlar mavjud. Shunday ekan, axborot ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir.

Fanning rivojlanishi - faktlarni to‘plash, ularni o‘rganish va tizimlashtirish, umumlashtirish va ayrim qonuniyatlarni ochishdan ilmiy bilimlarning hozirda ma’lum bo‘lgan faktlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera oladigan, yangilarini bashorat qilishga qodir bo‘lgan yaxlit mantiqiy tizimini yaratish yo‘nalishida boradi.

Interfaol o‘qitish - muloqotli o‘qitish bo‘lib, jarayonning borishida o‘qituvchi va o‘quvchi orasida o‘zaro ta’sir amalga oshiriladi. Interfaol o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o‘quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Darslardagi interfaol faoliyat o‘zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyati nazorat topshiriqlarini birgalikda yechishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Interfaol metodlardan foydalaniladigan o‘quv jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab

muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko‘rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o‘rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o‘yinlar, ijodiy ishlar qo‘llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi.

Interfaol usullar bo‘yicha o‘qitish tashkil etish jarayonida o‘qituvchining bergan topshiriqlari mazmuni o‘quvchining tafakkurini rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Ushbu topshiriqlar turli xil murakkablik darajalarida bo‘lib, o‘quvchilarni fikr yuritish, o‘ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi bo‘lishi lozim.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan o‘qituvchilar bilimini nazorat qilish va baholash uchun quyidagi vazifalarni taklif etish mumkin:

“Aqliy hujum” metodi. Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladigan metod sanalib, u mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishga, o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg‘ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi.

«Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma’lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo‘lgan g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi. Mashg‘ulotlar jarayonida bu metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish;
2. Har bir ta’lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g‘oyalar miqdori rag‘batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g‘oyalarning tuzilishiga olib keladi;
3. Har bir ta’lim oluvchi o‘zining shaxsiy fikri yoki g‘oyalariga asoslanishi hamda ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g‘oya) larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g‘oya) larning shakllanishiga zamin hozirlaydi;
4. Mashg‘ulotlar jarayonida ta’lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘ymaydi. Agarda ularning fikr (g‘oya) lari baholanib boriladigan bo‘lsa, ta’lim oluvchilar o‘z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur

metodni qo‘llashdan asosiy maqsad ta’lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag‘batlantirish ekanligini e’tibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

“Bilaman. Bilib oldim. Bilishni xohlayman” metodi. Sinf o‘quvchilari beshta guruhga bo‘linadilar, guruhlar nomlanadi. Yozuv taxtasi uch qismga ajratiladi. Birinchi bandning yuqori qismiga «Bilaman», ikkinchi bandning yuqori qismiga «Bilib oldim», uchinchi bandning yuqori qismiga esa «Bilishni xohlayman» degan so‘zlar yoziladi. So‘ngra o‘qituvchi o‘quvchilardan mavzu yuzasidan qanday ma’lumotlarga ega ekanliklarini so‘raydi va bildirilgan fikrlarni «Bilaman» nomli bandga yozib qo‘yadi. Ushbu harakat guruhlar tomonidan fikrlar to‘la bayon etilganga qadar davom etadi. Mazkur jarayonda guruhlarning barcha a’zolari faol ishtirok etishlariga ahamiyat berish zarur. O‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan noto‘g‘ri fikrlar ham inkor etilmasligi zarur (zero bunday harakat o‘quvchilarning faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi).

Keyingi bosqichda o‘quvchilarga mavzuga oid matnlar tarqatiladi, ushbu matn mavzu bo‘yicha eng asosiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqqandan so‘ng fikr yuritishlari hamda mavzuga oid yana qanday ma’lumotlarni o‘zlashtirilganini aniqlashlari lozim. O‘quvchilar o‘z xulosalari asosida fikrlarini bayon etadilar, ushbu fikrlar «Bilib oldim» nomli ustunga yozib boriladi. So‘nggi bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilardan yangi mavzu bo‘yicha qanday ma’lumotlarni o‘zlashtirish istagida ekanliklarini so‘raydi va o‘quvchilarni yana o‘ylashga da’vat etadi. Guruhlardan navbat bilan fikr so‘raladi. O‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar «Bilishni xohlayman» nomli ustunga yozib boriladi.

Masalan: matn o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchilar yakka tartibda (7 daqiqa) matn bilan tanishadilar va qayd etilgan jadvalni to‘ldiradilar.

“T-sxema” metodi. T-sxema metodida bahs davomida javoblarni (ha, yo‘q, tarafdor, qarshi kabi) yozib borishda universal grafik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Muammo mavzu doirasi aniqlangandan so‘ng, quyidagi ko‘rinishdagi T-sxemani tuzish kerak:

Tarafdor	Muammo	Qarshi

Besh daqiqadan so‘ng sxemaning chap tomonini to‘ldirish lozim. Unda besh daqiqa davomida o‘quvchilar mavzuga oid nechta kategoriya o‘ylab topishgan bo‘lsa, shuncha kategoriya ko‘rsatiladi. Keyingi besh daqiqada o‘quvchilar

sxemaning o‘ng tomonini to‘ldiradilar va nihoyat, yana besh daqiqa mobaynida o‘quvchilar o‘zlarining T-sxemalarini boshqa juftlik yoki kichik guruhning T-sxemasi bilan taqqoslash imkoniga ega bo‘ladilar.

“Klaster” metodi. Klasterlarga ajratish - o‘quvchilarga biror mavzu bo‘yicha erkin va ochiq fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir.

Bu metod biror mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Klasterlarga ajratish metodini qo’llash quyidagicha amalga oshiriladi:

- tarqatma materialda mavzuga oid ochiq so‘z yoziladi;
- o‘quvchilar ushbu so‘z bilan bog‘liq hayollariga kelgan so‘z va jumlalarni uning atrofiga yoza boshlaydilar;
- so‘zlarni yozish jarayoni o‘qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so‘z va qoidalar tugaguncha davom etadi.

Klasterga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur. Ular quyidagilardan iborat:

1. Hayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e’tibor bermasdan yozib borish.
2. Orfografiya va boshqa omillarga e’tibor bermaslik.
3. Vaqt tugaguncha ko‘proq bog‘lanishlar hosil qilishga harakat qilish.
4. G‘oyalar va so‘zlar sonini cheklab qo‘ymaslik.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilar o‘quv faoliyatini faollashtirishga yordam beradi va o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga olib keladi. Interfaol metodlarni o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib o‘qitish orqali ularning o‘quv faoliyatini yuksaltirish va mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu metodlarni informatika va axborot texnologiyalari darslarida qo‘llash uchun fanning o‘qitish xususiyatlarini yaxshi bilish lozim. Ya’ni har qanday informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarli bilimlarga ega bo‘lganidan so‘ng, o‘qitish xususiyatlarini - fanni o‘qitishning dolzarbligi, o‘qitish uslubiyotini va usullarini, o‘qitish texnologiyasini, darslarda ma’ruza, seminar, amaliyot mashg‘ulotlarini qanday tashkil etish kabi malakalarni yaxshi egallagan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llari. Uslubiy qo‘llanma. Akademik S.S. G‘ulomov umumiy rahbarligi ostida. − T.; TDIU. 2005. 105-b.

2. I. Isoqov, S.I. Qulmamatov. “Informatikani o‘qitishda innovatsion texnologiya-lar”. Ma’ruza matnlari.

3. J. Tolipova, A.T. G‘ofurov. Ta’lim jarayonidagi noan’anaviy shakllar. Metodik qo‘llanma. -T, 1994. 28-b.

TELEKOMMUNIKACIYA TARAWINDAĠI QÁWIPSIZLIK MASHQALALARI HÁM OLARDI SAPLASTIRIW

Kabilov Raxmetulla Ibaydullayevich-*Tashkent informaciyalıq texnologiyaları universiteti Nókis filiali 1-kurs magistrantı*

Seytmuratov Aziz Óserbay ulı-*Tashkent informaciyalıq texnologiyaları universiteti 1-kurs magistrantı*

